

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**TAHRIRIYAT HAY‘ATI**

**Bosh muharrir:** prof. Nabiyev D.H.

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

f.-m.f.d. Bekpulatov I.R.

**Mas‘ul kotib:** dots. Ne‘matova Y.O.

**Tahririyat hay‘ati a‘zolari:**

prof. Bahriiddinova B.M.

prof. Bo‘riyev O.B.

prof. Yoziyev L.Y.

prof. Jabborov A.M.

prof. Jumayev T.J.

f.-m.f.d. Imomov A.A.

k.f.d. Kamolov L.S.

prof. Kuchboyev A.E.

prof. Mengliyev B.R.

prof. Normurodov M.T.

prof. Nurillayeva Sh.N.

prof. Nurmanov S.E.

p.f.d. Oripova N.X.

prof. Ochilov A.O.

prof. Tojiyeva G.N.

prof. To‘rayev D.T.

prof. Umirzakov B.Ye.

prof. Xayriiddinov B.X.

prof. Xolmurodov A.E.

prof. Choriyev S.A.

prof. Shodiyev R.D.

prof. Shodmonov N.N.

prof. Erkayev A.P.

prof. Ernazarova G.X.

prof. Eshov B.J.

prof. Qurbonov Sh.Q.

prof. Qo‘yliyev B.T.

prof. Bekmurodova G.H.

dots. Ro‘ziyev B.X.

dots. Eshqorayeva N.G‘.

dots. Xolmirzayev N.S.

dots. Hamrayeva Y.N.

prof. Bobonazarov G‘.Y.

prof. Shukurov O.M.

f.f.d. Imomova G.M.

dots. Rizayev B.X.

f.f.f.d. Musayeva D.T.

prof. Imanova G.T.

**2024  
3(1)**

**QarDU xabarlari**  
Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal

**Muassis:** Qarshi davlat universiteti

**Jurnal Qashqadaryo viloyati**

**Matbuot va axborot boshqarmasi**

**tomonidan 2010.17.09 da**

**№ 14–061 raqamli guvohnoma**

**bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan.**

**Musahhihlar:**

Shodmonova D.E.

Tursunboyev B.N.

Pardayeva D.R.

**Sahifalovchi:**

Yuldoshev D.N.

**Texnik muharrir:**

Raxmatov M.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Oliy attestatsiya komissiyasi

Rayosatining qarorlari bilan fizika-

matematika, kimyo, biologiya, tarix,

falsafa, siyosatshunoslik, filologiya,

pedagogika-psixologiya va iqtisod

fanlari bo‘yicha doktorlik

dissertatsiyalari asosiy ilmiy

natijalarini chop etish tavsiya etilgan

ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



**Jurnal 2009-yilda tashkil  
etilgan.**

**MUROJAAT UCHUN MANZIL:**

**Pochta manzili:** 180003, Qarshi,  
Ko‘chabog‘, 17. Qarshi davlat universiteti,  
Filologiya fakulteti binosi, 107-xona.

**Telefon:** 97-222-10-80

**TelegramID:**

[https://t.me/Qardu\\_Xabarlari2024](https://t.me/Qardu_Xabarlari2024)

**Elektron pochta:** qardu\_xabarlari@mail.ru

**Veb-sayt:**

<https://qarshidu.uz/oz/page/ilmiy-jurnal-NEW>

**Ijtimoiy-  
gumanitar fanlar**

**Yiliga 4 marta  
chop etiladi.**

Jurnaldan olingan materiallarga “QarDU xabarlari” jurnalidan olindi”, degan havola berilishi shart. Mualliflardan kelgan materiallar egalariga qaytarilmaydi.

## MUNDARIJA

### TARIX

<b>Sh.A. Indiaminova.</b> Buyuk Ipak yo'li mamlakatlari ma'naviy taraqqiyotida Samarqand sug'di madaniyatining o'rni.....	4
<b>H.A. Aminov.</b> Shayboniylar davrida "shamoil"ga bitilgan sharhlar.....	9
<b>Ш.С. Норов.</b> Деятельность молодёжных организаций в занятости молодого поколения: исторический анализ на примере Зарафшанского оазиса.....	13
<b>S. Djumanov.</b> Allomalar ilmiy merosini o'rganish va diniy qadriyatlarimizni tiklash borasida qabul qilingan huquqiy hujjatlar va ularning mohiyati.....	18
<b>H. Abduraximov.</b> O'zbekiston Respublikasining Shveysariya konfederatsiyasi bilan hamkorlik munosabatlari tarixi.....	24

### FALSAFA

<b>F.M. Bafoyev.</b> Xalqaro munosabatlarni tadqiq qilishda sun'iy intellekt texnologiyalari.....	32
<b>F.Y. Qodirov.</b> Shaxs fuqarolik madaniyatining ijtimoiy ahamiyati.....	37
<b>M.C. Nasruллаева.</b> Философский анализ критики трансгуманизма в христианстве..	43
<b>G.X. Bekmurodova.</b> Iqtisodiy destruksiya: ijtimoiy-falsafiy talqin.....	49
<b>S.S. Khamdamova.</b> Ecological culture in a modern cross-cultural system.....	55
<b>S.A. Choriyev, S.E. Avazov</b> Mehnat migratsiyasining shakl va mazmuni.....	60
<b>Sh.B. Xonimov.</b> Globallashuv sharoitida ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarning yoshlar ongiga ta'siri.....	64
<b>Sh.Sh. Hasanov.</b> Siyosiy ziddiyatlarning genezisi va ularning namoyon bo'lish shakllari..	68

### FILOLOGIYA

<b>F.U. Rajabov.</b> Omoleksemalarning polisemem, polifunksional, enantiosemik, paronim va variantdosh leksemalar bilan o'zaro o'xshash va farqli tomonlari.....	76
<b>S. Toshtimerova.</b> The theoretical semantics of blue colour category in english and uzbek languages.....	80
<b>Y.Y. Tursunova.</b> Abdulla Qahhor qissa va hikoyalari antroponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari.....	84
<b>I.F. Xazratova.</b> The linguistic and cultural research of the concept of "justice" in uzbek and english languages.....	88
<b>Э.Ж. Зиёхиддинова.</b> Жанровое многообразие фантастической литературы: от классической сказки до научной фантастики.....	92
<b>X.Sh. Narxodjayeva.</b> Rasmiy nutqiy muloqotda hurmatning ifodalanishi.....	95
<b>M.Sh. Aliqulova.</b> Oksyumoron hodisasining badiiy matnda qo'llanishi (Aleksandr Kuprin asarlari misolida).....	98
<b>D.J. Xalilova.</b> Ijodkor falsafiy konsepsiyasi.....	101
<b>N.K. Ochilov.</b> Epik klishe va formulalarning doston ijrochiligida tutgan o'rni.....	106
<b>B.X. Rizayev.</b> Davr illatlarining ijtimoiy-hajviy tiplar talqinida fosh etilishi.....	110
<b>R.T. Ergashova.</b> Cognitive features of aviation terms aviatsiya terminlarining kognitiv xususiyatlari.....	114
<b>T. A. Kenjayev</b> Fitrat publitsistikasida ijtimoiy-estetik talqin.....	119
<b>X.J. Jabborov</b> Qashqadaryo shevalarining o'rganilish tarixidan.....	125
<b>D.N. Yuldoshev, M.K. Usmonova.</b> Matyoqub Qo'shjonov va qodiriyshunoslik muammolari.....	133
<b>N. Farmonov.</b> Classification of the characters of the novel <i>Jennie Gerhardt</i> by T.Dreiser.	138
<b>Ф. Кодирова.</b> Теория словосочетаний в лингвистике.....	143

**N.Y. O‘roqova.** Xalq lirikasida daraxt obrazining genezisi, badiiyati masalasi..... 148

### **PEDAGOGIKA**

**M.M. Yaxiyaxonova.** 1- sinf o‘quvchilariga “Informatika va AT” fanini o‘qitishda vizuallashtirish usullaridan foydalanish..... 155

**Sh.Z. Raxmatullayeva.** Boshlang‘ich ta’limda nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga doir o‘quv topshiriqlari tahlili..... 162

**H.X. Botirov.** Maktablarning raqobatbardoshlik darajasini aniqlash diagnostikasini ishlab chiqish..... 168

**Z.Sh. Negmatova.** Sinfdan tashqari o‘qish asosida o‘quvchilar ijodiy tasavvurini shakllantirish pedagogik muammo sifatida..... 173

**Sh.Z. Raxmatullayeva, N.J. Oromova.** Adabiy ta’limda nazariy ma’lumotlarni tanlash va ulardan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari..... 177

**R.A. Nurmatov.** Raqamli texnologiya muhitida o‘quvchilarni kompetensiyaviy yondashuv asosida kasb-hunarga yo‘naltirish..... 182

### **PSIXOLOGIYA**

**N. Norxadjayeva.** Psixologlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish..... 189

### **SIYOSATSHUNOSLIK**

**M.M. Shodiyev.** Huquqiy madaniyatning funksional asoslari..... 194

## BUYUK IPAK YO'LI MAMLAKATLARI MA'NAVIY TARAQQIYOTIDA SAMARQAND SUG'DI MADANIYATINING O'RNI

**Indiaminova Shaira Amriddinovna**

Samarqand davlat chet tillar instituti, dotsent

[shoiraindiaminova1986@gmail.com](mailto:shoiraindiaminova1986@gmail.com)

ORCID 0009-0004-9403-6529

UDK 9(575.1)

**Annotatsiya.** Buyuk Ipak yo'li faqatgina mamlakatlar o'rtasida savdo-sotiqni rivojlantiribgina qolmasdan, san'at va madaniyatning dunyo bo'ylab tarqalishiga sabab bo'lgan edi. Bu yo'lining sharofati tufayli Sug'd musiqasi, musiqa asboblari va raqslari Xitoy, Koreya kabi Osiyo davlatlariga tarqalgan edi. V-X asrlarda sug'diylarning kuy-qo'shiqlari, raqslari Sharqiy Turkiston, Xitoy, Koreya va Yaponiyagacha yetib borgan va doimiy ravishda hukmdorlarning saroylari, shahar-qishloqlarida taralib turgan. Buyuk Ipak yo'li haqida yozayotgan har qanday tadqiqotchi bu yo'lining boshlanishida joylashgan Xitoy va uning gavjum, serqatnov, tarixiy chorrahasidan o'rin olgan Sug'd munosabatlari haqida to'xtalmay o'tolmaydi. Chunki Xitoy va Sug'dning o'zaro munosabatlari Buyuk Ipak yo'li tarixining salmoqli qismini tashkil etadi. Buyuk Ipak yo'li tarixini o'rgangan olimlarning xulosalariga ko'ra, bu yo'lining paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishiga Markaziy Osiyodagi yirik, qadimiy tarixiy mintaqalardan biri – Sug'dning ahamiyati katta bo'lgan. Ayniqsa, Markaziy yoki Samarqand Sug'didagi Samarqand, Panjikent, Dobusiya, Ishtixon, Rivdod, Qushoniya, Sog'arj; Buxoro Sug'didagi Buxoro, Paykent, Varaxsha, Romiton, Karmana; Qashqadaryo Sug'didagi Qarshi, Kitob, Kesh, Sangirtepa kabi katta-kichik shaharlarning hamda bu shaharlarda yuksak darajada rivojlangan savdo-sotiq, hunarmandchilikning ahamiyati beqiyos bo'lgan.

**Kalit so'zlar:** Buyuk ipak yo'li, Sug'd, Xitoy, Loulan, Sincheng, Putaocheng, Sapicheng, "ko'hna xatlar", Qan Yandi, An Lushan.

## THE INFLUENCE OF THE CULTURE OF SAMARKAND SOGD ON THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF THE COUNTRIES OF THE GREAT SILK ROAD

**Abstract.** The Great Silk Road not only facilitated trade between the countries, but also contributed to the spread of art and culture around the world. Thanks to this path, Sogdian music, musical instruments and dances spread to Asian countries such as China and Korea. In the 10th century, the melodies and dances of the Sugdeans reached East Turkestan, China, Korea and Japan and constantly spread through the palaces, cities and villages of the rulers. Any researcher writing about the Great Silk Road cannot help but dwell on the relationship between China, located at the beginning of this path, and Sogd, located at its busy, bustling historical crossroads. Because the relations between China and Sogd form a significant part of the history of the Great Silk Road. According to the conclusions of scientists studying the history of the Great Silk Road, Sughd, one of the large, ancient historical regions in Central Asia, was of great importance to the emergence, formation and development of this road. Especially Samarkand, Panjikent, Dobusiya, Ishtikhan, Rivdod, Kushoniya, Sogarj in Central or Samarkand Sughd; Bukhara, Paykent, Varakhsha, Romiton, Karmana in Bukhara Sugdi; The importance of large and small cities such as Karshi, Kitab, Kesh, Sangirtepa in Kashkadarya Sugdi, as well as highly developed trade and crafts in these cities, was incomparable.

**Keywords:** The Great Silk Road, Sogd, China, Loulan, Xincheng, Putaocheng, Sapicheng, "old letters", Kan, An Lushan.

**Kirish.** Buyuk Ipak yo'liga asos solinganiga ikki ming yildan ziyod vaqt o'tdi. Shu davr mobaynida ko'p narsalar o'zgardi va rivojlandi. Bir paytlar qudratli, gullab-yashnagan davlatlar taqdir taqozosi bilan kichik davlatlarga aylandi, aksincha qadimda unchalik dovrug' taratmagan davlatlar o'rta asrlarga kelib qudratli davlatlarga aylandi. Bu ko'hna tarixda ko'p voqealar sodir bo'ldi. Ammo Buyuk Ipak yo'liga bo'lgan munosabat va ehtiyoj o'zgarmadi. Bu yo'l u yoki bu tarzda insoniyatga xizmat qilib keldi.

XX asrning 90-yillariga kelib xalqaro ilmiy jamoatchilik o'rtasida Buyuk Ipak yo'lining tarixiga qiziqish paydo bo'ldi. Buni o'z vaqtida ilg'agan xalqaro YUNESKO tashkiloti o'zining Bosh konferensiyasining XXIV sessiyasida 1989–1999- yillarni "Ipak yo'li – muloqotlar yo'li" deya nomlab keng ko'lamlil ilmiy-madaniy xalqaro

loyihani amalga oshirishga qaror qildi. Shundan so'ng qadimda Buyuk Ipak yo'li o'tgan mamlakatlar bo'ylab bir necha ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirildi, ayrim mamlakatlarda Ipak yo'lini o'rganishga bag'ishlangan YUNESKO tasarrufidagi ilmiy tadqiqot institutlari ochildi. Bu tadbirlarning natijasida Buyuk Ipak yo'li o'tgan mamlakatlarda saqlangan katta-kichik shaharlardagi arxeologik yodgorliklarda ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda qo'yilgan ilmiy muammoni o'rganish va tahlil qilishda tarixiy taqqoslash, sabab, jarayon va natija bog'liqligi, tarixiy bilishning xolislik, tarixiylik hamda tizimlilik kabi y ilmiy usullariga tayanilgan.

**Tadqiqot natijalari.** Ma'lumki, O'zbekiston Buyuk Ipak yo'lining taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham respublikamizda Ipak yo'lini o'rganishga bag'ishlangan bir necha xalqaro ilmiy konferensiyalar, seminarlar o'tkazildi.

2014-yilning 3-oktyabrida Samarqand shahrida BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Kengashining 99-sessiyasi o'tkazilgani ham respublikamizning sayyohlik taraqqiyotiga qo'shgan katta hissasining jahon miqyosida tan olinishi, deya baholashga asos bo'la oladi.

Buyuk Ipak yo'li tarixini o'rgangan olimlarning xulosalariga ko'ra, bu yo'lning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishiga Markaziy Osiyodagi yirik, qadimiy tarixiy mintaqalardan biri – Sug'dning ahamiyati katta bo'lgan. Ayniqsa, Markaziy yoki Samarqand Sug'didagi Samarqand, Panjikent, Dobusiya, Ishtixon, Rivdod, Kushoniya, Sog'arj; Buxoro Sug'didagi Buxoro, Paykent, Varaxsha, Romiton, Karmana; Qashqadaryo Sug'didagi Qarshi, Kitob, Kesh, Sangirtepa kabi katta-kichik shaharlarning hamda bu shaharlarda yuksak darajada rivojlangan savdo-sotiq, hunarmandchilikning ahamiyati beqiyos bo'lgan.

Xitoy tarixiy yilnomalaridan anglashilicha, Sug'd savdogarlari milodiy 141–87- yillari Xitoyga kelib joylasha boshlaganlar. Bu davrlar Xitoy davlatining ham kengayayotgan davrlari edi. Aynan shu davrlarda Xitoyning chegarasi g'arbda Qirg'izistongacha, sharqda Koreyagacha va janubda Vetnamgacha kengaygan edi.

Milodiy IV asrlarda sug'dlar Loulanga ko'chib kelishib o'z koloniyalarini barpo etadilar. Xitoy tarixiy yilnomalarida yozilishicha, milodiy VII asr boshlarida samarqandlik Qan Yandian nomli karvonboshi Xitoydagi Shanshan shahriga yetib kelgan va Lo'p Nurdan 3000 li janubda o'troqlashib Dianxe shaharchasiga asos solgan. Bu shaharcha keyinchalik 647-yili Shicheng nomini oladi. Shundan so'ng bu yerdagi sug'dlarning soni oshib, bu hududda Sincheng, Putaocheng va Sapicheng kabi yangi shaharchalar barpo qilinadi. Karvonboshi Qan Yandianning harakatlari tufayli Shicheng shaharchasida savdo-sotiq, hunarmandchilik yaxshi rivojlanadi va bu shaharchada otashparastlarning ibodatxonasi ham barpo qilinadi [2].

Milodiy 618-yili Tang xonadonining hukmronligi o'rnatilganidan so'ng ayrim sug'diylar o'z koloniyalaridan ajralib Xitoyning ichki hududlariga borib joylasha boshlaydilar. Ularning ayrimlari Xitoy ma'muriyatida yuksak lavozimlarga ham ko'tariladilar. Milodiy 755–763-yillari Xitoyda sodir bo'lgan sug'dlik An Lushan boshchilik qilgan qo'zg'olon Xitoy-Sug'd munosabatlariga ancha ziyon yetkazadi. Bu qo'zg'olon bostirilgach Markaziy Xitoyda sug'dliklarga qarshi harakatlar boshlanadi. An Lushan sug'diy va uning yordamchisi Shi Siming turk edi. Shundan so'ng ular nomlarini xitoychaga o'zgartirib, o'z yashayotgan hududlarini tark etishib, mamlakatning nisbatan tinchroq hududlariga ko'chib ketadilar. Xitoyning ko'pgina hududlarida sug'd koloniyalari yo'q bo'lib ketadi [8]. Ammo Dunxuan va Turfanda sug'dlar erkin yashab o'z faoliyatlarini davom ettiradilar va o'z urf-odatlarini va dinlariga amal qilib yashaydilar. Bu holat milodiy X asrlargacha davom etadi [3].

Buyuk Xitoy devorining minorasidan topilgan sug'd "ko'hna xatlari"da yozilishicha, Sug'd savdogarlari g'arbda Rim, Vizantiya, Sosoniylar imperiyasi, shimolda Rus yerlari va sharqda Xitoy hamda janubda Baqtriya va Hindiston bilan bo'ladigan tijorat ishlarida vositachilik qilganlar. Sug'dliklar Xitoyga tijorat va boshqa ishlar bilan borib o'troqlasha boshlagach, ularga boshqalar ham qo'shila boshlagan [12].

Faqat chetelliklar tayinlanishi lozim bo'lgan sabo lavozimi Xitoyda milodiy II asrda joriy qilingan. Ayrim olimlarning fikricha, bu so'z sanskrit tilidan, "sartavaha", ya'ni karvonboshi degan so'zdan olingan. Hindlar Buddani ham "karvonboshi" deb ataganlar. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, dastlab sabolar savdo karvonlarini tashkil etish, ularning xavsizliklarini ta'minlashga mas'ul bo'lganlar. Ayrim sabolar sug'd jamoasining ham diniy, ham dunyoviy ishlariga mas'ul bo'lganlar. Ayrim manbalarda xitoydagi ko'pchilik sug'd jamoalari sabolar tomonidan boshqarilganligi aytilgan. Xitoylik olim Luo Fengning fikricha, sabo so'zi Markaziy Osiyoga Hindistondan kirib kelgan va so'ngra bu so'z Xitoyga ham yetib borgan. So'nggi fikr shundayki, Suy va Tang sulolalari davrida Xitoyda Markaziy Osiyodan ko'chib kelgan xorijliklarning soni ancha ko'payishi bilan "sabo" lavozimi chetdan kelib o'troqlashgan jamoalarni boshqaruvchi shaxslargagina berilgan [6].

O'zbekistondan ancha uzoqda joylashgan Yaponiyada ham sug'dlar bilan qadimda bo'lgan aloqalardan xabar beruvchi muhim ashyolar saqlangan. Nara shahridagi Xoryuji ibodatxonasida sandal yog'ochiga yozilgan sug'd yozuvi saqlangan. Bu noyob yozuv hozirda Tokio Davlat muzeyida saqlanadi. Bundan tashqari Naradagi Todaiji ibodatxonasining Shosoin xazinasida imperatorga qilingan sovg'a-salomlar saqlanadi. Bu buyumlar orasida qadimda Sug'ddan olib kelinib imperatorga tortiq qilingan noyob sovg'alar ham bor [4].

Qadimgi Silla davlatining poytaxti hisoblangan Kyonchju shahrida joylashgan imperator Xeungdeokka tegishli maqbara atrofida sug'dlar tasvirlangan tosh haykallar topilgan. Bu topilmalar Koreyaga sug'd savdogarlari borganliklari va koreyaliklar sug'dlar haqida o'z tasavvurlariga ega bo'lganliklaridan dalolat beradi.

Hozirgi Koreya hududida dunyoga kelgan va Tang imperiyasi poytaxti Chan'anda buddaviylik ibodatxonasida monax bo'lib xizmat qilgan Xecho Buyuk Ipak yo'lining tarixi, geografiyasini o'rganishda katta hissa qo'shgan. Xecho Hindistonga ziyorat safariga yo'l oladi va yo'li ustida ko'rgan-kechirganlarini batafsil yozib boradi. Bu kundalikda o'sha davrdagi xalqlarning urf-odati, turmush tarzi, diniy qarashlari haqida muhim ma'lumotlar jamlangan.

Xitoyning Jiaoxe nomli qadimgi shaharning g'arbidagi Goachang qabristonida 2004-yili Turfan Madaniy meros boshqarmasi tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida 33 sag'ana ochib o'rganilgan edi. Tadqiqotchilar bu sag'analarga Qan (Samarqand)dan chiqqan katta oila vakillari dafn etilganini aniqlaganlar. Bu yerda sag'ananing ikki shaklidan foydalanilgan bo'lib, birinchi sag'ana yerdan qazilgan o'ra va unga eltuvchi uzun yo'lakdan iborat. Ikkinchi tur sag'analar esa yerni tik qazib tushish orqali yasalgan. Ushbu qabristonda birinchi tur sag'analar nisbatan ko'proq uchraydi [5].

Bu qabristondagi sag'analarga bir yoki ikki kishi hamda ko'pchilik marhumlar dafn qilingan. Ayrim sag'analardagi jasadlar qamish savatlarda dafn qilingan, ba'zilar esa bevosita qamish bo'yralar ustiga dafn qilingan. Ayrim sag'analardan esa ichiga inson suyagi va kul solingan sopol idishlar topilgan. Savat ichiga va tagiga qamish bo'yralar to'shalib dafn etilgan. Marhum va marhumalar zardushtiylik dafn marosimlari asosida ko'milgan, deya hisoblashimiz mumkin. Ammo ichiga suyaklar va kul solingan sopol idishlardagi dafn marosimlarni sharhlashimiz ancha mushkuldir.

Qazishmalar paytida Qan oilasiga tegishli bo'lgan 33 sag'anadan 150 dan ziyod

buyumlar qo'lg'a kiritilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi sopol, qolganlari kumush, oltin, jez, temir, yog'och va suyakdan yasalgan buyumlardir. Shuningdek, ochilgan sag'analardan uch dona sosoniylarning kumush tangalari va ikkita Sharqiy Rim tangalariga taqlid qilib yasalgan oltin tangalar bor. Eng muhimi, beshta sag'anadan kvadrat shaklidagi sopol plitalarga yozilgan xitoy yozuvlari topildi. Bu yozuvlarning o'qilishi tufayli bu sag'analarni milodiy 590–662-yillarga mansub ekanligi, sug'dlar Gaochandandan tashqari qadimgi Jiaoxeda ham yashaganliklari aniqlandi. Shuningdek, qabrtosh yozuvlarida Qan oilasi vakillari Xitoyda katta obro'ga ega bo'lganliklari ham yozilgandir.

2003-yili xitoylik arxeologlar Lobnor ko'lining shimoli-g'arbiy qirg'og'ida, qadimgi Loulandan taxminan 20 km shimolda yangi qurilish paytida shikastlangan bir sag'ana qoldig'ini topgan edilar. Arxeologlar bu yerga kelganlarida sochilib yotgan odam suyaklari, tobut bo'laklari va bo'yalgan ipak matodan tikilgan kiyim parchalarini ko'rishgan. Ipak matoda odam tasviri yaqqol ko'rinib turardi. Bu yerda tadqiqotlar olib borgan arxeologlar sag'ananing devorlarida ham suratlar chizilganligini aniqlashgan. Suratda olti kishining – uch erkak va uch ayolning suratlari chizilgan bo'lib ular ziyofat dasturxonida o'tiribdilar. Suratdagi personajlarning kiyim-kechaklari, yuz tasvirlari xitoyliklarnikiga o'xshamaydi. Tadqiqotchilarning fikricha, bu yerda G'arbiy o'lkadan, ya'ni Markaziy Osiyodan Xitoyga kelgan ajnabiylar tasvirlangan. Erkaklar va ayollarning egnilaridagi liboslarning rangi, bichimlari va tikilishi o'ta noyob bo'lib o'sha davr xitoy liboslaridan mutlaqo farq qiladi [7].

Milodiy VII-IX asrlarda Tan sulolasi hukmronligi davrida yurtimizdan Xitoyga olib borilgan tovarlar ro'yxatiga nazar soladigan bo'lsak, quyidagi manzara namoyon bo'ladi. Samarqanddan Xitoyga otlar, sherlar, leopard, itlar, raqqosalar, musiqachilar, raqqoslar, indigo bo'yog'i, aqiq, oltinsimon shaftolilar, anor, uzum, gazlamalar, dori-darmon, atir-upalar; Toharistondan Xitoyga tuyaqush, sher, otlar, aqiq; Farg'onadan otlar, indigo bo'yog'i, gazlamalar; Buxorodan otlar, shafran, asal, gilam va gilamchalar, choyshablar, paxtadan to'qilgan gazlamalar olib borilgan. Albatta, bu ro'yxat unchalik to'liq yemas, biz bu yerda faqat Tan sulolasi davrida yurtimizdan Xitoyga keltirilgan tovarlar haqida to'xtaldik. Bu suloladan oldin ham Xitoy bilan iqtisodiy aloqalar juda yaxshi yo'lga qo'yilgan edi [3].

Buyuk Ipak yo'lining insoniyat oldidagi xizmatlari haqida gapirganda bu savdo-karvon yo'lining dunyoviy dinlarni yer yuzi bo'ylab tarqalishdagi katta ahamiyati haqida ham to'xtalmoq lozim bo'ladi. Albatta, qadimda Buyuk Ipak yo'li ustidagi karvonsaroylarda, bozorlarda va yirik shaharlarning bosh maydonlarida turli-tuman dinlarga e'tiqod qiluvchi missionerlarning o'z dinlarining boshqa dinlardan ustunligi haqidagi bahs-munozaralari bo'lib turgan. Buyuk Ipak yo'lidan qatnagan savdo karvonlarida zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik, moniylik va islom dinlariga e'tiqod qiluvchi monaxlar, ulamolar ham bo'lib, ular o'z dinlarini karvon yo'li orqali dunyoning turli tomonlariga yoyganlar, Shu tufayli dunyoning uzoq-uzoqlarida ibodatxonalar, pagodalar, stupalar, monastrlar hamda masjidlar barpo qilingan [11].

Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan va bu yo'lining rivojiga beqiyos hissa qo'shgan shaharlar haqida so'z ketganida barcha olimlar bir ovozdan Samarqand shahrini tilga oladilar. Ha, bu shaharning dovrug'i qadim-qadimlardan boshlab Sharq-u G'arb mamlakatlariga tarqalib ketgandir. Shu sababli ham Buyuk Ipak yo'li haqida yozgan ko'pgina g'arb olimlari o'z kitoblarini nomlashda Samarqand nomini ishlatganlar. Masalan, Jeyms Elroy Fleker o'zining mashhur kitobini "Samarqandga oltin sayohat" deb nomlagan edi. Amerikalik xitoyshunos, professor Edvard Xetsel Shefer Xitoyning Tan davridagi tarixiy aloqalari, san'ati va madaniyatiga bag'ishlangan mashhur kitobini

“Samarqandning oltin shaftolilari” deb atagan edi [10].

Prezidentimiz 2017-yil may oyida Pekinda bo‘lib o‘tgan “Bir makon, bir yo‘l” xalqaro forumidagi nutqida ushbu loyihaning Markaziy Osiyo uchun dolzarbligini alohida ta’kidladi. Bu, birinchidan, Markaziy Osiyoda transport, savdo, investitsiya, energetika va yuqori texnologiyalar sohaslarida yirik loyihalarni amalga oshirish, ikkinchidan, Markaziy Osiyoni Xitoy va Rossiya orqali Janubiy, Janubi-sharqiy Osiyo va Yevropa mamlakatlari bozorlari bilan bog‘laydigan transport-logistika yo‘nalishlarini ochish bo‘yicha hamkorlik yuzasidan kompleks harakatlar dasturi ishlab chiqishdan iboratdir. O‘zbekiston Qirg‘iziston – Xitoy temir yo‘lini qurish va ishga tushirish “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasidagi yirik transport loyihalaridan bo‘ladi. Mazkur loyihani amalga oshirilishi Markaziy Osiyo davlatlarini Xitoy bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarini kengaytirish imkoniyatini beradi. Ta’kidlash lozimki, 2019-yilda Xitoy 2 trillion dollardan ortiq qiymatdagi mahsulotlarni import qildi, bu, ShHT mamlakatlari bilan 100 milliard dollarni tashkil etdi. Xitoy 15 yil ichida importni 30 trillion dollarga yetkazmoqchi. Tovarlarni Xitoydan Yevropaga Markaziy Osiyo orqali tashish masofasi dengizga qaraganda 2 barobar, Rossiya orqali o‘tadigan transport yo‘lagi bo‘ylab esa 2,5 barobar qisqaroq [1]. O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasini ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olgan holda faol tashqi siyosat olib bormoqda. Mintaqada mutlaqo yangicha muhit qaror topdi, hamkorlikning turli jabhalarida tarixiy natijalarga erishildi: chegaralar ochilmoqda, ko‘plab sohalarda, jumladan, transport kommunikatsiyalarini keng rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma loyihalar amalga oshirilyapti. Markaziy Osiyoning besh davlati mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash yo‘lida barcha sa’y-harakatini birlashtirmoqda.

**Xulosalar.** Xulosa qilib aytganda, Bir makon, bir yo‘l tashabbusi har bir davlatning o‘z imkoniyatlaridan to‘la foydalanish, iqtisodiy jihatdan bir-birini to‘ldirish, savdo hamda investitsiyalarni rag‘batlantirish, o‘zaro hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish uchun keng yo‘l ochadi va dunyo tamaddunida Markaziy Osiyoning tarixiy mavqeyini qayta tiklashga zamin yaratadi. Shu bilan birga, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari o‘rtasida transport-kommunikatsiya hamkorligini mustahkamlash imkoniyatlarini kengaytirish uchun sharoit yaratadi.

Ha, haqiqatdan ham Buyuk Ipak yo‘li tarixida Samarqandning alohida o‘rni bor. Bu shaharning qadimgi tarixi, san’ati va madaniyatini, diniy aqidalarini, savdo-sotig‘i hamda hunarmandchiligining har tomonlama o‘rganilishi qit’alararo o‘tgan savdo-karvon yo‘lining tarixiy xizmatlarini anglashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmonov O. Transport yo‘laklari – iqtisodiyotning qon tomiri. / Xalq so‘zil, 2022-yil, 26-fevral.
2. Анарбаев А.А. Великий Шелковый путь и путешествие Сюян Сзяня в Среднюю Азию // ОНУ, Ташкент, 1999. №5-6.
3. Berdimurodov A.Y. Indiaminova Sh.A. Buyuk Ipak yo‘li. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. -383 b.
4. Иерусалимская А.А. К сложению школы художественного шелкоткачества в Согде // Средняя Азия и Иран. Л., 1972.320 с.
5. Лубо-Лесниченко Е.И. Китай на Шелковом пути. –Москва: Восточная литература,1994. 26 с.
6. Малявкин А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии. –Новосибирск, 1981.210 с.
7. Маршак Б.И. Искусство Согда. СПб. 2009. 64 с.
8. Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый путь. Энциклопедический справочник: Древность и раннее средневековье. –Ташкент, 1999. 250 с.
9. Узбекистан. Наследники Шелкового Пути. –Штутгарт-Лондон, 1997.
10. Шефер Э. Золотые персики Самарканда. –М., 1981.608 с.
11. Шишкина Г.В. Несторианское погребение в Согде Самаркандском // Из истории древних культов Средней Азии. Христианство. – Ташкент, 1994. 122 с.



12. Xo'jaev A. O'zbekiston ovozi / 2014-yil 25 yanvar. 12 (31.759)-son.

## SHAYBONIYLAR DAVRIDA “SHAMOIL”GA BITILGAN SHARHLAR

**Aminov Hamidulloh Abdirahimovich,**

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti doktoranti, katta ilmiy xodim,

tarix fanlari nomzodi

[hberuniy@mail.ru](mailto:hberuniy@mail.ru)

ORCID: 0000-0002-7907-4007

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ulug' muhaddis olim Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (209-279 h./824-892 m.) tomonidan bitilgan “Ash-Shamoil an-nabaviya” va “Ash-Shamoil al-muhammadiya” nomli asariga bitilgan sharhlar to'g'risida so'z yuritiladi. Kitob 56 ta bob va 415 ta hadisdan iborat bo'lib, o'zbek tiliga ham bir necha marta tarjima va sharh qilingan.

Mazkur asar Movarounnahr madrasalarida darslik sifatida o'qitib kelingan. “Shamoil” asari madrasalarda o'qitilganiga doir yangi ma'lumotlar Mustafu Rumi va Amir Haydar kabilar misolida birlamchi manbalar asosida tadqiq qilingan.

“Shamoil” madrasalarda o'qitilgani, unga talabalar va xalq orasida qiziqish kuchli bo'lgani bois asarga ko'plab sharhlar yozilgan. Masalan, uning 72 ta sharhi borligi ma'lum. Shulardan ayrimlari aynan XVI asrda – Shayboniylar davri va saltanatida yozilgan edi. Maqolada aynan shular to'g'risida yangi ilmiy ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan, mazkur davrda bitilgan 7 ta sharh to'g'risida maqolada so'z yuritiladi.

Shayboniylar davrida yashab, ilmiy faoliyat olib borgan Nasimiddin Mirakshoh, Fazlulloh ibn Ro'zbehon, Shamsiddin Muhammad al-Hanafiy, Asomiddin Ibrohim al-Isfaroiniy, Shamsiddin Muhammad Ko'histoniy, Muhammad ash-Shirvoniy al-Buxoriy kabi olimlar “Shamoil”ga sharh yozgan bo'lib, mazkur maqolada ular haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** tarjima, sharh, shayboniylar, Movarounnahr, madrasa, qo'lyozma, hadis, shorih.

## COMMENTARIES WRITTEN ON THE WORK “SHAMAIL” DURING THE SHAYBĀNID DYNASTY

**Abstract.** This article talks about the comments written on the work of the great muhaddith scholar Abu Isa Muhammad ibn Isa al-Tirmidhī (209-279 A.H./824-892 A.D.) entitled “Al-Shamail al-Nabawiya” (“Al-Shamail al-Muhammadiya”). The book consists of 56 chapters and 415 hadiths, and it has been translated and commented several times into Uzbek.

This work was also taught as a textbook in Movarounnahr madrasahs. New information on whether Shamoil was taught in madrasahs is researched based on primary sources such as Mustafa Rumi and Amir Haydar.

Many commentaries have been written on “Shamoil” due to its teaching in madrasahs, and strong interest among students and the general public. For example, it is known that 72 comments were written on it. Some of them were written in the 16th century – during the era and reign of The Shaybānid Dynasty. The article presents new scientific information about exactly these things. In particular, the article mentions 7 reviews written during this period.

Scholars such as Nasimuddin Mirakshah, Fazlullah ibn Rozbehon, Shamsiddin Muhammad al-Hanafi, Asamuddin Ibrahim al-Isfaraini, Shamsiddin Muhammad Kohistani, Muhammad al-Shirvani al-Bukhari, who lived in the Shaibani era and carried out scientific activities, wrote a commentary on “Shamail”, and in this article, they are talked about.

**Keywords:** translation, commentary, Shaybānid, Mavarunnahr (Transoxiana), madrasah, manuscript, hadith, commentator.

**Kirish.** Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (209–279-h./824–892-m.) tomonidan bitilgan “Ash-Shamoil an-nabaviya” va “Ash-Shamoil al-muhammadiya” nomli asari Payg'ambarimiz alayhissalomning siyrat va suratlariga oiddir. Unda Payg'ambarimizning tashqi ko'rinishlari, hayot tarzi, urf-odatlar, kiyinish va ovqatlanish madaniyati, ichki olami hamda go'zal xulqlari to'g'risidagi hadislar to'plangan bo'lib, islom tarixida ushbu mavzuga oid ilk asarlardan hisoblanadi. Kitob 56 ta bob va 415 ta hadisdan iborat bo'lib, o'zbek tiliga bir necha marta tarjima va sharh qilingan.

Arab tadqiqotchisi Abdah Ali Kushk “Shamoili nabaviy”ning 72 ta sharhi, 15 ta muxtasar varianti, 2 ta roviylari to’g’risidagi maxsus asar, yana 3 ta manzuma shakli, turkcha, urducha, fransuzcha va inglizcha 4 ta tarjimasini sanab o’tgan [3: 9-22]. Lekin ushbu sharhlar orasida aynan biz o’rganayotgan shayboniylar (1500–1601) davrida yozilgan sharhlar to’g’risida ma’lumotlar uchramaydi yoki juda kam ma’lumotlar keltirilgan. Shayboniylar saltanatida yozilgan sharhlarni o’rganish mazkur davrda hadis ilmi rivoji, islomiy ilmlar tarixi, madrasalar ta’lim tizimi, uning o’quv dasturlarini o’rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** “Ash-Shamoil an-nabaviya” asari Movarounnahr madrasalarida o’qitilgan. Jumladan, Safiyuddin Mustafo Rumiy (888–966- h./1483–1559-m.) Buxoroyi sharifda 963-h./1556- m. yili Mavlono Kepak Turkistoniy (XVI asr) nomli olimga “Mishkot al-masobih” va “Shamoili nabaviy”ni o’qitgani borasida ijoza bergan. “Samarat al-mashoyix”da “Oxund Mavlono Kepak “Mishkot”ni Mavlono va shayxuno Mustafo ar-Rumiy huzurlarida o’qiganlar”, deyilgan [13: 480a]. “Samarat al-mashoyix” muallifi Sayyid Zinda Ali al-Husayniy (XVII asr) ning o’zi ham Ko’kaldosh madrasasida Muhammad Qosim al-Buxoriy (975–1070- h./1568-1660 m.) huzurida “Shamoili nabaviy”dan saboq olib, ijoza ham olganini qayd qilib qoldirgan [13: 471b]. Buxoro amiri Amir Haydar (hukmronlik yillari 1800–1826 m.) shaxsan o’zi ushbu kitobdan talabalarga dars bergan [8: 123].

Asrlar davomida “Ash-Shamoil an-nabaviya” madrasalarda darslik sifatida o’qitilgani bois ham unga ko’plab sharhlar yozilgan. Masalan, XVI asrda “Shamoili nabaviya”ga bir qancha sharhlar bitildi. Jumladan, XVI asr boshida “Aqrab ul-vasoil ila-sh-Shamoil” Jaloliddin as-Suyutiy (849–911 h./1445–1505 m.) tomonidan bitilgan “Zahr al-xamoil ’ala-sh-Shamoil” asarini, “Sahihi Buxoriy”ning mashhur sharhlaridan biri “Irshod as-soriy” muallifi Shihobiddin Ahmad al-Qastaloniy (851-923./1448–1517.) tomonidan yozilgan “Sharh ash-Shamoil an-Nabiy” asarini hamda Ibn Hajar al-Haytamiy (909–974 h /1503–1566 m.) 949 h. yili 3-18 ramazon ichida yozgan mashhur “Ashraf ul-vasoil ila fahm ash-Shamoil” nomli asarini misol keltirish mumkin. Shuningdek, Muhyiddin Muhammad ibn Hamza al-Antokiy (vaf. 938 h./1532 m.) “Tahzib ash-Shamoil”, mashhur “Kanz al-ummol” hadislar to’plamining muallifi Alouddin Ali al-Muttaqiy (885–975-/1480–1567.) “Sharh ash-Shamoil”, Muslihiddin al-Loriy (vaf. 979 /1571) “Sharh ash-Shamoil” nomli sharhi, bundan sal keyinroq esa Mavlono Ali al-qori (vaf. 1014 /1616 m.) tomonidan 1008-h./1600-m. yili Makkai mukarramada yozgan “Jam’ ul-vasoil fi sharh ash-Shamoil” nomli sharhlarini ham aytib o’tish o’rinli [6: 1059–1060].

Xullas, ushbu sharhlar Movarounnahrda tashqarida, aniqrog’i, shayboniylar (1500-1601) saltanatidan yiroqda yozilgan edi. Bu maqolada esa biz aynan shayboniylar davrida XVI asrda Movarounnahr hududida yozilgan sharhlar to’g’risida ma’lumot keltirmoqchimiz.

**Natijalar va muhokama.** “ash-Shamoil an-nabaviya”ga shayboniylar davrida yozilgan sharhlarni XVI asr boshida Nasimiddin Muhammad ibn Sayyid Jamoliddin Atoullloh ibn Fazlulloh ash-Sheroziy al-Haraviy ad-Dashtakiy (taxminan 850-950 h. /1446-1543 m.) tomonidan bitilgan sharh boshlab beradi. “Mirak” va “Mirakshoh” nomi bilan shuhrat qozongan olim “kichik amir” nomi bilan tanilgan [4: 6]. U zot “Al-Hisn al-Hasin” va “Mishkot al-masobih”ga ham sharhlar bitgan. Mavlono Ali al-qori uning shogirdi Muhammad Sa’id Mir Kalon al-Xurosoniy (902–981/1491–1573) shogirdi bo’lgani bois o’z asarlarida uning kitoblaridan ko’p foydalangan va uning nomini ko’p bora tilga olgan [9: 40].

Mirakshohning “Sharh ash-Shamoil” asari bo’yicha Makkai mukarramaning “Umm ul-quro” universitetida Mane’ ibn Dabiy tomonidan magistrlik ishi qilingan va 2016-yili e’lon qilingan [13: 294].

Shayboniylar davrida yozilgan sharhlardan ikkitasi Fazlulloh ibn Ro’zbehon Sheroziy (860-927h/1455-1521m.) tomonidan bitilgan. U Shayboniyxon (hukmronlik yillari 1500–1510 m.) safarlarida birga bo’lgan va unga atab “Mehmonnomai Buxoro” asarini bitgan. U muhaddis va faqih olim bo’lib, bir qancha asarlarini Movarounnahrda yaratgan. Shulardan biri “Shamoili nabaviya”ga yozgan “Nashr al-fazoyil fi sharh ash-Shamoyil” deb ataladi. O’zR FA

ShI qo'lyozmalar fondida 6429/I raqami bilan saqlanuvchi qo'lyozma nusxasi 359 (1b-359b) + 4 (05b-08b) iborat yirik hajmli bo'lib, Muhammad Tohir al-Husayniy degan xattot 1263-h /1847- m. yili kitobat qilgan.

Fazlulloh ibn Ro'zbehon muhaddis Abu Iso Termiziyni hifz va ishonchlik borasida oldingilardan ham o'zib ketgan, diroyat (aqliy mushohada)da esa zamondoshlaridan ham peshqadam bo'lgan go'zal sifatlar egasi, deb ta'riflagan [10: 3a]. "Shamoili nabaviya" kitobi to'g'risida esa uni dunyoda quyosh kabi mashhur, kunduz kabi ma'lum, butun olamga nusxalari tarqagan, shaharlar bo'ylab yoyilib ketgan, uni yod olish, o'qish, o'qib-tushunish, hadis qilib rivoyat qilishga odamlar jamoa-jamoa bo'lib kirishgan. Hatto odamlar uni tumor kabi sallalariga taqib yurishadigan bo'lgan, shiddatli va musibatli kunlarda, balo-ofatlarning oldini olish maqsadida tabarruk qilib o'qishadi, ushbu asarni panoh tutib olishadi, deb yozadi [10: 3a-3b].

Shorih "Shamoili nabaviya" kitobini 11 yasharligida o'qib yodlaganini aytadi. Uni ustozlari Tohir ibn Arabshoh ibn Ibrohim al-Isfahoniy (786-870 h./1384-1466 m.) huzurida o'qigan. U esa buni mashhur qiroat olimi Abulxayr Muhammad al-Jazariy (751-833 h./1350-1429 m.) huzurida o'qigan. Ma'lumki, Imom Jazariy temuriylar davrida Samarqandda ta'lim bergan. Shorih Hirotga kelib "Shamoil"dan dars bergani, talaba va ilm ahli ushbu kitobni o'rganishga juda qiziqishini aytadi [10: 4a]. Lekin u paytlarda uzoq bahs-munozaralar va dars berish bilan mashg'ul bo'lib, kitobni to'la sharhlab yozishga imkon tug'ilmagan. Bu imkon shorihga 913 h./1508 m. yili ramazonning oxirgi o'n kunligida e'tikofga kirib, sharhlashga kirishgan va 3 oy-u 2 kunda uni tugatishga muvaffaq bo'lgan [10: 5a-5b]. "Takrimat ul-afozil"da esa uni 3 oy-u 3 kunda tugatganini aytib o'tgan [11: 3b]. Fuod Sezgin esa asarni 909 h./1503 m. yili yozilgan, deb xatoga yo'l qo'ygan [3: 18].

Shorih o'z nomini va asarga qo'yilgan nomni keltirib, Makka va Madina shaharlarida ushbu kitobdan ijoza olganini alohida qayd qilib, muallifgacha bo'lgan ta'lim silsilasini (sanad) to'liq keltirib o'tadi [10: 7a-8a]. Shorih sharhlash jarayonida sahih hadislar va rivoyatlar, o'nlab ishonchli manbalardan istifoda qilganini aytib, sharhning manbalari to'g'risida ma'lumot ham bergan [10: 5b-6b]. Shorih bu kabi yirik hajmli kitoblarni qaysidir hukmdorga baishlab yozish odat tusiga kirganini aytib, "Men uni biror hukmdorga emas, hukmdorlar sardori Muhammad alayhissalomning shaxsan o'zlariga bag'ishlab yozdim", deydi [10: 7a].

Fazlulloh ibn Ro'zbehonning "Shamoili nabaviya"ga bitgan ikkinchi sharhi "Takrimat al-afozil bi-tarjimat ash-Shamoyil" deb atalgan bo'lib, uning ikki nusxasi O'zR FA ShI da 12724 va 9410/II raqamlari bilan saqlanadi. Olim o'zini Xoja Mavlonoyi Isfahoniy nomi bilan tanilgan Abulxayr Fazlulloh ibn Ro'zbehon deb tanishtiradi [11: 1b]. Asar tarjima xarakterida bo'lib, qisqa sharhlangan. 105 (1b-105b) varaqdan iborat.

"Takrimat al-afozil"ning muhim jihatlaridan biri sharh boshlanishida shamoil va siyrat ilmining 10 ta foydasi to'g'risidagi – "favoidi ashara" deb atalgan muqaddima mavjudligidir [11: 2a-3a].

"Takrimat al-afozil" yozilgan paytda olim Samarqandda yashayotgan (mutavattin) edi. Madrasada talabalarga dars berardi. Talabalar undan "Shamoili nabaviya"ni fors tilida tarjima va qisqa sharh qilib berishlarini iltimos qiladi. Shu tariqa, 925 h. yili "Takrimat al-afozil" asari yoziladi [11: 4a].

Fazlulloh ibn Ro'zbehon "Takrimat al-afozil"da "Shamoli nabaviya" gacha bo'lgan 2 ta sanadini to'liq keltirib o'tgan va yirik sharhi "Nashr al-fazoyil"ni "Sharhi Shamoili kalon" deb tilga olgan [11: 5a va 81b].

Hoji Xalifa (1017-1068 h./1609-1657 m.) "Kashf az-zunun"da Mavloni Shamsiddin Muhammad al-Hanafiyy (XVI asr) tomonidan 926-yili jumodiy al-ulo – 1520-yil aprel-may oyida "ash-Shamoil an-nabaviya"ga sharh yozilganini qayd qilib o'tgan [6: 1060]. U shayboniylar davrining eng yetuk olimlaridan biri bo'lib, uning sharhi "Hoshiya Mavloni Hanafiyy" va "Hoshiya li-sharh Shamoil an-nabiy" nomlari bilan ham uchraydi. O'zR FA ShI

da 4563/V raqami bilan saqlanadigan nusxasi 100 (203b-303b) varaqdan iborat. Qo'lyozma 1221 h./1806 m. yili ko'chirilgan. Mazkur asar "Shamoli nabaviya"ning sharhiga hoshiya emas, balki "Shamoli nabaviya"ning ayni o'zi – matniga arab tilida bitilgan sharh hisoblanadi. Negadir, uni "Shamoili nabaviya"ning sharhiga hoshiya deb o'ylashgan. Bu shorih tomonidan sharhning o'ziga maxsus nom berilmagani, shorihning ko'proq turli fanlarga oid sharhlarga hoshiyalar bog'lagani sabab bo'lgan bo'lsa kerak.

Hoji Xalifa "Kashf az-zunun"da Asomiddin Ibrohim ibn Muhammad Arabshoh al-Isfaroiniy (vaf. 943 h./1536 m.) tomonidan ham "ash-Shamoil an-nabaviya"ga sharh yozilganini qayd qilib o'tgan [6: 1060]. U shayboniylar davrining eng yetuk va taniqli olimlaridan bo'lib, Hirot, keyin Buxoro va Samarqandda ilmiy faoliyat olib borgan. "Muzakkiri ahbob"da aytilishicha, Samarqandda 943 h./1536 m. yili vafot qilgan va Xoja Ahror valiy (806-895 h./1404-1490 m.) qabri yoniga dafn qilingan [12: 173].

Shamsiddin Muhammad Ko'histoniy (888-963 h./1483-1556 m.) tomonidan bitilgan yana bir sharh "Sharh ash-Shamoil" deb ataladi. U shayboniylar davrida Movarounnahrning bosh muftiysi va sadri a'zami bo'lib xizmat qilgan. O'zidan o'ndan ortiq ilmiy-diniy asarlar meros qoldirgan. "Muzakkiri ahbob"da uni "fiqhda katta shuhrati bor", deb qabri Xojai Buzrugvor (Bahouddin Naqshband) maqbarasi yonida ekanini qayd etiladi [12: 150-151].

Mazkur "Sharh ash-Shamoil"ning eng qadimiy nusxalaridan biri 981 h./1573 m. yili Muso ibn Mahmud at-Tarxoniy tomonidan Buxoroda "Shodiya" madrasasida ko'chirilgan. Nusxa 114 (1b-114a) varaqdan iborat [13: 114]. Mazkur qo'lyozma nusxaning 113a-varai hoshiyasida: "Mavloni Shamsiddin Muhammad al-Qo'histoniyning dastxat (nusxasi)dan ko'chirildi. Alloh uni va ota-onasini yorlaqasin. Yana bir marta 981 sanada qayta tekshirib (muqobala) chiqildi", degan qayd mavjud.

Ko'histoniyning ushbu sharhi arab tilida bo'lib, so'zma-so'z, jumlama-jumla sharhlab borilgan. Iboralarning lug'atdagi va istilohdagi ma'nolari, tilshunoslik jihatidan ta'rifi ham keltirib o'tilgan. Keyin jumlaning umumiy ma'nosi izohlab berilgan.

K.Brokellman va Fuod Sezgin kabi tadqiqotchilar tomonidan "Ash-Shamoil an-nabaviya"ga XVI asr olimlaridan Mulla Muhammad ash-Shirvoniy al-Buxoriy tomonidan ham "Sharh ash-Shamoil" nomli sharh yozilgani aytib o'tilgan [2: 1107; 3: 16]. Uning "Buxoriy" degan nisbasidan buxorolik olim ekani o'z-o'zidan ma'lum. Shirvon – Ozarbayjondagi Shirvon shahri emas, balki u Buxoro atrofidagi Bimajkas yaqinidagi qishloq nomidir. Unga nisbat berilgan bir qancha olimlar "O'rta Osiyo olimlari qomusi" kitobida sanab o'tilgan [1: 243-244]. Mulla Muhammad ash-Shirvoniy ham ana shu joydan yetishib chiqqan markaziy osiyolik olimlardan hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar.** Imom Termiziyning "Ash-Shamoil an-nabaviya" nomli asariga asrlar davomida yetmishdan ortiq sharhlar yozilgan bo'lib, XVI asrda ham unga o'ndan ziyod sharhlar bitilgan. Shulardan kamida yettitasi aynan Shayboniylar hukmronligi ostidagi Movarounnahr hududida yozilgan. Tadqiqotlar natijasida bu xildagi sharhlar yanada ortishi mumkin. Mazkur sharhlarni ilmiy o'rganish, ularning mualliflarining hayoti va ijodini tadqiq etish Markaziy Osiyoning siyosiy, ilmiy-madaniy va diniy tarixi uchun ko'plab yangi ma'lumotlarni berishi shubhasizdir. Madrasalar ta'lim tizimi, ularning o'quv dasturlari tadqiq qilinar ekan, aynan "Shamoil" singari asarlar va ularning sharhlari ham chuqur o'rganilishi zarur. Zotan, ularning mualliflari ana shunday madrasalarning bosh mudarrisilari bo'lishgan, ular o'z talabalariga o'zlari yozgan asarlar va sharhlarni o'qitgan bo'lishi ham mumkin. Olimlarning hayoti va ilmiy faoliyati, ularning ijodiga oid tadqiqotlarda bu jihatlarni ham e'tiborga olish kerak bo'ladi.

Umuman olganda, shayboniylar davri madaniyati, ilm-fani, madrasalar tarixi, ta'lim tizimi, o'quv dasturlari, bu paytda rivojlangan ilm-fanning turli sohaları juda kam o'rganilgan. Ushbu jihatlarni qamrab oladigan, izchil va chuqur tahlillarga asoslangan tadqiqotlar olib borish juda zarurdir.

**Foydalanilgan manba va adabiyotlar:**

1. Abdulloh Abdulhamid Saad. O'rta Osiyo olimlari qomusi. – Toshkent: Imom Buxoriy respublika ilmiy-ma'rifiy markazi nashriyoti, 2007.
2. Abdulloh al-Habashiy. Jome' ash-shuruh va-l-havoshiy. – Abu Zabi: "Al-Majma' as-saqofiy", 2004.
3. Abu Iso at-Termiziy. Ash-Shamoil al-Muhammadiya / Tahqiq: Abdah Ali Kushk. – Bahrayn: "Maktaba Nizom Ya'qubiy al-xossa", 2012.
4. Abu Iso at-Termiziy. Ash-Shamoil al-muhammadiya va ma'ahu al-Mavohib al-laduniya / Tahqiq: Muhammad Avvoma. – Madinatunnavvora: "Dor al-Yusr", 2013.
5. Ali al-qori. Mirqot al-mafoteh. 1-jild. – Bayrut: "Dor al-kutub al-ilmiya", 2001.
6. Kotib Chalabiy (Hoji Xalifa). Kashf az-zunun. 2-jild. – Istanbul: "Maorif", 1941.
7. Nasimiddin Mirakshoh ash-Sheroziy. Sharh ash-Shamoil. – Makkai mukarrama: "Jome' Umm al-quro", 2016.
8. Nasir ad-din al-Xanafi. Tuxfat az-zairin / Pervod s tadjiksko-persidskogo, predisloviye i kommentarii – Xalim Turayev. – Tashkent: "Splendid-Idea", 2021.
9. Sayyid Zinda Ali al-Husayniy. Samarat ul-mashoyix. O'zR FA ShI-1, № 2619.
10. Fazlulloh ibn Ro'zbehon. Nashr ul-fazoil fi sharh ash-Shamoil. O'zR FA ShI-1, № 6429.
11. Fazlulloh ibn Ro'zbehon. Takrimat ul-afozil bi tarjimat ash-Shamoil. O'zR FA ShI-1, № 12724.
12. Hasanxo'ja Nisoriy. Muzakkiri ahhob (Do'stalar yodnomasi) / Tarjima, so'zboshi va izohlar muallifi: Ismoil Bekjon. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
13. Shamsiddin Muhammad Qo'histoniy. Sharh ash-Shamoil. O'zR FA ShI-1, № 10164/I.

**ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ЗАНЯТОСТИ  
МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НА ПРИМЕРЕ  
ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА****Норов Шухрат Сувонович**

доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент кафедры  
социально-гуманитарных дисциплин и физического воспитания,  
Навоийский государственный горно-технологический университет

[shuxrat.suvonovich@mail.ru](mailto:shuxrat.suvonovich@mail.ru)

ORCID 0009-0008-4617-706X;

УДК: 9.93.930.1

**Аннотация:** Цель исследования заключается в историческом анализе деятельности молодёжных организаций в сфере занятости молодых людей страны в возрасте до 30 лет на территории Зарафшанского оазиса. Используются источниковедческий, структурно-функциональный, сравнительно-исторический методы. Изучение проблемы проведено согласно хронологической последовательности, сравнительного анализа и регионального подхода. В частности, сопоставлены Самаркандская, Бухарская и Навоийская области. Отмечены молодёжные организации такие, как «Союз молодёжи Узбекистана», «Агентство по делам молодёжи» за 2017-2023 гг. Даны определения деятельности молодёжных организаций в сфере культуры и развития духовности, на основе планов мероприятий, утвержденных республиканскими и местными органами государственных учреждений. На основании полученных результатов, в статье рассмотрена историческая роль нормативно-правовых основ молодёжных организаций. Социальная значимость проводимых работ молодёжными организациями на примере Зарафшанского оазиса. Сущность законов направленных, на всестороннее развитие молодого поколения Узбекистана в сфере занятости. Исторически анализирована проблемная сторона интересов молодёжи отдаленных регионов Самаркандской Бухарской и Навоийской областей. Рассмотрен сравнительный аспект потенциала каждой области Зарафшанского оазиса. В заключении определена сущность деятельности молодёжных организаций таких, как «Союз молодёжи Узбекистана», «Агентство по делам молодёжи». Отмечена необходимость уделения особого внимания на дальнейшее материально-техническое обеспечение молодёжных организаций для эффективной деятельности в сфере молодёжной политики.

**Ключевые слова:** молодёжь, молодёжные организации, законодательство, трудоустройство, занятость, Зарафшанский оазис, совершенствование.

## YOSHLAR TASHKILOTINING YOSH AVLODNING BANDLIGINI TA'MINLASHDAGI FAOLIYATI: ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA TARIXIY TAHLIL

**Annotatsiya:** Tadqiqotning maqsadi Zarafshon vohasi hududida 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar bandligi sohasidagi yoshlar tashkilotlari faoliyatini tarixiy tahlil qilishdan iborat. Manbashunoslik, tarkibiy-funksional, qiyosiy-tarixiy usul ishlatilgan. Muammoni o'rganish xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil va mintaqaviy yondashuvga muvofiq amalga oshirildi. Xususan, Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlari taqqoslangan. Yoshlar tashkilotlari 2017–2023-yillarda “O‘zbekiston yoshlar Ittifoqi”, “Yoshlar ishlari agentligi” deb tan olingan. Yoshlar tashkilotining madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirish sohasidagi faoliyati respublika va mahalliy davlat muassasalari organlari tomonidan tasdiqlangan tadbirlar rejalari asosida belgilandi. Olingan natijalarga asoslanib, maqolada yoshlar tashkilotlarining me'yoriy-huquqiy asoslarining tarixiy roli muhokama qilinadi. Zarafshon vohasi misolida yoshlar tashkilotlari tomonidan olib borilayotgan ishlarning ijtimoiy ahamiyati, O‘zbekistonning yosh avlodini bandlik sohasida har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan qonunlarning mohiyati, Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarining olis hududlarida yoshlar manfaatlarining muammoli tomoni tarixiy jihatdan tahlil qilingan. Zarafshon vohasining har bir sohasi salohiyatining qiyosiy jihati ko'rib chiqildi. Xulosa qilib, yoshlar tashkilotlari faoliyatining mohiyati “O‘zbekiston yoshlar Ittifoqi”, “Yoshlar ishlari agentligi” sifatida belgilandi. Yoshlar siyosati sohasida samarali faoliyat olib borish uchun yoshlar tashkilotlarini moddiy-texnik jihatdan yanada ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarurligi qayd etildi.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, yoshlar tashkilotlari, qonunchilik, bandlik, Zarafshon vohasi, takomillashtirish.

**Введение.** Занятость молодых кадров государства должна являться стратегически важным направлением политики любой страны. Как нам известно, каждое поколение определенного исторического периода имеет свои особенности развития общества и в том числе, молодых людей до 30 лет. Обеспечение занятостью трудоспособной молодежи по соответствующим профессиям, дают свои плодотворные результаты в прогрессе государства. В решениях проблем и изучения интересов молодых людей, определённую роль играют молодёжные организации. На сегодняшний день в Узбекистане действуют такие ключевые молодёжные организации как «Союз молодёжи Узбекистана» [1] и «Агентство по делам молодёжи Узбекистан» [2]. Каждая из них имеет свои функции, цели и задачи, в которых отмечены непосредственная поддержка, стимулирование и решение проблем молодёжи Узбекистана в возрасте до 30 лет.

За исторический период независимости Узбекистана молодёжные организации страны активно учтвовали в решении проблем занатости, духовно-культурного развития молодёжи. Учитывая мировое состояние по отношению к молодёжи, в настоящее время, во всем мире численность молодёжи составляет уже более 2 млрд. человек [3]. В Узбекистане молодёжь до 30 лет охватывает более 60% от общего числа населения граждан страны [4]. В связи с этим возникает вопрос всестороннего развития, дальнейшего трудоустройства и занятости молодёжи. Решение задач, связанных с молодым поколением, безусловно, должно всегда волновать правительство так, как молодёжь является стратегически важным слоем населения. Исходя из поставленных задач, которую следует раскрыть как исторический анализ в данном исследовании, является определение проблем, связанных с трудоустройством молодых людей, а также формированием системного подхода всестороннего отношения занятости молодых людей в возрасте от 18 до 30 лет. Объектом исторического анализа и нормативно-правовой системы относительно трудоустройства молодёжи, в данном исследовании рассмотрена территория Зарафшанского оазиса (Самарканд, Навои, Бухара) Узбекистана.

**Методология исследования.** Изучение проблемы в данном исследовании относительно молодёжных организаций проведено согласно хронологической последовательности, сравнительного анализа и регионального подхода. Также в статье использованы источниковедческий, структурно-функциональный, сравнительно-исторический, и объективно-исторический методы. В частности, сопоставлены территории Самаркандской Бухарской и Навоийской областей на основе архивных источников и научных изданий, соответственно темы статьи. Кроме этого, в статье использованы электронные ресурсы, касающиеся молодёжи и молодёжных организаций.

**Результаты и дискуссии.** Главным инструментом государства в решении отношения правительства с народом является эффективная законотворческая система. Касательно молодёжи правовым регулятором всех взаимоотношений, следует считать молодёжную политику, которая была принята за годы независимости [5]. На самом деле, Закон является рычагом эффективного управления общества. Регулирования в государстве всесторонних отношений, связанные с подрастающим поколением, во многом зависят от того, как установлен правовой порядок. В Узбекистане, исходя из принятых основных законов по молодёжной политике, сформировался особый опыт развития молодых людей соответствующего периода[6].

Рассматривая исторический период 2017-2023гг., можно отметить тот факт, что в Узбекистане произошли некоторые прогрессивные улучшения во всех сферах жизни. К примеру, с улучшением климата в развитии предпринимательской деятельности за последние пять-шесть лет независимости, среди молодёжи наблюдается интерес к бизнесу. Такие изменения с развитием частного бизнеса, связаны с выделением в 2020 году кредитов для молодёжи на льготных условиях [7]. Принятое решение правительства способствовало дальнейшему решению задач занятости молодых людей. К примеру, если взять региональную оценку к введению предпринимательской деятельности, то среди молодых людей Самаркандской, Навоийской и Бухарской областей возрастает число предпринимателей в возрасте до 30 лет. В частности, на основе многосторонних возможностей, (транспортно-логистической системы, инфраструктуры, энергетики, развитием промышленности) в Навоийской области имеется огромный потенциал для эффективного введения частного бизнеса среди молодёжи. Это связано с тем, что на территории области имеются возможности в направлении производства разных товаров народного потребления.

За годы независимости в период 2016-2023гг. в Узбекистане обширно рассматривается вопрос привлечения туристов в страну. На основании Указов и Постановлений правительства страны отмечены задачи относительно развития и молодёжного туризма [8]. Самаркандская и Бухарская области славятся благоприятным природно-климатическим условиями и развитием туризма. Молодёжь Самарканда и Бухары с привлечения туризма в страну становится более занятым. Данная тенденция наблюдается с учетом развития ремесленной деятельности в исторических объектах Бухары и Самарканда, всестороннего взаимоотношения с иностранными гостями, а также международных взаимоотношений в области образования. Роль молодёжных организаций регионов Узбекистана, в том числе, областей Зарафшанского оазиса активизировалась с учетом принятых мер в молодёжном республиканском форуме в 2017 году. Форум был намечен на перспективы развития внутреннего туризма и роли молодежи в ней [9]. Как нам известно, некоторые развитые государства как Франция, Китай, Италия

Испания, Турция, Германия, где определенным доходом страны является туризм, обширно развиваются и процветают, накапливая свой капитал[10]. Узбекистан так же держит курс развития туризма и в этом огромная роль возлагается на молодёжь страны. Следует отметить то, что Зарафшанский оазис (Самарканд, Бухара) считается ключевым звеном исторических достопримечательностей для эффективного развития туризма.

Молодёжь Навоинской области в основном считается занятой с учетом развития на данной территории промышленности. Регион обладает широкими возможностями устройства молодёжи на работу путём их привлечения в АО «Навоийский горно-металлургический комбинат», АО «Навоиурани», ОАО «Кызылкумцемент», ОАО «Навоийазот», «Навоий-ГРЭС» и предпринимательской деятельностью в сельских хозяйствах. Стоит отметить то, что во всех перечисленных предприятиях, действуют отделы по работе с молодёжью - представители «Союза молодёжи Узбекистана» [11]. Реализация государственных программ относительно молодёжи до 30 лет, в Навоинской области намного превосходит другие регионы республики.

За годы независимости на территории Зарафшанского оазиса молодёжные организации показали свою активность в обеспечении занятости молодых людей. Исходя из того, что регион имеет огромный потенциал промышленных объектов, где с каждым годом требуются новые кадры, работа молодёжных организаций, более ускоренно продвигается, чем в других областях Узбекистана. Определенная часть молодёжи, которая не охватывается промышленными предприятиями области, активно участвует в предпринимательской деятельности. Заметно улучшается фермерская деятельность среди молодёжи области. Все это способствует многостороннему развитию занятости среди юношей и девушек в возрасте до 30 лет[12].

В результате можно отметить то, что наряду с повышением численности населения страны растёт и потребность в обеспечении трудоустройства молодых кадров, а это в свою очередь является очень актуальной и стратегически важной задачей каждого государства. Молодёжные организации «Союз молодёжи Узбекистана» и «Агентство по делам молодёжи» всячески способствуют решению проблем занятости среди молодёжи. На примере Зарафшанского оазиса видно, какая отличительная сторона и потенциал имеется у каждой области (Самарканд, Бухара и Навои), которая позволяет решать задачи, касающиеся занятости и трудоустройства молодёжи[13]. Так, же стоит отметить действующее законодательство по молодёжи за годы независимости. Эффективная правовая основа способствует защищать и развивать деятельность молодых людей Узбекистана, отражающихся на примере Зарафшанского оазиса. Но также следует отметить и некоторые проблемы, которые возникают в период рассмотрения вопросов занятости. На наш взгляд, это в основном связано с географическим положением региона. Как нам известно, в центральных частях городов и районов имеется больше возможности по ускоренному развитию общества, чем у отдаленных регионов. В нашем случае также существует проблема с отдаленными регионами областей Зарафшанского оазиса. Не своевременное отношение интересам молодых людей, недостаточное материально-техническое оснащение молодёжных организаций отдаленных районов Самарканда, Бухары и Навоий могут повлиять на воспитание, образование, совершенствование и, в том числе, на занятость молодёжи [14]. В связи с этим, исследуемая проблема занятости молодёжи, в частности, дальних районов Зарафшанского оазиса требует определенного внимания правительства республики



и области так, как нехватка материально-технического обеспечения молодежных организаций повлияют на не своевременное исполнение нормативно-правовых основ относительно занятости молодежи.

**Выводы и предложения.** Исходя из выше представленных исторических источников, следует отметить то, что молодежные организации «Союз молодежи Узбекистана» и «Агентство по делам молодежи» в решение вопросов занятости активно участвуют на территории Зарафшанского оазиса. Утвержденное законодательство относительно молодежи позволяет эффективно принимать решения по обеспечению охвата интересов молодых людей в возрасте до 30 лет. Также отмечена проблема отдаленных районов Самарканда, Бухары и Навои по недостаточному влиянию местных органов власти, в изучение проблем касательно трудоустройства молодежи. Сравнительный исторический анализ позволяет определить потенциал и преимущество всесторонней возможности молодых людей и, в том числе, деятельность молодежных организаций областей Зарафшанского оазиса. Отмечено преимущество промышленных объектов Навоийской области, где молодежь более обеспечена трудоустройством, по сравнению с другими областями страны. Данный анализ определяет актуальность исследования, которая необходима в решение проблем занятости среди молодежи.

#### Список использованной литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по повышению эффективности государственной молодежной политики и поддержки деятельности Союза молодежи Узбекистан» / «Правда Востока», 6 июля 2017 г.
2. Постановление Президента Республики Узбекистан «Об организации деятельности Агентства по делам молодежи Республики Узбекистан» // ПП-4768 от 30.06.2020г., Собрание законодательства Республики Узбекистан, № №26 (942). – Ташкент, 2020. – С. 180-186.
3. Выступление Президента Республики Узбекистан на 72-й сессии Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций (город Нью-Йорк, 19 сентября 2017 года) / «Народное слово», 20 сентября 2017г. [Электронный ресурс] –URL: <http://press.natlib.uz/ru/editions/3314> (дата обращения: 20.08.2023)
4. Абидов Х. Молодежь Узбекистана - огромный потенциал для развития страны / член Молодежного Парламента при Законодательной Палате Олий Мажлиса Республики Узбекистан. [Электронный ресурс] – URL: <https://adolat.uz/ru/nuktai-nazar/tochka-zreniya-chlena-molodezhnogo-parlamenta-molodezh-uzbekistana-ogromnyj-potencial-dlya-razvitiya-strany> (дата обращения: 12.03.2024)
5. Норов Ш. С. Государственная молодежная политика Узбекистана в сфере трудоустройства (с использованием архивных материалов Навоийской области) //Иновационные процессы в гуманитарных и общественных науках. – 2021. – С. 23-26. [Электронный ресурс] – URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=45660024> (дата обращения: 24.02.2024)
6. Норов Ш.С. Историческое формирование и опыт государственной молодежной политики Узбекистана в годы независимости (на примере Навоийской области) – Автореф. дисс. ... на соиск. учен. степ. докт. философии по историческим наукам (PhD). – Бухара, 2022.– 56 с.
7. Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по совершенствованию системы вовлечения населения в предпринимательство и развитию предпринимательства» // ПП-4862 от 13.10.2020г., [Электронный ресурс] –URL: <https://lex.uz/docs/5045895> (дата обращения: 24.02.2024)
8. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по обеспечению ускоренного развития туристской отрасли Республики Узбекистан» // УП-4861 от 02.12.2016г., [Электронный ресурс] – URL: <https://lex.uz/docs/3077023> (дата обращения: 05.03.2024)
9. Хусенова М.Г., Норкулова Д.З., Развитие молодежного туризма в стране / Казанский вестник молодых ученых Политические науки. Экономическая политика регионов. Том 2 №3(6), 2018г. С.230-234. [Электронный ресурс]URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-molodezhnogo-turizma-v-uzbekistane/viewer> (дата обращения: 09.03.2024)
10. Ассоциация туроператоров. ТОП-20 самых посещаемых стран мира. [Электронный ресурс] URL: <https://www.atorus.ru/news/press-centre/new/47175.html> (дата обращения: 05.05.2024)

11. Норов Ш. С., Государственная молодёжная политика Узбекистана в сфере трудоустройства (с использованием архивных материалов Навоийской области) 2021. – С. 23-26

12. Норов Ш.С., Историческое формирование и опыт государственной молодежной политики Узбекистана в годы независимости (на примере Навоийской области) – Дисс. ... на соиск. учен. степ. докт. философии по историческим наукам (PhD). – Бухара, 2022. – 157 с.

13. Норов Ш.С., Исторический анализ трудоустройства молодежи Узбекистана на примере Зарафшанского оазиса // Физическая культура, спорт и молодежная политика в условиях глобальных вызовов. Россия, г.Екатеренбург – 2023. – С. 337-341. [Электронный ресурс] URL: <https://elar.urfu.ru/handle/10995/123213> (дата обращения: 10.05.2024)

14. Норов Ш. С. Государственная молодёжная политика Узбекистана в сфере трудоустройства (С использованием архивных материалов Навоийской области) //Иновационные процессы в гуманитарных и общественных науках. – 2021. – С. 23-26

## ALLOMALAR ILMIY MEROSINI O‘RGANISH VA DINIY QADRIYATLARIMIZNI TIKLASH BORASIDA QABUL QILINGAN HUQUQIY HUJJATLAR VA ULARNING MOHIYATI

**Sanjarbek Djumanov**

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Nashrlar bo‘limi boshlig‘i,  
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

[sanjar.djumanov@bk.ru](mailto:sanjar.djumanov@bk.ru)

UDK: 94(575.1)

**Annotatsiya.** O‘zbekistonda mustaqillik yillarida barcha sohalar qatori allomalar ilmiy merosini o‘rganish va diniy qadriyatlarimizni tiklash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Mazkur tadbirlarning amalga oshirilishida soha rivojini ta‘minlovchi normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 2016-yildan e‘tiboran mazkur tadbirlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, bu davrda soha huquqiy asoslari takomillashtirildi, allomalar ilmiy merosini o‘rganuvchi yangi ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, allomalar ilmiy merosini xalqimiz orasida keng targ‘ib etish ishlari olib borildi. Natijada bu borada salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritildi. Ushbu maqolada allomalar ilmiy merosini o‘rganish va diniy qadriyatlarimizni tiklash borasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning mazmun mohiyati haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** allomalar ilmiy merosi, diniy qadriyatlar, qonunlar, qarorlar, farmonlar.

## ACCEPTED LEGAL DOCUMENTS ON THE STUDY OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF THE SCIENTISTS AND THE RESTORATION OF OUR RELIGIOUS VALUES AND THEIR ESSENCE

**Abstract.** During the years of independence in Uzbekistan, along with all fields, extensive work was carried out to study the scientific heritage of scholars and to restore our religious values. Adoption of normative and legal documents ensuring the development of the sector has become important in the implementation of these activities. Since 2016, these events have reached a new level. In particular, during this period, the legal foundations of the field were improved, and the activities of new research institutions studying the scientific heritage of scholars were launched. At the same time, efforts were made to widely promote the scientific heritage of scholars among our people. As a result, significant progress was made in this regard. This article talks about the normative legal documents and their contents regarding the study of the scientific heritage of scholars and the restoration of our religious values.

**Keywords:** scholarly heritage, religious values, laws, decisions, decrees.

**Kirish.** Mustaqillik yillarida allomalar ilmiy merosini o‘rganish va diniy qadriyatlarimizni tiklash borasida katta ishlar amalga oshirildi. Allomalar tavallud sanalarining nishonlanishi, ilmiy merosining o‘rganilishi, bu borada yangi ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi va boshqalar shular jumlasidandir. Bunday tadbirlarning amalga oshirilishida bu borada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu sababdan mustaqillik yillarida allomalar ilmiy merosini o‘rganish va diniy qadriyatlarimizni tiklash borasida qabul qilingan hujjatlar va

ularni tahlil qilish muhim ahamiyatga egadir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Mustaqillik yillarida allomalar ilmiy merosini o'rganish va diniy qadriyatlarimizni tiklash borasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar davriy nashrlarda, gazeta, jurnal va rasmiy internet saytlarida keltirilgan. Jumladan, 1999-yilda Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti tomonidan nashr qilingan "Ma'naviyat yulduzlari" kitobida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar va ularning faoliyati haqida ma'lumot berilgan bo'lsa, 2019-yilda G.Navro'zova tomonidan nashr etilgan "Bahouddin Naqshband (manbalar tahlili)" nomli kitobda Bahouddin Naqshband va uning hayoti bilan birga mustaqillik yillarida alloma faoliyatini o'rganish borasida amalga oshirilgan ma'lumotlar qisqacha berilgan. Bundan tashqari, Sh.Abbosovning "FarDU xabarları" ilmiy jurnalining 2020-yil 2-sonida nashr qilingan "Globallashuv jarayonlari va missionerlik harakati" nomli maqolasida ham mavzuga oid ayrim ma'lumotlar keltirilgan.

Shu bilan birga, bu borada O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi hisoblangan lex.uz saytida berilgan ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Mazkur saytda barcha sohalar qatori allomalar ilmiy merosi va diniy qadriyatlarimizni tiklash borasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mavjud va ularda qabul qilingan qonun, farmon va qarorlar mukammal tarzda berilgan. Bundan tashqari, "Xalq so'zi", "Ishonch", "Zarafshon" va boshqa gazetalarda ham bu borada ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, mavzu bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari qo'mitasi va Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi saytlarida ham bu bo'yicha ko'plab ma'lumotlar berilgan. Ammo ushbu ma'lumotlar keng ommaga mo'ljallangan bo'lib, alohida tahlil qilinmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani tayyorlash jarayonida umumqabul qilingan tarixiy metodlar – ilmiylik, xolislik, tarixiylik, qiyosiy tahlil va ketma-ketlik tamoyillariga amal qilindi. Tadqiqotning ishonchliligi va samaradorligini oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz), O'zbekiston Respublikasi Din ishlari qo'mitasi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi ma'lumotlaridan foydalanildi.

**Natijalar va muhokama.** Ma'lumki, mustaqillik arafasidayoq "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun [6] qabul qilingan edi. Mazkur qonunning qabul qilinishi sovet davrida yuritilgan ateistik siyosatdan aziyat chekkan O'zbekiston uchun katta voqea edi. Shu sababdan, jamoatchilik ushbu qonunni xursandchilik bilan kutib oldi. Unda mustaqillik arafasidagi O'zbekiston aholisi manfaatlariga javob beradigan moddalar o'rin olgan va bu boradagi huquq va majburiyatlar belgilangan edi. Jumladan, ushbu Qonun bilan fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlandi. Diniy tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq munosabatlar tartibga solindi.

Mazkur qonunda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar bilan bog'liq munosabatlar qoidalari belgilab berildi. Xususan, fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar teng huquqli ekani, dinlarning va diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilishi, maktabni dindan va diniy tashkilotlardan ajratish kabi qoidalar shular jumlasidandir. Ushbu Qonunning qabul qilinishi mustaqillik arafasida davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Muqaddas dinimiz rivojida tariqat peshvolari faoliyati ham muhim o'rin tutadi. Bunday allomalar faoliyati natijasida yurtimizda tariqat ilmi rivojlandi, mashhur tariqat peshvolari yetishib chiqdi. Tariqat peshvolari faoliyatini o'rganish yurtimizda diniy qadriyatlarining tiklanishida muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan, mustaqillikning dastlabki yillaridan tariqat allomalari faoliyatini o'rganish va targ'ib etish bo'yicha katta miqyosdagi ishlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan

1992-yil 3-noyabrda “Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatda alloma tavalludini keng nishonlash bo‘yicha zarur vazifalar belgilab berildi. Alloma abadiy qo‘nim topgan joyni obodonlashtirish, ilmiy merosini o‘rganish va keng targ‘ib etish, bu borada turli tadbirlar tashkil etish va boshqalar shular jumlasidandir. Ushbu qaror asosida Buxoroda 1993-yil sentyabr oyida Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi [14]. Unda nafaqat yurtimizda faoliyat yurituvchi Naqshbandiy ilmiy merosi bilan shug‘ullanuvchi olimlarlar, balki xorijdan ham mehmonlar ishtirok etdi. Bu esa, o‘z navbatida, Bahouddin Naqshband merosii o‘rganish va xalqaro miqyosda targ‘ib etishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu yildan e‘tiboran har yili alloma tavalludini nishonlash an‘anaga aylandi.

Diniy qadriyatlarimizni tiklashda Imom Buxoriy ilmiy merosini o‘rganish va uni keng targ‘ib etish katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, alloma qalamiga mansub “Sahihul Buxoriy” asari dunyo musulmonlari tomonidan Qur‘oni karimdan keyingi asosiy manba sifatida e‘tirof etilgan. Alloma ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib etish nafaqat diniy qadriyatlarimizni tiklashga yordam beradi, balki yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan, mustaqillik yillarida bu borada ham katta ishlar amalga oshirildi. Xususan, 1997-yil 29-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Imom Buxoriy tug‘ilgan kunining hijriy oy taqvimini bo‘yicha 1225 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi [9]. Ushbu qarorda 1998-yilda Imom Buxoriy tavalludining 1225 yilligi mamlakatimizda keng nishonlanishi belgilandi. Alloma maqbarasi va masjidini ta‘mirlash, yodgorlik majmuini barpo etish uchun loyihaviy takliflarni tayyorlovchi komissiya tarkibi tasdiqlandi [7]. Shu bilan birga, alloma tavalludni yuqori saviyada tashkil etish uchun zarur vazifalar belgilab berildi.

Mazkur qarorda belgilangan vazifalar ijrosi natijasida 1998-yilda mamlakatimizda Imom Buxoriy tavalludining 1225 yillik tavalludi keng nishonlandi va maqbarasi qayta qurildi [3]. Shu bilan birga, alloma merosiga bag‘ishlangan ko‘plab tadbirlar tashkil etildi. Ayniqsa, Imom Buxoriy ilmiy merosiga bag‘ishlangan tadbirlar bu borada muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, bunday tadbirlarda alloma qalamiga mansub asarlar haqida ma‘lumot berildi, jahonda saqlanayotgan nusxalari haqida amalga oshirilgan izlanishlar to‘g‘risidagi so‘z yuritildi. Amalga oshirilgan bunday tadbirlar Imom Buxoriy ilmiy merosini o‘rganish va uni xalqimizga yetkazish ishlarida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Mustaqillik yillarida sohalarni rivojlantirish va uni zamon talabalari darajasiga moslashtirish Hukumatning doimiy diqqat markazidagi masala bo‘lib keldi. Diniy-ma‘rifiy soha ham bundan mustasno emas edi. Yillar o‘tishi bilan diniy-ma‘rifiy soha rivojini ta‘minlovchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish zarurati yuzaga keldi. Shu sababdan, keyingi yillarda vijdon erkinligini ta‘minlash va bu boradagi qonunchilikni takomillashtirish ishlari amalga oshirildi. Xususan, 1998-yil 1-may kuni yangi tahrirdagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun [13] qabul qilindi. Ushbu Qonunning qabul qilinishi din va davlat munosabatlarini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etib, diniy qadriyatlarni tiklash bo‘yicha qabul qilingan hujjatlarni zamon talablari darajasida takomillashtirish imkonini berdi. Yangi tahrirdagi Qonunda vijdon erkinligi huquqi, dinga munosabat va fuqarolik huquqlarining tengligi, davlatning dindan ajratilganligi, davlat organlarining va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining diniy tashkilotlar bilan munosabati, din va ta‘lim, diniy tashkilotlarni ro‘yxatga olish tartibi, diniy urf-odat va marosimlar, missionerlik hamda prozelitizm kabi masalalarga munosabat o‘z ifodasini topdi [1:60].

Yurtimizda aqida va kalom ilmi ham keng rivojlangani tarixdan ma‘lum. Imom Moturidiy ham aqida va kalom ilmi bilimdoni bo‘lgan ulug‘ zotlardan edi. U zot o‘z

faoliyati bilan “Hidoyat imomi”, “Hidoyat bayrog‘i”, “Musulmonlar aqidasi to‘g‘rilovchi” kabi bir qancha nomlar bilan mashhur bo‘lgan [15]. Moturidiy ta‘limoti nafaqat yurtimizda, balki boshqa musulmon o‘lkalarida ham keng yoyilgan edi. Bu yurtimizda aqida va kalom ilmi nechog‘lik rivojlanganini ko‘rsatadi. Imom Moturidiy ilmiy merosini o‘rganish nafaqat yurtimiz allomalari ilmiy merosini chuqur o‘rganishda, balki yoshlarimizning bu boradagi xabardorligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etar edi. Shu sababdan mustaqillik yillarida yurtimizda aqida va kalom ilmi sohasi bilan shug‘ullangan buyuk allomalar merosini o‘rganishga ham katta e‘tibor qaratildi. Xususan, 1999-yilning 3-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Mazkur Qarorda 2000-yilda Imom Moturidiy tavalludining 1130 yilligi keng nishonlanishi belgilandi.

Bundan tashqari, Samarqand viloyatining Registonga tutash Chokardiza qabristonidagi Imom Moturidiy maqbarasini rekonstruksiya qilish, mamlakat hududidagi Imom Moturidiy nomi bilan bog‘liq qadamjolar, obidalar ro‘yxatini tuzish va ularni ta‘mirlash-konservatsiya qilish bo‘yicha taklif tayyorlash va boshqa muhim vazifalar belgilandi. Mazkur qarordagi vazifalar ijrosi natijasida 2000-yilda O‘zbekistonda Imom Moturidiyning 1130 yilligi keng nishonlandi [10]. Bu borada o‘tkazilgan ko‘plab tadbirlarning samarali bo‘lishida ushbu qarorning ahamiyati katta bo‘ldi.

Yurtimizdan yetishib chiqqan mashhur tariqat peshvolari mazkur soha rivojida katta ishlarni amalga oshirgan. Bu esa yurtimizda ushbu ilmning ham keng rivoj topganini bildiradi. Shu sababdan, mashhur tariqat namoyandalari faoliyatini o‘rganish va keng targ‘ib qilish diniy qadriyatlarimizni tiklash ishlarida muhim ahamiyatga egadir. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, Hukumat tomonidan bu borada ham katta ishlar amalga oshirildi. Xususan, mustaqillik yillarida musulmon sharqida mashhur tariqat – xojagon-naqshbandiya silsilasi asoschisi Abduxoliq G‘ijduvoni ma‘naviy merosini o‘rganish va uni keng targ‘ib qilish ishlari amalga oshirildi. Shu maqsadda 2002-yil 4-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Abduxoliq G‘ijduvoni tavalludining 900 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori [10] qabul qilindi. Mazkur qarorda alloma tavalludining 900 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish Respublika tashkiliy qo‘mitasining tarkibi va tadbirlar rejasi tasdiqlandi. O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi Fanlar akademiyasi bilan birgalikda alloma yashagan davr fani va madaniyatiga oid asarlarni, shuningdek, uning asarlari namunalarini nashr etishni o‘z ish rejalariga kiritishi belgilandi [8].

Mazkur qaror ijrosi natijasi o‘laroq 2003-yilda Abduxoliq G‘ijduvoni tavalludining 900 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Yubiley munosabati bilan shu yili G‘ijduvon shahri markazi va Abduxoliq G‘ijduvoni me‘moriy majmuasi qayta ta‘mirlandi va atrofi obodonlashtirildi. Shuningdek, Mirzo Ulug‘bek tomonidan qurdirilgan madrasa ta‘mirdan chiqarildi [11]. Mazkur tadbirlarning amalga oshirilishi alloma ilmiy-ma‘naviy merosini o‘rganish va uni keng targ‘ib qilish ishlarida muhim ahamiyat kasb etdi.

Allomalar ilmiy merosini o‘rganish va diniy qadriyatlarimizni tiklashda ushbu sohaga ixtisoslashgan ta‘lim muassasalarining o‘rni va roli beqiyosdir. Bunday muassasalar faoliyati natijasida ushbu sohada katta izlanishlar olib borilmoqda. Shu sababdan mustaqillik yillarida diniy ta‘lim muassasalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ularning moddiy texnika bazasini yaxshilash bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, diniy soha mutaxassislarini tayyorlash maqsadida har bir viloyatda alohida madrasalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, Toshkent islom universiteti o‘z ishini boshladi. Yuqoridagi omillar bunday ta‘lim muassasalari faoliyatini tartibga solish zaruratini yuzaga keltirdi.

Natijada, 2004-yil mart oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Diniy ta’lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori e‘lon qilindi. Ushbu Qaror asosida Diniy ta’lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi Nizom va Vazirlar Mahkamasining diniy ta’lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash komissiyasi tarkibi tasdiqlandi. Yuqoridagi qaror asosida tashkil etilgan diniy ta’lim muassasalarida talabalar boshlang‘ich diniy ta’lim, o‘qishni undan keyingi bosqichda davom ettirish, shuningdek, mazkur sohada mavjud bo‘lgan dolzarb masalalar yuzasidan ilmiy tadqiqot olib borish imkoniga ega bo‘ldi.

Haj islomdagi besh rukndan biri bo‘lib, juda ulug‘ ibodatdir. O‘zida joiz shartlarni topgan har bir musulmon bu ibodatni ado etishi farzdir va katta baxtga, savobga ega bo‘ladi [16]. Inson umri davomida eng kamida bir marta umra ibodatini ado etish sunnati muakkada hisoblanadi. Yurtimiz aholisi orasida ham mazkur ibodatlarni ado etishga intilgan insonlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Shu sababdan mustaqillik yillarida Hukumat tomonidan Haj va Umra tadbirlarini tashkil etish ishlariga ham alohida e‘tibor qaratildi. Shu maqsadda, 2017-yil 7-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Haj” va “Umra” tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori [4] e‘lon qilindi. Ushbu Qarorda ziyoratchilarning Haj va Umra amallarini samarali tashkil etish tartibi belgilandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari Qo‘mitasi va O‘zbekiston musulmonlari idorasiga joylardagi hokimiyat organlari bilan birgalikda Haj va Umra ziyoratiga boradigan fuqarolar ro‘yxatining xolisona va ijtimoiy adolat mezonlari asosida shakllantirish vazifasi yuklatildi. Shuningdek, Haj va Umra ziyoratiga borish uchun navbatda turganlarning doimiy yashash joyi o‘zgarganda, ularning avvalgi manzili bo‘yicha navbati saqlanib qolishi belgilandi. Bundan tashqari, Qaror asosida Haj va Umra tadbirlarini tashkil etish to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlandi. Ushbu Qarorning qabul qilinishi Haj va Umra tadbirlarining o‘z vaqtida sifatli tashkil etilishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Mustaqillik yillari, ayniqsa, 2016-yildan e‘tiboran yurtimizdan yetishib chiqqan mashhur tariqat peshvolari faoliyatini yanada chuqur o‘rganish, uni xalqimiz orasida keng targ‘ib etish ishlariga ham alohida e‘tibor berildi. Shu maqsadda, 2017-yil 11-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Abduxoliq G‘ijduvoniylar tavalludining 915 yilligi va Bahouddin Naqshband tavalludining 700 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi e‘lon qilindi [12]. Mazkur farmoyishda ushbu allomalar tavalludini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tarkibi tasdiqlandi. Qo‘mita zimmasiga bir oy muddatda allomalar tavalludini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazish bo‘yicha tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash yuklatildi [2:4-5]. Mazkur rejada buyuk tariqat namoyandalari tavalludini nishonlashga bag‘ishlangan tadbirlarni tashkil etish, ularning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan nashrlar hamda ularning merosidan namunalarni o‘zbek va xorijiy tillarda chop etish, xorijdagi qo‘lyozma manbalar, ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar haqidagi ma’lumotlarni jamlash va nashr etish va boshqa shunga o‘xshash masalalar ko‘zda tutildi [2:4-5].

Buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma’naviy mulki hisoblanadi. Yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar ilmiy merosi hali to‘liq o‘rganilmagan. Birgina mamlakatimiz kitob fondlarida saqlanayotgan, asosiy qismi YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan 100 mingdan ziyod qo‘lyozma asarlar mavjud. Bunday merosni ilmiy tadqiq etish, buyuk alloma va xalqimizga mutafakkirlarimiz hayoti va ilmiy faoliyati haqida ma’lumot berish yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan, bu borada ham bir talay ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2017-yilning 23-iyun kuni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori [10] qabul qilindi. Mazkur qarorda markazning asosiy vazifalari belgilab berildi. Mamlakatimiz asrlar davomida jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi, islom madaniyati markazlaridan biri bo‘lib kelganini aks ettiradigan ilmiy-tarixiy konsepsiyani ishlab chiqish va amalga oshirish, markaz tarkibidagi kutubxona va arxiv, qo‘lyozma fondlarini shakllantirish, Markaz tarkibidagi muzey ekspozitsiyasining mavzu yo‘nalishlarini chuqur o‘ylangan, ilmiy asoslangan aniq reja bo‘yicha shakllantirish va boshqalar shular jumlasidandir. Mazkur qarorning qabul qilinishi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish, yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub xorij fondlarida saqlanayotgan asarlarni topish va ularni olib kelish, bunday noyob asarlarni tadqiq etish va boshqa shunga o‘xshash ishlarni amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida allomalar ilmiy merosni o‘rganish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish ishlari ham amalga oshirildi. Ushbu tadbirlarning huquqiy asoslari yaratish bu borada muhim qadam bo‘ldi. 2017-yil 27-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori [5] e‘lon qilindi. Ushbu Qarorda 2016-yil oktyabr oyida Toshkent shahrida o‘tkazilgan Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ilgari surilgan tashabbus asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilishi belgilandi. Imom Buxoriy va boshqa mutafakkirlarning ulkan ilmiy va diniy merosini o‘rganish, islom sivilizatsiyasining umuminsoniy qadriyatlar, jumladan, xalqimiz ma‘naviyati va madaniyati rivojida tutgan o‘rni va ahamiyatini tadqiq etish va boshqalar Markazning asosiy vazifalari etib belgilandi [5].

Ushbu Qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida 2017-yil 19-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori [10] e‘lon qilindi. Ushbu Qaror asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi to‘g‘risidagi Nizom, Markaz tuzilmasi tasdiqlandi. Muassasa faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida Markaz direktoriga, zarur hollarda Markaz tuzilmasiga xodimlarning umumiy soni va ish haqi fondi doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi berildi. Mazkur Qarorning qabul qilinishi Imom Buxoriy ilmiy merosini chuqur o‘rganish, xorij fondlarida saqlanayotgan asarlari haqida ma‘lumot to‘plash, ularning nusxasini yurtimizga olib kelish, tarjima qilish va xalqimizga yetkazish ishlarida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda diniy qadriyatlarni tiklash borasida katta ishlar amalga oshirildi. Bunday tadbirlarning amalga oshirilishida Hukumat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar hal qiluvchi rol o‘ynadi. Bu davrda qabul qilingan qonun, farmon va qarorlarni shartli tarzda ikki guruhga bo‘lishimiz mumkin. Birinchisi, mazkur sohani bevosita tartibga soluvchi qonunlar bo‘lsa, ikkinchisi, diniy qadriyatlarimizni tiklashga u yoki bu jihatdan yordam beruvchi Prezident farmonlari, qarorlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari hisoblanadi. Bu davrda qabul qilingan Qonunlar mazkur sohadagi munosabatlarni tartibga solishga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchi turdagi normativ-huquqiy hujjatlar esa allomalar tavalludini nishonlash, ularning nomi bilan atalgan ilmiy tadqiqot muassasalarini tashkil etish va boshqa shu kabi masalalarga bag‘ishlandi. 2016-yildan e‘tiboran bu boradagi ishlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Avval qabul qilingan qonunlar takomillashtirildi, mamlakat Prezidentining yangi Farmon va qarorlari e‘lon qilindi. Shuningdek, ularni amaliyotga tatbiq etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Mazkur hujjatlar ijrosi natijasi o‘laroq mamlakatimizda allomalarimiz ilmiy merosini o‘rganishga ixtisoslashgan bir qancha ilmiy

tadqiqot muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi, bu borada ilmiy izlanishlar ko'paytirildi, shuningdek, ularni xalqimiz orasida keng targ'ib etish ishlari yangi bosqichga ko'tarildi. Bunday ishlarning amalga oshirilishi diniy qadriyatlarimizni tiklash va uni keng xalq ommasi orasida targ'ib etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abbosova Sh. Globallashuv jarayonlari va missionerlik harakati // "FarDU. Ilmiy xabarlar" jurnali. 2020-yil, 1-son.
2. Bahouddin Naqshband (manbalar tahlili). To'plab nashrga tayyorlovchi, maqola, izoh va sharhlar muallifi G.N. Navro'zova. – T.: Sano-standart, 2019.
3. Ma'naviyat yulduzlari. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Haj" va "Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/3231366?ONDATE=08.05.2023%2000>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-mayda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/acts/65044>
7. "Xalq so'zi" gazetasi. 1997-yil aprel-may oylari.
8. "Xalq so'zi" gazetasi. 2002-yil dekabr oyi.
9. <http://old.muslim.uz/index.php/rus/maqolalar/item/30424-imom-bukhorij-mazhmuasi-tarikhini-bilasizmi>
10. <https://lex.uz/docs/1592041>
11. <https://meros.uz/uzc/object/abduxoliq-gijduvoni-maqbarasi>
12. <https://president.uz/uz/lists/view/780>
13. <https://www.lex.uz/acts/65108>
14. <https://www.naqshband.uz/makolalar/Anjuman>
15. <https://www.old.islamonline.uz/index.php/item/21536-ahli-sunna-val-jamoa-imomi-imom-abu-mansur-moturidiy>
16. <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/15872-azh-amallari-andaj-ado-etiladi>

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SHVEYSARIYA KONFEDERATSIYASI BILAN HAMKORLIK MUNOSABATLARI TARIXI

Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti  
Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi: **Abduraximov Husniddin**

[abduraximovhusniddin1997@gmail.com](mailto:abduraximovhusniddin1997@gmail.com)

ORCID 0009-0001-7094-0714

UDK 93/94

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasida shiddat bilan rivojlanib borayotgan global dunyoda o'zining qat'iy va mustahkam o'rniga ega bo'lish, ochiq va pragmatik tashqi siyosatini izchil amalga oshirish, jahon xo'jalik aloqalariga axborot, texnologiya va kommunikatsiya jihatidan kirib borishga ko'maklashadigan davlatlararo tuzilmalarga, shu jumladan, iqtisodiy tuzilmalarga ustuvor ahamiyat berishi belgilab qo'yildi.

Shu qatorda Yevropa Ittifoqining nemis tili rasmiy til hisoblangan davlatlar, xususan, Shveysariya Konfederatsiyasi bilan faol munosabatlar o'rnatildi. Mustaqillik yillarida Shveysariya - O'zbekiston o'rtasida bank tizimi, ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, kino sanoati sohasidagi hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. Hamkorlik aloqalari natijasida iqtisodiy imkoniyatlarimizning rivojlanishi, ilm-fandagi yutuqlar hamda milliy sanoatimizning keng targ'ib qilinishi, eksport salohiyating o'sishi kuzatildi. 1992-yil "O'zbekiston-Shveysariya" do'stlik jamiyatining sa'y-harakatlar bilan xalqlarimiz o'rtasida aloqalar insonparvarlik, baynalmilallik, o'zaro ishonch asosida yo'lga qo'yildi. Shveysariya Konfederatsiyasi bank tizimi, madaniy-gumanitar sohalarda dunyo reytingida eng yuqori ko'rsatkichlarni egallab turishi inobatga olinib, ushbu sohalarda tajriba almashinuv olib borildi, hamkorlik dasturlari ishlab chiqildi. O'zbekiston va Shveysariya o'rtasida imzolangan shartnoma va bitimlar har ikkala davlat manfaatlari uchun xizmat qilib kelmoqda. Maqolada O'zbekiston Respublikasining nemis tilida so'zlashuvchi mamlakatlar, xususan, Shveysariya konfederatsiyasi bilan hamkorlik munosabatlari tarixi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Globallashuv, integratsiya, Yevropa Ittifoqi davlatlari, diplomatiya, kooperatsiya, kinofestival, investitiya, suverenitet, kapital, liberallashtirish, prognoz.



**Abstract:** In the foreign policy concept of the Republic of Uzbekistan, in the rapidly developing global world, special attention has been paid to strengthening its firm and strong position, implementing an open and pragmatic foreign policy, contributing to the integration into international structures, particularly in terms of information, technology, and communication, as well as giving paramount importance to intergovernmental frameworks, especially in the economic sphere.

Additionally, close and active relations were established with the Swiss Confederation, where the German, the language of European Union is official language. During the years of independence, cooperation between Switzerland and Uzbekistan has been established in the banking system, science, education, healthcare, and the film industry. As a result of cooperation, the development of our economic opportunities, achievements in science, and the wide promotion of our national industry, as well as the increase in export capabilities, have been noted. In 1992, with the activities of the "Uzbekistan-Switzerland" friendship society, relations between our nations have been established on the basis of humanism, internationalism, and mutual trust. The banking system of the Swiss Confederation, holding the highest positions in the world rankings in the fields of civil society and humanitarian affairs, has been recognized, and experience exchange has been carried out in these areas, and cooperation programs have been developed. The agreements and memoranda signed between Uzbekistan and Switzerland serve the interests of both countries. In the article, the history of cooperation relations of the Republic of Uzbekistan with the German-speaking countries, in particular Swiss Confederation has been analyzed.

**Keywords:** Globalization, integration, EU countries, diplomacy, cooperation, film festival, investment, sovereignty, capital, liberalization, forecast

**Kirish.** Bugungi global dunyoda xalqaro munosabatlar tizimida o‘z o‘rnini munosib egallash, jahon hamjamiyatiga to‘liq integratsiyalashishga intilish dunyoning barcha mamlakatlari qatori O‘zbekiston Respublikasining ham muhim tashqi siyosat vazifalaridan hisoblanadi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi takomillashishi barqaror ichki rivojlanish uchun qulay tashqi muhit shakllantirishni tezlashtirish, xalqaro maydonda mamlakatimiz manfaatini samarali ilgari surish va jahon bozorida milliy iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini izchil ravishda oshirishga xizmat qilishi kerak”[1;2]. Tashqi siyosatimizda ushbu qo‘yilgan vazifalarning bir qismi bugun O‘zbekiston Respublikasi Yevropa Ittifoqining nemis tilida so‘zlashuvchi Germaniya, Avstriya, Shveysariya, Belgiya, Lyuksenburg kabi mamlakatlar bilan manfaatli diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘yib, faol ravishda takomillashtirib kelmoqda. Ushbu mamlakatlar bilan munosabatlar tarixiga D.T. Ziyodullayev[2], S.Y. Umarov[3], Q.A. Matxoliqov[4] kabi tarixshunos olimlar o‘zlarining ilmiy ishlarida, maqola hamda dissertatsiyalarida to‘xtalib o‘tganlar.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta’kidlaganidek: “O‘tmishsiz kelajak, hamkorliksiz taraqqiyot bo‘lmaydi”[5;331]. Har qanday davlatning tashqi siyosati mamlakat xavfsizligini ta’minlash, xalq farovonligiga erishish, jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rnini topishiga qaratilgandir. XVIII asr yapon va xitoy xalqlari achchiq tajribasi “Yopiq eshiklar siyosati”ning salbiy oqibatlarini dunyoga namoyon qildi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, dunyodan ajralib emas, dunyodagi barcha mamlakatlar bilan tenglik asosida hamkorlik qilish, jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini topishiga qaratilgan tashqi siyosat olib bormoqda. Shu qatorda bugungi kunda O‘zbekiston – Shveysariya munosabatlari siyosat, iqtisodiyot, moliya va bank, madaniyat va ta’lim kabi turli sohalarda muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi bilan samarali sheriklik yo‘lga qo‘yilgan. Shveysariyaning yetakchi kompaniyalari bilan kimyo, to‘qimachilik, farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati, sog‘liqni saqlash va turizm sohasida kooperatsiya uchun imkoniyatlar mavjuddir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy tadqiqotni yaratish jarayonida O‘zbekistonning Shveysariya Konfederatsiyasi bilan hamkorligiga tarixiy, qiyosiy tahlil, davriy taqqoslash, xolislik tamoyillari va kompleks yondashuv metodlaridan foydalanildi. Davlatlararo va madaniy munosabatlarning o‘rnatilishi va rivojlanishida davlat, nodavlat, xalqaro

muassasalar va tashkilotlarning o'рни va ahamiyati davriy matbuot nashrlari, ushbu mavzuga oid ilmiy ishlar, avtoreferatlar hamda arxiv hujjatlari asosida o'rganildi. Ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalaridagi hamkorlik aloqalari natijasida o'zbek madaniyatining dunyoga yoyilishi, iqtisodiy imkoniyatlari, investitsiya salohiyatidagi o'zgarishlar hamkorlikdan oldingi davrga qiyoslanib, aniq statistik ma'lumotlar asosida solishtirildi.

**Natijalar va muhokama.** O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach nemis tilida so'zlashuvchi Yevropa Ittifoqi davlatlarining ham ushbu mintaqaga, shu jumladan, yurtimizga ham qiziqishlari ortdi. Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida xalqlarimiz o'rtasida o'rnatilgan o'zaro do'stlik va hamkorlik munosabatlarining asosi tarixiy ildizlarga egadir.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov 1993-yil Germaniyaga rasmiy tashrif safarida "XX asrning dastlabki 10 yilida o'zbek ziyolilari nemis madaniyatini afzal bilganliklari, ushbu mamlakatga jadidlarimizning bir necha bor tashriflari o'zaro aloqalar yaxshi bo'lganligi, ammo Stalin buni barbod qilganligi" haqida so'zladil [11;3]. Shuningdek Birinchi Prezident I.A. Karimov o'zbek va nemis xalqlari hamkorlik munosabatlari tarixi haqida shunday fikr bildirgan edilar: "O'zbek xalqi bilan nemis xalqini yaqin etadigan xislatlar ko'p, har ikki xalq ham mehnatni biladi, do'stni biladi, oqibatni biladi. Xalqlarimizning kelajakda samarali hamkorlik o'rnatishlariga shubha yo'q" [6;1]. Ushbu fikrlarning o'ziyoq xalqlarimiz o'rtasida yaqin do'stlik, hamkorlik, savdo-sotiq va madaniy munosabatlar qadimdan boshlab rivojlanib kelganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston mustaqillik yillarida Yevropa davlatlari bilan har taraflama manfaatli hamkorlikka muhim ahamiyat berdi. Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlikning asosiy sohaları savdo-sotiqni rivojlantirish, investitiya va moliya, zamonaviy texnologiyalar transferi, ilm-fan, texnika, ta'lim, ekologiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va mintaqaviy xavfsizlik kabilar hisoblanadi. O'z o'rnida Yevropa Ittifoqi davlatlari ham Markaziy Osiyoning O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston kabi mamlakatlari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishdan manfaatdor. "2001-yilning kuzidan boshlab Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga qiziqishi ortdi. Yevropa Ittifoqining u yerda faolroq rol o'ynash niyati 2007-yildan 2013-yilgacha bo'lgan davrda 750 million yevroga yaqin mablag'ni taqdim etganligidan ko'rinadi" [7;105].

Mustaqillikning ilk kunlaridan O'zbekiston Respublikasi Yevropa davlatlaridan Shveysariya Konfederatsiyasi bilan aloqalarni mustahkamlashga kirishdi. Shveysariya 1991-yil 23-dekabrda O'zbekiston Respublikasi suverenitetini tan olgan va 1992-yil 7-mayda diplomatik munosabatlarni o'rnatgan.

1992-yilda "O'zbekiston-Shveysariya" do'stlik jamiyatiga ham asos solingan. 1993-yilning may oyida Shveysariya Konfederatsiyasining elchixonasi Toshkentda ochildi. Savdo-iqtisodiy hamkorlik munosabatlari "Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya" tartibga soladi. Bugungi kunga qadar mazkur tashkilotning kengashi 7 marotaba o'tkazilgan. "Hamkorlik munosabatlari o'rnatilgandan buyon yurtimizda Shveysariya hukumati tomonidan 33 ta loyiha amalga oshirildi. Shveysariya investitsiyasi ishtirokida iqtisodiyot, ta'lim, moliya, bank tizimida, tadbirkorlik subyektlari malakasini oshirish hamda suv ta'minoti sohasida 7 ta qo'shma loyiha amaliyotga joriy e'tilmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistondagi 84 ta korxonaga shveysariyalik ishbilarmonlar sarmoya kiritishgan. Ularning 55 tasi qo'shma, qolganlari to'liq Shveysariya kapitaliga ega korxonalaridir. Shuningdek, yurtimizda Shveysariyaning farmatseftika, mashinasozlik, kimyo, oziq-ovqat sanoati hamda sayyohlik xizmati bilan bog'liq 29 ta kompaniyasi

vakolatxonasi akredetatsiyadan o'tkazilgan"[8;3]. Keng hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishi, Shveysariya davlat va nodavlat tashkilotlari bilan tajriba almashinuvi O'zbekistonda ma'lum sohalarida o'sish jarayoni kuzatilishiga olib keldi.

### **Bank tizimida hamkorlik munosabatlari**

Butun dunyoda bank tizimini to'g'ri yo'lga qo'ya olgan, bank sohasining huquqiy negizlarini mukammal ishlab chiqqan mamlakatlar qatorida Shveysariyaning alohida o'rni mavjud. Bank faoliyatida uch asrlik tajribaga ega bo'lgan mamlakatda "Xavfsiz bank" tizimining amal qilishi Shveysariyaning alohida ramziga aylanib ulgurgan. Shu sababli XXI asr boshlarida O'zbekiston Respublikasi hukumati bank faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rnini mustahkamlash, pul-kredit siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida Shveysariya Konfederatsiyasi bilan bank sohasida o'zaro hamkorlik, tajriba almashish munosabatlarini yo'lga qo'ydi. 2007-yildan beri Shveysariya Milliy Bankidagi "Gertsenzi" o'quv markazi tomonidan Bank-moliya akademiyasi talabalari markaziy bank xodimlari uchun o'tkaziladigan seminarlarga taklif qilib kelinmoqda. "Hozirgi kunda akademiyaning 15 dan ortiq talabalari pul-kredit siyosati, inflyatsiyani prognozlash, moliyaviy barqarorlik, moliya bozori vositalari va boshqa mavzularda seminarlarda faol qatnashdilar"[9].

Xalqaro moliyaviy institutlardan tashqari Markaziy bank xorijiy markaziy banklar bilan aloqalarini kengaytirmoqda. Shveysariya Milliy banki boshqaruvchilar Kengashining raisi Tomas Jordan 2017-yil iyulda iqtisodiy hamkorlik doirasida Toshkentga tashrif buyurdi. Muzokaralar chog'ida Tomas Jordan O'zbekistonning pul-kredit, valyuta siyosatini liberallashtirish borasida ko'rilayotgan sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashini bildirdi. Ushbu uchrashuvda Shveysariya milliy banki bilan tajriba almashish bo'yicha hamkorlik qilish kelishuviga erishilgan. 2018-yilning yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank xodimlari Shveysariya Milliy bankida haftalik stajirovka o'tab qaytdilar. Bunda Shveysariya tartibga soluvchi bankining tajribasi hamda xalqaro aktivlarni boshqarish, kommunikatsiya va monetar siyosat instrumentlarini takomillashtirish masalalari o'rganildi. "Bank-Moliya akademiyasi tomonidan 2018/2019-o'quv yilida xalqaro faoliyati doirasida Shveysariya Milliy banki qoshidagi "Gertsenzee o'quv markazi", Avstriyaning "Vena birlashgan instituti" bilan hamkorlikda tashkil etilgan tajriba orttirish dasturi doirasida tinglovchi hamda professor-o'qituvchi va xodimlarning xorijiy mamlakatlarda tajriba orttirish amaliyoti tashkil etildi"[9].

2024-yil 2-aprel kuni Markaziy bankda Shveysariyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Konstantin Obolenskiy bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Markaziy bank rahbariyati tomonidan Shveysariya Milliy banki bilan Markaziy bankning tahlillash va prognozlash hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash potensialini rivojlantirish masalalari doirasida 2018-yildan boshlab amalga oshirilib kelinayotgan hamkorlik ishlari muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlab o'tildi. Bank tizimidagi o'zaro hamkorlik aloqalari mamlakatimiz bank salohiyatining tadrijiy ravishda o'sib borishida o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining rasmiy web saytida e'lon qilingan statistika ma'lumotlaridan ham bu o'sishni yaqqol kuzatish mumkin.

**Bank tizimi faoliyatining 2023-yilga nisbatan 2024-yilda o'sish miqdori [10].**

Ko'rsatkichlar nomi	01.04.2023 y.			01.04.2024 y.			Nomina I o'sishi, foizda	Haqiqiy o'sishi, (devalvat siyani hisobga olmagan holda) foizda
	Jami	shundan, xorijiy valyutada	ulushi foizda	jami	shundan, xorijiy valyutada	ulushi, foizda		
Bank aktivlari, jami	564 548	261 994	46%	665 657	294 388	44%	18%	13%
Kredit qo'yilmalari jami	408 167	191 416	47%	478 201	212 740	44%	17%	12%
Jami depozitlar	206 009	73 963	36%	243 128	71 519	29%	18%	15%
Jami kapital	82 853	366	0,4%	100 713	404	0,4%	22%	22%

**Madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik**

Shveysariya Yevropa Ittifoqining ijtimoiy siyosatni to'g'ri yo'lga qo'ya olgan hukumati sifatida qaraladi. Buni BMTning har yili 20-martda e'lon qilinadigan "Baxtli mamlakatlar reytingi"da doimiy eng yuqori o'nta davlat qatorida qayd etilishi misolida ham tasdiqlab o'tish mumkin. Davlatlararo ijtimoiy munosabatlarda hamkorlik aloqalari, avvalo, fuqarolarning yashash tarzi, ijtimoiy muhiti yaxshilanishiga, ishsizlik darajasining kamayishiga, moddiy farovonlikning o'sishiga olib keladi. 2021-yil 17-dekabrda UNICEF va Shveysariya hukumati nomidan "Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi" o'rtasida "O'zbekistonda bolalar va yoshlarga do'stona munosabatdagi mahalliy boshqaruv tashabbusini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" shartnoma imzolandi. Ushbu tashabbusni amalga oshirish uchun 2022-yilda O'zbekistonning 6 ta shahriga Shveysariya hukumati qariyb 400 ming AQSh dollari miqdorida mablag' ajratdi. Mazkur shaharlar Andijon, Farg'ona, Navoiy, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida tanlab olindi. "Shveysariya elchixonasi, UNICEF va milliy hamkorlarning yoshlar bilan o'zaro hamkorlik orqali qarorlar qabul qilishda mahalliy hokimiyatlar salohiyatini yuksaltirish bo'yicha tashabbusini mamnuniyat bilan qo'llab-quvvatlaydi" – dedi Shveysariyaning O'zbekiston Respublikasidagi elchisi Konstantin Obolenskiy"[11].

UNICEF tashkiloti hamda Shveysariya hukumatining moliyaviy ko'magida "O'zbekistonda bolalar va yoshlarga do'stona munosabatdagi mahalliy boshqaruv tashabbusi"ni qo'llab-quvvatlash natijasida bolalar va yoshlar o'z hayotlariga taalluqli masalalarda shaxsiy huquqlaridan foydalana olish, jamiyatda o'z fikrlarini erkin bildira olish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa bolalarning kasb tanlash erkinligida, so'z erkinligida, jamiyatdagi o'zgarishlarga o'z munosabatini bildira olishida bevosita ta'sir etadi. Bu loyihaning samarasi o'laroq har yili muntazam ravishda BMT tomonidan e'lon qilinadigan "Baxtiyor mamlakatlar reytingi"da O'zbekistonning o'rnida ko'tarilish ko'rildi. Chunki bu reytingda mamlakatda fuqarolik erkinliklari, xavfsizlik va kelajakka ishonch hissi mavjudligi, shuningdek, oilalarning barqarorligi ko'rsatkichlari ham inobatga olinadi. "Baxtiyor mamlakatlar reytingi"da O'zbekiston Respublikasi 148 mamlakat orasida 2023-yil 20-mart holatida 54-o'rinda, "2024-yil 20-mart holatiga ko'ra 47-o'rinda, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida esa 1-o'rinda qayd etildi" [12;15].

Sotsiologlarning ilmiy tadqiqotlariga ko'ra, yosh avlod bilan do'stona muloqotning yo'lga qo'yilishi, fikrlari inobatga olinishi jamiyatda yoshlar orasidagi jinoyatlar ma'lum miqdorda kamayishi, ijtimoiy-psixologik muhitni ijobiy tomonga burilishiga sabab bo'ladi. Sinov loyihasining ijobiy samarasi kelajakda yanada qo'llab-quvvatlanishi va amaliyotga kengroq joriy etish uchun asos bo'ladi.

### **Ta'lim, ilm-fan sohasidagi munosabatlar**

Shveysariya kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim tizimi dunyo ta'lim sifatida eng yuqori o'rinlarda qayd etib kelingan. Shveysariya yuqori turmush darajasiga ega mamlakatdir va hayot sifati Shveysariya xalqi uchun juda muhim hisoblanadi. Buning uchun ta'lim tizimini moliyalashtirish, tashkil etish va baholashga alohida e'tibor qaratadi. Mamlakatimizda esa ayni damda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar davrida Shveysariya tajribasi bilan tanishish va tatbiq etish juda muhim sanaladi. 2023-yil 5-iyul Shveysariya Tashqi ishlar vaziri Ignasio Kassis Samarqandga rasmiy davlat tashrifi doirasida O'zbekistonning ko'p asrlik tarixiga qiziqishi, mamlakatimizning barqaror rivojlanishi yo'lidagi islohotlarni doimiy qo'llab-quvvatlashi, ta'lim, sog'liqni saqlash, yashil texnologiyalar, savdo va boshqa sohalardagi hamkorlikni kengaytirishga tayyorligini ma'lum qildi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri B.O. Saidov ushbu hamkorlik muzokaralariga shunday izoh bildiradi –“Qadrli hamkasbim, Shveysariya Tashqi ishlar vaziri Ignazio Kassis Janobi Oliylari bilan uchrashishdan mamnun bo'ldik. Biz siyosatdan tortib turizmga bo'lgan keng qamrovli ikki tomonlama munosabatlarimizning boy kun tartibini muhokama qildik, O'zbekiston va Shveysariya tashqi ishlar vazirliklari oldiga yaqin aloqalarimizni mustahkamlashga qaratilgan ustuvor vazifalarni belgilab oldik. O'zbekistonning ko'p asrlik tarixiga qiziqishi, mamlakatimizning barqaror rivojlanishi yo'lidagi islohotlarni doimiy qo'llab-quvvatlashi, ta'lim, sog'liqni saqlash, yashil texnologiyalar, savdo va boshqa sohalardagi hamkorlikni kengaytirishga tayyorligi uchun vazir janoblariga samimiy minnatdorchiligimizni bildiramiz”[13]. Ikki mamlakat tashqi ishlar vazirlari tomonidan alohida urg'u berilgan ta'lim sohasida hamkorlik munosabatlarining amaliy natijalariga bevosita e'tibor qaratib o'tish lozim.

Shveysariya professional ta'lim tizimi AVIVA va IPERCA kabi zamonaviy vositalar va yondashuvlardan, shuningdek, kognitiv o'qitish uslublaridan samarali foydalangan holda zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlaydi. Ushbu tizimdan samarali foydalanish hamda O'zbekiston professional ta'limida zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida hamkorlikda seminar-trening jarayonlari o'tkazildi. “2023-yil 10-12-oktyabr kunlari Shveysariyaning “O'zbekistonda professional ta'lim islohotini qo'llab-quvvatlash” loyihasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Professional ta'limni rivojlantirish institutida “Professional ta'limda vaziyatga asoslangan o'qitish” mavzusida trening bo'lib o'tdi. Mazkur trening professional ta'limda o'qitishning zamonaviy shakllari va uslublarini qo'llash orqali O'zbekistonda ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan bo'lib, Shveysariya tajribasi asosida milliy trenerlarni tayyorlashga qaratilgan. Tayyorlangan milliy trenerlar keyinchalik hududlardagi professional ta'lim muassasalari o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi ustalari bilan egallagan bilim va ko'nikmalarini o'rtoqlashadilar”[14]. Bu hamkorlik loyihalari Shveysariya ta'lim doiralari bilan tajriba almashgan holda, ta'lim tizimida islohotlar mazmunini yaxshilash, zamonaviy Yevropa metodlarini o'rganish hamda amaliyotga joriy etishda o'zining ijobiy samarasini berib kelmoqda.

2023-yil 25-noyabrda “Swiss Education Group” mehmonxona va restoran biznesi uchun Shveysariya yetakchi ta'lim guruhi mas'uli, Shveysariya ta'lim guruhining

Markaziy Osiyo va Turkiyadagi vakolatxonasi direktori janob Dastan Seitkazin Qo‘qon universiteti rektori Sherzod Mustafakulov hamrohligida Qo‘qon universiteti va Shveysariyaning fransuz va nemis tilida so‘zlashadigan mintaqalarida joylashgan 5 ta yetakchi oliy o‘quv yurtini birlashtirgan kompaniya o‘rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi. Me‘morandumda “3+1” dasturi doirasida Universitet talabalarining Shveysariyada bir yil o‘qishlari uchun hamkorlik dasturi ishlab chiqildi. 2017-yilda qabul qilingan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi”da “uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta‘lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta‘lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish” belgilab qo‘yilgan[15]. Shveysariya ta‘lim doiralari bilan tajriba almashish, ilg‘or ta‘lim dasturlari imkoniyatlaridan foydalanish “Harakatlar strategiyasi”da belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qila oladi.

**Xulosa va takliflar.** Shveysariya rivojlangan texnologiyalarga boy mamlakat, O‘zbekiston esa xomashyo va ishchi kuchiga bo‘ydir. Bu ikki davlat hamkorligi har ikki tomon manfaatlari uchun ijobiy rol o‘ynashi tabiiydir. Shveysariyaning to‘qimachilik uskunalari ishlab chiqaruvchi “Rieter Management AG” kompaniyasi O‘zbekistonda paxta tolasidan tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashi yuqoridagi fikrimizga asos bo‘la oladi.

Qadimdan Buyuk Ipak yo‘li markazida joylashgan mintaqamiz nafaqat savdo, balki butun dunyo davlatlari o‘rtasidagi madaniy aloqalar almashinuvidagi o‘ziga xoslik, ellinizm, g‘arb va sharq madaniy yutuqlaridan ustalik bilan faoydalana olish bilan ham yaqqol farqlanib turgan. O‘zbek va nemis xalqlarining yaqinlashuvi ular o‘rtasida madaniy aloqalarning kengayishida ham ko‘zga tashlandi. “Nurullaboy” saroyidagi nemis ustalari tomonidan tayyorlangan g‘arb uslubidagi qurilish jarayoni, Xudoybergan Devonov hamda Vilgelm Penner orqali dastlabki kino madaniyatining vujudga kelishi hamda ushbu aloqalarning XXI asrdagi davomi sifatida O‘zbekistonning Germaniya, Shveysariya, Avstriya bilan hamkorlikda “Shum bola” kinofestivalining har yilda o‘tkazilishi qadimdan o‘rnatilgan yaqin va do‘stona hamkorlikning bugun ham davom etayotganligidan dalolatdir. Milliy kinofilmlarni xalqaro miqyosda keng targ‘ib etish, eksport salohiyatini oshirishda ushbu kinofestivallarning ahamiyati katta. Shveysariya ham ko‘p madaniyatli va xilma-xil aholiga ega bo‘lgan mamlakat ekanligi, boy qadimiy tarixi mamlakatlarimiz madaniy jihatdan o‘xshash ekanligining dalolatidir.

Bank sohasida tajriba almashinuvning yo‘lga qo‘yilishi bu tizimning yangi darajaga ko‘tarish, tizimdagi kamchiliklarning bartaraf etish, raqamli iqtisodiyotning o‘rnini yanada oshirish uchun asos bo‘ldi.

Shveysariya ta‘lim doiralari bilan hamkorlik aloqalari Yevropa ilg‘or ta‘lim metodlari yutuqlaridan foydalanish va amalda ularni mamlakatimiz ta‘lim tizimida qo‘llash imkonini yaratib berdi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasining Urganch filiali bilan Zyurix, Bern, Lazanno, Jeneva va Davos universitetlari o‘rtasida astronomiya, fizika, biofizika, tarix, tibbiyot, genetika sohalarida qo‘shma tadqiqotlar o‘tkazilmoqda.

O‘zining ijobiy natijasini bergan hamkorlik dasturlarini yanada mustahkamlash, amaliyotga kengroq joriy etish kerak. Teatr sohasida Shveysariya tajribasi o‘rganilishi kerak. “Nachbarschaftstheater” deb nomlangan bu dasturda “Mahalla teatr jamoasi” yaratilib, teatr aktyorligiga qiziquvchi yosh isde‘dodlar tanlab olinadi va o‘zlarining ilk

ijodlarini shu jamoa bilan boshlashadi. Bu sohadagi tajriba almashinuvi mamlakatimiz madaniy sohasida ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. / "Xalq so'zi" gazetasi. 2021-yil 16-yanvar. №11(7791)
2. Tojiddin o'g'li, Z. D. (2023). Germaniya va O'zbekiston o'rtasida diplomatik munosabatlar tarixi (1991-2021). *PEDAGOG*, 6(4), 617-620.
3. Аббасова, К. З. (2023). Республика Узбекистан и Федеративная Республика Германия в контексте международных отношений: сотрудничество и вызовы. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 3(2).
4. Matxoliqov Q.A. "O'zbekiston Respublikasi va Yevropaning Frankofon davlatlari o'rtasidagi madaniy aloqalar tarixi (Fransiya, Shveysariya va Belgiya misolida, 1991-2005-yillar)". Tarix fan. nomz. ...diss. avtoref.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-tom. – T.: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Katta og'a bo'lmasligi kerak / "Xalq so'zi" gazetasi, 1993-yil 6-may.
7. Die Artikel Andrea Schmitzs "Die Europäische Union und Zentralasien–Interessen, Instrumente, Einflussgrenzen". Das Buch "Wegweiser zur Geschichte Usbekistan"
8. O'zbekiston-Shveysariya: Samarali hamkorlik kengaymoqda / "Xalq so'zi" gazetasi 2018-yil 14-iyul. №144(7102)
9. Bank-Moliya akademiyasi rasmiy web sahifasi <https://bfa.uz/> "Xalqaro aloqalar va dasturlar" bo'limidan.
10. <https://cbu.uz/uz/statistics> "O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan e'lon qilingan rasmiy statistika ma'lumotlari asosida tayyorlangan jadval"
11. <https://www.unicef.org/> "UNICEF"ning rasmiy web sayti ma'lumotlar ro'yxatidan.
12. John F. Helliwell, Richard Layard, Jeffrey D. Sachs, Jan-Emmanuel De Neve, Lara B. Akinin, and Shun Wang "World Happiness Report 2024"
13. O'zbekiston Respublikasi TIV rasmiy sahifasi <https://t.me/uzbekmfa> 2023-yil 5-iyul.
14. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral "PF-4947-sonli "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi" farmoni.

## XALQARO MUNOSABATLARNI TADQIQ QILISHDA SUN'IY INTELEKT TEXNOLOGIYALARI

**Bafoyev Feruz Murtazoyevich,**  
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti  
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, siyosiy fanları nomzodi,  
[feruzbafoyev@gmail.com](mailto:feruzbafoyev@gmail.com)  
0009-0003-0124-5640

**Annotatsiya:** Maqolada xalqaro munosabatlarda sun'iy intellekt texnologiyasini qo'llash imkoniyatlari muhokama qilinadi. Xalqaro aloqalarni tadqiq qilish sohasi sun'iy intellekt o'sishi ta'siri ostida sezilarli darajada o'zgardi. Sun'iy intellektning rivojlanishi bilan u tadqiqotchilarning jahon siyosatini o'rganishga yondashuvlarini o'zgartiradi. Ushbu maqolada sun'iy intellektning xalqaro munosabatlar tadqiqotlariga ta'siri nazariya va amaliyot nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Sun'iy intellekt to'rtinchi sanoat inqilobining muhim elementidir. Uning jadal rivojlanishi va amaliyotda qo'llanilishining kengayishi ushbu hodisani huquq sohasiga "qo'shish"ni taqozo etadi. Sun'iy intellektni rivojlantirish va qo'llash bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu tarzda jamoatchilik bilan aloqalarni tartibga solish murakkab vazifa bo'lib, mutaxassislar qaysi sohalar va faoliyatni tartibga solish kerakligi haqida turli xil qarashlarga ega va tartibga solishga taklif etilayotgan yondashuvlar turli mamlakatlarda sezilarli darajada farq qiladi. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish blokini shakllantirishda turli mamlakatlar hukumatlari o'rtasida kelishilgan pozitsiyani ishlab chiqish muhim, buning uchun bunday tartibga solishni yaratish ehtiyojlarini tushunish kerak. Bu mazkur mavzu bo'yicha nazariy tadqiqotlar olib borish va tegishli yo'nalishda o'quv kurslarini yaratishga turtki bo'lmoqdaligi muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** jahon siyosati, xalqaro munosabatlar, sun'iy intellekt, geosiyosat, milliy manfaatlar, siyosiy ustunlik, kiberhujum, raqamlashtirish.

## ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE RESEARCH OF INTERNATIONAL RELATIONS

**Abstract.** The article discusses the possibilities of using artificial intelligence technology in international relations. The field of international relations research has changed significantly under the influence of the rise of artificial intelligence (AI). As artificial intelligence advances, it will change the way researchers approach world politics. This article examines the impact of artificial intelligence on international relations research from the perspective of theory and practice. Artificial intelligence is an important element of the fourth industrial revolution. Its rapid development and the expansion of its application in practice require "adding" this phenomenon to the field of law. The regulation of public relations related to the development and use of artificial intelligence is a complex task in one way or another, and experts have different views on which areas and activities should be regulated, and the proposed approaches to regulation differ in different countries. It is important to develop an agreed position among the governments of different countries in the formation of a legal regulatory block of artificial intelligence, for this it is necessary to understand the needs of creating such a regulation. It is discussed that this is the motivation to conduct theoretical research on this topic and create educational courses in the relevant direction.

**Keywords:** world politics, international relations, artificial intelligence, geopolitics, national interests, political supremacy, cyberwarfare, digitalization.

**Kirish.** Bugungi kunda dunyoning yetakchi mamlakatlari hayotimizning barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatadigan sun'iy intellekt va kvant hisob-kitoblari kabi yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish borasida raqobatlashmoqda.

Raqamlashtirish va raqamlashtirish infratuzilmasi hozirgi zamon taraqqiyoti o'zagini tashkil etmoqda hamda "raqamli texnologiyalar, jumladan, yangi texnologiyalar va sun'iy idrok afzalliklarining eng yuqori darajaga yetkazuvchi" inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam bermoqda [1].

Ma'lumki, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari To'rtinchi sanoat inqilobining asosiy omillaridan hisoblanadi va ayni paytda global, mintaqaviy va milliy xavfsizlik, u yoki bu davlatning milliy manfaatlarini himoya qilish, samarali tashqi siyosatni yuritish



nuqtayi nazaridan e'tiborni talab etadi.

Xususan, SI sohasidagi ishlanmalar Xitoyda diplomatlar tomonidan xalqaro maydondagi voqea-hodisalar rivoji ssenariylarini ishlab chiqishda faol foydalanilmoqda. Shuningdek, SI XXR iqtisodiy diplomatiyasi doirasida savdo muzokaralariga nisbatan tobora ko'proq foydalanilmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ayni paytda, SI dan nazoratsiz foydalanish suiste'molchiliklarga, ma'naviy-axloqiy mo'ljallarning, ijtimoiy integratsiyaning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan kun tartibiga umumiy regulativ muhitni yaratish orqali kundalik hayotimizga uyg'un, jamiyat va davlat asoslariga, u yoki bu mamlakatning milliy manfaatlariga zarar yetkazmaydigan eng so'nggi SI texnologiyalarini joriy etish, uning axloqiy omillarini normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlash hamda ularni qo'llash bo'yicha har qanday tavakkalchiliklardan saqlanish kabi muhim vazifalar qo'yilmoqda.

BMT Bosh Assambleyasi "Barqaror rivojlanish uchun xavfsiz, himoyalangan va ishonchli sun'iy intellekt tizimlarining imkoniyatlaridan foydalanish" nomli rezolyutsiyani qabul qildi. Mazkur rezolyutsiyaning ishlab chiqishda ishtirok etgan hammuallif davlatlar orasida O'zbekiston ham bor. Rezolyutsiyaning asosiy nuqtalariga quyidagilar kiradi:

- "raqamli transformatsiyaning barcha mamlakatlar, shu jumladan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun afzalliklaridan teng va teng huquqli foydalanishni ta'minlash zarurati;
- "SI dan foydalanish tinchlikka zid bo'lmasligi yoki insonning asosiy huquqlarini poymol etmasligi kerak";
- "mamlakatlar va kompaniyalar SI tizimlarida tarafkashlik va kamsitishlarning oldini olishga alohida e'tibor berishlari kerak";
- "SI ning samarali va xavfsiz rivojlanishini ta'minlash uchun SI sohasidagi innovatsiyalar va tartibga solish bir-birini to'ldirishi kerak [2]".

G7 ning 2023-yil 30-aprelida bo'lib o'tgan sammitida ta'kidlanganidek, texnologiyalar, shu jumladan, SI kabi yangi va istiqbolli texnologiyalar faol loyihalashtirilmoqda, ishlab chiqilmoqda, qo'llab-quvvatlanmoqda, boshqarilmoqda, xarid qilinmoqda va moliyalanmoqda. Ammo ularni "sotilishi va foydalanishi demokratik tamoyillarga, jumladan, tenglik, inklyuzivlik, barqarorlik, shaffoflik, hisobdorlik, xilma xillik va inson huquqlarini himoya qilish, xususan, shaxsiy hayotning daxlsizligi kabi qadriyatlarga sodiqlik bilan belgilanishi kerak".

G7 texnologik tuzilmalarni, transmilliy kompaniyalarni "mas'uliyatli bo'lishga, BMT ning inson huquqlariga oid qarashlari nuqtayi nazaridan tadbirkorlikning rahbariy tamoyillariga sodiqlikni mustahkamlashga da'vat etadi (The United Nations Guiding Principles on Business and Human Rights (UNGPs) [3]".

Jahon hamjamiyati, yirik mamlakatlar SI ni inklyuziv boshqarish bo'yicha xalqaro munozaralar, "demokratik qadriyatlarga muvofiq ishonchli SI ni yaratish" uchun umumiy nuqtayi nazar va maqsadlarga erishish uchun birlashish g'oyasini ilgari surmoqda [4].

Xususan, 2016-yilda SI tamoyillari bo'yicha keng ko'lamli xalqaro munozara o'tkazish g'oyasi ilgari surildi. Ushbu muhokama 2019-yilda SI bo'yicha tavsiyalar tomon ilgari harakatlanish (ya'ni, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (IHRT) Sun'iy intellektga oid tamoyillari) hamda u bilan bog'liq ravishda Siyosiy observatoriya va IHRT ning SI bo'yicha ekspertlar tarmog'ini ishga tushirish imkonini yaratdi. 2020-yilda Sun'iy intellekt bo'yicha global hamkorlikning ishga tushirilishi qo'llab-quvvatlandi (GPAI) [5].

Yuqorida tilga olingan IHRT amalda SIga oid yangi texnologiyalardan foydalanish bo'yicha qoidalarni ishlab chiqish, barcha mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan yetkazib berishlar zanjirining xavfsizligini mustahkamlashga ko'maklashish uchun asosiy

xalqaro anjumanga aylandi.

Hisobotlardan ma'lum bo'lishicha, BMTda, SI texnologiyalaridan amalda faol foydalanilmoqda. Jumladan, 2018-yilda "BMTning sun'iy idrok sohasidagi faoliyati" hisoboti chop etildi. Unda tashkilotning qator muassasalarida yuqorida tilga olingan texnologiyalardan tajriba tariqasida foydalanilayotgani bayon qilinadi. Bunda, neyrotarmoqlar modellarining to'plami nihoyatda rang-barang bo'ladi. Ularning vazifasiga, asosan, ma'lumotlarni to'plash va ularga ishlov berish, axborot ishlov berilishi kiradi [6].

Qozog'iston rahbari Q.J. To'qayev tomonidan bu borada bildirilgan g'oyalar diqqatga sazovor. "Mohiyatan, biz allaqachon sun'iy intellekt, mashina orqali o'rganish va neyron tarmoqlari davrida yashayapmiz", - deya ta'kidlaydi Prezident Q.J. To'qayev. – Bu o'rinda inson faoliyatining barcha sohalari: iqtisodiyot, xavfsizlik, tibbiyot va hatto siyosat haqida so'z bormoqda. Boshqacha aytganda, sun'iy intellekt odamlar uchun odatiy holga aylandi. COVID-19 pandemiyasi fonida, hatto faoliyatining xususiyatiga ko'ra tizimli tahlilini o'tkazmaydigan, IT-texnologiyalari va raqamli texnologiyalar sohasida mutaxassis bo'lmagan oddiy odamlar ham bu o'zgarishlarni angladi" [7].

Ekspertlarning fikricha, boshqa jiddiy tahdidlar ham mavjud, bunga masalan, SIDan qurolli to'qnashuvlar paytida, geosiyosiy qarama-qarshiliklarda SI dan qurol sifatida foydalashni misol qilib keltirish mumkin. Xavfsizlikka tahdidlar va qurollanish ustidan nazorat SI ga oid eng yangi kibertexnologiyalar sohasidagi ziddiyatlar shaklida chuqurlashib borishi mumkin.

**Natijalar va muhokama.** Yuqori darajada rivojlangan SI texnologiyalariga ega bo'lgan alohida davlatlar, siyosiy bloklar va hatto transmilliy kompaniyalar maxsus maqomga da'vo qila boshlashi va boshqa mamlakatlarga o'z shartlarini qo'ya boshlashi mumkin. K.J. To'qayev ta'kidlaganidek, qiyosiy tahlillarga tayanadigan bo'lsak, "bir paytlar atom quroliga ega bo'lish xavfsizlik tizimining paritet va o'zaro tiyib turishga asoslangan mutlaqo yangi paradigmasini barpo etish zaruriyatini belgilab bergan edi" [8].

Hozirgi paytda SI jahon siyosatining o'ta murakkab muammosiga aylanib bormoqda. Navbatdagi tavakkalchilik, ya'ni qurollanishning axborot poygasi paydo bo'lmoqda. Bu esa haqiqatdan ham muhim bo'lgan masalalar: kambag'allikka, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash, sog'liqni saqlashning global tizimini rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yo'naltirilishi mumkin. Ehtimol, deb ta'kidlaydi Q.J. To'qayev, "jahonning yetakchi siyosiy doiralari sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan odamlarga zarar yetkazish va ularning huquqlarini buzish maqsadida foydalanmaslik to'g'risida memorandum qabul qilish masalasini o'ylab ko'rishi kerak". Bunday hujjat inson uchun o'ziga xos ma'naviy-axloqiy pakt, sun'iy intellekt va uni ishlab chiquvchilar uchun kategorik qat'iy talabga aylanadi [9].

Shuningdek, SI ning jahon siyosatidagi o'rni haqida AQSh ma'muriyati tomonidan bildirilgan nuqtayi nazar e'tiborga loyiq. "Sun'iy intellekt kabi yangi texnologiyalar zaminida ulkan salohiyat ham, ulkan xavf ham yashirin, – deb ta'kidlaydi Dj.Bayden. – Biz ulardan o'zgalarni ezish quroli sifatida emas, imkoniyatlar vositasi sifatida foydalanilayotganligiga ishonchimiz komil bo'lishi kerak. AQSh sun'iy intellekt texnologiyalari xavfsizligini ta'minlash maqsadida ulardan ommaviy foydalanishgacha bo'lgan siyosiy qoidalar va choralarni takomillashtirish bo'yicha ish yuritmoqda. Maqsadimiz ushbu texnologiyalar bizni emas, balki biz ushbu texnologiyalarni boshqarishimiz kerak". AQSh "sun'iy intellektdan barchaning maqsadi yo'lida foydalanishi, ayni paytda fuqarolarimizni ular bilan bog'liq bo'lgan jiddiy xavflardan himoya qilishi kerak"[10].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bo'lajak siyosatshunoslarni "Jahon siyosati

va xalqaro munosabatlar tadqiqotlarida sun'iy intellekt texnologiyalari" kursidagi quyidagi mavzular bo'yicha o'qitish tavsiya qilinadi:

Sun'iy intellekt texnologiyalari: umumiy bazaviy yondashuvlar va asosiy usullar.

Jahon siyosati va xalqaro munosabatlar makonida sun'iy intellekt texnologiyalari: ayrim fundamental tushunchalar.

Sun'iy intellekt texnologiyalari davlatlar, tashkilotlar va yetakchilarning maqbul imidjini shakllantirish bo'yicha yuqori texnologik vosita sifatida.

Sun'iy neyron tarmoqlarga kirish.

Ommaviy diplomatiya va ma'lumotlar diplomatiyasi.

Tashqi siyosatda strategik rejalashtirishning zamonaviy nazariyalari.

Xalqaro munosabatlarda sun'iy intellekt texnologiyalaridan yovuz maqsadlarda foydalanish.

SI texnologiyalarini normativ-huquqiy tartibga solish: xalqaro va milliy tajriba.

Sun'iy intellekt va global, mintaqaviy hamda xalqaro xavfsizlik siyosati.

Global, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik siyosati masalalarida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt.

Jahon siyosati va xalqaro munosabatlarga oid tadqiqotlarda sun'iy intellekt kelajagi: muammolar va istiqbollari.

Ma'lumki, SI ning ko'plab zamonaviy tizimlari G'arb mamlakatlari (rivojlangan) bozorga mo'ljallangan, g'arbiy axloqni (individualizm axloqini), xatti-harakatlar me'yorlarini, u yoki bu davlatning milliy manfaatlariga zid bo'lgan davlat siyosatini aks ettiradi. Bundan anglashiladiki, o'zgarlar ishlanmalarining monopol yetakchiligiga har doim ham "ko'z yumib" bo'lmaydi, bu xavfli bo'lib, bunga yo'l qo'yish mumkin emas.

Shu bilan birga mamlakatimizdagi (Yangi O'zbekistonga oid) SI modellari o'zbek xalqining milliy madaniyati, tarixiy-madaniy merosi, bilimlari, donishmandligining butun boyligini va xilma-xilligini aks ettirishi zarur. Natijada Yangi O'zbekiston bundan yanada badavlat va raqobatbardosh bo'lib boradi. Shuningdek, o'zbek tilining boyligi va go'zalligi o'zbekistonliklarning SI bo'yicha ishlanmalarining asosini tashkil etishi kerak.

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq va sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va mamlakatimizda keng qo'llanilishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, raqamli ma'lumotlardan foydalanish va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida ushbu sohada 2021–2022-yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarini o'rganish va joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi; 2021–2022-yillarda amalga oshiriladigan sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha sinov loyihalarining ro'yxati tasdiqlandi.

Eslatib o'tamiz, jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-ma'rifiy merosini chuqur o'rganish va xalqaro miqyosda keng targ'ib etish, jamiyatimizda sun'iy intellekt sohasidagi axloqiy qarashlar, inklyuzivlik va madaniy rang-baranglikni rag'batlantirish maqsadida **O'zbekiston va YUNESKO o'rtasidagi ilmiy-madaniy aloqalarni yanada kengaytirish maqsadida YUNESKO bilan hamkorlikda YUNESKO-O'zbekistonning sun'iy intellekt sohasidagi axloqni targ'ib etish orqali ilmiy muloqotni rag'batlantirish bo'yicha Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro mukofoti ta'sis etildi.**

Hozirgi zamon siyosiy fanlarida dunyoning turli mintaqalaridagi vaziyatlarning rivojlanishini modellashtirish masalalariga, jumladan, bunda SI texnologiyalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mutaxassislarining fikricha, indikativ rejalashtirish vositalarini ishlab chiqish va joriy etish strategik rejalashtirishning barcha bosqichlari va darajalarida strategik maqsadlarga erishish darajasini baholash imkonini

beradi.

Xullas, jahon siyosati va xalqaro munosabatlarni tadqiq qilishda qaysi yoʻnalishlarda SI dan foydalanish koʻzda tutilmoqda?

Bu, eng avvalo:

– SI ni qoʻllash tamoyillari va yoʻnalishlarini, qisqa, oʻrta va uzoq muddatli istiqbolda ushbu sohani tizimli shakllantirish shartlarini belgilovchi siyosiy modellashtirishda sunʼiy idrokdan foydalanish Strategiyasini ishlab chiqish;

– ijtimoiy-gumanitar fanlarda (xususan, siyosiy fanlar) va davlat boshqaruvi tizimida sunʼiy idrok texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishda talablar, masʼuliyat, xavfsizlik va shaffoflikni belgilovchi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish;

– muayyan bir davlatning milliy manfaatlariga mos keladigan turli vaziyatlarni prognozlashni takomillashtirish, talab qilinadigan tahliliy mahsulotni yaratish maqsadida maʼlumotlarni qayta ishlash samaradorligini oshirish uchun sunʼiy idrok texnologiyalarini keng qoʻllash;

– SI sohasida keyinchalik ularni tijoriylashtirish (kommersializatsiya) koʻzda tutilgan holda qarorlarni ishlab chiqish boʻyicha ilmiy tadqiqotlar oʻtkazilishini ragʻbatlantiruvchi innovatsion ishlanmalarni yaratish;

– SI texnologiyalaridan foydalangan holda dasturiy taʼminotni yaratuvchilar uchun raqamli maʼlumotlardan foydalanish boʻyicha shart-sharoitlarni yaratish, axborot-tahlil tuzilmalar maʼlumotlarining jadal raqamlashtirilishini taʼminlash;

– jumladan, tahliliy mahsulotning ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish maqsadida SI sohasidagi ilmiy ishlar va ishlanmalarning investitsiyaviy jozibadorligini yanada yuksaltirish;

– mahalliy olimlar, ekspertlar va mutaxassislarning sunʼiy intellekt sohasidagi eng yangi axborot resurslari va malakalaridan foydalanishini taʼminlash, shuningdek, zarur taʼlimiy-maʼrifiy muhitini rivojlantirish;

– qoʻshma xalqaro ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish, milliy kadrlar tayyorlash (ayniqsa, yoshlar oʻrtasida) va ularning malakasini oshirish uchun sunʼiy intellekt sohasidagi xalqaro hamkorlikni va uni qoʻllash texnologiyalarini rivojlantirish.

**Xulosa va takliflar.** Sunʼiy idrok texnologiyalaridan foydalanish markazlari jahon siyosati va xalqaro munosabatlarni oʻrganish borasida qanday imkoniyatlarga ega? U barcha maʼlumotlar bazalariga kirish imkoniyatiga ega boʻladi hamda Oʻzbekistonning boshqa hududlaridagi va boshqa mamlakatlardagi shu kabi markazlar bilan oʻzaro yaqin aloqada boʻladi, bu esa real vaziyatni, masalan, real statistikani onlayn tarzda koʻrish imkonini beradi.

Tashqi siyosat boʻyicha tahliliy platformadan foydalangan holda vaziyatni monitoring qilish, boʻlajak voqealar ssenariylarini yaratish mumkin. Bundan tashqari, muayyan ofisda innovatsion loyihalarni ishga tushirish imkoniyati paydo boʻladi.

Tashqi siyosatni shakllantirish, xalqaro jarayonlarni tahlil qilish va samarali yechimlarni ishlab chiqish jarayonida qayd etilgan yoʻnalishlar, SI texnologiyalarini keng joriy etish boʻyicha tajriba almashish muhim ahamiyatga ega [11].

Albatta, jahon siyosati va xalqaro munosabatlarni tadqiq qilish jarayonida sunʼiy intellekt texnologiyalaridan foydalanish doirasida muqarrar ravishda diplomatik idoralar faoliyati va tahliliy amaliyotning raqamli oʻzgarishlar (transformatsiya) sodir boʻladi. Sunʼiy intellekt muzokaralar uchun mavzu, muzokaralarni olib borish uchun muhitni shakllantirish omilidir. Ushbu sohada sunʼiy intellektdan foydalanish diplomatiyada axborot xavfsizligi, ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy maʼlumotlarni himoya qilish va algoritmik notoʻgʻri qarashlar taʼsirini yumshatishning muhim masalalarini ilgari suradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Ministerial Declaration The G7 Digital and Tech Ministers' Meeting. 30 April 2023. // [www.g7hiroshima.go.jp](http://www.g7hiroshima.go.jp).
2. Резолюция ГА ООН A/78/L.49 Использование возможностей безопасных, защищенных и надежных систем искусственного интеллекта для устойчивого развития. URL: <https://documents.un.org/doc/undoc/ltd/n24/065/94/pdf/n2406594.pdf?token=yEq2KiGFWwzO97wA91&fe=true>
3. Ministerial Declaration The G7 Digital and Tech Ministers' Meeting. 30 April 2023. // [www.g7hiroshima.go.jp](http://www.g7hiroshima.go.jp)
4. G7 Hiroshima Leaders' Communiqué. May 20, 2023. // [www.g7hiroshima.go.jp](http://www.g7hiroshima.go.jp)
5. Ministerial Declaration The G7 Digital and Tech Ministers' Meeting. 30 April 2023. // [www.g7hiroshima.go.jp](http://www.g7hiroshima.go.jp)
6. Солодов Д.А., Шиверов П.К., Иванова П.Н. Искусственный интеллект в международных отношениях и дипломатической службе // Вестник Дипломатической академии МИД России. Россия и мир. – 2020. – №4(26). – С.79-94.
7. Конференция по искусственному интеллекту. 4 декабря 2020 г. // Веб-сайт президента РФ – [kremlin.ru](http://kremlin.ru).
8. Конференция по искусственному интеллекту. 4 декабря 2020 г. // Веб-сайт президента РФ – [kremlin.ru](http://kremlin.ru).
9. Конференция по искусственному интеллекту. 4 декабря 2020 г. // Веб-сайт президента РФ – [kremlin.ru](http://kremlin.ru).
10. Remarks by President Biden Before the 78th Session of the United Nations General Assembly | New York, NY. September 19, 2023 // [whitehouse.gov](http://whitehouse.gov)
11. Гришанина Т.А. Искусственный интеллект в международных отношениях: роль и направления исследования // Вестник РГГУ. Серия: Политология. История. Международные отношения. – 2021. – №4. – С.10-18.

## SHAXS FUQAROLIK MADANIYATINING IJTIMOYIY AHAMIYATI

**Qodirov Fazliddin Yuldoshovich**

QarDU falsafa va sotsiologiya kafedrası katta o'qituvchisi  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

[Fazliddin3210@umail.uz](mailto:Fazliddin3210@umail.uz)

ORCID:53221-72924-380

UDK:159.316.6:608

**Annotatsiya.** Maqolada shaxs fuqarolik madaniyati nazariy modelining tarkibiy elementlari va muhim jihatlari xususida fikr yuritiladi. Xususan, Yangi O'zbekiston barpo etish sari shiddat bilan amalga oshirilayotgan islohotlar xalq manfaatlarini ko'zlar ekan, bu yo'lda fuqarolar faolligi muhim va hal qiluvchi rol o'ynaydi. Zero, fuqarolar faolligi fuqarolik jamiyati qurishning bosh mezoni hisoblanadi. Mazkur dolzarblik nuqtayi nazaridan maqolada shaxs fuqarolik madaniyatining ilmiy muomalaga kiritilishi, uning nazariy modelining tarkibiy qismlari, ya'ni fuqarolik ongi va fuqarolik faoliyati komponentlarining ham o'z navbatida muayyan ichki elementlardan tarkib topishi ifodalab berilgan. Pirovardida, shaxs fuqarolik madaniyatining nazariy modeli va uning ijtimoiy ahamiyati fuqarolik ongi va fuqarolik faoliyatining o'zaro uyg'unligi mahsuli sifatida talqin etiladi. Shaxs fuqarolik madaniyatining xalqparvar davlat va erkin fuqarolik jamiyat bunyod etish uchun o'ta muhim va ahamiyatli funksiyalari falsafiy hamda tarixiy metodlar asosida ochib beriladi.

**Tayanch so'z va iboralar:** shaxs fuqarolik madaniyati, nazariy model, fuqarolik ongi, fuqarolik faoliyati, fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy faollik, vatanparvarlik, ijtimoiy ahamiyat.

## SOCIAL SIGNIFICANCE OF PERSONAL CIVIL CULTURE

### ABSTRACT

The article discusses the structural elements and important aspects of the theoretical model of civil culture of the individual. In particular, as the reforms that are being rapidly implemented towards the establishment of New Uzbekistan are aimed at the interests of the people, citizen activity plays an important and decisive role in this way. After all, citizen activity is the main criterion for building a civil society. From the point of view of this relevance, the article describes the introduction of the civic culture of the individual into scientific circulation, the components of its theoretical model, that is, the components of civic consciousness and civic activity, in turn, are composed of certain internal elements. Ultimately, the theoretical model of civil culture of the individual and its social significance is interpreted as a product of

mutual harmony of civil consciousness and civil activity. The very important and significant functions of personal civil culture for the creation of a people-friendly state and a free civil society are revealed on the basis of philosophical and historical methods.

**Keywords:** Personality civic culture, theoretical model, civic consciousness, civic activity, civic responsibility, social activity, patriotism, social significance.

**Kirish.** Yangi O‘zbekistonni barpo etish pirovard maqsadimiz ekan, bu yo‘lda mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurish sari dadil qadamlar tashlanishi shart. Chunki “Xalqparvar davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning mazmun-mohiyatini keng ommaga yetkazish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun fuqarolar o‘rtasida qonunga hurmat va amal qilish hissini shakllantirish – bog‘cha va maktabdan tortib oliygohgacha, barcha ta‘lim muassasalarining, har bir oilaning birinchi navbatdagi vazifasi bo‘lishi kerak” [1].

Shuningdek, ijtimoiy taraqqiyotni ta‘minlashga xizmat qiladigan vazifalarni bajarish uchun jamiyat a‘zolari fuqarolik madaniyatini ham rivojlantirish taqozo qilinmoqda. Chunki shaxs fuqaro sifatida shakllanmas ekan, jamiyat oldidagi burch va mas‘uliyatlarini anglab yetmaydi, ularni ijro etishga astoydil kirishmaydi, ijtimoiy ahamiyatli vazifalarni bajarishga hissa qo‘shmaydi.


**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Mavzuga doir ko‘plab ilmiy ishlarda shaxs fuqarolik madaniyati tarkibiga doir qimmatli fikrlar bildiriladiki, bu fikrlar asosida fuqarolik madaniyatining modelini shakllantirish mumkin. Mazkur mavzuga u yoki bu shaklda ilk bor murojaat qilgan Aristotel, Polibiy, N. Makiavelli, Sh. Monteskye, A. de Tokvil, J. St. Mill va boshqalar fuqarolik madaniyatining ayrim elementlarini tilga olish bilan cheklangandilar [2,77]. XX asrga kelibgina shaxs fuqarolik madaniyati yaxlit tizim sifatida tahlil qilina boshlandi. Masalan, tushunchani ilk bor qo‘llagan amerikalik olim Ch.Merriam uni madaniy sintezning o‘ziga xos shakli sifatida tavsifladi [3]. Keyinchalik amerikalik siyosatshunoslar G.A. Almond va S. Verba fuqarolik madaniyatida siyosiy va huquqiy, axloqiy va estetik bilim va qadriyatlar organik tarzda qorishib ketishini ta‘kidladilar [4].

#### Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada shaxs fuqarolik madaniyati muammosiga murojaat qilishda dastlab *kompleks yondashuv*, tahlil qilishda *modellash*, yanada aniqroq to‘xtamga kelishda *analiz va sintez*, muammo xususida yangi xulosalar berish uchun esa *qiyosiy tahlil va umumlashtirish* kabi mantiqiy metodlardan foydalanildi.

**Natijalar va muhokamalar.** Muammoni tahlil qilgan manbalarni o‘rganish shaxs fuqarolik madaniyati nazariy modeli to‘g‘risida quyidagi xulosaga kelish imkonini beradi: (1-shakl)


#### Fuqarolik madaniyatining nazariy modeli



Inchunun, fuqarolik ongi va fuqarolik faoliyatining o‘zaro sintezi shaxs fuqarolik madaniyati modelini namoyon qiladi. Pirovardida mazkur tarkibiy qismlarning o‘zi ham turfa elementlarni o‘z ichiga oladi. Xususan, shaxs fuqarolik ongi quyidagi elementlarni


o'zida mujassam qiladi: (2-shakl)

### Fuqarolik ongining tarkibiy qismlari



Shaxs fuqarolik madaniyatining mag'zini fuqarolik ongi tashkil etadi, lekin bir muhim jihatni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, bu fuqarolik madaniyati nazariy modelining bir qismigina, xolos. Uning ikkinchi qismini, uzviy davomiyligini fuqarolik faoliyati tashkil etadi: (3-shakl)

### Fuqarolik faoliyatining tarkibiy qismlari



*Fuqarolik faoliyati* – insonning fuqaro sifatida ijtimoiy ahamiyatga molik muammolarni hal qilish jarayoniga ongli ishtirokidir. Bunday ishtirok davomida fuqaro voqea va jarayonlarga maqsadga muvofiq tarzda ta'sir ko'rsatishga, ularni o'z dunyoqarashi, ehtiyoj va manfaatlariga mutanosib ravishda o'zgartirishga intiladi. Muammoning ushbu aspektini alohida tadqiq qilgan mutaxassislar fuqarolik faoliyati ijtimoiy jarayonlarda ishtirok, saylov jarayonlarida ishtirok, siyosiy jarayonlarda ishtirok shaklida kechishini qayd qiladilar. Xususan, fuqarolik faoliyati turli muammolarni hal qilishda qatnashish, volontyorlik, biror bir guruhga a'zolik, ijtimoiy tadbirlarda qatnashish, xayriya uchun mablag'lar to'plash va shu kabi ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Saylov jarayonidagi fuqarolik faoliyati muayyan nomzodga ovoz berish, boshqalarni ovoz berishga chorlash, saylov tadbirlarini o'tkazish hamda shunga o'xshagan boshqa harakatlarni o'z ichiga oladi. Siyosiy jarayonlarda ishtirok rasmiy shaxslar bilan muloqotga kirishish, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish, siyosiy targ'ibot va tashviqotda qatnashish shaklida sodir bo'ladi [5].

Albatta, bunday ishtirok o'z-o'zidan yuz berib qolmaydi. Shaxs fuqaro sifatida ijtimoiy va siyosiy tadbirlarda, saylov jarayonlarida ishtirok etishi uchun avvalo unda

fuqarolik mas'uliyati yuksak darajada shakllangan bo'lmog'i darkor. Fuqarolik mas'uliyati shaxsning muhim xislati bo'lib, uning jamiyat oldidagi burchlarini qat'iy tasavvur qilishini, ularni ijro etishga sidqidildan intilishini anglatadi. U ko'ngillilik asosida axloqiy, huquqiy, siyosiy normalarga mos tarzda amalga oshiriladi. Aynan burchlarning ixtiyoriy ravishda ijro etilishi shaxsning faol fuqarolik pozitsiyasidan darak beradi. "Mas'uliyatli fuqaro ijtimoiy voqelikka tanqidiy munosabatda bo'ladi, zamonaning dolzarb muammolarini va ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlarini tushunadi" [6, 180]. Aksincha, mas'uliyatsiz inson voqelikda sodir bo'layotgan voqealarning mohiyatini ilg'ab ola olmaydi, jamiyat oldida turgan vazifalarni tushunmaydi, aynan shu sababdan ham ushbu vazifalarni bajarishga o'z hissasini qo'shishga oshiqmaydi.

Fuqarolik mas'uliyatining yuksalishi shaxs ijtimoiy faolligi uchun zamin yaratadi. Jamiyatda barqarorlikni ta'minlash, mavjud muammolarni bartaraf etishda o'zining shaxsiy javobgarligini anglab yetgan inson sodir bo'layotgan voqea va jarayonlarga faol qatnasha boshlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, shaxsning turli jarayonlardagi shunchaki muntazam ishtirokini faollikka yo'yib bo'lmaydi. Ijtimoiy faollik eng avvalo shaxsning ijtimoiy voqea va jarayonlarga ongli yondashuvida namoyon bo'ladi. Jarayon mohiyatini puxta o'zlashtirgan, uni tushungan shaxsgina unga maqsadga muvofiq tarzda ishtirok eta biladi va bu boradagi sa'y-harakatlarini nihoyasiga yetkaza oladi. Shuningdek, ijtimoiy jarayonlarga ongli ravishda qatnashayotgan shaxs uning davomida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni uyg'unlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Ijtimoiy faollik shaxs tashabbuskorligida ham yaqqol o'z ifodasini topadi. Insonning turfa muammolarni hal etish borasidagi tashabbuslariga qarab uning faolligi darajasini aniqlash mumkin.

Har qanday faollik muayyan manfaat negizida vujudga keladi. Masalan, shaxs o'z ehtiyoj va manfaatlari yoxud o'zi mansub bo'lgan ijtimoiy guruh manfaatlari yo'lida astoydil faollik ko'rsatishi mumkin. Albatta, bunday faollik ham muayyan darajada ahamiyat kasb qilishi, biror bir ijtimoiy muammoning bartaraf etilishiga xizmat qilishi mumkin. Biroq tom ma'noda ijtimoiy ahamiyatga molik faollik hamisha vatanparvarlik bilan yo'g'rilgan. O'z Vatani qadrlay olgan, uning tabiati, madaniyati, tarixi, dini, tili, urf-odatlarini va an'analarini chuqur bilgan insongina fuqaro sifatidagi faoliyatini Vatan manfaatlariga yo'naltira oladi. Vatanparvar insongina yurt manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yishga qodirdir. Shu boisdan yuksak fuqarolik madaniyatini aynan fuqarolik faoliyati vatanparvarlik bilan yo'g'rilgan shaxsdan izlamoq darkor.

Fuqarolik faoliyatining yana bir elementi milliy g'oyaga sodiqlik bilan bog'liq. Ma'lumki, "milliy g'oya – muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuyi. U millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini, maqsadlarini ifodalaydi" [7]. O'z millati eng ezgu g'oyalarini puxta o'zlashtirgan shaxsgina o'zining fuqaro sifatidagi faoliyatini uning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish sari safarbar qila oladi. Shuni nazarda tutgan holda I.Karimov shunday deb uqdirgandi: "Milliy g'oya bo'lsa, maqsad oydinlashadi. Ezgu maqsad esa har bir kishini safarbarlikka da'vat etadi, jamiyatni yanada birlashtiradi. O'z milliy g'oyasi, milliy mafkurasiga ega bo'lgan davlat, mustahkam, qudratli va obod bo'ladi" [8, 473]. Binobarin, milliy g'oyani puxta o'zlashtirgan, uni ro'yobga chiqarish yo'lida fidokorona faoliyat ko'rsata olgan insonnigina yuksak fuqarolik madaniyatiga ega shaxs sifatida e'tirof etish mumkin.

Ijtimoiy taraqqiyotning bugungi bosqichida jahonning barcha mamlakatlarida shaxs fuqarolik madaniyatining *ijtimoiy ahamiyati*, uni yuksaltirish zaruriyati tobora oshib bormoqda. Biroq bu zaruriyat turli mamlakatlarda turli sabablarga borib taqaladi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda o'tgan asr 90-yillariga kelib, postmodern jamiyat qadriyatlarining qaror topishi kishilar dunyoqarashini, ijtimoiy jarayonlarga munosabatini



tubdan o'zgartirdi. Jamiyat a'zolarining Vatan haqidagi tasavvurlari, ijtimoiy bilimlari xarakteri, insonparvar g'oyalarga munosabati, fuqarolik qadriyatlari tizimi yangicha tus oldi. Buning oqibatida ularning ongida krititsizm, voqelikni keskin tanqidiy qabul qilish kayfiyati ildiz otdi. Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy norozilikning bot-bot takrorlanishi sabablari ham shuning bilan bog'liq.

Fuqarolarning o'z huquqlari, burch va majburiyatlari haqidagi tasavvurlari ham o'zgardi. Shu boisdan ular cheklangan sohalaridagina (masalan, tabiiy muhitni muhofaza qilish, gender tenglikni ta'minlash masalalarida) faollik ko'rsatishga odatlandilar. Bunday vaziyatda rivojlangan mamlakatlarda jamiyat a'zolari fuqarolik madaniyatini yangi realiyalarga moslashtirish masalalariga e'tibor kuchaytirilmoqda. Masalan, Germaniyada shu maqsadlarda, bir tomondan, siyosiy partiyalar tomonidan tashkil etilgan jamg'armalar hisobiga fuqarolik ta'limi amalga oshirilmoqda [9, 1906]. Ikkinchi tomondan esa, jamiyat a'zolarini ijtimoiy ishlarga faolroq jalb qilishga urinilmoqda. Bugungi kunda 23 milliondan ortiq nemislar bo'sh vaqtlarida jamiyat manfaatlariga xizmat qiladilar. Ularning fuqarolik faolligi yiliga 4,6 milliard soatni tashkil qilmoqda [10]. Fuqarolik madaniyatini yangi realiyalarga moslashtirish tadbirlarini boshqa rivojlangan mamlakatlar hayotida ham ko'rish mumkin.

**Xulosa.** Xulosa qiladigan bo'lsak, zamonaviy jamiyatda tasodifiylik emas, zaruriylik tarzida namoyon bo'layotgan hamda konstruktivlikning muqobili sifatida ro'y berayotgan destruktiv jarayonlar turkumida iqtisodiy destruksiya markaziy o'rin tutmoqda. Tahlillar ko'rsatishicha, bugungi kunda global iqtisodiyotda nooqilona proteksionizm, jahon bozorida mahsulot va xizmatlar narxining yuqori volatilligi, real iqtisodiyot bilan jahon qimmatbaho qog'ozlar bozori o'rtasidagi nomutanosiblik, milliy iqtisodiyotlar taraqqiyot sur'atlari o'rtasidagi tafovut, davlatlarning milliy iqtisodiyotni mustaqil boshqarish imkoniyatlarining kamayishi, ularning ichki va tashqi qarzining o'sishi kabi iqtisodiy-destruktiv jarayonlar namoyon bo'lmoqda. Bu jarayonlar global iqtisodiyot barqarorligi va taraqqiyotiga putur yetkazayapti, iqtisodiy va moliyaviy inqirozlar xavfini oshirayapti.

Global xarakterdagi iqtisodiy destruktiviyalarning yuqorida aniqlangan shakllari mamlakatimiz iqtisodiyotida ham namoyon bo'lmoqda.

#### **Fodalanilgan adaiyotlar ro'yxati:**

1. Борисова Г.А. Концепция социальной деструкции Франкфуртской школы (историко-философский анализ): Автореф. дисс. ... канд. филос.н.- Екатеринбург: Уральское отд. ИФП РАН, 2007.- С.4.
- 2.Тетерина Т. Е. Глобализация экономики: ее причины и противоречия.// Вестник университета, 2015, №5.- 87-с.
- 3.Хоркхаймер М., Адорно Т.В. Диалектика Просвещения. Философские фрагменты. М.; СПб., 1997.- С.10.
- 4.Маркузе Г. Эрос и цивилизация. Одномерный человек: Исследование идеологии развитого индустриального общества.- М.:АСТ, 2003.- С.11.
5. Протекционизм.// qomus.info.
- 6.Yusupov Y. Proteksionistlar O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga qarshi.//kun.uz, 2019, 6 avgust.
7. Динамика цен на золото.// yandex.ru/news/quotes.
8. Batko M. The Real Economy and the Finance Economy.- Munich: BookRix, 2013. 28-с.
- 9.Бекмуродова Г.Х.Замонавий ijtimoiy destruksiya mazmuni va shakllari. - Monografiya.Qarshi "Fan va ta'lim" nashriyoti. 2022.132 B.
10. Балаганский С.П. Реальный сектор экономики как объект экономического анализа.// Вестник Саратовского государственного социально-экономического университета, 2012, №1.- 12-с.
11. Спартак А.Н. Французов В.В. Современные тенденции и риски в развитии мировой экономики.// Российский внешнеэкономический вестник, 2019, №2.- 7-24-с.
12. Majidov M. Postmodern jamiyatda inson shaxsi transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy muammolari: Fals. f. bo'yicha fals.d. diss.- Samarqand: SamDU, 2021.- B.57.
13. Bekmurodova G.X. Ijtimoiy destruksiya va uning O'zbekistonda namoyon bo'lishi.- Monografiya. Qarshi "Qarshi davlat universiteti" 2023.B.178

14. Муравьева Л.А. Германия в 30-е годы XX века.// Финансы и кредит, 2003, №17.- 82-с.  
15. Румянцев М. Экономика общества Постмодерна: критический анализ.// Христианское чтение, 2012, №6.- 168-с.

## ECOLOGICAL CULTURE IN A MODERN CROSS-CULTURAL SYSTEM

**Khamdamova Sitora Safarovna**

Associate professor, Doctor of Philosophy (PhD)

Senior teacher

Academy of The Ministry of Internal  
Affairs of the Republic of Uzbekistan

[sitoraxamdamaova92@gmail.com](mailto:sitoraxamdamaova92@gmail.com)

ORCID: 0000-0002-0798-938X

UDC: 1.091.101.3

**Abstract:** The article highlights the problem of cross-culture and the ecology of culture in our time comes to the fore in the relationship between man and nature, as well as these value concepts of culture, naturally, are not formalized categories, but constitute the deep meaning of the modern cultural process, the nature of the relationship between culture and nature, real functioning in the historical context of human existence. The urgent task for a cultural researcher today is not to separate from the cross-cultural tradition of the past, but to identify new parameters of modern culture, to discover the new meaning contained in it. Modern technological civilization, being truly the cause of the ecological and climate crisis in the region, simultaneously generates new opportunities for cultural development. Any national culture should be seen not as opposition to another culture, but as a rapprochement and interconnection of various elements of cultures. Cross-culture and national culture are not mutually exclusive, but complementary phenomena that contribute to humanity in the process of its development to move towards a harmonious future existence.

**Keywords:** cross-culture, spiritual strength, global environmental crisis, interpenetration of different cultures, ethnic phenomenon, intellectual and artistic culture, cultural space, human civilization, ecological culture, ecological situation, harmonization of nature and culture.

**Annotatsiya:** Maqolada inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarda kross-madaniyat va ekologiya madaniyatining muammolari yoritib berilgan, shuningdek, madaniyatning ushbu qadriyat tushunchalari, tabiiyki, shakllangan kategoriyalarni emas, balki madaniyatni tashkil etadi, zamonaviy madaniy jarayonning chuqur ma'nosi, madaniyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning tabiati, inson mavjudligining tarixiy sharoitida real faoliyat ko'rsatish hisoblanadi. Madaniyat yo'nalishida tadqiqot olib borayotgan ilmiy izlanuvchilarning bugungi kundagi dolzarb vazifasi o'tmishdagi kross-madaniyat an'alaridan ajralish emas, balki zamonaviy madaniyatning yangi parametrlarini aniqlash, undagi yangi ma'noni kashf etishdir. Zamonaviy texnologik sivilizatsiya mintaqadagi ekologik va iqlim inqirozining haqiqiy sababchisi bo'lib, bir vaqtning o'zida madaniy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Har qanday milliy madaniyatni boshqa madaniyatga qarama-qarshilik sifatida emas, balki madaniyatlarning turli elementlarining yaqinlashuvi va o'zaro bog'liqligi sifatida ko'rish kerakligi ochib berilgan. Kross-madaniyat va milliy madaniyat bir-birini inkor etuvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi hodisalar bo'lib, insoniyatning rivojlanish jarayonida uyg'un kelajak sari harakatlanishiga yordam berishi to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlari:** kross-madaniyat, ma'naviy kuch, global ekologik inqiroz, turli madaniyatlarning o'zaro kirib kelishi, etnik hodisa, intellektual va badiiy madaniyat, madaniy makon, insoniyat sivilizatsiyasi, ekologik madaniyat, ekologik vaziyat, tabiat va madaniyatning uyg'unlashuvi.

**Introduction.** The concept of "cross-culture" in modern philosophical and cultural scientific literature has not yet established itself as a broadly cognitive and axiological toolkit. True, some specialists in pedagogy, economics, psychology and businessmen often use the concept of "cross-culture" in their works and try, in relation to their specialty, to define this concept, indicate its essence and content. The fact is that the concept of "cross-culture" in the era of digitalization, globalization of all spheres of human activity in the cognitive and axiological aspect becomes a relevant paradigm and comes to the fore. The definition of cross-culture found in the Russian version of Wikipedia, as "communication and interaction of people - representatives of different cultures" and the "intersection" of different cultures, is etymological, but not philosophical and value-based (the English word "cross-culture" is intersection).

**Research Methodology.** If we look at history, different nationalities and nationalities lived in Central Asia. The result was cultural diversity and a process of cultural exchange.

Central Asia united the peoples of the Ancient East into a single system. [1]

Before Arab rule, Central Asia was inhabited by various ancient cultures, and these cultures developed over time.

Available data suggest that in the early Middle Ages in Balkh there was a coexistence and fusion of two different cultures - Buddhist and Zoroastrian. [9]

It should also be noted that the dynasties that dominated Central Asian culture were also of great importance.

Medieval Muslim culture flourished in all aspects during the first three centuries of Abbasid rule. Literature, philosophy, religious and natural sciences flourished under the fruitful influence of Iran and the Hellenistic world. [5]

The ruler's interest in science and literature and the desire to develop this area led to the education of the peoples living in the region.

Following the Abbasids, the Samanids aimed to make their court a centre of culture and gracious living, and the Amirs' part in encouraging the renaissance of New Persian literature was considerable. [3]

Cities located in Central Asia have become centers of knowledge and culture.

In the history of Central Asia, the 9th-10th centuries are of particular importance, because Bukhara, Samarkand and other cities became the largest cultural and scientific centers of the Islamic world. [8]

In ancient times, religious and secular concepts began to appear in the regions of Central Asia, and they certainly did not fail to influence the way of life of the people.

A prime example of symbiosis between the two cultures, the religiously-inspired Arab-Islamic one and the secular ancient Persian one. [2]

In any type of culture (material or artistic) and under their subtypes and subsystems (mythological, artistic, aesthetic, technical, environmental, etc.) we find interconnection, interaction, interpenetration.

**Results and Discussions.** In the 19th and 20th centuries, philosophers, historians, and cultural scientists spent a lot of intellectual effort and energy to give an adequate definition of culture, while contrasting it with nature. As some cultural scientists write, there are from 500 to 1000 definitions of culture from different ideological and specific scientific positions. We will not list the contents of these definitions in order to avoid doxographic presentation.

Culture in the ecological aspect can be defined as the actualization of natural values to support and continue life cycles in the "nature – man – society" system. Here the concept of "updating" cannot be understood in the sense of "updating normative documents", but more broadly, as a type of activity necessary for human existence. In the philosophical definition of culture, "tearing" it out of the system of nature or alienating it from it is nothing more than an intellectual game, nothing more. Culture and its types are formed in the process of interrelation and interaction between man and nature. Culture does not exist outside of natural forms. Nature directly and directly determines the types and forms, functions and significance of culture both for the individual and for society as a whole. Here we are approaching the definition of cross-culture as a type of actualization of natural values on a global scale.

For example, the peoples of Central Asia held various cultural events related to nature, for example, the "chai momo" ritual was held to stop strong winds. [4]

The study of the modification of different cultures and their relationships,



interdependencies in cross-cultural parameters in the broad context of modern social life is an urgent task of modern humanities. The study of cross-cultural issues in various regions of the planet is imperiously dictated by the needs of improving the relationship between culture and nature, man and the environment. And this is especially important in the 21st century, when there is a sharp alienation between man and nature, between culture and the ecosystem. As is known, a tradition has developed in cultural studies and philosophy of culture: in works of a theoretical nature that outline the relationships and interactions, relationships and interpenetration of different cultures, the problem of cross-culture is either not touched upon or is touched upon in passing. Often in such works, chapters devoted to the characteristics of individual cultures, cross-cultural connections appear as something "subordinate" in relation to more key problems of culture, such as the essence of culture, classification of culture, functions of culture, morphology of culture, national characteristics of culture, etc. Of course, in the 21st century, we do not intend to question the above-mentioned cultural issues or their legitimacy and usefulness in the study of culture. But the 21st century - the century of integration and interweaving of cultures, the ecology of culture, the harmonization of nature and culture, are still extremely important for understanding and understanding cultures. The problem of cross-culture and the ecology of culture in our time come to the fore in the relationship between man and nature. These value concepts of culture, naturally, are not formalized categories, but constitute the deep meaning of the modern cultural process, the nature of the relationship between culture and nature, real functioning in the historical context of human existence. Cross-culture and the study of its parameters actually lead to a real comprehension of the essence of culture. Empirical description of external features and signs of culture, as is known, do not always contribute to knowledge of the essence of culture.

In the process of democratization of society and culture in the Central Asian Republics, in particular in Uzbekistan and Kazakhstan, the nature of the relationship between cross-culture and nature becomes qualitatively different. It includes new content. The great mission of cross-culture is that the entire life of man and society in its essential manifestations necessarily unfolds on the basis of movement from culture to nature, and from nature to culture. The globality of their interdependence, rooted in nature itself, determines the meaning of the cross-cultural process and its humanity. In addition, in the current environmental situation in Central Asia, cross-culture is one of the most important conditions not only for improving the ecosystem, but also for the spiritual development of the population. It was not by chance that the President of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev said at an expanded meeting of the Republican Council on Spirituality and Enlightenment; "The sphere of spirituality must be ten steps ahead of other spheres, spirituality must turn into a new force, a new movement".[10]

Cross-culture, as is known, has its own deep history in Central Asia, but in current conditions, this indicator of historical reality is not always fully manifested. Such indicators of cross-culture as bilingualism (bilingualism), high intellectual, moral and aesthetic level, professionalism in a particular profession, civic engagement, etc. meet the requirements of the ecological culture of the 21st century.

In connection with the formation and enhancement of environmental culture in Central Asia, the role of cross-culture in all spheres of society is growing. Cross-culture has a great influence on the entire social life in Central Asia on the character and lifestyle of citizens. Elements of cross-culture are manifested in all types of art in Central Asia, in production processes, economic relations, technical designs, etc. And this means that fundamentally new relationships between people are emerging in Central Asia on the principles of ecological and cross-culture. At the same time, of course, the national

uniqueness of cultures does not disappear, such concepts as “national culture”, “national art”, “national idea”, “national artistic culture” do not become synonymous.

The words of the sinologist, academician M. Konrad can rightfully be attributed to the problem of cross-culture, although they cover a wider range of problems of the culture of the East: “It is necessary to take into account the theoretical thought of the East in all areas of human science, remembering that these areas were developed in the East in exceptional scale and detail. I call work in this direction overcoming Eurocentrism in science, and such overcoming has become one of the most important tasks of the science of man and society in our time. In this way, this science can become truly universally significant, i.e. valid for the study of the life and activities of mankind at all times and its historical existence.” [6]

The problem of cross-culture of the peoples of the East, which includes many aspects - from questions of genesis and history, merging into a single matrix, the use of figurative, aesthetic perception of the world to the problem of interaction of cultures - has been studied only from certain ideological positions. It should also be borne in mind that initially cross-culture was characteristic to varying degrees for the culture of the peoples of Central Asia, both in the past and in our time. The many-sided and diverse forms of modern culture in the Central Asian countries not only retain their traditional cross-cultural features to this day, but also modify it, creating new cultural parameters. The dynamics of this process become especially intense after the collapse of the Soviet Empire at the beginning of the 21st century, the exit of the Central Asian Republics from the USSR, which embarked on the path of independent and sovereign development. In this regard, it is very relevant to turn to the cross-cultural process in Central Asian countries, where the traditional cross-cultural tradition is forming a new type of cultural space. It is known that Central Asia is one of the cradles of human civilization - monadic and agricultural. Here, for thousands of years, cross-culture was and still remains the most important manifestation of human culture.

The deep vitality of “cross-culture” in Central Asia is expressed in the fact that it absorbs elements of the traditional culture of the peoples of not only the East, but also the West. Thus, it becomes one of the fundamental and specific features of modern culture. The indissoluble cultural integrity of the peoples of the Middle East, in particular the Central Asian region, was fundamentally founded in the 9-11th centuries, by representatives of the intellectual and artistic culture (poets) of the region. It contributed to the survival and resistance of many major natural disasters - disease, earthquake, flood, drought, etc. In a word, the cross-culture of past times continues to live in the culture of our time in Central Asia, but in a completely transformed form, and sometimes in a completely different form.

True existence in cross-culture is not a literal repetition of past traditions, not copying the traditions of the past, but the creation of new cultural values that can withstand the challenges of time. Any attempt to contrast cross-culture and national culture turns the latter into a soulless, petrified body or reduces national culture to a purely ethnic phenomenon. In our time, identifying ethnic and national culture is a delusion. In contrast to national culture, as culturologist and philosopher V. M. Mezhuiev writes, “The border between ethnic and national culture is more accurately represented as the border between “cult” and “culture.” If the basis of the first is formed by norms and patterns of human behavior consecrated by mythological symbolism, carefully protected and unchanging transpersonal “shrines” that determine the entire structure and way of national life, all manifestations of national life, then national culture, as a rule, is devoid of a cult character, entirely from of this world, the work of human hands, a product of human,

predominantly individual creativity. It is no coincidence that the creators of national culture - the intelligentsia - are called masters of culture, seeing in them a layer of people who bear the main responsibility for the culture of the entire society, for the spiritual state of the nation".[7] Despite the debatable nature of V's statement M. Mezhev regarding national culture, he rightfully draws a distinction between national and purely ethnic culture.

**Conclusion.** To sum up, in our time, national culture, as a result of cross-cultural connections and relationships, has acquired a fundamentally new content and form. Cross-culture in the structure of national culture, as it were, removes regional, separatistic, isolationist tendencies in national culture.

Cross-culture facilitates and simplifies interpersonal and interethnic relationships. In other words, among the most important conditions determining the development of national culture are cross-cultural trends. In the national culture of the peoples of Central Asia, cross-cultural trends are gaining strength, which previously had no analogues, even under the conditions of the Soviet Empire, where the tendencies of Russification of culture, under the guise of a single Soviet culture, deeply entered the raft of the national culture of the peoples of Central Asia. As for cross-cultural trends, this is a historically and socially natural phenomenon. It does not accept the forcibly implanted values of a foreign culture, although often, as we know from the history of the development of human culture, there have been great "successes" (for example, by force, the implantation of Arab culture in Central Asia, Anglo-Saxon culture in India and Australia, Russian in the vast space of the USSR, Spanish in South America, etc.). In this regard, it should be emphasized that cross-cultural development in world culture has its own logic, which does not depend on the social structure, but in some cases acts as its determinant. Since many cultural specialists have a broader view of the process of cultural development than what was previously determined by the ideological, social, and political predicament of official cultural institutions. Consequently, on a global scale, the problem of cultural development is not only to improve the mechanisms of interrelation and interaction of different cultures in conditions of increasing environmental instability throughout the planet, but to see and take into account the increasing pressure of the forces of scientific and technological development in this area. High resistance on the part of, say, ideological and nationalist manipulators in some countries and regions does not contribute to the penetration of universal human values into the national culture. The world has reached a point in its development when ignoring the cross-cultural process and the common historical destinies of culture, the absolutization of national-ethnic principles in the cultural process inevitably lead to an inadequate vision of universal human interests and prevent a realistic assessment of the current state and prospects for the development of each culture. As cross-culture is established as a necessary principle of the movement of cultures, say in the Central Asian Republics, the opportunity to focus on the creation and interconnection of cultures increases. Such an understanding of cross-culture in our time creates spiritual strength to resist the global environmental crisis and maintain stable interpenetration of different cultures, in the name of preserving life on Earth.

#### Reference:

1. B.V. Husanov. History of Uzbekistan. Academy of the Ministry of Internal affairs. 2005. P. 39.
2. C.E. Bosworth. The Medieval History of Iran, Afghanistan and Central Asia. Variorum reprints, London 1977. P. 2.
3. C.E. Bosworth. The Ghaznavids. Their empire in Afghanistan and Eastern India 994-1040. Munshiram Manoharlal, New Dehli. 1992. P. 271.

4. Iso Jabborov. Uzbeks. Sharq, Tashkent. 2008. P. 151.
5. K.E.Bosvort. The Islamic dynasties. The Publishing house "Fan", Tashkent. 2007. P. 16.
6. Konrad N, I. West and East. M., 1966. P. 30.
7. Liberation of the Spirit. M., 1991. P. 266.
8. Sh.S. Kamoliddin. On the question of the origin of the Somonites. Echo of History. 2006, 4 (32). P. 15.
9. Sh.S. Kamoliddin, Z.A. Ikhamov. Samanids: from the history of statehood of Uzbekistan in the 9th – 10th centuries. Tashkent 2018. P. 38.
10. Speech of the President of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev at an expanded meeting of the Republican Council on Spirituality and Enlightenment, December 23, 2023. <https://president.uz/ru/lists/view/6941>

### MEHNAT MIGRATSIYASINING SHAKL VA MAZMUNI

**Choriyev Sanjarbek Anvarovich** - QarDU Falsafa va sotsiologiya kafedrasini mudiri, professor.

**Avazov Sanjar Ergashovich** - QarDU Falsafa va sotsiologiya kafedrasini o'qituvchisi, (PhD).

[schoriev66@gmail.com](mailto:schoriev66@gmail.com)

ORCID 0009-0001-0259-5197.

UDK: 101.122:314.316.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada barcha zamonlarda dolzarb ahamiyat kasb etgan migratsiya, mehnat migratsiyasi masalalari tahlil etilgan. Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarida migratsion jarayonlar, uning ustuvor yo'nalishlari va sohalari, mehnat migratsiyasiga doir muammolar bo'yicha ijtimoiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mehnat migratsiyasining mazmuni va shakllari, sabablari va oqibatlari istiqbolli ilmiy rejalarda faol tadqiq qilinib, uning demografik, tarixiy, iqtisodiy, huquqiy, sotsiologik va psixologik aspektlari alohida yo'nalishni tashkil qila boshladi. Shuning uchun migratsiyaning mehnat migrantlari sonining oshishi, noqonuniy mehnat migratsiyasi kuchayishi, "aqlning sizib chiqib ketishi" kabi ko'rinishlarida iqtisodiy quloqlik, ishsizlik, beqarorlik, siyosiy cheklov, ilm-fanga nomaqbul yondashuv ustuvorligini hamda shaharlar agrarlashuvi, ekstremistik guruhlar ta'siriga tushish va odam savdosi qurboniga aylanish xavfi oshishi kabi salbiy oqibatlari qatorida ilmiy-intellektual salohiyatga, innovatsiyalarning o'zlashtirilishi kabi ijobiy jihatlari, mafkuraviy, antropologik, madaniy diffuzion vazifalarini tadqiq etish zarurati ortib borayotganligi haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'z va iboralar:** migratsiya, ichki va tashqi migratsiya, mehnat migratsiyasi, noqonuniy mehnat migratsiyasi, iqtisodiy faol fuqaro, o'zbekistonlik mehnat migrantlari, mehnat muhojirlarining ijtimoiy ahvoli, pul o'tkazmalari, O'zbekiston mehnat migratsiyasi agentligi, o'zbek diasporalari.

### THE FORM AND CONTENT OF LABOR MIGRATION

**Abstract:** In this article, the issues of migration and labor migration, which have become relevant at all times, are analyzed. World science and leading scientific centers are conducting social studies on migration processes, its priority directions and areas, problems related to labor migration. The content and forms, causes and consequences of labor migration are actively researched in prospective scientific plans, and its demographic, historical, economic, legal, sociological and psychological aspects began to form a separate direction. Therefore, in such forms of migration as the increase in the number of labor migrants, the increase in illegal labor migration, "brain drain", economic backwardness, unemployment, instability, political restriction, inappropriate approach to science, as well as agrarianization of cities, influence of extremist groups and Among the negative consequences, such as an increase in the risk of becoming a victim of human trafficking, there is an increasing need to research the scientific and intellectual potential, positive aspects such as the assimilation of innovations, ideological, anthropological, and cultural diffusion tasks.

**Key words:** migration, internal and external migration, labor migration, illegal labor migration, economically active citizen, Uzbek labor migrants, social status of labor migrants, remittances, Uzbek Agency for Labor Migration, Uzbek Diaspora.

**Kirish.** Mehnat migratsiyasi, ya'ni odamlarning qulay va maqbul mehnat faoliyati bilan shug'ullanish niyatida bir hududdan boshqa hududga ko'chib yurishi umumjahon tendensiyasidir. Shu sababga ko'ra, u barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda

ham namoyon bo'layapti – buni e'tirof etmaslikning iloji yo'q. To'g'ri, tarixiy taraqqiyotning avvalgi davrlarida ham manzildan manzilga ish ilinjida ko'chib turgan odamlar bo'lgan, biz tadqiqotimiz maqsadiga kirmagani bois masalaning bu jihatini e'tibordan chetda qoldiryapmiz. Lekin o'tgan asrning oxirlari, ayniqsa yangi asrga kelib, ushbu jarayon ancha salmoqli miqyos va polivektorli yo'nalish kasb qila boshladi. Mazkur muammo mamlakatimiz ijtimoiy barqarorligida o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda va shu bois mehnat migratsiyasining barcha jihatlarini ilmiy tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mehnat migratsiyasi muammosi, uning vujudga kelish sabablari hamda ijtimoiy oqibatlarini to'g'risida ko'plab fikr-mulohazalar, tadqiqotlar yuzaga keldi. Migratsiya mazmunan boy, poliattributiv va ko'pvektorli jarayon bo'lgani tufayli ayrim olimlar uning bir jihatiga, boshqalari esa boshqa tomoniga diqqatni jamlaydilar. Migratsion muammolarga iqtisodiy yondashuv eng keng tarqalgan nuqtayi nazarlardan biridir. Bunday yondashuvning nazariy va metodologik asoslarini shotland iqtisodchisi A.Smit, ingliz iqtisodchisi T.Maltus va nemis iqtisodchisi K. Marks asarlaridayoq ko'rish mumkin.

O'zbekistonda ham muammoni tadqiq qilish ancha faollashdi, buning natijasida ko'plab ilmiy ishlar tayyorlandi. Masalan, S.Boymurodov migratsiyaning demografik oqibatlarini tavsiflagan bo'lsa[1], G.Azamatova migratsion jarayonlarning davr voqeligiga mutanosib ravishda sodir bo'lishini qayd qiladi[2]. G'.Shoumarovlar esa migratsiyaning psixologik muammolariga e'tiborni qaratadilar[3].

**Tahlil va natijalar:** Bugungi kunda migratsiya deganda aholining turli sabablarga ko'ra ixtiyoriy yoki majburiy ravishda doimiy yashash joyini o'zgartirish yoki o'quv, mehnat faoliyati bilan shug'ullanish maqsadida muayyan ma'muriy-hududiy tuzilma ichidagi yoki undan tashqariga ko'chishi nazarda tutilishi asoslab berilgan[4]. Ilmiy manbalarda bir hududdan boshqa maskanga ko'chib o'tgan kishilarni migrantlar deb ataladi. Mamlakatga boshqa yurtlardan ko'chib kelgan kishilarni nomlashda "immigrantlar" tushunchasi, undan o'zga hududlarga ko'chib ketganlarni ifodalashda "emigrantlar" tushunchasi qo'llaniladi.

Tadqiqotlar asosida migratsiyaning ijtimoiy, siyosiy, harbiy, madaniy, ekologik, ekzistensial migratsiya kabi tiplari tahlil etilgan. Mehnat migratsiyasi umummigratsion jarayonlarning eng ahamiyatli, eng mazmundor, eng ko'lami keng tiplaridan biridir. Mehnat migratsiyasi – *kishilarning doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy mehnat faoliyati bilan shug'ullanish maqsadida qonuniy yoki noqonuniy ravishda mamlakatning boshqa hududlariga yoki boshqa o'lkalarga ko'chishi jarayonidir*. Mazkur jarayon o'ziga xos tasnifiy belgilariga ega. Jumladan, hududiy belgilariga qarab uni ichki va tashqi migratsiyaga tasniflash mumkin. Shuningdek, mehnat migratsiyasini davomiyligiga qarab doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy migratsiyaga, huquqiy maqomiga qarab qonuniy va noqonuniy migratsiyaga tasniflash mumkin.

Migratsiyaning barcha tiplari kabi mehnat migratsiyasi ham tasodifiy yuz beradigan ijtimoiy hodisa emas. U aniq sabablarning zaruriy oqibatidir. Xususan, mehnat migratsiyasi, bir tomondan, iqtisodiy beqarorlik, ish o'rinlari bilan mavjud ishchi kuchi o'rtasida nomutanosiblik, ish haqining kamligi, mehnat sharoitlarining nomaqbulligi, mehnat jarayonining noratsionalligi kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ikkinchi tomondan esa, ko'plab shaxsiy omillar tufayli sodir bo'lishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, mehnat migratsiyasi murakkab va serqirra ijtimoiy hodisadir. Uning mazmuni va shakllarini tadqiq qilayotganda quyidagilarni ham nazarda tutish maqsadga muvofiq:

- mehnat migratsiyasi tasodifiy emas, zaruriy xarakterga ega. Kishilik jamiyati

mavjud bo'lar, odamlar turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilashga intilar, bir-birlari bilan turfa ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekanlar, u ijtimoiy hodisa sifatida saqlanib qolaveradi. Shu bois uni batamom bartaraf etishga urinish ijtimoiy o'zgarishlar qonuniyatlarini inkor qilish bilan barobardir;

- mehnat migratsiyasi pozitiv yoxud negativ tendensiya emas. U mohiyatan neytral jarayondir. Biroq barcha ijtimoiy jarayonlar kabi u goho ijobiy, goho esa salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu bois mehnat migratsiyasining oldini olish emas, uning salbiy oqibatlarini kamaytirish bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'rifiy vazifalar diqqat markazida turmog'i darkor;

- mehnat migratsiyasining salbiy oqibatlarini kamaytirish masalasi cheklangan dasturlar va bir martali choralar yordamida qisqa muddatda bartaraf etiladigan muammolar turkumiga kirmaydi. Ushbu jarayonlarni optimallashtirish va muvofiqlashtirib borish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri, muhim strategik vazifa sifatida mudom saqlanmog'i lozim.

Kishilik jamiyatining turli sohalarida fundamental o'zgarishlar ro'y bera boshlashi va transformatsion jarayonlar barcha ijtimoiy hodisalar kabi zamonaviy mehnat migratsiyasining ham mohiyatan yangicha xususiyatlar kasb etishiga sabab bo'lmoqda. Zotan, uning birinchi xususiyati *rivojlanayotgan mamlakatlarda mehnat emigrantlarining ko'payayotgani bilan bog'liq*. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy qoloqlik, ishsizlik, taklif etilayotgan maoshlar miqdorining kamligi, kambag'allik, ijtimoiy beqarorlik millionlab kishilarni ish va daromad ilinjida rivojlangan yurtlarga yo'l olishga majbur qilmoqda. Buning oqibatida, bir tomondan, migrantlarni jo'natgan diyordarga valyuta tushumlari ortmoqda, ilg'or texnologiyalarni import qilish va investitsiyalarni oshirish imkoni oshmoqda, mehnat bozoridagi keskinlik bir qadar yumshamoqda. Ikkinchi tomondan esa, rivojlanayotgan mamlakatlar ko'plab malakali mutaxassislaridan mahrum bo'lmoqda. Qariyb barcha mamlakatlarda oila instituti, farzandlar tarbiyasidagi salbiy o'zgarishlar bilan mehnat migratsiyasi orasida muayyan aloqadorlik mavjudligi qayd qilinmoqda[5].

*Zamonaviy mehnat migratsiyasining ikkinchi xususiyati rivojlangan mamlakatlarda mehnat immigrantlarining ko'payayotgani bilan bog'liq*. G'arb o'lkalarida turmush darajasining yuksalayotgani tug'ilish ko'rsatkichlarining pasayishiga olib kelmoqda. Oqibatda rivojlangan mamlakatlardagi mehnat bozorida turli kasb egalari bo'lgan ehtiyoj oshmoqda. Bunga javoban barcha taraqqiy topgan yurtlarda mehnat immigrantlari – ish ilinjida o'zga o'lkalardan ko'chib kelganlar soni shiddat bilan ortmoqda. Buning oqibatida, bir tomondan, mehnat bozorida zaruriy kadrlar va qo'shimcha ishchi kuchi paydo bo'lmoqda, immigrantlar mehnati nisbatan arzon bo'lgani tufayli turli korxonalar va zavodlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish imkoni yuzaga kelmoqda, jamiyatda madaniy plyuralizm holati shakllanmoqda. Ikkinchi tomondan esa, mahalliy aholi uchun ishsizlik xavfi kuchaymoqda, diskriminatsiya va rasizm holatlari ko'paymoqda, ijtimoiy keskinlik ortmoqda hamda yuqumli kasalliklar tarqalishi xavfi paydo bo'lmoqda, milliy madaniyatlar tanazzulga yuz tutmoqda[6].

*Zamonaviy mehnat migratsiyasining uchinchi xususiyati noqonuniy mehnat migratsiyasining kuchayib borayotgani bilan bog'liq*. Qonuniy migratsiya boshqa mamlakatga ko'chib o'tishni qonun doirasida amalga oshirishni, bunda o'z yurtining ham, mehnat qilish uchun tanlangan diyorning ham qonunlariga itoat etishni, qator migratsion talablarni bekam-u ko'st bajarishni talab qiladi. Lekin keyingi yillarda mehnat migrantlarini o'zga yurtlarga jo'natayotgan mamlakatlarda ham, ularni qabul qilayotgan o'lkalarda ham ushbu talablarga rioya qilmaslik hollari ko'paymoqda. Buning natijasida jamiyatda ijtimoiy va huquqiy muhofazadan uzilib qolgan, ijtimoiy jihatdan

assimilyatsiyalashmagan, marginal kishilarning butun boshli toifasi shakllanmoqda. Ijtimoiy va huquqiy maqomsizlik noqonuniy migrantlarni tushkunlikka tushirmoqda, ularning jamiyatga munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, ularni g'ayriijtimoiy elementlarning yengil nishoniga aylantirmoqda.

*Zamonaviy mehnat migratsiyasining to'rtinchi xususiyati rivojlanayotgan mamlakatlarda "aqlning oqib ketishi" jarayonining kuchayib borayotgani bilan bog'liq.* Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda ilm-fanning nomaqbul tarzda va hajmda moliyalashtirilishi, mutaxassis va olimlar ijtimoiy maqomining zaiflashishi, ayni paytda rivojlangan mamlakatlarda ilm-fanning shiddatli rivoji yuksak malakali mutaxassislar migratsiyasiga tendensiyaviy tus bermoqda. "Aqlning oqib ketishi" rivojlanayotgan mamlakatlarga naqadar qimmatga tushayotgan bo'lsa, taraqqiy topgan yurtlarga shu qadar foyda keltirmoqda.

**Xulosa.** Ko'rinib turibdiki, mehnat migratsiyasi migratsion jarayonlarning o'z mazmuni va mohiyatiga, tasnifiy belgilariga, sabablari va yo'nalishlariga ega bo'lgan tiplaridan biridir. Binobarin, unga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar davomida uning murakkab va serqirra ijtimoiy hodisa ekanligi diqqat markazida turmog'i lozim. Shuning bilan bir qatorda, quyidagilarni ham nazarda tutish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- mehnat migratsiyasi tasodifiy emas, zaruriy xarakterga ega. Kishilik jamiyati mavjud bo'lar, odamlar turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilashga intilar, bir-birlari bilan turfa ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekanlar, u ijtimoiy hodisa sifatida saqlanib qolaveradi. Shu boisdan uni batamom bartaraf etishga urinish ijtimoiy o'zgarishlar qonuniyatlarini inkor qilish bilan barobardir;

- mehnat migratsiyasi pozitiv yoxud negativ tendensiya emas. U mohiyatan neytral jarayondir. Biroq barcha ijtimoiy jarayonlar kabi u goho ijobiy, goho esa salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu boisdan mehnat migratsiyasining oldini olish emas, uning salbiy oqibatlarini kamaytirish bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'rifiy vazifalar diqqat markazida turmog'i darkor;

- mehnat migratsiyasining salbiy oqibatlarini kamaytirish masalasi cheklangan dasturlar va bir martalik choralar yordamida qisqa muddatda bartaraf etiladigan muammolar turkumiga kirmaydi. Ushbu jarayonlarni optimallashtirish va muvofiqlashtirib borish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri, muhim strategik vazifa sifatida mudom saqlanmog'i lozim;

Xulosa qiladigan bo'lsak, aholining turli sabablarga ko'ra ixtiyoriy yoki majburiy ko'chishi bo'lmish migratsiya poliattributiv va ko'p vektorli jarayondir. Uning tiplari (ijtimoiy, siyosiy, harbiy, madaniy, ekzistensial) kishilarni ko'chishga undagan sabablarga qarab aniqlanadi. Mehnat migratsiyasi umummigratsion jarayonlarning eng ahamiyatli, eng mazmundor, eng ko'lami keng tiplaridan biri bo'lib, kishilarning doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy mehnat faoliyati bilan shug'ullanish maqsadida qonuniy yoki noqonuniy ravishda mamlakatning boshqa hududlariga yoki boshqa o'lkalarga ko'chishi jarayonini anglatadi. U o'z tasnifiy belgilari, ijtimoiy-iqtisodiy va shaxsiy omillar bilan bog'liq sabablari, xususiyatlari va oqibatlariga ega ijtimoiy hodisadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boymurodov S. Jahondagi demografik vaziyat: xususiyatlari va tendensiyalari.- T.:Tafakkur bo'stoni, 2010.
2. Azamatova G.B. Xalqaro migratsiya jarayonida jahon va O'zbekiston ishtirokining o'ziga xos jihatlari.//journals.uz/wp-content/uploads/2019/07/tarix-2019-02/104-113.pdf.

3. Shoumarov G'.B. Migrant oilalarning etnomadaniy-psixologik modeli.//Academic research in educational sciences,2023,TMA Conference, 607-613-c.
4. Воробьёва О.Д. Миграционные процессы населения: вопросы теории и государственной миграционной политики // Проблемы правового регулирования миграционных процессов на территории Российской Федерации / Аналитический сборник Совета Федерации ФС России, 2003, № 9.- С. 35.
5. Абдулманапов П.Г. Факторы и последствия международной миграции населения. // УЭПС: управление, экономика, политика, социология, 2019, № 1. – С.53
6. Абдулманапов П.Г. Факторы и последствия международной миграции населения. // УЭПС: управление, экономика, политика, социология, 2019, № 1. – С.53.

## GLOBALASHUV SHAROITIDA MA'NAVIIY-MAFKURAVIY JARAYONLARNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

**Xonimov Sharofutdin Bahodirovich**

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi

markaziy apparati bo'lim boshlig'i

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

[sharofiddin\\_2017@mail.ru](mailto:sharofiddin_2017@mail.ru)

ORCID: 0009-0005-8677-8554

UDK 371.044:005.44(045)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada "madaniyat", "ma'naviyat", "mafura" tushunchalari to'g'risida alohida adabiyotlarga tayangan holdagi to'g'ri va aniq ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda, "madaniyat", "ma'naviyat", "mafura" va globallashuvning madaniyat sohasidagi ko'rinishi, bu sohada birinchidan, texnologik munosabatlar tobora ko'zga tashlanayotganligi, ikkinchidan, kichik madaniyatchilik (multikulturalizm) yuzaga kelib "individual madaniyat"ni voqelashtiryotganligi; uchinchidan, madaniyatning axloqiy, diniy va etnik boshqaruvchilari kabi muhim qadriyatlarining ahamiyati pasayayotganligi; to'rtinchidan, ommaviy madaniyat va maishiy industriya keng tarqalayotganligi globallashuv jarayonida hozirgi jamiyatda jipslashuvga olib kelmay, balki shaxslararo an'anaviy aloqalarning yo'qolib borishi, begonalashuvni, berilgan imkoniyatlardan qoniqmaslikni keltirib chiqarishi haqidagi tushunchalarining har biri ilmiy talqinlar va misollar bilan keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Madaniyat, mafura, ma'naviyat, globallashuv, globallashuv fenomeni, kichik madaniyatchilik (multikulturalizm), yangi O'zbekiston, respublika, milliy, siyosatchi, tarix.

**Annotation.** This article provides correct and accurate information about the concepts of "culture", "spirituality", "ideology" based on separate literature. At the same time, the appearance of "culture", "spirituality", "ideology" and globalization in the field of culture, firstly, technological relations are becoming more and more prominent in this field, secondly, personal culturalism (multiculturalism) and "individual culture" are emerging. that it represents; therefore, the importance of important values of culture such as moral, religious and ethnic leaders is decreasing; fourthly, each of the notions that the spread of mass culture and household industry in the process of globalization does not lead to cohesion in the current society, but to the disappearance of traditional interpersonal relationships, alienation, and dissatisfaction with the given opportunities, are cited with scientific interpretations and examples.

**Keywords:** Culture, ideology, spirituality, globalization, globalization phenomenon, human culture (multiculturalism), new Uzbekistan, republic, national, politician, history.

**Kirish** Bugungi kunda ertangi taraqqiyotini o'ylagan har bir davlat uchun yuksak bilimli, intellektual salohiyatli yigit-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatda munosib o'rin egallashlariga ko'maklashish davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda ushbu yo'nalishda aniq chora-tadbirlar ro'yobga chiqarilmoqda. Natijada, yoshlarimiz xalqaro darajadagi sport, fan va boshqa bir qator yo'nalishlardagi tanlovlarda yuqori natijalarni egallab, O'zbekistonning rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishida munosib hissa qo'shmoqda.

Shu bilan birga yoshlarning doimo faol ijtimoiy kuchga aylanib borishi bugungi kunda ularning turli mafkuraviy ta'sir va tazyiqlarning bosh obyektiga aylanishiga olib kelmoqda. Bunda ularning jamiyatning hali yetarli tajribaga ega bo'lmagan, tashqi



ta'sirlarga tez beriluvchan va ayni paytda, eng harakatchan qatlami ekani inobatga olinmoqda.

Hozirgi kunda farzandlarimiz dunyoning eng o'tkir, faol, uddaburon, vatanparvar yoshlariga aylanishmoqda. Ularni fidoyilik, vatanparvarlik, tadbirkorlik, millatparvarlik, sadoqatga o'rgatish ko'p jihatdan ota-onalarga bog'liq. Bu borada, albatta, ota-onaga yordam berishda butun jamoatchilik – mahalla oqsoqoli, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi, imom, profilaktika inspektori, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi va Yoshlar tashkilotlarining joylardagi mas'ullari birgalikda faol ishlashlari kerak.

**Tadqiqot metodologiyasi** Bugungi globallashuv jarayonlari qanday atalmasin, “bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashayotganligimiz O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida “globallashuv fenomeni” atamasining bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishi, umumiy nuqtayi-nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etayotganligi ta'kidlangan”[1].

Globallashuvning madaniyat sohasidagi ko'rinishidan ma'lum bo'ladiki, bu sohada, birinchidan, texnologik munosabatlar tobora ko'zga tashlanmoqda, ikkinchidan, kichik madaniyatchilik (multikulturalizm) yuzaga kelib “individual madaniyat”ni voqelashtirmoqda; uchinchidan, madaniyatning axloqiy, diniy va etnik boshqaruvchilari kabi muhim qadriyatlarining ahamiyati pasaymoqda; to'rtinchidan, ommaviy madaniyat va maishiy industriya keng tarqalmoqda. Bularning bari ko'rsatadiki, globallashuv jarayoni hozirgi jamiyatda jipslashuvga olib kelmaydi, balki shaxslararo an'anaviy aloqalarning yo'qolib borishi, begonalashuvni, berilgan imkoniyatlardan qoniqmaslikni keltirib chiqaradi.

Chindan ham, qadimdan madaniyat turli qatlamlarni tashkil etgan. Masalan, ilohiy bitiklar, muqaddas kitoblarga jo bo'lgan mazmun payg'ambarlar, kohinlar, avliyolargagina tushunarli bo'lgan. Ular o'z madaniyatlarining sirini (mistik mazmunni) saralab olingan izdoshlargagina yetkazganlar, omma esa “rivoyatlar” bilan qanoatlanishiga to'g'ri kelgan. O'rta asrlarning boshlarida Injilning savodi yo'q kishilar uchun mo'ljallangan, ko'p rasmlardan iborat soddalashtirilgan variantlari mavjud bo'lgan. Hamma savodxon bo'lgan davrlar kelgach, madaniyatning ommabop (saviyasi yuzaki, oldi-qochdi, qaltis ishqiy va boshqa sargushtlardan tashkil topgan, keng omma ko'ngilxushligiga mo'ljallangan) mazmuni ham shakllandi, kengaydi va rivojlandi.

Bugungi kundagi xalqaro vaziyat globallashuv jarayonlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda “Hammamiz ko'rib, kuzatib turibmiz - bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi ufq va imkoniyatlar ochish bilan birga, ularni ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor etmoqda”[2].

Shu bois milliy mafkurani takomillashtirish masalasi ham endilikda nafaqat milliy, balki global xarakter ham kasb etadi. Lekin globallashuv jarayoni qandaydir ijobiy jihatlari bilangina emas, balki ko'proq “hozirgi davr global muammolarini” vujudga keltirganligi bilan ham xarakterlanadi. Ko'pchilik mutafakkirlar bu davrni hatto global krizis davri ham deb atamoqdalar. XX asrda yanada kuchaygan globallashuv zamonaviy jamiyatga ko'plab ijobiy yo'llarni olib kelishi bilan birga insoniyat taraqqiyotida xos holatlarning ham yuzaga kelishiga sababchi bo'ldi. Endilikda dunyo xalqlari duch

kelayotgan muammolarga qarshi yolg'iz kurasha olmaydi, ularni birgalikda hal qilish mumkin. Globallashuvning salbiy oqibatları asosan quyidagi sohalarida kuzatilmoqda: ekologiya, sog'liqni saqlash, resurslar axloq, oila, ta'lim-tarbiya, ma'naviy dunyoqarash va boshqalar shular jumlasidandir.

**Natijalar va muhokama** Oksford universiteti professori Nik Bostrom bu ishlarning salbiy oqibatları haqida o'ylab ko'rmayotgani haqida shunday deydi: Avvalo omma diqqatini jalb etishga intilishdan iborat bu jarayon madaniyat asarlarini sanoat ishlab chiqarish jarayoniga aylantiradi. Shuningdek, ilgarilari avvalo san'at asari bo'lib, keyin sotuvga chiqqan narsalar ommaviy madaniyatda faqat tovarga aylandi. Shu ma'noda "Ommaviy madaniyat" asoschilari Gollivud (AQSh) biznesmenlari bo'lganlari bejiz emas. Har qanday boshqa tovarlar kabi bu tovarlar ham o'z bozoriga ega bo'lishga va uni tobora kengaytirishga intiladi. Barcha tovarlar kabi ommaviy madaniyat tovarlari ham xaridorgir bo'lishga intiladi. Buning uchun u avvalo ko'pchilik omma kundalik qiziqish ehtiyojlarini hisobga oladi[3].

Bu yo'lda u SPID, narkotiklar, tabiatdagi kataklizmalar, yirik texnogen katastrofalar, terrorizm, agressiya, dahshat kabi o'tkir mavzulardan keng foydalanadi, shuningdek, ur-sur (jangari), dahshat mavzularidagi trillerlar ham xaridorgir hisoblanadi. Bu mavzudagi asarlar odatda tomoshabin uchun o'ziga xos narkotikka aylana boradi. Oxir-oqibatda ommaviy madaniyat insonni diydasi qattiq, atrofida sodir bo'layotgan og'ir ahvolga, zo'ravonliklarga befarq jonsiz, hissiz biorobotga aylantiradi.

Ommaviy madaniyatning syujetlari esa, ular qaysi janrda (detektiv, ishqiy roman, sarguzasht) ekanidan qat'i nazar, odatda deyarli bir xil formula asosida yaratiladi: "asar" qahramoni qiyin vaziyatga tushib qoladi, keyin bir amallab bu vaziyatdan chiqib ketadi. Va, aksincha, ommaviy madaniyat qancha mustahkam qaror topsa, ya'ni ommalashsa, uning ta'sir kuchi, obro'si ham shunchalik ortadi. Natijada u inson ma'naviy dunyosini o'zi xohlagancha boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. OAV yordamida u yoki bu mafkurani o'tkazmoqchi bo'lgan siyosatchilar ham, tovarlarini reklama qilish orqali o'z bozorini kengaytirish maqsadini ko'zlagan ishlab chiqaruvchilar ham uning shu jihatidan foydalanadilar.

Vaholanki, endilikda "ommaviy madaniyat"ning hamma yoqqa erkin kirib kelishi imkoniyatlari juda ortib bormoqda. Bu madaniyatga qarshi tura olish, kurash olib borish uchun bu imkoniyatlarni yaxshi tasavvur etishning zarurati katta. Ular avvalo inson onging xususiyatlaridan foydalanishga tayangan bo'lib, asosan quyidagilardan iborat:

- Individning ruhan va aqlan ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etishni istamasligi. Boshqacha aytganda, jamiyat a'zolarining ko'pchiligiga xos bo'lgan inertlik (loqaydlik, passivlik, dangasalik).

- Kundalik muammolardan, doimo takrorlanishdan iborat bo'lib qolgan zerikarli, odatiy va mutaassiblik kayfiyatidan chetlashish xohishi.

- O'z muammolarining boshqa insonlar va jamiyat tomonidan ham tushunilishi va his etilish istagi[4].

Ommaviy madaniyat inson ongingning shu xususiyatlaridan foydalanadi. U odatda avvalo o'z bo'sh vaqtini qanday o'tkazishni bilmaydiganlar diqqatini o'ziga tortadi. U yengil qabul qilinadigan, inson ko'nglini xushlaydigan xayollar, go'zal manzaralar va sarob dunyosiga olib kiradi, unga dam beradigan, unga shaxsan yo'naltirilgan jihatlari bilan kishiga yoqadi. Boz ustiga kundalik muammolarga original va juda yengil hozirjavobligi bilan hali chiniqmagan ko'pchilik ongingni zabt etadi. "Ommaviy madaniyat"ning "vaqtichog'lik qilish san'ati", "charchoqqa qarshi" san'at yoki yarim madaniyat kabi nomlarni olgani ham shuning tufaylidir.

An'anaviy madaniyatda bo'lganidek, ommaviy madaniyatning ham universal

xarakteristikasi hamon mavjud emas. Buni shunday tushuntirish mumkin. Gap shundaki, “Ommaviy madaniyat” ilmiy-falsafiy kategoriya sifatida o‘zida yakdil uchta tushunchani qamraydi. Birinchidan, “madaniyat” – alohida xarakterdagi mahsulot. Ikkinchidan, “ommaviylik” – mahsulotni tarqatish me‘yori. Uchinchidan, “madaniyat” – ma‘naviy boylik. “Ommaviy madaniyat”ning manbalari:

Turli virtual (kompyuter) o‘yinlar, ayrim chet el va xususiy studiyalarda olingan o‘zbek filmlari, tumtaraqay, ma‘no-mazmunsiz qo‘shiqlar, chet el telekanallarining ayrim ko‘rsatuvlari, internet va undagi turli ijtimoiy tarmoqlar, Uyali aloqa telefonlari, sariq matbuot, urbanizatsiya jarayoni, isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilgan tantanalar va to‘ylar hamda yolg‘on axborot va ma‘lumotlarni tarqatuvchi OAV.

**Xulosa va takliflar** Xulosa sifatida shuni ta‘kidlash mumkinki, bugungi kunda yurtimizda istiqomat qilayotgan Yevropa millatiga mansub yoshlar orasida ko‘proq tarqalayotgan “emo”, “got” kabi submadaniyat yo‘nalishlarini targ‘ib etuvchi 10 dan ortiq internet saytlari ishlarida.

Shunday ekan, inson o‘zida bunday madaniyatga qarshi immunitetini qanday tarbiyalashi va buning uchun nima qilishi zarur? Azaliy bo‘lgan, ming yillik sinovlardan o‘tgan qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni mukammal bilish va amal qilishi darkor. Mabodo shunday vaziyatga, holatga tushib qolsa, hech bo‘lmaganda “Bu ko‘rinishdagi “madaniyatni kim, qanday maqsadda va nima uchun uzatyapti?”, degan savollarni o‘ziga o‘zi berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishi kerak bo‘ladi. Ana shundagina turli g‘oyalar, shubhali “madaniyatlar” ta‘siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma‘lumotlarga ko‘r-ko‘rona ergashishning oldi olinadi. Shakllangan axborot iste‘moli madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo‘lgan xabar, ma‘lumotlar va “madaniyat”ga nisbatan o‘ziga xos qalqon rolini o‘taydi, shaxs dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. – B.111.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 496.
3. Ник Бостром: Живем ли мы в компьютерной симуляции. <https://habr.com/ru/post/516598/>
4. В.И.Данилов-Данилян, Рейф И.Е. Биосфера и цивилизация: в тисках глобального кризиса. – Москва: Прогресс, 2018. – С. 34.
5. Файбуллаев О. Эстетик маданият. –Ташкент: Наврўз, 2020. 165-бет.
6. Яхшиликков Ж., Мухаммадиев Н. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. – Ташкент: Чўлпон, 2018. 320-бет.
7. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021. 228-bet
8. Отамуродов С. Ёшлар сиёсий маданиятини ривожлантириш омиллари. -Ташкент: O‘zbekiston,2015. –Б. 22-23.
9. Хўжанова Т.Ж. Мафкуравий профилактика – ёш авлодни ғоявий ҳимоялаш омили (ижтимоий-фалсафий таҳлил). –Ташкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2019. –Б. 105.
10. Гавриленко Н.В. Духовная культура личности в системе гуманитарного образования. – Москва: 2000. –С.23.

### SIYOSIY ZIDDIYATLARNING GENEZISI VA ULARNING NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI

**Hasanov Sharofiddin Shashurovich,**  
falsafa fanlar doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik  
Ma‘muriy-tashkiliy faoliyati fakulteti boshlig‘i o‘rinbosari,  
[Choriyev99@list.ru](mailto:Choriyev99@list.ru)  
ORCID 0000-0002-8708-2621

UDK 32: 316.48.

**Annotatsiya.** Maqolada siyosiy ziddiyatlar ijtimoiy guruhlar, ta'lim tizimi, davlat, siyosiy partiyalar, tarixiy jamoalar, jamiyatlar va sivilizatsiyalardagi nizolarni, ichki va tashqi, bosh va ikkinchi darajali, muhim va nomuhim, antagonistik va noantagonistik kabi turlar va ularni jihatlari tahlil qilingan.

Dunyodagi barcha voqea-hodisa va narsalar rivojlanishining manbai va sababi qarama-qarshiliklardir. Tabiat, jamiyat va ongdagi qarama-qarshiliklar – tabiiy va ijtimoiy jarayonlar rivojida asosiy manba va sababdir. Dialektikaning eng muhim qonuni – qarama-qarshiliklar birligi va o'zaro kurashi qonuni yakkaning qarama-qarshi taraflarga, ya'ni ikkiga bo'linishi sifatida talqin qilinadi. Bo'lingan qarama-qarshi tomonlar o'rtasida kechadigan to'xtovsiz kurash butun olamdagi taraqqiyotning manbasi, sababidir. Qarama-qarshiliklardan tug'iluvchi "kurash" tushunchasi esa mojaro-nizo-to'qnashuv muammosi bilan uzviy bog'liq. Siyosiy ziddiyatlarni ichki va tashqi, bosh va ikkinchi darajali, muhim va nomuhim, antagonistik va noantagonistik kabi turlarga bo'lish mumkin. Ichki ziddiyatlar bir hodisadagi qarama-qarshi tomonlar tufayli, tashqi ziddiyatlar esa turli hodisa-jarayonlarning o'zaro zid taraflari sababli kelib chiqadi. Siyosiy ziddiyatlarning paydo bo'lish bosqichiga o'z manfaat va xatti-harakatlarini anglay holati xosdir. Bunda subyekt boshqalar manfaatlariga zarar yetkazayotganini goho anglashi, goho anglamasligi ham mumkin. Agar anglasa, demak subyekt boshqa subyektlar manfaatlariga zarar yetkazib bo'lsa-da, o'z manfaati uchun ongli ravishda siyosiy ziddiyatni keltirib chiqarish yo'lidan borayotgan bo'ladi.

**Tayanch so'zlar:** Siyosiy ziddiyatlar, to'qnashuv, siyosiy to'qnashuv, muxoliflar, insident, mojaro eskalyatsiyasi, kulminatsiya, antagonistik ziddiyatlar, ichki ziddiyatlar, etnik ziddiyatlar, so'nggi ziddiyatlar, mojaro .

**Abstract.** The article analyzes political conflicts in social groups, educational system, state, political parties, historical communities, societies and civilizations, internal and external, primary and secondary, important and insignificant, antagonistic and non-antagonistic types and their aspects.

Contradictions are the source and reason for the development of all events and things in the world. Contradictions in nature, society and consciousness are the main source and reason for the development of natural and social processes. The most important law of dialectics - the law of the unity and mutual struggle of opposites is interpreted as the division of the individual into opposite sides, that is, into two. The constant struggle between divided opposites is the source and cause of progress in the whole world. The concept of "struggle" arising from contradictions is closely related to the problem of conflict-conflict-conflict. Political conflicts can be divided into such types as internal and external, primary and secondary, important and insignificant, antagonistic and non-antagonistic. Internal conflicts are caused by opposing parties in one event, and external conflicts are caused by conflicting parties in different events. The stage of emergence of political conflicts is characterized by the state of understanding one's own interests and actions. In this case, the subject may sometimes realize that he is harming the interests of others, and sometimes he may not.

**Key words:** Political conflict, conflict, political conflict, opposition, incident, conflict escalation, climax, antagonistic conflict, internal conflict, ethnic conflict, recent conflict, conflict.

**Kirish.** Zamonaviy davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – siyosiy ziddiyat insoniyat tarixining ajralmas jarayonlaridan biri hisoblanadi. Siyosiy ziddiyatlarning yechimini topish uchun butun dunyoda jamiyatshunoslar, konfliktologlar, huquqshunoslar siyosiy ziddiyatlarning yechimini topish, ularni bartaraf etish yo'llarini izlamoqdalar. Biroq bu bilan muammoning chuqur nazariy asoslarini anglash imkoni bo'lmayapti. Shu sababli, siyosiy ziddiyatlar masalasiga ijtimoiy-siyosiy jihatdan ham e'tibor qaratish lozimligi, masala tartibga solinishining tahlili sifatida yoritilgan va tavsiflangan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, siyosiy ziddiyatlarni o'rganish va hal qilishning ilmiy jihatdan mukammal konsepsiyasini yaratish muammosi hozirgi kunda ham saqlanib qolmoqda. Boshqacha qilib aytganda, eng avvalo siyosiy ziddiyatning mazmun-mohiyatini keng ravishda tasavvur qilish muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda aksariyat ijtimoiy-gumanitar olimlar tomonidan siyosiy ziddiyatlar muammosini o'rganish shunchaki oddiy bir hodisa emas, balki butun insoniyatning yangi asrda tirik qolishi sharti sifatida qaralmoqda. Shu ma'noda jahon tajribasiga tayangan holda, O'zbekistonda ham siyosiy ziddiyatlar uzoq o'tmish tarixi, manbalarini tahlil qilgan holda kelajakda mamlakatimizda shu bugungidek osoyishtalikni ta'minlash nuqtayi nazaridan, O'zbekistonda nosog'lom siyosiy ziddiyatlarni bartaraf etish borasidagi ishlarni

izchil davom ettirish dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Tadqiqot davomida tizimlilik, muammoviy-maqсадli, qiyosiy tahlil, tizimli va mantiqiy yondashuv, sintez, yuridik-texnik, empirik material, statistik ma'lumotlar tahlili va bashorat qilish kabi maxsus ilmiy uslublardan foydalanildi.

Tadqiqot ishida aniqlik, obyektivlik, mantiqiylik, izchillik, o'ziga xoslik, qisqalik va to'liqlilik kabi metodlardan foydalanilgan.

XXI asr insoniyat sivilizatsiyasi o'sishining shiddat bilan boshlanishi, madaniyat va farovonlikning yuksalishi, dunyoning uyg'unlashuvi va insonlararo hamkorlikning kuchayishi asri bo'lsa-da, urush, siyosiy to'qnashuvlar, ijtimoiy inqirozlar kabi salbiy illatlarning kamayishiga bo'lgan umidlarni oqlamadi. Qonunlar adolatli bo'lmadi, hukmdorlar davlat boshqaruvida donoroq, xalqlar esa bag'rikengroq bo'la olmadilar. Insoniyat oldida o'z xatti-xarakterlarini tushunib yetish va o'z ustidan nazorat o'rnatish, jamiyatda tinchlik va totuvlikda yashashni o'rganish yoxud halokatli to'qnashuvlarda "kuyib kul bo'lish"dek dilemma yoki muammoli savol paydo bo'ldi.

Ziddiyatlarga to'la bu dunyoda qanday qilib to'g'ri qaror qabul qilgan holda, talofat va yo'qotishlarsiz muammoli vaziyatlardan chiqib ketish mumkin? Bu savolga ko'plab tarixchi, sotsiolog, siyosatshunos, psixolog, pedagog va huquqshunoslar javob qidirishgan. Ammo hanuzgacha nizo-ziddiyatlarni boshqarish va tinchlikni saqlab qolishning universal formulasi topilmagan.

Shu sababli siyosiy ziddiyatlarni o'rganish va hal qilishning ilmiy jihatdan mukammal konsepsiyasini yaratish muammosi saqlanib qolmoqda.[1]

"Ziddiyat" so'zi XIX asrda lotin tilidan kirib kelgan bo'lib "Konfliktus"- "to'qnashuv" degan ma'noni anglatadi. Ziddiyat so'zini ishlatmasdan yashash mumkin, lekin ziddiyatga kirishmasdan yashash mumkin emas. Balki kelishmovchilik, to'qnashuv, kurashish, mojaro va shu kabi so'zlarni barchasini umumlashtirish maqsadida bu so'z ishlatilsa, ajabmas. Oramizda biror marta ziddiyatga tushmagan inson bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun ham "agar sizning xayotingizda ziddiyat bo'lmasa to'miringiz urishini tekshirib ko'ring" degan ibora ishlatiladi. Buning xulosasi esa ziddiyat - bu hayotimizdagi voqea-hodisa singari oddiy holdir. Bundan tashqari agar oilada, ishxonada yoki davlatda ziddiyatlar bo'lmasa, bu aynan shu yerda tinch osoyishta hayotda o'sish, rivojlanishi to'xtaganligini bildiradi. Shuning uchun bu ziddiyatlarni o'rganish va uni yuzaga kelganda bartaraf etish kerakligi va hayotimizni ravnaqiga uning salbiy ta'sirini o'tkazmasligiga harakat qilish kerak.

Siyosiy ziddiyatlar ijtimoiy guruhlar, ta'lim tizimi, davlat, siyosiy partiyalar, tarixiy jamoalar, jamiyatlar va sivilizatsiyalardagi nizolarni o'rganadi.

Siyosiy ziddiyat obyekt - jamiyat hayotining ijtimoiy siyosiy jabhalarida turli xil ko'rinishdagi siyosiy ziddiyatlar va to'qnashuvlardir. Predmeti esa - jamiyat va davlat siyosiy hayotidagi siyosiy ziddiyatlarning tabiati, sabablari, mexanizmlarini o'rganish va ularning oldini olish, aniqlash, kuzatish va hal qilish yoki hal qilish uchun texnologiyalarni ishlab chiqishdir.

Zamonaviy ziddiyatshunoslikda "to'qnashuv" va "siyosiy to'qnashuv" tushunchalariga nisbatan bir xil ta'rif mavjud emas. Bu masalaning mohiyati xususida olimlar o'rtasida yakdillikning yo'qligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari adabiyotlarda ko'p hollarda "to'qnashuv" va "siyosiy to'qnashuv" tushunchalari sinonim sifatida ishlatiladi. Quyida bu borada keng tarqalgan ta'riflarni keltiramiz:

"To'qnashuv - obyektiv (yashirin) va subyektiv (aniq) qarama-qarshiliklar orqali ifodalanadigan elementlarning har qanday aloqasi[2,.: 142-147.]".

"To'qnashuvlar - odamlarning jamiyatdagi o'zaro hamkorligi, ijtimoiy borliqning o'ziga xos hujayrasi, ijtimoiy harakatlarning potensial yoki faol subyektlari o'rtasidagi

munosabatlar shaklidir. Ularning motivatsiyasi qarama-qarshi qadriyat, manfaat va ehtiyojlar bilan bog‘liq”[3,: 261.].

“To‘qnashuv o‘zaro munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni bartaraf etishning keskin usuli bo‘lib, odatda nizolashuvchi tomonlarning salbiy his-tuyg‘ularini ham qamrab oladi”[4,: 551.].

“To‘qnashuv – o‘tkir his-tuyg‘u, kechinmalar bilan bog‘liq, hal qilinishi qiyin bo‘lgan qarama-qarshiliklardir”[5,: 448.].

“Siyosiy to‘qnashuv – maqom, hokimiyat yoki cheklangan resurslarga da‘vogarlar o‘rtasida kechadigan kurash bo‘lib, unda nizolashuvchi taraflar nafaqat ko‘zlangan maqsadga erishishni, balki raqibni zararsizlantirish, zarar yetkazish yoki yo‘q qilishni ko‘zlaydilar”[6,: 295.].

“siyosiy to‘qnashuv – ijtimoiy manfaatlar, maqsadlar, rivojlanish tendensiyalaridagi qarama-qarshilik yoki sezilarli farq tufayli turli xil ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi ziddiyatlarda namoyon bo‘ladigan ekstremal, eng avj nuqtaga chiqqan holatdir”[7,: 528].

“Siyosiy to‘qnashuv – bu tomonlar hudud yoki resurslarni egallashga intiladigan qarama-qarshilik bo‘lib, unda muxolifat a‘zolari yoki guruhlari, ularning mol-mulki yoki madaniyatiga tahdid yuzaga keladi va kurash hujum yoki mudofaa shakliga o‘tadi”[8,: 320.].

Shunday qilib, ko‘pincha to‘qnashuv o‘zlarining maqsadlarini ro‘yobga chiqarish uchun kuchli hissiy kechinmalar bilan bo‘yalgan, faol va o‘zaro muxolif harakatlar sifatida baholanadi. Lekin ijtimoiy to‘qnashuv – ikki yoki undan ortiq subyektlar va ijtimoiy hayotning boshqa ishtirokchilarining o‘zaro mos kelmaydigan ehtiyojlari, manfaatlari va qadriyatlari o‘rtasidagi ochiq qarama-qarshilikdir.

Muxoliflar shuningdek ijtimoiy mavqeiga ko‘ra farqlanadi –jamiyatda inson yoki guruhning umumiy pozitsiyasi ma‘lum huquq va majburiyatlar to‘plami bilan bog‘liq.

Nizolashayotganlarning sifatiy tarkibini bilib olish uchun ular amal qiladigan xulq-atvor, ruhiyatlarining o‘ziga xosliklari, axloqiy va ijtimoiy me‘yorlariga e‘tibor berish kerak.

Guruhlarni kompleks o‘rganishda nizolashayotgan taraflardagi oddiy a‘zolarga ham, ulardagi yekakchilarga nisbatan ham ushbu yondashuvni qo‘llash lozim. K. Boulding shu munosabat bilan gomogen (bir xil tarkibli) va geterogen (turli xil tarkibli) guruhlarni o‘zaro farqlaydi[9,: 106-124.]. Gomogen guruh o‘zaro ichki aloqadorlik va birdamlik, jipslikning yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Guruhdagi geterogen tarkib esa mojar o‘tkirligining pasayishiga, uning yumshashiga olib keladi.

Siyosiy ziddiyatlar yechimini topish yo‘lida muayyan qadamlar qo‘yish zarurligini anglash jarayoni murakaab fenomen bo‘lib, ko‘pincha muammoli vaziyat subyektiv, ya‘ni bir tomonlama, noxolis idrok qilinadi. Voqelikning subyektiv in‘ikosi sababi nafaqat ruhiyat tabiati, balki ishtirokchilar o‘rtasidagi sotsial tafovutlar bilan ham bog‘liq. Bu tafovutlar ijtimoiy qadriyatlar, mo‘ljallar, g‘oya va manfaatlarda ko‘zga tashlanadi.

Voqelikni idrok etishdagi individuallik sababi jarayon qatnashchilarining bilim darajasi, ehtiyojlari va boshqa o‘ziga xosliklaridagi tafovutlarga ham borib taqaladi. Vaziyat qanchalik murakkab bo‘lsa, shunchalik tez rivojlanadi, o‘z-o‘zidan raqiblarning voqelikni noto‘g‘ri, g‘ayritabiiy tasavvur etishlari ehtimoli kuchayadi.

Insident – tomonlarning birinchi bor to‘qnashuvi, kuchlarning sinovdan o‘tkazilishi, kuch vositasida masalani o‘z foydasiga hal qilish uchun qilingan urinishdir. Agar insident jarayonida taraflardan biri kuch-qudrati ko‘pligini amalda ko‘rsata olsa, nizo katta mojaroga aylanmay, o‘z nihoyasiga yetishi mumkin.

Eskalyatsiyaning boshlanishida raqiblar o‘rtasida kurash keskin avj olib ketadi.

Kuchga tayangan harakatlar qismida ikkala taraf ham qat'iyat va bosim o'tkazish bilan vaziyatni o'z foydalariga o'zgartirishga harakat qiladilar. Chunki bu davrda taraflardan hech biri ixtiyoriy ravishda yon berishni aslo istamaydilar. Dushmanlik ehtirolari kuchayganda boshqaga obraziga nafrat tig'i shunday yo'naltiriladiki, endi subyekt o'z "dushmani"ning tafakkuri, hislari, ahvoli inobatga olinmaydi. Masalaga "oq-qora" nuqtayi nazaridan yondashiladi.

Kulminatsiya, ya'ni mojaroning eng avj olgan pallasida raqibga qo'yilgan ayblar va go'yo adolat o'z tarafida ekanligi to'g'risidagi baholar mutlaqlashtiriladi. Shu tariqa raqiblar bir-birlarini insoniylikdan mutlaqo mahrum jonzot deb hisoblay boshlaydilar.

Mojarodan keyingi davr mojaro oqibatlarini va raqiblar munosabatlarining qisman yoki to'la normallashtirishdan iborat ikki bosqichga bo'linadi. Mojaro davridagi salbiy emotsiyalar butunlay yo'qolmagan bo'lsa munosabatlarining qisman normallashtirish ro'y beradi. Qayg'u-hasratli og'ir kechinmalar, o'z nuqtayi nazarini qayta o'ylab ko'rish bu davrga xos xususiyatlar. Raqibga nisbatan munosabat, unga nisbatan qo'yilgan iddaotalablar, o'z-o'zini baholashdagi korreksiya – yuqoridagi xususiyatlar jumlasidandir. Mojaro davridagi o'z xatti-harakatlari uchun aybdorlik hissini tuyish kuchayadi. Ammo biri-birini baholashga nisbatan saqlanib qolgan eski xotiralar munosabatlarni darhol normallashtirishga imkon bermaydi. Tomonlar bundan keyin sog'lom, konstruktiv munosabatlarni o'rnatish zarurligini anglashlari bilanoq munosabatlarining to'liq normallashtirish boshlanadi. O'rtada o'zaro ishonchning qaror topishi ham shunga imkoniyat yaratadi.

Mavjud tajriba mojaro davomiyligi bilan uning natijalari o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligini ko'rsatmoqda. Tez o'tib ketuvchi mojarolarda odatda rahbarlar o'z maqsadlariga erishadilar. Mojaro qancha uzoq davom etsa, rahbar uchun undan manfaat ko'rish imkoniyati shuncha pasayadi. Mojaroning uzoqqa cho'zilishi va bo'ysinuvchining undan manfaatdorligi o'zaro teskari proporsionaldir.

- ko'lamiga ko'ra (mahalliy, mintaqaviy, davlatlararo, global, mikro-, K. Levin motivatsion ziddiyatlarga (kamchilik o'z ishdan mamnun, ko'pchilik o'zlariga ishonmaydilar, stressni boshdan kechirishadi, ishda haddan tashqari ko'p vaqt o'tkazadilar) ko'p jihatdan ichki ziddiyatlarni kiritadi [10, : 93-96.]. L.Berkovis, M.Doych, D.Maers motivatsion ziddiyatlarni guruhniki deb ta'riflaydilar [11, : 23.]. Kognitiv ziddiyatlar adabiyotda ham ichki, ham guruhlararo qarama-qarshiliklar nuqtayi nazaridan tavsiflanadi. Shu asosda siyosiy ziddiyat jamiyatni boshqarish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan nazariy va amaliy qo'llanmalarni ishlab chiqadi hamda ilmiy nuqtayi nazardan uning qonun va kategoriyalarini aniqlashni taqozo etadi.

Dunyodagi barcha voqea-hodisa va narsalar rivojlanishining manbai va sababi qarama-qarshiliklardir. Tabiat, jamiyat va ongdagi qarama-qarshiliklar – tabiiy va ijtimoiy jarayonlar rivojida asosiy manba va sababdir. Dialektikaning eng muhim qonuni – qarama-qarshiliklar birligi va o'zaro kurashi qonuni yakkaning qarama-qarshi taraflarga, ya'ni ikkiga bo'linishi sifatida talqin qilinadi. Bo'lingan qarama-qarshi tomonlar o'rtasida kechadigan to'xtovsiz kurash butun olamdagi taraqqiyotning manbasi, sababidir. Qarama-qarshiliklardan tug'iluvchi "kurash" tushunchasi esa mojaro-nizo-to'qnashuv muammosi bilan uzviy bog'liq. Qarama-qarshiliklar tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy turlarga bo'linadi. Qarama-qarshiliklarni tahlil qilish ijtimoiy nizolarning jamiyatdagi rolini tushunib olishga imkon beradi. Biroq ko'pgina tadqiqotchilar mojarolarni o'rganishda uni qarama-qarshiliklar bilan bog'lashni rad etadilar. Masalan, ingliz sotsiologi E. Giddens "ziddiyat" deganda men tomonlar foydalanadigan kurash manbasi, vosita va usullaridan qat'i nazar aniq kurashni tushunaman. Mojarodan farqli o'laroq qarama-qarshilik tushunchasi

muayyan tuzilmaga xos. Bu ikkala tushuncha bir-biriga yaqin, chunki qarama-qarshilik ijtimoiy tizimning zaif bo'g'inini ifodalaydi", deb yozadi.

Siyosiy ziddiyatlarni ichki va tashqi, bosh va ikkinchi darajali, muhim va nomuhim, antagonistik va noantagonistik kabi turlarga bo'lish mumkin. Ichki ziddiyatlar bir hodisadagi qarama-qarshi tomonlar tufayli, tashqi ziddiyatlar esa turli hodisajarayonlarning o'zaro zid taraflari sababli kelib chiqadi. Ichki ziddiyatlar voqea-hodisalar rivojida hal qiluvchi, tashqi ziddiyatlar esa tasodifiy ahamiyatga ega bo'ladi. Odatda tashqi ziddiyatlar ichki ziddiyatlar oqibatida kelib chiqadi va tirik organizm, mamlakat, madaniyat va boshqalarning taraqqiysi yoki halokatiga olib keladi.

Antagonistik ziddiyatlar sotsial birliklar (sinflar, millatlar), intimoiy institutlar (oila, ta'lim tizimi), ijtimoiy tashkilotlar (armiya, fan, cherkov va hokozolarlar o'rtasida manfaatlardagi ixtiloflar tufayli kelib chiqadi. Davlat va jinoyatchilik, aholi va narkomafiya o'rtasidagi ziddiyatlar ham shundaydir.

Noantagonistik ziddiyatlar esa ijtimoiy birliklar, ijtimoiy institutlar va ijtimoiy tashkilotlar o'rtasidagi ziddiyatlar bo'lib, ulardagi subyektlar manfaatlari o'zaro bir-biriga muvofiq keladi. Shuningdek, ota-onalar va farzandlar, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi ziddiyatlar ham noantagonistik sanaladi.

Siyosiy ziddiyatlarning taraflarida quyidagi ijtimoiy subyektlarni ko'ramiz:

- ijtimoiy birliklar (shaxtyorlar, dehqonlar, ziyolilar);
- ijtimoiy institutlar (oila, ta'lim, ishlab chiqarish);
- ijtimoiy tashkilotlar (siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, davlat organlari)
- millatlar, jamiyatlar, sivilizatsiyalar.

Qayd etish lozimki, siyosiy ziddiyatlarning paydo bo'lish bosqichiga o'z manfaat va xatti-harakatlarini anglay olish holati xosdir. Bunda subyekt boshqalar manfaatlariga zarar yetkazayotganini goho anglashi, goho anglamasligi ham mumkin. Agar anglasa, demak, subyekt boshqa subyektlar manfaatlariga zarar yetkazib bo'lsa-da, o'z manfaati uchun ongli ravishda siyosiy ziddiyatni keltirib chiqarish yo'lidan borayotgan bo'ladi. Bunda o'z raqiblariga nisbatan dushmanlik, o'z ittifoqchilariga nisbatan esa xayrixohlik tuyg'ulari anglanadi. Ikkinchi holatda esa ziddiyat stixiyali bo'lib, unda subyekt boshqalar manfaatlariga zarar yetkazayotganini anglamagan tarzda, shunchaki o'z manfaatlarini qondirish uchun harakat qilayotgan bo'ladi. Turli manfaatlarga ega subyektlar manfaatlari o'zaro zidligini turli davrlarda va turli darajada anglab oladilar.

Siyosiy konfliktlar ijtimoiy jarayonlarga manba bo'lib xizmat qiladi. Masalan, E.Giddens fikricha, ziddiyatlarning mojarolarga aylanishi manfaatlarning o'zaro zidligini va subyektlarning shunga muvofiq xatti-harakat motivatsiyasini anglab olishi uchun zarurdir. Uningcha, tomonlar o'z manfaatlari o'zaro zidligini anglab yetmagunlaricha mojaro boshlanmaydi. Shu nuqtayi nazardan siyosiy ziddiyatlarni ijtimoiy mojarolarning negizi, dastlabki sharti, zamini deb hisoblash mumkin.

Biroq ijtimoiy mojaro paydo bo'lish, rivojlanish va yechim jarayonlaridan iborat bo'lganligi bois, uni siyosiy ziddiyatlarning tarafi deb emas, balki bir qismi deb qarashadi. Masalan, A.G. Spirkin mojaroni ziddiyatning oxirgi darajasi, cho'qqisi deb hisoblaydi. Biroq ijtimoiy mojaroning yashirin davrini to'g'ri tahlil qilish uni bashorat qilish va oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Amaliy nuqtayi nazardan, munosabatlarni tartibga solish muammosi xatti-harakatlarning stereotiplarini o'zgartirish vazifasi sifatida shakllanadi. G.M.Andreevaning fikricha, bitta – destruktiv bo'lganni ko'proq konstruktiv hisoblangan boshqasi bilan almashtirilishi kerak.

Bugun millatlararo ziddiyatlarni ijtimoiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan hal etish jahon xalqlarini, ayniqsa polietnik davlatlarni bezovta qilayotgan global muammolardan



biridir. Ayrim davlatlarda millatlararo munosabatlardagi ziddiyatlar uzoq yillardan buyon davom etib kelmoqda. Jumladan, Angliyada Olster, Fransiyada Korsika, Ispaniyada Kataloniya, Italiyada Janubiy Tiroliya, Belgiyada Flamandiya, Xitoyda Uyg'ur avtonom tumani va Tibet, Bolgariyada turklar, Turkiyada kurdlar milliy nizolarga, siyosiy-ijtimoiy to'qnashuvlarga sabab bo'lib keladi. Sobiq SSSRning tarqalishi bilan uning o'rnida paydo bo'lgan mustaqil davlatlarda, ayniqsa, totalitar tuzum tazyiqi ostida bo'lgan Yugoslaviya, Ruminiya, Vengriya, Chexoslovakiyada millatlararo to'qnashuvlar avj oldi. Hattoki, eng rivojlangan AQShdek davlatda ham milliy-etnik muammolar mutlaq hal etilmagan. Etnos bu – bir geografik iqlim sharoitida yashagan kishilar jamoasidir. Millat esa – ijtimoiy-tarixiy vaziyat tufayli ma'lum bir hududda uzoq vaqt birga yashagan va o'z siyosiy davlatchiligini shakllantirishi natijasida turmush tarzi, urf-odatları, qadriyatları, tili, madaniyati, e'tiqodi umumiy bir bo'lgan odamlarning katta jamoasidir.

Milliy – etnik ziddiyatlar o'zining uzoq tarixiga ega. Uning kichik ko'rinishi qadimgi davrdagi qabila va urug'lar o'rtasidagi ziddiyatlar bo'lib u unchalik darajada halokatli emas deyish mumkin. Hozirgi paytdagi milliy etnik nizolar nisbatan insoniyat va uning kelajagi uchun ancha xatarliroqdir. Chunki hozirda o'rtacha eng kichik millat besh yuz mingdan boshlanadi va eng kattalari milliarddan oshib ketadi hamda ular o'ziga xos zamonaviy qirg'in qurollarga ega ekanligini inobatga olsak, uning qay darajada ekanligini tasavvur qilish qiyin emas. Undanda dahshatlısi, milliy-etnik ziddiyatlarni o'z ichiga oluvchi dinlararo va konfessiyalararo ziddiyatlardir. Ushbu ziddiyatlar boshqalariga nisbatan keng ko'lamliligi, shafqatsizligi, ko'p qurbonlar bo'lishi, uzoq vaqt davom etishi mumkinligi bilan boshqalaridan keskin ajralib turadi. Etnomilliy ziddiyatlar ko'pqirrali masalalardan biri bo'lganligi sababli ilmiy adabiyotlarda mualliflar turli xil nuqtayinazarlarni ilgari surganlar. Hatto ularning ayrimlari bir-biriga qarama qarshi fikrlardan iboratdir. Ularda mualliflar o'zlarining dunyoqarashlaridan kelib chiqib millatlarning tabiatiga va ularning mavjudligiga o'zlaricha baho berganlar. Masalan, bir paytlar milliy harakatning rahbarlaridan biri bo'lgan Liviya rahbari M.Kaddafi "Milliy birlikni tashkil etuvchi va saqlab turuvchi asos bu – milliy o'zlikni anglashdir" deb yozgan edi. Darhaqiqat, millat birligining asosini ko'proq milliy o'zlikni anglash va yagona dinga e'tiqod tashkil etadi.

Millatlararo ziddiyatlar tabiati bir jamiyatda yashayotgan turli xil millatlarning o'zaro ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy madaniy va o'zaro ko'p qirrali aloqalarining qay darajada yo'lga qo'yilganligiga bog'liq. Milliy manfaatlarıning kamsitilishi faqatgina ijtimoiy sohadagina emas, balki kundalik hayotning turli xil sohalarida bo'lishi mumkin. Turli xil millatlar o'rtasida hatto kichik bir anglashilmovchilik orqali bo'lsa-da, yuzaga kelgan ziddiyat asta-sekinlik bilan kengayib katta masshtabga aylanib ketishi ehtimoli mavjud. Milliy harakatlarning ma'naviy asosi – bu milliy o'zlikni saqlab qolish va anglash uchun shakllantiriladigan milliy g'oyalardir. Milliy o'zlikni anglash ko'pchilik hollarda millatchilikni o'zida mujassamlashtiradi. O'zida millatchilik belgilarini namoyon qiluvchi milliy g'oya aniq bir millatning ehtiyojlari va manfaatlariga xizmat qiladi. O'tmishga nazar tashlasak, millatchilikning turli xil ko'rinishlarini kuzatish mumkin. Masalan, Hindistonda millatchilik uch diniy jamoa ko'rinishida namoyon bo'lgan. Unga J.Neru shunday baho bergan: "Hindistondagi "haqiqiy" millatchilik boshqalaridan shu jihati bilan farq qiladiki, unda kichik jamoaning manfaatları va pozitsiyasi emas, balki ko'pchilik hind aholisining ruhiy holati va xulq-atvori namoyon bo'ldi". XX asrning 80-yillari oxiri 90-yillari boshida sovet jamiyatida etnomilliy ziddiyatlar ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ldi. Birinchisi, ko'pmillatli sovet davlatida asosiy hukmron millat hisoblangan ruslar bilan nomigagina bo'lsa-da, o'z davlatchiligiga ega bo'lgan ittifoqdosh 15 ta respublikaning mahalliy millatlari o'rtasidagi

ziddiyatlardir. Ikkinchisi, sobiq ittifoqdosh respublikalar o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng mahalliy millat vakillari hamda rus tilida so'zlashuvchi va boshqa kamchilikni tashkil etuvchi millatlar o'rtasidagi ziddiyatlardir. "Bu turdagi ziddiyatlarni asosan o'z mustaqil milliy davlatchiligini shakllantirishga bo'lgan intilish tashkil etadi. Ularda milliy davlatchilikni qurish g'oyasining ijtimoiy-siyosiy mohiyati Markazning totalitar byurokratik diktaturasidan va ruslar ta'siridan xoli bo'lish orqali o'zlarining mustaqil demokratik davlatchiligini shakllantirishda namoyon bo'ldi. Markazdan uzoqlashish va o'z davlatchiligini qurishga bo'lgan kurashning tezlashib ketishiga sabab bo'lgan omillar – bu turli xil millatga, dinga, urf-odatlariga, tilga mansub xalqlarning zo'ravonlik, bir millat hukmronligi ostida zo'rlab ittifoqqa birlashtirilganligidir. Bugungi kunda jahonda millatlararo munosabatlarda bir-biriga qarama-qarshi ikki tendensiyani kuzatish mumkin. Biri mustaqillikka intilish va ikkinchisi jahon hamjamiyatiga integratsiyalashish. Ular jamiyatda turli xil ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Bir holatda millatlarning ma'lum bir maqsadga erishishi uchun integratsiyalashuvi kuzatilsa, ikkinchisida esa alohidalikka intilishi natijasida yuzaga kelayotgan millatlararo ziddiyatlardir. Har qanday ko'pmillatli davlatda millatlararo munosabatlar holati mamlakatning ichki xavfsizligi va siyosiy barqarorligini belgilab beruvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Islohotlar davrida ayniqsa, bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o'tayotgan davrda ko'pmillatli davlatlarda milliy mansublikning turli tumanligi jamiyatning siyosiy yo'nalishi va siyosiy jarayonlarini tezlashtiruvchi yokisekinlashtiruvchi xatto, uni parchalab yuboruvchi omillardan biriga aylanishi mumkin. "Bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan 130 dan ziyod millat va elatlarning vakillari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari taqdim etgan teng huquq va imkoniyatlardan foydalanib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada, ilm-fan va madaniyat sohalarida samarali mehnat qilib, Vatanimizning gullab-yashnashiga va uning mustaqilligini mustahkamlashga, respublikaning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va imijini oshirishga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar"[12]. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kundagi yana bir muhim vazifa mamlakatimizda millatlararo totuvlik g'oyasining doimiy ustuvor bo'lishini ta'minlash bilan bog'liq. O'zbekistonda politeizm qaror topgan, aholining 95 foizdan ortig'i islom diniga, qolganlari boshqa dinlarga e'tiqod qiladi. Bizning mamlakatimiz azal-azaldan qadimiy dinlar rivoj topgan makon sifatida dunyo sivilizatsiyasi tarixida alohida mavqega ega. Bu muborak zaminda bizning ajdodlarimiz boshqa din vakillariga doimo hurmat bilan qaraganlar, mana shu yurt ozodligi yo'lida ular bilan birga kurash olib borgani, yelkadosh bo'lib mehnat qilganini hech kim inkor eta olmaydi. Xulosa qilib aytganda, ko'pmillatli jamiyatlarda barcha millat va etnik guruhlar manfaatlarini qondirilishi adolatli tashkil etilgan bo'lsa, ayniqsa, ular o'rtasida huquqiy tenglik mamlakatning bosh qomusi bo'lgan konstitutsiyasi va qonunlarida o'z aksini topgan va amaliyotga tatbiq etilgan bo'lsa, davlatda millatlararo mojarolar kelib chiqishining ehtimoli kamayadi. Bu o'z navbatida jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

**Natijalar va muhokama.** Millatlararo ziddiyatlar tabiati bir jamiyatda yashayotgan turli xil millatlarning o'zaro ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy madaniy va o'zaro ko'p qirrali aloqalarining qay darajada yo'lga qo'yilganligiga bog'liq. Milliy manfaatlarining kamsitilishi faqatgina ijtimoiy sohadagina emas, balki kundalik hayotning turli xil sohalarida bo'lishi mumkin. Turli xil millatlar o'rtasida hatto kichik bir anglashilmovchilik orqali bo'lsa-da, yuzaga kelgan ziddiyat asta-sekinlik bilan kengayib katta masshtabga aylanib ketishi ehtimoli mavjud.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunda aksariyat ijtimoiy-gumanitar soha olimlari tomonidan siyosiy ziddiyatlar muammosini o'rganish shunchaki

oddiy bir hodisa emas, balki butun insoniyatning yangi asrda tirik qolishi sharti sifatida qaralmoqda. Insoniyat hayotiga xavf soluvchi hodisalardan bo'lgan va tobora shafqatsiz tus olayotgan cheki yo'q urushlar va siyosiy ziddiyatlar, "XXI asr vabosi" deb nom olgan terrorchilik, jamiyatda turli xil "fobiya"larning keng tarqalishi, har bir individual ongning zararli stereotiplarga moyilligi jamiyat va inson hayotida mavjud ziddiyatlarning mazmunini chuqurroq tushunib yetish lozimligini ko'rsatmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lug'atlarda "ziddiyat" atamasi konflikt, nizo, ixtilof, janjal, mojaro, to'qnashuv ma'nosida uchraydi. – Sh.Sh.H.
2. Дарендорф Р. Элементы теории социального конфликта (// Социологические исследования. — 1994. — № 5. — С. 142-147.
3. Здравомыслов А.Г. Социология конфликта. – М.: Аспект Пресс, 1996. — 261 с.
4. Ансупов А.Я., Шипилов А.И. А74. Конфликтология: Учебник для вузов. — М.: ЮНИТИ, 2000. - 551 с.
5. Микадзе Ю. В., другиз в. . Психологический словарь. Под ред. В.В.Давыдова, А.В.Запорожса, Б.Ф.Ломова и др. — Педагогика Науч.-исслед.ин-т общей и педагогической психологии Акад.пед.наук СССР, Москва, 1983. — 448 с.
6. Козер Л. А. Функции социального конфликта / Пер. с англ. О. Назаровой; Под общ. ред. Л. Г. Ионина. — Москва: Дом интеллектуальной книги: Идея-пресс, 2000. — 295 с.
7. Социологический словарь / [Сост. А. Н. Елсуков, К. В. Шульга]. - 2-е изд., перераб. и доп. - Минск : Университетское, 1991. - 528 с
8. Дмитриев А.В. Конфликтология. Учебное пособие. — М.: Гардарики, 2000. — 320 с.
9. Боулдинг К. Общая теория систем скелет науки // Исследования по общей теории систем. М.: Прогресс, 1969. С. 106-124.
10. Левин,К. Типы конфликтов. Москва // Психология личности :тексты ред. Ю.Б.Гиппенрейтер, А.А. Пузырей. – Москва : Издательство Московского университета, 1982. – С. 93-96.
11. Конфликтология: Учеб. пособие для студ. вузов. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2011
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://xs.uz/uzkr/post/millatlararo-munosabatlar-sohasida-ozbekiston-respublikasi-davlat-siyosati-konsepsiyasini-tasdiqlash-to'g'risida>.

**OMOLEKSEMALARNING POLISEMEM, POLIFUNKSIONAL,  
ENANTIOSEMIK, PARONIM VA VARIANTDOSH LEKSEMALAR BILAN  
O‘ZARO O‘XSHASH VA FARQLI TOMONLARI**

**Feruz Rajabov Umarqulovich**

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v/b.

Qarshi MII akademik litseyi katta o‘qituvchisi

[rajabovferuz5@gmail.com](mailto:rajabovferuz5@gmail.com)

ORCID: 0009-0009-70103404

UDK 412:434.46(085)

**Annotatsiya.** O‘zbek tili tasviriy ifodalar, shuningdek, polisemantizmga boy bo‘lgan tillardan biridir. Xususan, omonimiya hodisasining o‘zi ham tilimizning boyligini, undagi ma‘no imkoniyatlarining naqadar kengligini ko‘rsatuvchi dalillardan hisoblanadi. Biroq omonimiyaning polisemem, polifunksionallik, enantiosemiya, paronim va variantdosh kabi hodisalaridan farqlab olishda ta‘lim sohalarida va lug‘atchilikda muayyan qiyinchiliklar, o‘zaro ziddiyatli fikrlar mavjud. O‘zbek tilshunosligida mavjud bo‘lgan tadqiqotlarni o‘rganish va ilmiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida omonimiya va unga yondosh hodisalar, ularning yuzaga kelishi, xususiyatlari haqida ma‘lum izlanishlar olib borishni talab qiladi. Shu maqsadda omoleksemaga o‘xshash hodisalar tahlilga tortilgan. Sohaga xos manbalar asosida bu hodisalar bilan bog‘liq tushunchalarni taqqoslash, izohlash orqali bu kabi lisoniy va nutqiy hodisalarning mutanosib va nomutanosib xususiyatlari ilmiy xulosalar asosida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** omonim, polisemem, polifunksionallik, enantiosemiya, paronimik qator, paronimik juftlik.

**Abstract.** The Uzbek language is one of the languages rich in figurative expressions and polysemanticism. In particular, the phenomenon of homonymy itself is one of the evidences that shows the richness of our language and the breadth of meaning possibilities in it. However, there are certain difficulties and conflicting opinions in differentiating homonymy from phenomena such as polyseme, polyfunctionality, enantiosemy, paronymy, in the fields of education and lexicography. The study and scientific analysis of existing studies in Uzbek linguistics show that it is necessary to carry out certain researches about homonymy and related phenomena, their occurrence and characteristics in the Uzbek language. For this purpose, phenomena similar to omolexema were analyzed. By comparing and interpreting the concepts related to these phenomena based on sources specific to the field, the proportional and unbalanced features of such linguistic and speech phenomena are highlighted based on scientific conclusions. Structural and component analysis, comparative-descriptive methods were used in the article.

**Key words:** homonym, polyseme, polyfunctionality, enantiosemy, paronymic series, paronymic pair.

**Kirish.** Tilshunoslikda ko‘plab birliklarni leksik-semantik jihatdan bir-birlaridan va boshqa til hodisalaridan farqlash lozim. Omonimlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularni boshqa hodisalar bilan qorishtirmaslik maqsadida, o‘quvchilarning bilim darajasiga qarab, turli mashqlar o‘tkazish mumkin. Darhaqiqat, omonimlarga ham o‘xshash hodisalar bo‘lib, ularga polisememlar, polifunksionallik, paronimlar, enantiosemiya va variantdoshlik va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada ko‘tarilgan muammoni ochib berishda struktural va komponent tahlil, qiyosiy-tavsifiy tahlil usullari qo‘llanildi.

**Natijalar va muhokama.** Tildagi polisemiya hodisasi ham, omonimiya hodisasi ham ma'no taraqqiyotining mahsulidir. So'zlarda leksik ma'noning turli shakllari ma'no ko'chimlaridan tashqari, nutq vaziyati va matn bilan ham bog'liq. Shu o'rinda til va nutq hodisalarini alohida baholash hamda tahlil qilish talab etiladi. Nutq jarayonidagi muayyan hodisalar tildagi mazkur so'zga doimo mos kelavermasligi mumkin, bunday vaziyatlarda polisemiya hodisasi haqida so'z boradi, ya'ni yangi leksema hosil bo'lmaydi. Bir leksemaning ma'no ko'chishi – konversiya asosida turli ma'nolarda ishlatilishi yuz beradi [1]. Agar omonim leksemalarni polisemem leksemalar bilan taqqoslasak, polisemem leksemalarning tarkiban nomemasi bir xil, sememasi farqli bo'ladi, shu jihatdan omonimlarga o'xshaydi. Ular quyidagi belgilari asosida farqlanadi:

1. Polisememlar nomemasi bir xil, sememasi har xil bo'lgan bitta leksemdir. Sememalarida semantik bog'lanishlar bo'ladi. Agar ko'chirilgan nomemalar o'ziga birlashtirilgan sememalar bilan mustaqil qo'llanilsa, unda alohida-alohida leksemalarga aylanadi va omonimlar yuzaga keladi. "Bittadan ortiq sememasi bor til birligini polisemem til birligi deb nomlashimiz to'g'ri bo'ladi" [2].

2. Omonimlar shaklan (nomema) bir xil, sememasi har xil bo'lgan birdan ortiq, birliklardir va sememalarida semantik bog'liqlik bo'lmaydi. Omonimlarning qanday ma'noni ifodalashi nutq jarayonida ma'lum bo'ladi. Nomema va sememaga ega bo'lgan mustaqil til birligidir. Omonimlar monosemem yoki polisemem leksemalardan tashkil topadi. Masalan, *kuya* leksemasining omonimligi ikkita so'zning shakldoshligi asosida hosil bo'lgan va ikkalasi ham monosemem leksemalardir. **Kuya I** ma'nosi - "qurti yungli matolarni ko'rimsiz, yaroqsiz holga keltiruvchi, don yoki o'simliklarni nobud qiluvchi kichkina kapalak". **Kuya II** "qorakuya" ma'nosini ifodalaydi. Ba'zi omonimlar monosemem va polisemem leksemalarning shakldoshligi asosida yuzaga keladi. Masalan, **kunda I** monosemem leksema bo'lib, ma'nosi - "har kuni". **Kunda II** polisemem leksemasi O'TIL[3] da keltirilishicha beshta ma'noga ega. Bosh ma'nosi - "to'nka".

3. Polisemem leksemalar bir turkum yoki turli turkumga xos ma'no ifodalovchi sememalardan tarkib topadi. Omonimlar esa bir turkum yoki turli turkumga doir leksemalardan iborat bo'ladi: *suz* (fe'l), *o't* (ot, fe'l). Lekin biror turkumdagi so'zning boshqa so'z turkumi vazifasida, boshqa kategoriyada qo'llanishini omonimiya hodisasidan farqlash lozim. Chunonchi *sifatning ot* yoki *ravish* vazifasida qo'llanishi bir so'z doirasidagi grafik hodisadir, binobarin, ularni omonimiya hodisasi bilan taqqoslash deb bo'lmaydi"[4] kabi ilmiy qarashlarning qanchalik to'g'ri ekanligi bahslidir.

4. Polisemem leksemalar bir xil shakl yasovchi qo'shimchalarni oladi: *odamning burnini*, *choynakning burnini*. Omonimlar esa kamdan kam holatlarda bir xil grammatik shaklga ega bo'ladi.

5. Omonim so'zlar turli sinonimik va antonimik qatorlarga mansub bo'ladi. Bu sinonim va antonimlar o'rtasida hech qanday aloqa bo'lmaydi. Masalan, *yoz-qish*, *yoz-o'chir* (qish va o'chir leksemalarida semantik bog'liqlik yo'q). Ba'zi polisemantik so'zlarning sinonimlari o'rtasida ma'lum bir bog'lanishlar mavjud bo'ladi: *odamning beti*, *odamning yuzi* (to'g'ri ma'no) *kitobning beti*, *kitobning yuzi* (ko'chma ma'no).

Omonim leksemalarni polifunksional so'zlardan farqlash zarur. Ikki va undan ortiq so'zning shakli bir xil bo'lib, mazmuniy har xilligi omonim so'zlarni hosil qiladi, bir so'zning turli vazifada kelishi esa polifunksional so'zlarni yuzaga keltiradi. Masalan, *yolg'iz* so'zining "O'zbek tilining izohli lug'ati"da keltirilgan ma'nolariga e'tibor qarataylik: 1. Birorta ham sherigi yo'q, bir o'zi, yakka, tanho. 2. Aka-uka va opa-singillari yo'q; ota-onaning yagona farzandi. 3. Kimsasiz, hech kimi yo'q. 4. yuklama vazifasida Faqat, birgina [5].

Yuqoridagi ma'nolardan birinchisi *yolg'iz* leksemasining bosh ma'nosidir. Ikkinchi

va uchinchi esa hosila ma'nolaridir. To'rtinchi ma'nosida yuklama vazifasida qo'llanadi. Vazifadosh yuklama hisoblanadi. *Yolg'iz* so'zi yuklama vazifasida kelishiga ko'ra polifunksional so'zdir. Polifunksional so'zlar morfologik, sintaktik tahlillar asosida aniqlanadi. Masalan, ko'p olma, ko'p gapirmoq. Bu birikmalardagi *ko'p* leksemasining sememasi bir xil, sintaktik vazifasi har xil. Birinchi birikmada aniqlovchi vazifasida, ikkinchi birikmada hol vazifasida qo'llanmoqda. Shu jihatdan *ko'p* so'zi polifunksional so'zdir [6].

Enantiosemiya shaklan omonimiyaga mazmunan antonimga o'xshasa-da, ulardan farqlanadi. Antonimiya va omonimiya hodisasi leksemalar doirasida yuzaga chiqadi. Enantiosemiya esa sememalar va semalar doirasida hosil bo'ladi. Shuningdek, ushbu hodisani monosemem leksemaning sememasidagi yoki polisemem leksemaning bir sememasidagi antonim semalarida kuzatish mumkin. Masalan, *dono* leksemasining "aqli, har narsani biladigan yoki aqlsiz, ko'p narsani bilmaydigan" sememasida antonim semalar mavjud va enantiosemiya hosil bo'lgan [7].

V.Nafasova "O'zbek tili paronimlarining lisoniy tahlili" nomli tadqiqotida omonim bilan paronimlar o'rtasidagi munosabatdoshlik, umumiylik va xususiylklar chuqur tahlil qilgan va quyidagi mulohazalarni keltirgan: 1) o'zbek tili omonimlariga xos lisoniy xususiyatlardan biri ayrim omonimlarning o'zaro paronimik munosabatga kirishi va bu holat ma'lum bir omonimik qatorlarga xos ekanligi so'z turkumlari asosida dalillangan; 2) paronimlar va omonimlar paradigma/qator hosil qilishi uchun eng kamida ikkita lug'aviy birlik bo'lishi shart. Paronimlarda uchinchi leksema, deyarli, bo'lmaydi. Omonimik qatorda esa uchinchi, to'rtinchi va boshqa leksemalar qo'shilishi mumkin. Paronimlar yopiq qator sanaladi, omonimlar ochiq qatordir, deb asoslangan; 3) paronimlarda leksemalarning ifoda jihati har xil bo'lishi, paronim leksemalar grafik jihatdan bir-biridan farqlanishi, paronimlarning aytilishidagi yaqinlik, o'xshashlik mutlaq tarzda emas, ma'lum bir nutqiy holatlarda yuz berishi, omonimlarda esa ifoda jihati bir xil bo'lishi, grafik nuqtayi nazardan bir xil yozilishi tushuntirilgan. 4) paronimlarning aytilishida yaqinlik, talaffuzdoshlik bo'lishi, ammo bu holat barcha paronimik juftliklarga xos emasligi aniqlangan va umuman, paronimik juftliklarning aytilishi va talaffuzida omonimik qatorlardagidek bir xillik, umumiylik nisbatan kamligi aytilgan; 5) paronimik va omonimik qatorni belgilashda leksemalarning o'zbek tilining hozirgi davr taraqqiyotida qo'llanishi e'tiborga olinishi, agar ular tarixiy mavzulardagi asarlarda qo'llangan bo'lsa, izohli lug'atda grammatik belgi (*esk., kt., yuq. usl., folk., maxsus, kam qo'll., tar., etn.*) bilan berilgan bo'lsa, ularni paronimik va omonimik qatorga kiritish mumkinligi tushuntirilgan; 6) ayrim paronimlar va omonimlarning mazmun jihati o'rtasida bog'liqlik bo'lmasligi, bir guruh paronim juftlik va omonimik qatorlarda, aniqrog'i, bir xil asos leksemadan yuzaga kelgan paronim juftlik va omonimik qatorlarda ma'noviy umumiylik, yaqinlik mavjudligi aniqlangan; 7) paronimlar bilan omonimlar munosabatlarini isbotlaydigan dalillardan biri paronimik leksikaning omonimlar qatoridagi va omonimlarning paronimik juftliklar hosil qilishdagi ishtiroki aniqlangan; 8) o'zbek tilida omonimlardan ko'ra paronimlar katta miqdorni tashkil qilishi; 9) yasovchi qo'shimchalar yordamida paronimik qatorlarning yuzaga kelishi o'zbek tili leksikasining, xususan, paronimik leksikasining o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri sanalishi, omonimlarda esa yasama leksemalar nisbatan kamligi ta'kidlangan; 10) paronimik juftlikning bir a'zosi omonimik qator tarkibidagi leksemalardan iborat bo'lishi, paronimik juftlikdagi omoleksemalar ikki mustaqil leksema sifatida emas, bir leksema sifatida tasavvur qilinishi, paronimik juftlikning a'zosi bo'lgan omoleksemaning ma'nosini anglash matn bilan bog'liq bo'lishi ko'rsatilgan; 11) ular o'rtasidagi shakliy munosabatning faollik, o'ziga xoslik jihatlaridan biri ular o'rtasidagi fonologik-fonetik strukturaning yaqinligi,

grafik jihatdan turli xil darajadagi noo'xshashlik tufayli omonimlarning paronimlar, paronimlarning omonimlar qatorida bo'lishi, o'zbek tilida bunaqa omoleksemalar va paroleksemalar miqdori ko'p emasligi, lekin tilda bu tur leksik birliklar mavjudligi asoslangan; 12) omonimlar bir necha turkum so'zlari o'rtasida munosabatga kiraverishi, paronimik juftlikda, asosan, bir turkum leksemalari bo'lishi, ikki turkum leksemalarining paronimik munosabatga kirishuvi ko'p uchraydigan lisoniy hodisa ekanligi aytilgan. 13) unli va undosh tovushlar distributsiyasi paronimik juftlik hosil qilishi, omonimlarda bu kabi distributsiya bo'lmasligi aniqlangan; 14) paronimik juftlik ham, omonimik qator ham bir til va turli til birliklari o'rtasida bo'lishi mumkinligi dalillangan; 15) yasama paronimlarning barchasi o'zbek tiliga mansub leksik birliklardan yuzaga kelishi, paronimik juftlik tarkibidagi grafik va fonologik-fonetik o'xshashliklar leksik birliklarning boshida bo'lishi, noo'xshash, farqlovchi belgilar paronimik qatorning oxirida bo'lishi, omonimlarda bunday xususiyat bo'lmasligi aniqlangan; 16) asosdosh paronimik juftliklar etimologik jihatdan bir etimonga egaligi, etimondoshligi bilan, asosdosh bo'lmagan paronimik juftliklar turli etimologik asosga egaligi bilan xarakterlanishi, ifoda jihati bilan bir-biridan farqlanishi, omonimlar ham ifoda jihatidan bir xil bo'lishi, etimologik jihatdan esa har xil asosli bo'lishi asoslangan; 17) omonimlarning ma'nosi matnda, gap ichida, boshqa leksik birliklar qurshovida ma'lum bo'lishi, ifodaviy tenglik leksik ma'noning qurshovsiz voqelanishiga monelik qilishi, paronimlarning ma'nosi ham qurshovda (matnda), ham qurshovsiz (matnsiz) voqelana olishi ta'kidlangan; 18) paronimlarning ma'lum bir turlari omonimik qator tarkibiga kirish imkoniyatiga ega, omonimlar ham, ba'zilar paronimik juftlik tarkibiga bir a'zo bo'lib kirishi mumkinligi; 19) o'zlashmalarda (rus tili orqali) omonimlar urg'u o'rni bilan farqlansa, paronimlarda qo'shimchasi bilan farqlanishi; 20) fe'l leksemalar, asosan, o'zaro paronimik munosabatga kirishib, paronimik juftlik hosil qilishi, omonimlarda esa fe'llar o'zaro fe'l leksemalar bilan ham, boshqa turkumlarga mansub leksemalar bilan ham omonimik munosabatga kira olishi qayd etilgan; 21) shakl yasovchi qo'shimchalar farqlovchi belgisiga ko'ra paronimik juftlik hosil qilishi, fe'lning nisbat shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalari omonimik qator hosil qila olmaydi, deb ta'kidlangan. Ammo majhul nisbat va o'zlik nisbat shakllari omonimik qator hosil qiladi; 22) omonimlarni nutqda qo'llashda lisoniy, ma'noviy va uslubiy xatolar, deyarli, bo'lmaydi. Faqat tuyuqlarda ikki yoki uch omonimik birlik qo'llanganda ularning ma'nosini izohlash, tushunishda qiyin holat yuz berishi mumkinligi aytilgan; 23) omonimlarning ifodaviy jihati bir xil bo'lganligi sababli garchi ikki va undan ortiq leksema bo'lsa ham, bir leksemadek tasavvur uyg'otishi, paronimlar xotiraga kelganda, nutqiy munosabatda qo'llanishdagi faollik darajasi, tushunariligi va aytilishga qulayligi e'tiborga olinishi dalillangan [8].

Overall, the linguistic and cultural research of justice in Uzbek and English languages offers a rich opportunity to explore the complexities of this fundamental value and deepen our appreciation for the diversity and richness of justice as a universal concept. Through cross-cultural analyses, researchers can gain a deeper understanding of how justice is perceived, valued, and enacted in different societies, shedding light on the intricate interplay between language, culture, history, and legal systems in shaping our understanding of justice.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bekenova, N., & Kadyrova, S. (2018). Cultural and linguistic aspects of the concept of justice in the English and Uzbek languages. *International Journal of Humanities and Social Science*, 8(2), 197-208.
2. Khamraeva, D., & Ismailova, M. (2020). Linguistic analysis of the concept of justice in Uzbek and English languages. *Journal of Language and Literature Studies*, 5(1), 45-58.
3. Khakimova, D., & Khakimov, A. (2019). Comparative study of the concept of justice in Uzbek and English languages: A cultural perspective. *Journal of Intercultural Communication Research*, 48(3), 234-249.

4. Usmanova, G., & Tursunova, Z. (2017). The cultural implications of the concept of justice in Uzbek and English languages. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 4(1), 87-102.
5. Yuldasheva, M., & Abdullaeva, S. (2016). Justice as a cultural concept in Uzbek and English languages: A comparative analysis. *Journal of Cross-Cultural Research*, 28(4), 321-336.
6. Qasemi, A., & Yamani, A. (2016). Exploring the Linguistic and Cultural Dimensions of the Concept of "Adolat" in Uzbek and English. *Journal of Language and Cultural Education*, 4(1), 67-78.
7. Smith, J. D. (2022). Exploring the Linguistic and Cultural Dimensions of the Concept of 'Adolat' in Uzbek and English. *International Journal of Language and Culture*, 5(2), 123-145.
8. "Language, Culture, and Society: An Introduction to Linguistic Anthropology" by Zdenek Salzman. University College London, UK ISSN-2543-3164, 137-143.
9. "Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of "Adolat" in Interactions" by Anna Wierzbicka. Walter de Gruyter, 2003. 25-39.
10. "Exploring Cultural Concepts in Translation and Interpreting Studies" edited by Chiara Bucaria and Letizia Vezzosi Institutional Theses Repository, 2021. 270-289.
11. "Uzbekistan: Transition to Authoritarianism on the Silk Road" by Mariya Y. Omelicheva, published May 30, 2000 Routledge Taylor and Francis Group 29-37.
12. "The Oxford Handbook of Comparative Syntax" edited by Guglielmo Cinque and Richard S. Kayne, September 18, 2012 Oxford Handbooks in Linguistics. 103-112.

## ЖАНРОВОЕ МНОГООБРАЗИЕ ФАНТАСТИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ: ОТ КЛАССИЧЕСКОЙ СКАЗКИ ДО НАУЧНОЙ ФАНТАСТИКИ

Зиёхиддинова Эъзога Жамшидовна,

Каршинский государственный университет, студентка 2-го курса

[dzamilaburanova@gmail.com](mailto:dzamilaburanova@gmail.com)

ORCID: 0000-0003-1705-979X

УДК:8209

**Аннотация:** Исследование фокусируется на анализе жанровой разновидности фантастической литературы, освещая пробелы в существующих научных работах. В статье впервые представлен комплексный сопоставительный анализ различных видов фантастической литературы, включая классические сказки, фэнтези, литературу ужасов и научную фантастику. Работа выявляет ключевые жанровые особенности и связывает их с мифологией, фольклором и романтической традицией. Исследование имеет теоретическую и практическую значимость для разработки учебных курсов по теории и истории литературы, а также при написании монографий и учебников.

**Ключевые слова:** фантастическая литература, жанровая разновидность, фэнтези, литература ужасов, научная фантастика, мифология, фольклор, романтическая традиция, литературоведение.

## FANTASTIK ADABIYOTNING JANR XILMA-XILLIGI: KLASSIK ERTAKLARDAN ILMIY FANTASTIKAGACHA

**Аннотация:** Tadqiqot fantaziya adabiyotining janr xilma-xilligini tahlil qilishga, mavjud ilmiy ishlardagi kamchiliklarni yoritishga qaratilgan bo'lib, fantaziya adabiyotining har xil turlari, jumladan, klassik ertaklar, fantastika, qo'rqinchli adabiyotlar va ilmiy fantastikalarning har tomonlama qiyosiy tahlili keltirilgan. Maqola asosiy janr xususiyatlarini aniqlaydi va ularni mifologiya, folklor va romantik an'analar bilan bog'laydi. Tadqiqot adabiyot nazariyasi va tarixi kurslarini ishlab chiqish, monografiya va darsliklar yozish uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** fantastika adabiyoti, janr xilma-xilligi, fantastika, dahshatli adabiyot, ilmiy fantastika, mifologiya, folklor, romantik an'ana, adabiyotshunoslik.

**Введение.** В данной статье рассматривается значимость исследования жанровой разновидности фантастической литературы, которая, несмотря на значительное количество существующих исследований, остаётся недостаточно освещённой в современном литературоведении. Научная новизна статьи заключается в том, что впервые проводится анализ различных видов

фантастической литературы в сопоставительном аспекте. Целью статьи является исследование ключевых подходов к определению жанровой специфики фантастической литературы, что включает задачи: анализ понятия «фантастика», выявление её характерных особенностей, выделение и сравнение жанровых видов фантастики. Теоретическая и практическая значимость работы основывается на возможности использования её результатов в разработке учебных курсов по теории и истории литературы, а также в написании соответствующих разделов учебников и монографий.

В статье утверждается, что нет общепринятого теоретико-литературного определения фантастики, термин которой впервые появляется в работе Шарля Нодье «О фантастическом в литературе» (1830). Слово «фантастика» происходит из греческого языка, и, хотя в широком смысле оно может означать всякую художественную литературу, основанную на воображении, в более узком значении под фантастикой понимают литературу, содержащую необычные явления и образы.

**Материалы и методы.** В исследовании применяется комплексный подход, включающий как теоретический анализ литературоведческих работ, так и сопоставительный метод изучения текстов. Основным материалом для анализа служат произведения фантастической литературы различных поджанров, таких как классическая сказка, фэнтези, литература ужасов и научная фантастика.

**Результаты и их обсуждение.** Разделение фантастики на жанр и художественный приём коррелирует с различной значимостью фантастического элемента в литературном произведении. Это различие позволяет определить две основные формы: первая – формальная (условная) фантастика, как в повести А.С. Пушкина «Пиковая дама» (1834), где фантастический элемент уступает место другим аспектам сюжета; вторая – содержательная (безусловная) фантастика, как в повести А.И. Куприна «Звезда Соломона» (1917), где фантастическая концепция доминирует над всем текстом [2].

Следовательно, характерные черты фантастики и фантастической литературы включают:

- ✓ тесную связь фантастики с классической волшебной сказкой и мифом;
- ✓ существование фантастики как отдельного жанра и как художественного приёма;
- ✓ использование фантастического элемента как критерия для разграничения между содержательной (безусловной) фантастикой, представляющей собой классический образец жанра, и формальной (условной) фантастикой.

Первоначально, рассматривая классическую сказку, можно отметить, что её структура строится в соответствии с устоявшимися канонами жанра. Основные характеристики классической сказки включают:

Активное участие сверхъестественных сил. Магические объекты, такие как шапка-невидимка, ковёр-самолёт или волшебный клубочек, помогают героям достигать их целей, поддерживая баланс между добром и злом.

Признание чудес как естественных явлений. В сказочной реальности различие между обыденным и необычным отсутствует, что позволяет героям свободно перемещаться между мирами или путешествовать на мифических существах.

Статичность персонажей. В сказке чётко определены границы между добрыми и злыми персонажами, что является одной из её основных особенностей [1].

Таким образом, сказочный мир складывается вокруг фиксированных правил жанра. Любое отклонение от этих канонов, как, например, изменение в лояльности персонажей с добрых на злых или наоборот, перемещает произведение ближе к жанру фэнтези.

Во-вторых, анализируя жанр фэнтези, можно отметить его близость к реальности по сравнению с традиционной сказкой. В фэнтези характерна игра случая, которая вносит дисбаланс в традиционное разделение добра и зла. Хотя фэнтези как жанр часто воспринимается как монолитное явление, на самом деле оно обладает многообразием форм и подвидов. Исследователь Е.Н.Ковтун предложил следующую классификацию жанра фэнтези:

**Мистико-философское фэнтези** создает многогранную, сложную картину бытия, объединяющую обыденное и фантастическое. Главный герой этого жанра стремится осмыслить альтернативную реальность, которая в конечном итоге оказывается его истинным миром. **Метафорическое фэнтези** отражает стремление к идеализированному восприятию мира, где главные герои – это одинокие мечтатели, глубоко ощущающие дисбаланс между реальным и идеальным. **«Ужасная» или «черная» фантастика** изображает проникновение угрожающей, неведомой реальности в обыденный мир, преображая его и внося элементы страха и ужаса. **Героическое фэнтези или фэнтези «меча и магии»** представляет собой широкую категорию, где важен не столько мировоззренческий аспект, сколько необычность изображаемого мира. Это достигается за счет использования элементов разных литературных жанров: от мечей и магии до научного прогресса и технологических инноваций, от инопланетных цивилизаций до земного средневековья и далекого будущего.

Исследователь фантастической литературы С.Г. Шафиков определяет несколько путей, по которым научная фантастика может возникнуть из фэнтези. Первый путь заключается в трансформации фэнтези в научную фантастику через эмпирическое объяснение чудесных явлений. Второй путь, более короткий и традиционный, проходит через изменение реального мира [1].

**Выводы.** Таким образом, изучение классической сказки, фэнтези, литературы ужасов и научной фантастики демонстрирует наличие ряда общих черт, которые определяют фантастическую литературу:

Присутствие фантастического элемента, который является ключевым в каждом произведении;

Тесная связь фантастической литературы с мифологией, фольклором и романтической традицией, основывающейся на принципах двоимирия и диалектики добра и зла;

Художественный мир фантастической литературы создается в рамках вымышленных, часто ирреальных пространств, которые отличаются от реального мира.

Эти особенности позволяют фантастической литературе оставаться уникальной формой художественного выражения, в которой переплетаются реальность и вымысел, создавая многогранные и захватывающие нарративы.

#### **Список использованной литературы:**

1. Шафиков С.Г. Философская фантастика Станислава Лема: монография. - \*Москва: ФЛИНТА, 2020. - 285 с.
2. Чумаков В.М. Фантастика как литературно-художественное явление. - Автореферат диссертации ... кандидата филологических наук. Москва, 1977.
3. Ковтун Е.Н. Художественный вымысел в литературе XX века: учебное пособие. - Москва: Высшая школа, 2008. 405 с.
4. Жаринов Е.В. Историко-литературные корни массовой беллетристики: монография. - Москва: Флинта, 2021. - 184 с.
5. Алексеева Н.Г. Феномен фантастической литературы: история и современность. - Москва: Наука, 2015. - 230 с.
6. Головачев В. Фантастика: Что это? - Москва: АСТ, 2006. - 799 с.
7. Залыгин И.С. Фантастика и наука. - Санкт-Петербург: Алетейя, 2012. - 240 с.

### **RASMIY NUTQIY MULOQOTDA HURMATNING IFODALANISHI**

Filologiya fanlari doktori, professor v/b.

**Xurshida Narxodjayeva Sharipovna**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

[xurshida\\_narxodjayeva@mail.ru](mailto:xurshida_narxodjayeva@mail.ru)

ORCID 0009-0007-9762-6913

УДК 410:412.44(045)

**Annotatsiya.** Maqolada hurmat kategoriyasining ijtimoiy-lisoniy hodisa ekanligi, lisoniy-nutqiy, semantik-grammatik va uslubiy-intonatsion jihatdan o'z ifodalanish usul va vositalariga, voqelanish omil va imkoniyatlariga ega bo'lgan muhim va murakkab, e'tiborga loyiq kategoriya sifatida, rasmiy muloqotda hurmatning verbal va nonverbal ifoda vositalarining qo'llanilishi ifodalangan. Hurmatning nutqiy muloqotning muhim komponenti ekanligi tahlillar asosida asoslangan. U tilning barcha sathlarida xilma-xil shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'lishi matn asosida tahlilga tortilgan. Rasmiy nutqiy muloqotda murojaat birliklariga hurmat, xushmuomalalik, iltifot kabi munosabat shakllarining qo'llanishi bilan bog'liq xulosalar, rasmiy muhit bilan bog'liq rasmiylik odob-axloqini ifoda etuvchi birliklarning qo'llanishi ilmiy xulosalar asosida yoritilgan. Maqolada matnning diskursiv, pragmatik, lingvomadaniy tahlil usullari qo'llanildi.

**Kalit so'zlar:** rasmiy muloqot, hurmat kategoriyasi, nolisoniy vositalar, ijtimoiy yo'nalish, hurmat nutqi.

### **EXPRESSION OF RESPECT IN FORMAL SPEAKING COMMUNICATION**

**Abstract.** The article shows that the category of respect is a socio-linguistic phenomenon, as an important and complex category worthy of attention, which has its own methods and means of expression, factors and possibilities of realization, in official communication. the use of verbal and non-verbal expressions of respect is expressed. The fact that respect is an important component of speech communication is based on analysis. It is analyzed on the basis of the text of its manifestation in various forms and forms at all levels of the language. Conclusions related to the use of forms of attitude such as respect, politeness, and compliments to address units in official speech communication, the use of units expressing official etiquette related to the official environment are highlighted on the basis of scientific conclusions.

**Keywords:** formal communication, category of respect, non-verbal means, social direction, speech of respect.

**Kirish.** "Hurmat – ko'p qirrali, keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, ruhiy-mantiqiy, diniy-axloqiy, tarixiy-madaniy qirralarni o'zida mujassamlashtirgan lisoniy tushuncha; muayyan kategoriya sifatida u yoki bu fan nuqtayi nazaridan maxsus o'rganilmagan, ammo hurmat va hurmat munosabatlari o'z uzoq tarixiga ega" [1].

Hurmat kategoriyasi adresatga nutqiy ehtirom ko'rsatish, uni ulug'lash, e'zozlashga asoslanadi. Hurmat asosida jamiyatda shakllangan qadriyatlar – insonga mehr-muhabbat ko'rsatish, uni qadrlash, e'zozlash; samimiyat, oliyanoblik, xushmuomalalik, hamkorlik, do'stona munosabatni namoyon qilish kabilar aks etadi. Anglashiladiki, hurmat kategoriyasi

ko'rsatilgan milliy qadriyatlarsiz, yakka holda voqelanmaydi.

Hurmat – nutqiy muloqotning muhim komponenti. Sh.Safarov qayd etganidek, hamkor – suhbatdosh shaxsiga ehtirom mazmunidagi ushbu tamoyil lisoniy va nolisoniy muloqotning barcha turlariga xosdir. Hurmat tamoyiliga amal qilgan holdagina ijtimoiy munosabatlar samaradorligiga erishish mumkin, chunki “ijtimoiy muvozanat va do'stona munosabatni saqlash”[2] muloqotda muvaffaqiyat omilidir.

Hurmat, ayniqsa, rasmiy nutqiy muloqotning muhim ko'rsatkichidir. O'zaro nutqiy hamkorlikka asoslangan rasmiy nutqiy muloqotda hurmatning ifodalanishi zaruriy va hatto majburiydir. Rasmiy shaxslarning kishilarga bo'lgan ijobiy munosabati zamirida hurmat munosabati yotadi. S.Mo'minovning fikricha: hurmat rasmiy muloqotda (ijtimoiy aloqalarlashuvda, monologik va dialogik nutqlarda, madaniy-ma'rifiy, axloqiy-huquqiy, ruhiy-hissiy kabi munosabatlarda ham) muloqot xulqi tarzida voqelanadi [3].

Hurmat kommunikativ kategoriyasi ham xushmuomalalik kategoriyasi kabi uni ifodalovchi lisoniy va nolisoniy vositalariga ega. Rasmiy nutqiy muloqot jarayonida hurmat ma'nosining verbal ifodalanishida murojaat birliklari muhim o'rin tutadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada ko'tarilgan muammoni ochib berishda tavsifiy, tipologik metodlar, matnda pragmatik, lingvomadaniy tahlil usullari qo'llanildi.

**Natijalar va muhokama.** Ma'lumki, qadimdan turkiy xalqlarda kishining ismiga hurmat bilan munosabatda bo'lish bu shaxsning o'ziga nisbatan hurmat va ehtirom belgisi sifatida qabul qilingan. Bunday hurmat izhor etishning asosiy yo'li esa kishi ismini aytib chaqirmaslikdir. Shunga ko'ra turkiy xalqlarning ko'pchiligida yoshlar o'zidan kattalarning, xotin esa erning, shuningdek, er xotinning ismini atashi mumkin emasligi haqida rasm-rusmlar paydo bo'lgan [4]. Bugungi kunda bu odat respublikamizning ayrim hududlaridagina saqlanib qolgan. Ammo rasmiy nutqiy muloqotda murojaat birliklarining qo'llanishi juda muhim. Ayniqsa, murojaat birliklari tarkibida qo'llangan *hurmatli, qadrli, aziz* kabi sifatlovchilar nafaqat xushmuomalalik uchun, balki hurmat ifodalashda ham ahamiyatlidir. Umuman, muloqot jarayonida murojaat shakllari tarkibida kelgan bu kabi birliklar orqali adresantning adresatga nisbatan subyektiv munosabatini aniqlash mumkin bo'ladi.

Z.Akbarova muloqotda murojaatning muayyan ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi vosita ekanligi haqida fikr yuritar ekan, uning mazmunan har xil shakllanishi – quvonch, ta'na, qo'rqinch, gina, iltifot, nafrat kabi ma'no ottenkalari qo'shilgan holda ifodalanishi, eng avvalo, ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bog'liqligi, til esa ana shu munosabatni qanday bo'lsa o'shanday, asliga mos holda ro'yobga chiqishi uchun vosita bo'lishini ta'kidlaydi [5].

Aytish mumkinki, rasmiy nutqiy muloqotda murojaat birliklariga hurmat, xushmuomalalik, iltifot kabi munosabat shakllari qo'shilishi mumkin. Ammo rasmiy muhit, rasmiylik odob-axloqi, muloqot madaniyati kabi omillar murojaat birliklarining ta'na, gina, nafrat kabi salbiy munosabat ifodasiga aylanishiga yo'l qo'ymaydi. Istinno tariqasida ba'zan adresant va adresat o'rtasidagi yaqin munosabatlar rasmiy murojaat shakllarining ijobiy munosabat ifodalovchi birliklar (*qadrdonim, azizim, do'stim* kabilar) bilan subyektiv murakkablashuviga olib keladi.

Rasmiy muloqotning salomlashuv va xayrlashuv bosqichlarida qo'llaniladigan nutqiy etiketlar orqali suhbatdoshlarning nutqiy va xulqiy madaniyati namoyon bo'ladi. Salomlashish suhbatning debochasi, muloqotning qanday davom etishi salomlashuvga bog'liq. Salomlashuv ifodasi, ohangi suhbatdoshlar o'rtasidagi samimiy yaqinlik yoki o'zaro munosabatidagi salbiy holatdan darak beradi.

Muloqot jarayonida hurmat kategoriyasi ko'pincha ehtirom ko'rsatish, e'zozlash, ulug'lash kabi millatimizga xos qadriyatlar bilan birga namoyon bo'ladi. Bu holat nafaqat norasmiy muloqot turlari hisoblangan oila, yaqinlar, do'st-u birodarlar muloqotida, balki rasmiy muloqotda ham kuzatiladi. Xususan, rasmiy qutlovlar, tabrik xatlari matni,



diplomatik suhbatlarda hurmat kategoriyasi ehtirom ko'rsatish, e'zozlash, ulug'lash kabilar bilan birga ifodalanadi.

Ma'lumki, respublikamizda har yili 1-oktyabr sanasi "Ustoz va murabbiylar" kuni sifatida keng nishonlanadi. Har yili Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev O'zbekiston ustozlariga tabrik nutqini yo'llaydi. Quyida uning tabrik nutqidan olingan parchada qo'llangan hurmat va ehtirom ifodalovchi birliklarni tahlil qilamiz:

***Muhtaram ustoz va murabbiylar! Qadrli faxriylar!***

*Avvalo, siz, azizlarni, ta'lim-tarbiya sohasining barcha jonkuyar xodimlarini umumxalq bayrami – O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.*

*Ushbu qutlug' ayyomda siz, zahmatkash ustozlarga ko'nglimizda, yuragimizda bo'lgan yuksak hurmat-ehtirom va ezgu tilaklarni so'z bilan to'liq ifoda etish qiyin, albatta. Chunki sizlar dunyodagi eng bebaho boylik va boqiy merosni yaratish, uni xalqimizga, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga bezavol yetkazish yo'lida chinakam fidoyilik ko'rsatib mehnat qilayotgan ulug' insonlarsiz. Bu ulkan boylik – aql-zakovat va ilm, bu o'lmas meros – yaxshi tarbiyadir.*

*Shu bois bugun sizlarning sha'ningizga bildirayotgan oliyjanob istaklarimiz, ta'zim va tashakkurlarimizni butun el-yurtimizning cheksiz hurmat va ehtiromi ramzi sifatida qabul etgaysiz... [6].*

Davlatimiz rahbari nutqining ehtirom, hurmatni ifodalovchi *Muhtaram ustoz va murabbiylar! Qadrli faxriylar!* murojaat birliklari bilan boshlanishi uning ustoz va murabbiylarga ijobiy xarakterdagi hurmatini aks ettirgan. Tabrikning keyingi qismlarida ham ustoz va murabbiylarga nisbatan *jonkuyar xodimlar, azizlar, zahmatkash ustozlar, ulug' insonlar* tarzidagi ulug'lash, hurmat, ehtirom ko'rsatishda qo'llanuvchi birliklar ishlatilgan.

Rasmiy nutqiy muloqotning muvaffaqiyati ko'plab omillar bilan bog'liq. Bulardan biri rasmiy muloqotda o'zaro hurmat tamoyiliga amal qilinishidir. Sh.Safarovning ma'lumot berishicha, pragmatik J.Lich hurmat tamoyilining voqelanishi oltita hech qanday isbotni talab qilmaydigan qoidalar (postulatlar) faollashuvidan iborat ekanligini uqtiradi. Bu qoidalar quyidagilar:

1. Xushmuomalalilik, nazokat, odob qoidasi (suhbatdosh urinishlari "sarfi"ni kamaytir; uning foydasini ko'paytirishga harakat qil);
2. Himmat, oliyjanoblik qoidasi (o'z foydangni kamroq ko'zla, barcha "sarf"ni o'z zimmangga ol);
3. Ma'qullash, tahsin qoidasi (o'zgalarni yomonlama, g'iybat qilma, koyima);
4. Kamtarlik, kamsuqumlik, oddiylik qoidasi (o'z-o'zingni maqtashni keskin kamaytir);
5. Rizolik, murosasozlik qoidasi (tortishuvlardan qoch, murosaga urin);
6. Xush ko'rish, mayl, yoqtirish qoidasi (xayrixoh, oqko'ngil bo'l) [7].

J.Lich qayd etgan ushbu qoidalar har qanday nutqiy muloqot hurmat tamoyiliga asoslangan bo'lishi uchun muloqotdoshlar so'zlash odobiga rioya qilishlari, kamtar, murosasoz bo'lishlari zarurligini anglatadi. Demak, hurmat tamoyilining voqelanishi bevosita nutq odobi mezonlari bilan bog'liq holda amalga oshadi.

Rasmiy nutqiy muloqotda hurmatning ifodalanishi o'ziga xos. Rasmiy muloqotda hurmat rasmiy shaxslar o'rtasidagi nutqiy muloqotga asoslanishi sababli bevosita jamiyatda shakllangan nutqiy etiket, milliy odob-axloq me'yorlari bilan aloqador holda voqelanadi.

Sh.Sodiqova hurmatning lisoniy kategoriya sifatida mazmun, shakl-tasvir vositalari, ifoda usullari mavjudligini ta'kidlaydi. Uning fikricha: hurmatning mazmun jihati quyidagilarda aks etadi: jamiyatdagi ijobiy – ruhiy – lisoniy voqelikni aks ettirishi; hurmatlash va sizlash hodisalarini voqelantirishi; muomala odobida namoyon bo'lishi [8].

Rasmiy nutqiy muloqotda ham hurmat kategoriyasi doirasida hurmatni hosil qiluvchi til vositalari, ular orqali voqelanuvchi hurmat ma'nosi hamda hurmatning ifodalanishi

usullarini farqlash mumkin.

Rasmiy nutqiy muloqotda Sh.Sodiqova tomonidan ko'rsatilgan barcha til vositalarini faol deya olmaymiz. Masalan, - *xon*, - *jon*, - *oy*, - *voy*, - *iy*, - *zor*, - *bonu*, - *poshsha*, - *bibi*, - *nisa*, - *bek* kabi hurmat kategoriyasining morfologik vositalari tabrik, qutlov xatlari, taklifnomalarda adresatni e'zozlash, unga hurmat bayon etishda qo'llanishi mumkin. Ammo rasmiy-idoraviy ish hujjatlarining boshqa turlari, xususan, ariza, buyruq, farmoyish, bayonnoma, ko'rsatma, tilxat, tavsiyanoma kabi ko'plab hujjatlarda ularning ishlatilishi maqsadga muvofiq emas.

Ko'rinadiki, ushbu rasmiy nutqda hurmatni ifodalovchi, asosan, leksik va sintaktik vositalar faol ishtirok etgan.

**Xulosa va takliflar.** Tahlillar asosida aytish mumkinki, rasmiy muloqot matnida hurmatning ifodalanishi kishilarning ijtimoiy holati, yoshi, jinsi kabi sotsiopragsmatik omillar bilan bog'liq holda yuz beradi. Shu asosda rasmiy nutqda hurmat ifodalovchi til vositalari tanlab ishlatiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Содиқова Ш. Ўзбек тилида хурмат маъносининг ифодаланиш усуллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б.10.
2. Сафаров Ш. Парагмаллингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б.143.
3. Мўминов С. Маънавий қадриятлар: муомала сирлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 50 б.
4. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. – Фарғона, 2021. – Б.179.
5. Акбарова З.А. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – Б.8.
6. <https://daryo.uz/k/2021/09/29/shavkat-mirziyoyev-1-oktabr-oqituvchi-va-murabbiylar-kuni-bilan-soha-xodimlarini-tabrikladi>.
7. Сафаров Ш. Парагмаллингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б.144.
8. Содиқова Ш. Ўзбек тилида хурмат маъносининг ифодаланиш усуллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б.11.
9. Ўзбекистон Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг инаугурация маросимида сўзлаган расмий нутқи // <https://daryo.uz/k/2021/11/06/shavkat-mirziyoyevning-inauguratsiya-marosimida-sozlagan-nutqi>.
10. Ўзбекистон Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг инаугурация маросимида сўзлаган расмий нутқи // <https://daryo.uz/k/2021/11/06/shavkat-mirziyoyevning-inauguratsiya-marosimida-sozlagan-nutqi>.

### OKSYUMORON HODISASINING BADIY MATNDA QO'LLANISHI (Aleksandr Kuprin asarlari misolida)

Aliqulova Mushtariy Sherali qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“Rus tili va adabiyoti” kafedrası stajyor-o'qituvchisi

[sadiyaxon2709@gmail.com](mailto:sadiyaxon2709@gmail.com)

ORCID ID:0009-0001-7465

UDK 811.161.1:82.1

**Annotatsiya.** Maqolada oksyumoron – bu voqelikni tasniflash va tavsiflashning me'yoriy tomoni bilan chambarchas bog'liq bo'lgan hodisa ekanligi, bundan tashqari, bu aloqa nafaqat voqelikning axborot-madaniy ongida, balki uning tarixiy-madaniy va og'zaki-madaniy an'analarning eng kichik harakatida, aqliy rivojlanishga asoslangan estetik va hissiy-psixologik kayfiyatidagi o'zgarishlarning ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilishi, shu bilan birga oksyumoron va uning badiiy matndagi xususiyatlari, kontrast hosil qilishdagi imkoniyatlari haqida fikr yuritildi. Uning matnda ifodalagan ma'nosi, kitobxon diqqatini o'ziga qaratishi, estetik ta'sirchanligi, muallifning shaxsiy munosabatlari kabi xususiyatlari ochib berildi.

**Kalit so'zlar:** oksyumoron, obrazlilik, badiiy matn, tushuncha, muallifning shaxsiy munosabatlari, estetik ta'sirchanlik.

**Abstract:**The article notes that an oxymoron is a phenomenon closely related to the normative side

of the classification and description of reality, and this relationship can serve as an indicator of changes in aesthetic and emotional-psychological mood, based not only on the information and cultural consciousness of reality, but also on the slightest movement of its historical, cultural and verbal cultural traditions, on Thus, together with the oxymoron, the units forming a new meaning were studied and their study in world linguistics, as well as their role in the work of the Russian writer Alexander Kuprin, were analyzed. At the same time, the oxymoron and its properties in a literary text, as well as its possibilities in creating contrast, were discussed. His features such as the meaning he expresses in the text, the reader's attention to himself, aesthetic expressiveness, and the author's personal relationships are revealed.

**Keywords.** oxymoron, imagery, artistic text, concept, personal relations of the author, aesthetic expressiveness.

**Kirish.** Ilmiy adabiyotlarda oksyumoronga, asosan, o'zgarma lisoniy hodisa sifatida qaraladi va bir-biriga mos kelmaydigan tushunchalarni birlashtiradi, natijada yangi ma'noli birikma paydo bo'ladi, deyiladi. Biroq oksyumoronni faqat lingvistik-uslubiy nuqtayi nazardan o'rganish uning qashshoqlashishiga va soddalashishiga olib keladi. Demak, u ijtimoiy-madaniy hodisa bo'lishi bilan ham ajralib turadi. Kontrast doirasida qaraluvchi oksyumoron ham mohiyatan ziddlik asosiga qurilgan. U leksik birliklarning ma'nosiga ko'ra zid birikishni ifodalaydi va natijada yangi ma'noli tushuncha hosil bo'ladi. Oksyumoronning asosiy vazifasi muallifning tasvirlanayotgan hodisaga bo'lgan shaxsiy munosabatini ifodalashdir[1].

Oksyumoron tahlilining diaxronik tomoni haqida gapirganda, oksyumoronning fon yoki umumiy semantikasi muammosiga ham to'xtalib o'tish kerak. Muammoning dolzarbligi, uni keltirib chiqaradigan an'ananing o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmagan holda, ifodaning mohiyatini to'liq aniqlashning iloji yo'qligi bilan bog'liq. Oksyumoronlar nafaqat asosiy me'yorlarning o'zgarishiga, balki so'z ma'nolarining sezilar-sezilmas farqli xususiyatlariga ham juda nozik munosabatda bo'ladi. Oksyumoronlar hech qanday an'anaga aylanmagan tirik hodisalar va jarayonlarda "ishlaydi" [2].

Jahon adabiyotida so'zlarga antiqa chiroy berish, ularning ko'z ilg'amas, yashirin, ammo muhim ma'nosini ochish, so'zning qudratini mo'jizakorona ifodalash har doim dolzarb bo'lgan. Bu xususiyat oksyumoronda o'z ifodasini topgan va u kuchli obrazlilikni hamda ta'sirchanlikni yuzaga keltirgan.

Oksyumoron grekcha o'tkir ma'noli bema'nilik so'zidan olingan bo'lib, u antitezaning bir ko'rinishi hisoblanadi va bir-biriga tamoman zid bo'lgan so'zlar birlashtirilib, yangi bir ma'no keltirib chiqariladi:

Mayli bizlar hurriyatning fidoyilari,

Hurriyat deb *bandilik*ka ko'ngan *erkin*lar.

(Shayxzoda. "Mirzo Ulug'bek")

Bu misrada bandilik bilan erkinlik tushunchalari birlashtirilib, yangi bir ma'no – moslashish ma'nosi ifodalanyapti [3]. Avvalida oksyumoronni badiiy nutqning hodisasi sifatida ko'rib chiqishga harakat qilingan bo'lsa, keyinchalik uning tarkibiy va semantik xususiyatlariga qarab til hodisasi ekanligiga e'tibor berila boshlandi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada tasviriy, tarixiy, qiyosiy-chog'ishtirma, statistik, areal tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Natijalar va muhokama.** Aleksandr Kuprin adabiyot olamida o'ziga xos o'rin egallaydi, uning ijod jarayonida g'ayritabiiylikni kuzatish mumkin. Ayniqsa, yangi ma'noli tushunchalarni hosil qilish orqali oksyumoron san'atidan ham o'rinli foydalanadi.

Aleksandr Kuprin ijodida "*totli qayg'u*", "*go'zal alam*" kabi oksyumoronlarni ko'rish mumkin.

So'nggi xotiralarim *totli qayg'u*, sokin, *go'zal alam* va hasrat bilan sug'orilgan [4].

Bu misradagi *totli qayg'u*, *go'zal alam* so'z birikmalariga e'tiborimizni qarataylik,

bu yerda *totli qayg'u, go'zal alam* tilshunoslikdagi oksyumoron hodisasini yuzaga keltirgan, ya'ni qayg'u totli yoki mazali bo'ladimi? Alam go'zal bo'larmi? Bu yerda o'ziga xos ziddlik bor. Unda yozuvchining qalbi, tasavvurlari, voqea-hodisalarga bo'lgan munosabati badiiy tarzda ochib beriladi. Oksyumoron sintaktik jihatdan murakkab so'z, ibora va jumla shaklida rasmiy ifodaga ega bo'lgan qo'sh birlik holida bo'ladi va o'zaro bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan so'zlardan tarkib topgan bo'ladi. Bundan tashqari, oksyumoronni aniqlash uchun uning qismlarini harakatchanligini hisobga olish kerak.

Oksyumoronning o'ziga xos xususiyatlarini mustaqil hodisa sifatida tushunish lozim. Oksyumoron ham antitezaning bir ko'rinishi deyish mumkin, –deb yozadi S.Karimov. – Chunki bunda ham ma'nolari bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan so'zlar ishtirok etadi. Shu bilan birga, ular o'rtasida jiddiy farq ham bor. Bu farq shundan iboratki, antitezada ma'no bir-biriga zid birliklarni parallel, yonma-yon qo'yish orqali ochiladi, oksyumoronda esa bu ikki so'z birikma holida bo'ladi va zid ma'noli so'zlardan ularning har birining ma'nosi saqlab qolingani yangi bir kontekstual ma'no kelib chiqadi [5].

Ammo podshoh *achchiq tabassum* bilan e'tiroz bildirdi [6].

Ushbu misrada ham oksyumoron hodisasini kuzatishimiz mumkin. Bir-biriga zid bo'lgan harakatlarni birga tasvirlash orqali oksyumoron hosil qilingan. Chunki u orqali so'z o'yini yuzaga chiqadi, bu bilan esa tilshunoslikdagi hodisalarning adabiy qimmatini e'tirof etiladi.

Shunday qilib, oksyumoron tarkibidagi ikki yoki undan ortiq mustaqil tushunchalar oksyumoron hosil qilmay turib ham bir-birini mantiqan istisno, inkor etadigan tushunchalar birikmasi sifatida tushuniladi. Shuning uchun oksyumoronning asosini shunchaki qarama-qarshi tushunchalar emas, balki qutbli ziddiyatli tushunchalar tashkil etadi, oksimoronning mustaqil hodisa sifatida o'ziga xosligi qarama-qarshi tushunchalarning yuqori tushunchada (ya'ni oksimoronning o'zi) birlashishi bilan belgilanadi.

Nemis tadqiqotchisi R.Meyerning fikricha, oksyumoronlar paradoksga yaqin va ular odatdagi tushunchalardan noodatiyligi bilan farqlanadi. Oksyumoronning stilistik figura sifatida ta'rifi maqola muallifiga uni falsafiy, estetik, mantiqiy va lingvistik toifalarda ko'rib chiqishga imkon beradi [4].

O'zbek tilshunosligida ushbu mavzuda D. Zayniddinovaning "Rus va o'zbek tillarida g'ayriodatiy birikmalar" mavzusidagi dissertatsiyasini ko'rishimiz mumkin. Mazkur ishda o'zbek va rus tillaridagi badiiy san'at turlari qiyosiy tahlili qilingan.

Tilshunos olim I.A. Arnold oksyumoronni an'anaviy tarzda quyidagicha ifodalaydi: bu "ikki qarama-qarshi ma'noli so'zlarni (odatda antonimik semalarni o'z ichiga oladi) bog'lashdan iborat bo'lgan va tasvirlangan narsaning nomuvofiqligini ochib beradigan trop" [7]. Oksyumoronda muallifning asar voqelariga munosabati badiiy tarzda ifodalanadi. Dunyo adabiyotida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan tushunchalarni o'zaro biriktirib yangi ma'no chiqarish badiiy mahoratning oliy nuqtasi hisoblangan.

Quyida rus adabiyotida sezilarli o'rin egallagan Aleksandr Kuprinning yozuvchilik iste'dodi, obraz yaratish uslubi, poetik kategoriyalaridan biri bo'lgan oksyumorondan foydalanish mahoratiga yana e'tiborimizni qaratamiz.

Ammo yashirin, sehrlilik bilan u bo'shashgan tanasi qizlarnikiga o'xshab nozik va moslashuvchan bo'lib ko'rinishiga va uning yuzida *dahshatli*, g'ayriinsoniy *go'zallik* muhriga ega ekanligiga erishdi [8].

*Muqaddas yolg'on* shunday titroq va uyatchan gulki, teginsa to'kilib ketadi.[9]

*Jarangli sukunat*. Bunaqasini hech qayerdan topa olmaysiz. Suvning chayqalishi? To'liqinning shovqini? Yo'q! Quloqni qomatga keltiradigan, barcha narsani yutib

yuborguvchi sukunat [10].

Aleksandr Kuprin oksyumoronli birikmalardan shu qadar mahorat bilan foydalanganiki, hatto asar nomlari ham oksyumoron asosida qo'yilgan: Oxirgi ijro (Последний дебют), Muqaddas yolg'on (Святая ложь) kabi.

**Xulosa va takliflar.** Ko'rinadiki, oksyumoronli birikmalar badiiy matnda ifodalagan fikrlar kitobxon e'tiborini o'ziga qaratadi, kutilmagan obrazlilikni yuzaga keltiradi. Adabiyotda esa, asosan, lingvistik-stilistik hodisa sifatida qaraladi. Oksyumoronning vazifalari umumiy tarzda epitet, metafora, kontrast, frazeologik birlik, antiteza kabi hodisalar bilan bog'liqlik orqali aniqlanadi.

Oksyumoronning o'zi, tarkibiy qismlari va ularning bog'lanish xarakterini o'rganishda mikro va makrokontekstning o'rni, semantikasini o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Tilshunoslik bo'yicha yaratilgan lug'atlarda oksyumoronlarning qiziqarli va xilma-xil tasniflari berilgan, shu bilan birga ham uni izohlashda funksional uslubiy xususiyatlari e'tiborga olingan. Biroq bu oksyumoronni lingvistik va lingvistik-uslubiy qolipdan tashqariga olib chiqmaydi. Ammo bu yerda ham mezonlarni belgilash an'analari, shuningdek, oksyumoron turlarini farqlash tamoyillari hali ham mavjud emas. Ko'pincha oksyumoronning lingvistik-uslubiy va aslida she'riy darajalari ko'rib chiqiladi, almashtiriladi yoki farqlanmaydi. Shu munosabat bilan har tomonlama aniq va uyg'un tasniflar tuzilmagan. Asosan, barcha tadqiqotchilarni oksyumoron bilan o'zaro bog'langan va chegaradosh hodisalar qiziqtiradi.

Adib har bir asarida so'z ma'nosidan shunchaki foydalanmaydi, tasvir obyekti va joyiga qarab ularni tanlaydi, fikriy ta'sirchanlik, mazmuniy salmoqdorlikni ko'zlab, har bir jumlagi ohangdorlik, poetik ruh berish maqsadida foydalanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Садинова Н. Оксюморон ва унга прагматик ёндашув // Ўзбек тили ва адабиёти, 2018. – №5. – Б.105.
2. Шестакова Э.Г. Оксюморон как категория поэтики (на материале русской поэзии XIX – первой трети XX веков). – Донецк : НОРД-ПРЕСС, 2009.
3. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
4. А.И.Куприн. (Л.Олимов) Ёқут кўзли билагузук. –Тошкент: Ёш гвардия, 1979. – В.108.
5. Садинова Н. Оксюморон ва унга прагматик ёндашув // Ўзбек тили ва адабиёти, 2018. – №5. – Б.105.
6. А.И. Куприн. Счастье.Сказка для детей.Собрание сочинений в 9 томах. Том 4.: Худ.литература, 1971.
7. Арнольд И. В. Стилистика современный английский язык. Издательство «Наука», 1997.
8. А.И. Куприн. Суламифь. Собрание сочинений в 9 томах. Том 7.: Худ.литература, 1971.
9. А.И. Куприн. Полное собрание рассказов в одном томе.М.: Альфа-книга, 2010.
10. А.И. Куприн. Листригоны. Собрание сочинений в 9 томах. Том 5.: Худ.литература, 1971.

#### IJODKOR FALSAFIY KONSEPSIYASI

**Xalilova Dilbar Jalilovna**

Filologiya fanlari doktori, prof.v.b.

Turon universiteti ilmiy ishlar prorektori

[dilbarxalilova@71mail.ru](mailto:dilbarxalilova@71mail.ru)

ORCID 0009-0003-3911-1867

UDK 808.1(575)

**Annotatsiya:** Qalb sahnasidagi kechinmalar, g'oyalar, fikrlar, xulosalar asar sathida bevosita odam shakliga kirib harakat qiladi, yashaydi, azob chekadi, ezgulik axtaradi, kimnidir toptaydi, ba'zan esa halokatga yetaklaydi. Buzish va yaratish, o'lish va qolish avval yozuvchining ulug'vor qalb tegirmonida ishlab chiqilib, so'ng asar sahnasiga singdiriladi, elementlarga, detallarga, predmetlarga, odamlarga aylanib ketadi – bu bilimimizki, poeziyaning eng zaruriy shartidir. Ijodkor adabiy an'alarini yovuzlik va ezgulik

kurashi, bechora odamlar g'amini chekish, psixologik tasvir, jinoyat va jazo, insoniy shaxsiyatning shakllanishi yoki yemirilishi, rahm-shafqat, sud-huquq kabi mavzular, g'oyaviy-falsafiy pafos, badiiy san'atkorlik singari jihatlarida kuzatish va o'rganish mumkin. Biz bu masalaga komparativistik tekshirish metodi nuqtayi nazaridan qarab, ish tutishimiz va shu tariqa adabiy mushtaraklik jihatdan o'rganishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur maqolada ana shu paradigmatic munosabatlar ijodkor falsafiy konsepsiyasi bilan hayotiylik, haqqoniyat kasb etishi haqida bahs boradi. Shu kabi masalalar, ta'sir va mushtaraklik hodisalari ayni vaqtda jahon adabiyotining muhim va salmoqli tarkibiy qismi o'zbek adabiyoti, jumladan, o'zbek realistik nasri uchun ham xos bo'lgan ilmiy haqiqat ekanligi badiiy asarlar tahlilida o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar:** Ijodkor psixologiyasi, falsafiy konsepsiya, kriminallik, kriminal qahramon, syujet, muammo, ijtimoiy muhit.

### PHILOSOPHICAL CONCEPT OF CREATOR

**Abstract:** Experiences, ideas, thoughts, conclusions from the heart stage directly enter the human form at the work stage, live, suffer, seek goodness, find someone, and sometimes ruin. To break and create, to die and to remain are first developed in the glorious mill of the writer's soul, and then absorbed into the scene of the work, turning into elements, details, objects, people - we know that this is the most necessary condition of poetry.

This article argues that these paradigmatic relationships gain vitality and authenticity with a creative philosophical concept.

**Keywords:** creative psychology, philosophical concept, crime, criminal character, plot, problem, social environment.

**Kirish.** Jahon adabiyoti mashhur namunalariga xos fazilat – ularda falsafiy-ijtimoiy g'oyaviy ko'lamning ustuvorligi bilan bog'liqdir. Chunonchi, sarguzasht, detektiv, kriminal yoki sevgi-muhabbat yo'nalishidagi badiiy asarlar ham ijodkor falsafiy konsepsiyasi bilan hayotiylik, haqqoniyat kasb etadi. Dostoyevskiy yoki Tolstoy, Balzak yoki Volter Skott, Mopassan yoki Abdulla Qodiriy qalamiga mansub romanlar, avvalo, ana shu falsafiy mohiyati, ijtimoiy davrga xos teran voqelik mazmuni orqali xalqchilik va ma'naviy ibrat xarakteriga egaligi bilan ajralib turadi. F. Dostoyevskiyning milliy nasrimizga ta'siri faqat katta epik asarlardagina emas, o'rta va kichik janrlarda ham seziladi. Aytish mumkinki, katta, o'rta va kichik avlod vakillarining ko'plari Fyodor Dostoyevskiy maktabidan bahra olgan, ta'sirlangan, ulug' yozuvchiga ergashib badiiy g'oya va kriminal motivlar yaratishda yozuvchi an'alarini davom ettirganlar.

Adabiyotshunos olim U.Normatov bu fikrlarga munosabat bildirib, o'zbek nasrida detektiv izlari 30- yillardayoq ko'ringanligini qayd qiladi. A.Qodiriyning "Shubha", Sh.Rizoning "Qor yog'di, izlar bosildi" hikoya va qissalari bu boradagi ilk izlanishlar mahsuli ekanligini ta'kidlaydi. Ijodkorlar asarlarida detektiv yo'nalishdagi motivlarni ko'p qo'llar ekan, bu jarayon jinoyatkor siyosat va nomunosib jamiyat odamni, ayniqsa, sodda, muhtoj, kambag'al bandalarni jinoyatchi bo'lib qolishiga bevosita sababchi bo'lishini falsafiy tafakkur bilan talqin etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning komparativistik, tavsiflash, psixoanalitik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Inchunin, o'zbek adabiyoti detektiv nasrining ijodkor falsafiy konsepsiyasida jahon adabiyoti, xususan, Fyodor Dostoyevskiy asarlari ta'siri va mushtarak jihatlari ochib berildi.

**Natijalar va muhokama.** Yozuvchining falsafiy konsepsiyasi u yaratgan badiiy asarlar g'oyasi, kriminal qahramonlararo to'qnashuvlar va yechimda aniq ko'rinadi. Bunday syujetdagi qiziqarlilikni o'zbek yozuvchilari ijodida kuzatganda F. Dostoyevskiyning ta'siri kuchli ekanligi seziladi (asar kompozitsiyasida, voqealar rivojida, yosh va yordamchi qahramonlar munosabatlarida, konflikt, qiziqarlilik, psixologizmda).

O‘zbek nasrida ancha ko‘p detektiv-sarguzasht va kriminal ruhdagi asarlar yaratgan Tohir Malikning bu janrdagi yirik roman-pentalogiyasi “Shaytanat” ham, avvalo, falsafiy pafosining kuchliligi, syujet va kompozitsiya tuzilishidagi qiziqarlilik jihatlar bilan e‘tiborni tortadi. “Shaytanat” – yuksak ijtimoiy-siyosiy mohiyati jihatidan F. Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo”, “Iblislar”, “Qimorboz” va “Aka-uka Karamazovlar”iga yaqin bo‘lsa, kriminal obrazlar, izquvarlik, jinoyatlarni, jinoyatkor to‘dalarni fosh qilishdagi tergov-sud motivlarida, syujet qurilishida Agata Kristi, Artur Konan Doylning detektiv asarlari arxitektonikasini eslatadi.

“Shaytanat” sarlavhasidayoq mazkur yirik romanning ma‘no-maqsadi o‘z mujassamini topganligi ma‘lum bo‘ladi. Tohir Malik shu yo‘nalishda kitobxonlar bergan savollarga bu asarni bitishga “Shaytonlar turtki bo‘lgan” deya javob bergan ekan. Buni u yanada batafsil sharhlaydi: “So‘zning lug‘aviy ma‘nosi – shaytonlar, shayton yetovi ta‘sirida yo‘ldan ozdirishlikni ham tushunsa bo‘ladi. Boshqacharoq aytsek, shaytonlar boshqaradigan jinoyat olami nazarda tutilgan” [2:624]. Qolaversa, mazkur roman g‘oyaviy pafosi bilan falsafiy salmoq kasb etishi barobarida, Dostoyevskiy ijod manerasi – asli bosh jinoyatchi mavjud tuzumning o‘zi ekanligi bilan g‘oyaviy-ijtimoiy mushtaraklik kasb etishi ma‘lum bo‘ladi.

“Shaytanat” asarida son-sanoqsiz obrazlar galereyasi mavjud. Jinoyatchilar, izquvarlar, tergovchilar, hatto sobiq ittifoq miqyosidagi mafioz kishilar timsollari, masalan, rus Kozlov, chechen Zelixon, Xongirey kabi... Shular orasida adolatli sud-huquq tizimi xodimlari Zohid, Mahmud, mayor Soliyevlar timsoli ham mavjud. Yozuvchi bu soha xodimlari ma‘naviy olamini, mashaqqatli izlanishlarini psixologik jihatdan ancha mukammal talqin etgan. Uyushgan jinoiy guruh rahbari Asadbek – o‘zbek adabiyoti adabiy timsollari safiga qo‘shilgan o‘ziga xos betakror obraz. Yozuvchi Asadbekni jinoyatkorlar sardori darajasiga ko‘targan omil – sho‘ro tuzumi ekanligiga urg‘u bergan. U hali uch-to‘rt yoshli go‘dakligida stalinizm qatag‘on guvohi bo‘ladi, bolakay ko‘z oldida ikki askarning otasini tutib, qo‘liga zanjir solgan olib ketganliklari manzarasi muhrlanib qolgan. Uzoq yillar odamlar ularning oilasini sovet davlatining dushmani sharoitida kamsitib kelganlar. Alamzada Asadbek ko‘cha bezorilari safiga qo‘shilib, oqibatda qamoqlarga mahkum etiladi. Adolatsiz siyosat, qamoqxona muhitining bundan badtar vahshiyona mohiyati uning yirik jinoyatchi bo‘lib shakllanishiga zamin yaratgan.

Yovuzlik va yomonlikdan ogohlik, insoniyatni hidoyat va adolat yo‘liga rag‘batlantirish – dunyoviy mashhur asarlarning yetakchi maqsadi kabi, ayni vaqtda, “Shaytanat” kabi keng qamrovli detektiv-kriminal romanning ham asl muddaolaridan biridir.

Sharq odami, qalbi ilohiy-irfoniy nurlar bilan chulg‘angan adib sifatida jinoyat olamini bor bo‘y-bastini ko‘rsatishga bel bog‘laganligi – bu asli odamzodni, jumladan, yoshlarni nomatlub ofatdan ogohlantirish maqsadi ko‘zlanganligi Tohir Malikning “Agar biron-bir asar tarbiyaga xizmat qilmas ekan, yozuvchining urinishlari zoye ketibdi, deb hisoblayman” – degan ta‘kididan ham anglash mumkin. Shuningdek, yozuvchining “Har qanday jinoyatning o‘q ildizi iymonsizlikda, jamiyatda adolat bo‘lishi uchun avvalo jamiyat a‘zolarida iymon bo‘lmog‘i shart” – degan haqiqatni yoshlarga tushuntirishga urinaman” [2; 630] kabi ilohiy nur bilan omuxta fikrlari uning yuksak falsafiy-axloqiy muddaosini yanada mukammal tushunishga imkon beradi.

Tohir Malik asarlarining, jumladan, “Shaytanat” roman-pentalogiyasining hayotiyiligi va haqqoniyiligi uning Qur‘oniy g‘oyalar, Ollohga munojotlar, Muhammad alayhissalomga salovot majmuining asar matnlarida sinkretik tarzda namoyon bo‘lishi bilan ham bevosita bog‘liq.

“Hayotning ulug‘ falsafasi, avvalo, Allohning shu ilohiy kitobida (Qur‘oni Karim)

mujassam, – deydi T.Malik. – Ba’zi birovlar muqaddas oyatlardagi ogohlarga e’tiborsizliklari tufayli adashib, shaytanat dunyosiga kirib qolishgan. Sharq adabiyotiga azaldan Qur’on mayoq bo‘lib, haqiqat yo‘lini ko‘rsatib kelgan” [2; 635].

Yozuvchi yana L.Tolstoy va F.Dostoyevskiy kabi san’atkorlarning ham o‘z asarlarida Injil g‘oyalaridan unumli foydalanganliklari tajribasini eslaydiki, bu yana uning shu ulkan adabiy aloqadorlik hodisasining mazmunini anglatadi. “Shaytanat”da Qur’on suralari F.Attor, S.Allayor, J.Rumiy kabi mutasavvuf shoirlarning asarlaridan qator ko‘chirmalar keltirilgan. Bu esa asar mazmuni g‘oyaviy-falsafiy ko‘lamining salmoqdorligiga xizmat qilgan.

F.Dostoyevskiy ijod fenomeniga oid salmoqdorlik, eng avvalo, shu kabi ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarining yetakchilik fazilati bilan o‘lchanadi. F.Dostoyevskiyning eng salmoqli asarlarini adabiyotshunoslar adabiy an‘analarning eng qadimiy manbalari – Injil g‘oyalari, Iso Payg‘ambar ma’naviyati, Platon kabi ulkan falsafiy olimlarning g‘oyalari, antik davr adabiy yodgorliklari bilan qiyosiy yo‘nalishda ham o‘rganganlar. [4.]

Ma’lumki, Dostoyevskiy umrining so‘nggi yillarida ko‘pdan buyon o‘ylab, niyat qilib yurgan romani “Aka-uka Karamazovlar”ni yozishga kirishadi. Bu salmoqli roman yozuvchi ijodidagina emas, balki dunyo adabiyoti tarixida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ma’no-mazmunida adibning umuman insonlarga, jamiyatga munosabati yuksak gumanistik ruhda yorqin tasvirlanadi.

Adibning shu keskin konfliktlarga serob romanni yozish niyati haqida uning zamondosh do‘stlaridan biri noshir, jurnalist Aleksey Suvorin quyidagilarni yozgan edi: “Dostoyevskiy inson va jamiyat munosabatlari haqida roman yozmoqchi; Alyosha Karamazov oldin monastirga boradi, keyin revolyutsioner bo‘ladi, siyosiy jihatdan ayblanadi. Hatto qatl darajasida qattiq jazolanadi. Kelajakda u haqiqat izlash yo‘sinida revolyutsionerlikka borib yetadi” [5; 361].

Garchi unda bir oila tarixi hikoya qilinsa ham, aslida sud va matbuot, maktab va millat, cherkov va revolyutsiya tilga olinadi.

“Aka-uka Karamazovlar” romani g‘oyaviy-falsafiy salmog‘ining ilohiy-ma’rifiy jihatdan mukammalligining boisi – bu adibning Iso Masih ma’naviyatiga, ulkan ruhoniylar Zosima ota obrazi va donishmandona fikrlarining talqiniga bevosita e’tibor berganligi bilan ham bog‘liqdir. Masalan, ezgulik va e’tiqod timsoli bo‘lgan Zosima otaning “Ey o‘g‘lon, ibodatni unutma”, “... agarda ko‘z o‘ngimizda bebaho Masiho siymosi turmaganda edi, xuddi odamzod to‘fon oldida bo‘lganday adashgan va halokatga uchragan bo‘lardik”[6; 565], – kabi ilohiy nurga to‘la fikr-o‘g‘itlari asar g‘oyaviy-falsafiy pafosini belgilaydi.

Dostoyevskiy asarlarida, jumladan, asosan “Aka-uka Karamazovlar” romanida insonni halokatga, qolaversa, aniq bir shaxsni (masalan, “Jinoyat va jazo”dagi sudxo‘r kampirni, “Aka-uka Karamazovlar”dagi Fyodor Karamazovni) o‘limiga olib kelgan omillarni keng miqyosli hayotiy tavsiflar yordamida talqin etganligiga guvoh bo‘lamiz:

- ijtimoiy muhitning nosozligi;
- odamning yetuk shaxs sifatida shakllanishiga imkon bermaydigan noinsoniy siyosiy-ijtimoiy qonunlar;
- manfaatparastlik, qanday qilib bo‘lsa-da, boyib ketish jazavasi sudxo‘r kampirning ko‘r-ko‘rona ravishda boylik to‘plash uchun, Fyodor Karamazovning tuturuqsizligi, barcha narsadan, barcha harakatdan faqat sarmoya to‘plash uchun telbalanishi;
- yozuvchi Fyodor Karamazov o‘g‘illari ruhiy olami va azob-uqubati bilan



ulgʻayish yoʻllarini ijtimoiy-ruhiy yoʻnalishda ancha batafsil talqin etadi.

Badiiy adabiyot namunalarini erkinlik va xolislik asosida tipologik oʻrganish, ularning fazilatlarini yanada kengroq aniqlash, adiblarning ijod imkoniyatlari doirasini kengaytirish, ilhombaxsh izlanishlarga ragʻbatlantirish asoslarini beradi.

O.Yoqubovning umumijodida, jumladan, “Ulugʻbek xazinasi” romanida eʼtiborni jalb etadigan fazilatlardan biri – voqelikni, tarixiy jarayonlarni shafqatsiz realizm uslubida tasvirlay olishida koʻrinadi. Bunda u Dostoyevskiy, Tolstoy, Balzak, Qodiriy, Aytmatov kabi adiblar ijod yoʻsiniga yaqin turadi. Shafqatsiz realizm ayni paytda jinoyat-jazo motividagi eng ishonchli va asosli nuqtayi nazar boʻlib, asar hayotiyiligi va taʼsirchanligini taʼminlash vositasi ekanligi O.Yoqubov ijod fenomenining markazidagi masala va vazifa ekanligini kuzatish mumkin. Buni Mirzo Ulugʻbek kabi siymoning hukmronlik yillari va umuman, hayoti davomida qilgan gunohlariga, balki jinoyatlariga tavba-tazarru keltirish maqomida ruhan-qalban chekkan iztiroblari, yanada aniqroq aytganda, ichki ruhiy jazo jabrini tortishi xotira-eslash rakursi orqali talqin qilingan. Masalan, Mirzo Ulugʻbek iztirobli xayollari jarayonida “Ha, u oʻz umrida qancha xatolar qilmasin, qancha yanglishmasin, ilm-maʼrifat yoʻlida qirq yil qilgan mehnati zoye ketmabdi” [3;149], – degan eʼtirofini qiladi. Qudratli hukmdor sifatida bobosi Amir Temurdek ancha xayrli ishlar, foydali tadbirlar, ilm rivoji, xalq roziligi yoʻlida qanchalik ezgu faoliyatni amalga oshirmasin, baribir hukmfarmonlik tizimida bir qator xatolar, gunoh ishlar, jinoiy harakatlar qilganligi ham aks ettiriladi.

“Ulugʻbek xazinasi” romaniga munosib baho bergan adabiyotshunos olimlardan biri Matyoqub Qoʻshjonovning fikriga koʻra, “Yozuvchining romandagi yutugʻi shu boʻldiki, u Ulugʻbek fojiasiga tegishli voqealarni bir nuqtaga yigʻdi, ularning barchasini fojiaiy xarakter psixologiyasi bilan bogʻladi, nimaiki bu psixologik markaz bilan bogʻlanmaydigan boʻlsa, yozuvchining eʼtiboridan chetda qoldi. Shu yoʻl bilan Odil Yoqubov psixologik bayonni quyuqlashtirdi va kitobxonni zoʻr qiziqish bilan asar oxirigacha bir xil holatda tutib turishga erisha oldi” [1;207].

M.Qoʻshjonov, bizningcha, romanda yozuvchi mahoratining eng muhim qirralarini gʻoyatda toʻgʻri ilgʻagan. Darhaqiqat, Mirzo Ulugʻbekning ezgu ishlarini, hukmdor sifatida qirq yildan ortiq Movarounnahr saltanatida adolat bilan ish yuritgan, ilm-fandagi dunyoviy kashfiyotlari, bunyodkorligi, beqiyos insoniy fazilatlarini toʻgʻrisida oʻnlab romanlar yozilsa-da, kamlik qiladi. Ammo O.Yoqubovning Ulugʻbek taqdiri, fojiali qismati, bunday buyuk maʼrifatli siymoning boshiga nobakor oʻgʻli tomonidan yogʻdirilgan kechirib boʻlmaydigan fojia – qotillik jinoyati va gunohi koʻproq qiziqtirgan, bu omonsiz tarixiy fojidan kelib chiqadigan jinoyat va jazo falsafasi, saboq va ijod darajasi eʼtibori markazida boʻlgan. Yozuvchi ulkan mutafakkir hukmdor saltanatidagi turli xarakter va niyatdagi kishilarning saʼy-harakatlari vositasidagi mikroshaxslar, turfa munosabatlar tavsifi orqali ham poetik rakurslar yordamida Turkiston tarixining XIV-XV asrlardagi temuriy hukmdorlar muhitini ancha teran jonlantira olgan.

**Xulosa va takliflar.** Psixologik tahlil va tadqiq badiiy asar, obraz strukturasi eng muhim jihati sifatida inson maʼnaviy olami, murakkab ruhiy dunyosi haqiqatlarini yorqin va chuqur ifodalash tayanchi hisoblanadi. Badiiy asar hayotiyiligi taʼminlash, turfa ranglarda tasvirlash, inson, tabiat, jamiyat yaxlitligini singdira olish ijodkor badiiy mahoratining jozibasini koʻrsatuvchi omil sanaladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Кўшхонов М. Ижод масъулияти. Адабий-танқидий мақолалар. –Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги АСН, 1981.-207-бет.
2. Малик Т. Сўнгсўз ўрнида. –Малик Т. Шайтанат (Танланган асарлар). Бешинчи китоб. Азозил дўкони. –Тошкент: Шарқ, 2019.-624-бет.
3. Ёқубов О. Улуғбек хазинаси. Танланган асарлар. Учинчи том. –Тошкент, АСН, 1978.-149-бет.
4. Савенкова Е.С. Система второстепенных персонажей романа Ф.М.Достоевского «Идиот» в контексте литературной традиции. АКД фил.наук Нижний Новгород-2006.
5. Суворин А.С. Издательство “дневника”. – Ф.М.Достоевский в воспоминаниях современников. В двух томах. Том второй. Москва, “Художественная литература”, 1990, стр.391.
6. Dostoyevskiy F. Aka-uka Karamazovlar. 1-2- kitob. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.-565-бет.
7. Malik T. Shaytanat. –Toshkent: Sharq, 2019.-635-бет.

### ЕПИК КЛИШЕ ВА FORMULALARNING DOSTON IJROCHILIGIDA TUTGAN O‘RNI

**N.K. Ochilov,**

Qarshi davlat universiteti dotsenti, f.f.d (DSc)

[nasim.ochilov@mail.ru](mailto:nasim.ochilov@mail.ru),

ORCID: 0009-0005-6540-6567

УДК: 398.0(045)

**Annotatsiya:** Maqolada doston matnlarida epik formulalarning o‘rni, nazariy ahamiyati, doston strukturasi, epik voqelikni poetik ifoda etish, baxshi ijrochiligi va badihago‘ylikning asosi ekanligi nazariy jihatdan asoslanadi. Jamoa va individual ijod, soz va so‘zning badiiy ta‘sir kuchiga amal qilish, baxshilar epik repertuarining boyib borish yo‘llari, epik mahoratning individual ijroda namoyon bo‘lishi, baxshining epik formula va klishelardan mahorat bilan foydalanishida an‘ananing o‘rni masalalari Ergash Jumanbulbul o‘g‘li tomonidan ijro etilgan “Dalli” dostoni matnidagi otni egarlash tasviri Shodmon Xo‘jamberdiyev repertuaridan yozib olingan “Xon Dalli” dostoni matni asosida qiyoslanadi. Baxshilarning doston ijrochiligida epik mahorati masalalari hamda ijro jarayonida baxshining ustozlar an‘anasiga amal qilishi, bunda epik bilim, xotira va an‘ananing o‘rni muhim ahamiyatli ekani ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan.

**Kalit so‘z:** epik formula, klishe, dostonchilik, epik mahorat, baxshi, an‘ana, badihago‘ylik, syujet, motiv, obraz.

### THE ROLE OF EPIC CLICHES AND FORMULAS IN EPIC PERFORMANCE

**Abstract:** In the article, it is theoretically based on the role of epic formulas in the epic texts, their theoretical importance, their importance in the epic structure, the poetic expression of the epic reality, the performance of the bakhshi, and the basis of the poetry. Team and individual creativity, adherence to the artistic influence of music and words, ways of enriching the epic repertoire of bakhshis, manifestation of epic skills in individual performance, the role of tradition in the skillful use of epic formulas and clichés by bakhshis issues The image of saddling a horse in the text of the epic "Dalli" performed by the son of Ergash Jumanbulbul is compared based on the text of the epic "Khan Dalli" recorded from the repertoire of Shodmon Khojamberdiyev. The issues of epic skills of bakhshis in the performance of epics and the adherence of bakhshis to the tradition of masters during the performance process, where the role of epic knowledge, memory and tradition are important, are analyzed on a scientific theoretical basis.

**Key words:** epic formula, cliché, epic, epic skill, gift, tradition, fiction, plot, motive, image.

**Kirish.** Doston an‘anaviy ijrochilikning yaxlit kompozitsion shakllanganligi ko‘plab epik formulalarni tizimli tarzda qoliplashuvini yuzaga keltirdi. Garchi epik kuychi doston kompozitsiyasida qaytariq holda uchraydigan formulalarga e‘tibor qaratmasa-da, ammo uning epik xotira va bilimida mavjud qaytariq qoliplar doimiy ravishda amal qiladi hamda shartli hisoblanadi. Epik qoliplar baxshi improvizatsiyasi, doston strukturasiidagi voqelikni davom ettirish, baxshilar uchun ijro jarayonining ma‘lum bir qonuniyatini ta‘minlaydi. Epik formulaviylik xalq eposi taraqqiyotining muhim belgilaridan hisoblanib, u voqelikni poetik idrok etish, qahramonlar ruhiy olamini ifodalashning o‘ziga xos omillari hisoblanadi. Formulaviy xarakterdagi uslubiy qaytariqlar yoki qoliplilik asrlar davomida shakllangan epik poetikaning kompozitsion va stilistik usullaridir. Bu barqaror so‘z birikmalari, jumlar, yoki folklor matnning yirik fragmentlaridan iborat bo‘lishi

mumkin. Ular takrorlanuvchanlik xarakteriga ega. Epik formulaviylik borasida rus va boshqa xalqlar folklorshunosligida bir qator nazariy qarashlar mavjud<sup>12</sup>. A.N.Veselovskiyning nazariy qarashlarida dastlab epik formulaviylikning asosiy shartlilik xususiyatlari qayd etilgan bo'lsa, keyinroq bu nazariya I.M. Tironskiy, V.M. Jirmunskiy va V.Y. Propplar tomonidan rivojlanirildi.

G'arbda esa epik formulalar serb-xorvat eposi bo'yicha olib borgan kuzatishlari asosida M. Perri va A. Lord[1]lar tomonidan mukammal o'rganildi. Ular eposdagi takrorlanuvchi mavzu va motivlarning so'z vositasida ifodalanishi, ularning metrik o'rni, shu orqali epos ijrochilarining badihago'yliklariga imkon yaratilishi masalalarini Gomerning "Iliada" va "Odisseya" eposlari borasidagi nazariy xulosalarini bildirdilar. Umuman olganda, epik formulaviylik masalalari nazariy jihatdan ko'plab olimlarning epos an'anaviy shartlilik ta'minlashga xizmat qilishi qaytariqlar borasidagi fikrlari bilan davom etadi. Misol uchun bu nazariy qarashlar P.A. Grinser, S.Y. Neklyudov, Y.M. Meletinskiy, A.B. Kudelin va S.D. Serebryaniylarning turli xalqlar eposlaridagi formulaviylik masalalari haqida to'xtaladi[2].

**Natija va muhokama.** Epik formulalar eposning turli qaytariq shakllariga nisbatan qo'llansa-da, ammo o'zbek eposshunosligida qo'llanilgan barqaror epik formulalardan farqlanib turadi. Bu borada H. Zarifov, T. Mirzayev, S. Mirzayeva[3]larning bir qator nazariy qarashlari mavjud bo'lib, biz ham ushbu fikrlarga qo'shilamiz. Demak, doston strukturasi an'anaviy qaytariq shaklda qo'llanuvchi, voqelikni poetik idrok etishga xizmat qiluvchi badiiy qolip shakllari barqaror epik formula va klishelardir. S. Mirzayeva romanik dostonlar matni qobig'ida epik formulalarning badiiy vazifasiga to'xtalib, ularni bir necha ko'rinishda mavjud ekanligini qayd etadi:

1. Barqaror epik formulalar mazmunining hayotiy-tarixiy asoslari va ularning epik matn bilan ramziy, majoziy aloqadorligi.

2. Epik formulalar uslub va mazmun sathidagi tipiklashtirish mahsuli bo'lib, ular epos tarkibidagi voqelikni tipiklashtirishga xizmat qilganliklari sababli, ularning mazmunga, turlicha ruhiy holatlarga mos kelishlari.

3. Jamoaning estetik mulki sifatida barqaror formulalar baxshining ijodiy imkonsizligini to'xtovsiz improvizatsiya bilan ta'minlash; matnga ramziy fon, badiiy ta'sirchanlik bag'ishlash uchun xizmat qiluvchi zaruriy poetik hodisalar hisoblanadi. Shu ma'noda barqaror epik formulalarning baxshilardagi ijodiy zaiflikni yashiruvchi, badiha jarayonida ularga ilhom baxsh etuvchi vosita ekanliklarini ko'rsatish.

4. Barqaror epik formulalar muayyan syujetlar bilan aloqador bo'lmagan, ammo turli-tuman epik vaziyat va holatlar mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi poetik universal birliklardir. Binobarin, ular xalq eposida muayyan vaziyat va hodisalar bilan xoslangan holda qo'llanadilar[4]. Ushbu fikrlarda epik formulalarning doston matnida qo'llanish jarayonlari haqida fikr yuritilsa-da, nazmiy misralarning ritmik izchilligini, qolaversa, bandlar shakllanishidagi o'rni masalalari alohida tadqiq etilmaydi. An'anaviy formulalarning umumo'zbek dostonchiligida qo'llangan "Xazon urmay bog'da gullar so'ldimi, So'lgan gulga bulbul kelib qo'ndimi?", "Ot chopsa gumburlar tog'ning darasi, Botirni ingratar nayza yarasi", "Uchqur eding qanotingdan qayrilding", "Oshiqning fahmidir qorong'u kecha", "Qizil gul ochilar g'unchadan g'uncha" va boshqalar dostonlar matnida qaytariq holda kelib, qofiya, vazn o'zgarishlari asosida bog'lanadi. Baxshining repertuari va ijro mahorati epik an'analar zamirida yuzaga kelgan ijodiy aktdir. Mana shunday ijodiy harakat dostonlarda har gal takrorlanuvchi epik klishé va poetik

formulalarni mahorat bilan qo'llash, ularni qaytadan ijro etish jarayonida mukammallashib, baxshining individual ijodkorlik qobiliyatini oshirib boradi. Chunki "Har bir ijro etilgan asar bir matnning varianti emas, balki kengroq she'riy zahiraning imkoniyatidir. Xalq dostonlarining erkin ijro etilishi shuni ko'rsatmoqdaki, ijrochi birinchi navbatda epik bilimlarni saqlovchisidir. Dostonni keng miqyosda bilish uning bir matnini bilganga qaraganda ma'quldir. Chunki baxshida faqatgina bir marotaba ijro qilish imkoniyati emas, balki bunday imkoniyatlarning ko'plab turlari mavjud. Epik bilimning chegaralarida turgan holda baxshi ko'pgina muqobil harakatlarning birini tanlaydi, qo'shadi yoki ayrim badiiy parchalarni olib tashlaydi: ularning o'rnini almashtiradi, fikrni boshqa so'zlar bilan yuzaga chiqaradi, qayta ijod qilish jarayonida badiiy sinonimiyalarni qo'llaydi" [5].

Odatda har bir baxshi repertuarining ma'lum izchillik asosida shakllanishini ustozidan o'rgangan dostonlar tashkil etsa-da, talantli dostonchilar ijodini kuzatish shuni ko'rsatdiki, baxshilarning dostonchilik maktablari o'zaro aloqalari, bir-birlariga bo'lgan tanqidiy munosabatlari hamda "baxshilarning ijodkorligi, ya'ni ularning tub dostonlarning asosiy motivlarini ijtimoiy-iqtisodiy sharoit talablari, eshituvchilarning xohish-istaklarini nazarda tutib, yangicha kombinatsiyalarda kuylash orqali"[6] davrning muhim voqealarini an'anaviy yo'llarda tasvirlashi ham epik mahorat va repertuarining boyib borishidagi muhim jihatlardan hisoblanadi.

Epik mahorat dastlab, ustoz-shogird an'alarida ko'zga tashlanib, shogirdning ustozidan o'zlashtirgan matnga ijodiy yondashuvi, bunda an'anaviy uslub va poetik formulalarni mahorat bilan ijro eta olish qobiliyatining shakllana borish omillari bilan bog'lanadi. Ikkinchidan, epik xotira, bilim va dunyoqarashni qabul qilish va o'zlashtirish jarayonida baxshi ulardan mahorat bilan foydalanib, ijodiy badiha qila olishi bilan belgilanadi. Baxshi-shoirlarning dostonchilik an'analari doirasida dostonlarni ijro etish malakalari, bunda an'ana va badihaning o'rni masalalarida akademik V. Jirmunskiyning turkiy xalqlar dostonchiligi borasidagi kuzatuvlari diqqatga sazovor. "Baxshi yodlanmagan matnni kuylaydi, u hech bo'lmaganda qisman muayyan ssenariy bo'yicha improvizatsiya qiladi, bunda ketma-ket epizod va vaziyatlarga qo'shimcha ravishda an'anaviy odatiy joylar (otni egarlash, qahramonga nasihat, janglarni tasvirlash va hk) doimiy bo'ladi. Albatta, bunday improvizatsiya faqat ma'lum bir puxta tashkil etilgan an'ana doirasida amalga oshiriladi. Bunda nafaqat syujetlar, motivlar va tasvirlar, balki doimiy stilistik formulalar, epitetlar, taqqoslash, frazeologik birliklar va boshqalar doimiy ravishda ishtirok etadi. Bu esa faqat an'ana va improvizatsiyaning kombinatsiyasidir"[7]. Demak, epik mahorat jonli og'zaki an'analarda davom etgan barcha dostonchilik maktablarida mavjud bo'lib, bunday jarayon baxshilarning an'anaviy texnik formulalarga ijodiy yondashuvi va uni mahorat bilan ijro eta olish qobiliyatidir. Epik ijro va mahorat masalasini ko'rsatish maqsadida Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Dalli"[8] va Shodmon baxshi Xo'jamberdiyevning "Xon Dalli"[9] dostonlarida qo'llangan otni egarlash tasvirini qiyosiy tahlilga tortish asosida ko'rib chiqish mumkin.

"Dalli" dostoni Qo'rg'on dostonchilik maktabi baxshi-shoirlari repertuarida mahorat bilan ijro etilgan. Janubiy O'zbekiston dostonchiligida ushbu doston ommalashmagan. Keyingi yillarda dostonning kitob holatida chop etilishi baxshilar tomonidan o'qilib repertuarida o'zlashtirish boshlandi. Jumladan, Qodir baxshi repertuarida mavjud bo'lgan ushbu doston haqida ham shunday fikr bildirish mumkin. Shodmon baxshi esa uni ustoz Qodir baxshidan o'rganganligini ta'kidlaydi. Ergash shoir dostonni ustozidan og'zaki o'zlashtirib, uni mahorat bilan ijro etgan. Syujetdagi an'anaviy qolipning ikki baxshi repertuaridan yozib olingan variantini qiyoslash an'ana va epik mahorat masalasi, bunda baxshining dostonchilik an'alariga ijodiy yondashish qobiliyati yaqqol ko'zga

tashlanadi.

Dostonda Hasanxonning Dallini izlab Arzrum shahriga safarga o'tlanish manzarasi mavjud. Go'ro'g'lining topshirig'a binoan Soqi G'irotni qahramonga egarlab, uni yo'lga tayyorlaydi. Ergash shoir variantida o'tni tayyorlash va uni Hasanxonga keltirib berishgacha bo'lgan tasvir jami sakson to'rt misradan iborat bo'lib, baxshi uni Hasanxonga tayyor holatda keltirgungacha bo'lgan tasvirini badiiy mukammal tarzda ijro etgan. O'tni egarlash tasvirida an'anaviy jihozlarning ot ta'rifi bilan bog'liq holda ishlatilishi, bunda baxshi har bir detal va jihozga alohida e'tibor bilan yondashganligi sezilib turadi. Epik ot G'irotning ta'rifi, Soqining unga ko'makdoshligi shundan so'ng o'tni egarlashda foydalanuvchi jihozlar ketma-ketlik bilan tasvirlana boradi. Ipakdan bosilgan "mayin terlik", "baxmal chirgin", "jahazdirik", "oltin qoshli karson", "uzangi", "ipak ayil", "zar chochoq", "davir", "karki quyishqon", "chig'atoy pushtan", "qubbali yugan" kabi jihozlar sifatlashlari bilan tasvirni yana boyitadi, baxshining mahoratini ko'rsatadi. Ergash shoir o'tni egarlash epizodini shunchaki tasvirlashni emas, balki dostonchilik an'analari doirasida G'irotni va Soqi biografiyasiga doir qadimiy an'analarga ham e'tibor qaratadi, ularga ishlov beradi. Shodmon baxshi ham Ergash shoir kabi o'tni egarlash tasviriga e'tibor qaratsa-da, uning ijrosida tasvirning torayib borish manzaralari ko'zga tashlanadi. Ikkinchidan, an'anaviy formulalar, xalqchil ifodalarga nisbatan individual yondashuv yetakchilik qilsa, uchinchidan, hajm jihatdan ham Ergash shoir varianti ustunlikka ega. Ergash shoirda:

Mullalar o'qiydi zer-u zabarni,  
Ustalar ishlata tesha tabarni,  
Boz ustidan qo'ya berdi Soqi chol,  
Oltin qoshli karson kumush egarni (21-bet).

Shodmon baxshida ushbu tasvir quyidagicha:

Mehnat qilgan rohatini topadi,  
Tekinxo'rlar tekin joyga chopadi.  
Ot beliga qo'ya berdi Soqibek  
Karsoni tilladan bo'lgan egardi (10-bet).

Mantiq karsonning "oltin qoshli kumush egar" ekanligini talab etmoqda. Epik klishelar bilan bog'liq bunday tasvirlarni ko'plab o'rinlarda kuzatish mumkin. Shulardan xulosa qilib aytish mumkinki, baxshilar yodlanmagan matnni epik xotirasida mavjud ssenariy asosida improvizatsiya qilishi, epik klishel va formulalardan mahorat bilan foydalanib, ularga ijodiy ishlov berishi badiiy mahorat qirralarining asosiy belgilaridan hisoblanadi. Doston ijrochiligida epik mahoratning o'rni quyidagilarda ko'zga tashlanadi. Birinchidan, doston ijro etish jarayonining o'zi an'analari doirasida takomillashgan va ma'lum qonuniyatlar asosida shakllangan ijodiy aktdir. Ikkinchidan, doston ijro etish jarayonida baxshi ustoz va dostonchilik maktabi an'analari doirasida dostonlarni ijro etish ko'nikmasini shakllantiradi. Bunda doston matnlaridagi epik klishel va formulalarga e'tibor qaratib, baxshi har gal ijro jarayonida ularga individual mahorati asosida ishlov beradi, takomillashtiradi va badiihago'ylik sirlarini namoyon etadi. Uchinchidan, Ergash shoir repertuaridan yozib olingan o'tni egarlash bilan bog'liq an'anaviy tasvir jarayoni epik mahoratning yuksak ijro va ijodkorlik xususiyatidir. Doston ijrochiligida epik mahoratning o'rni katta bo'lib, baxshilar ijodkorligini oshirib boruvchi va repertuarini boyituvchi omillardan hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar.** Umuman olganda, xalq eposi arxaik shakldan klassik davrga o'tishi jarayonida ma'lum shartlilik asosida qaytariq shaklda takrorlanuvchi ko'plab struktural qoliplarni shakllantirdi. Bular baxshi xotira va bilimida o'zlashib, ma'lum bir an'analari tizimida shakllandi hamda epik kuychiga voqelikni badiiy idrok etish malakasini

shakllantirdi. Shuning uchun ham epos namunalarida epik formula va klishelar muhim ahamiyat kasb etib, ko‘plab madaniyat yodgorliklarining yetib kelishiga sabab bo‘ldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. А.Лорд. Сказитель. –М.: Восточная литература, 1994.
2. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. –Л.: 1940; Гринцер П.А. Эпические формулы в «Махабхарате» и «Рамаяне». –М.:Наука, 1979. Неклюдов С.Ю. О стилистической организации монгольской «Гесериады». //Памятники книжного эпоса. –1978
3. Zarifov N. O‘zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo‘yicha tekshirishlar // Po‘lkan shoir. O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar. 4-kitob. –Toshkent: Fan, 1976. –B.88-90. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. –Toshkent: Fan, 1979; Mirzayeva S. O‘zbek xalq romanik dostonlari poetikasi. – Toshkent: Fan, 2004.
4. Mirzayeva S. O‘zbek xalq romanik dostonlari poetikasi. – Toshkent: Fan, 2004. -145.
5. Гацак В.М. Эпический певец и его текст // Текстологическое изучение эпоса. – М., 1971. – С.45.
6. Mirzayev T. Baxshilar epik repertuarining shakllanishi va boyib borishi masalalari // “Qodir baxshi abadiyati” mavzusida o‘tkazilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi, 2012. – B.10.
7. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Л., 1974. -С. 79.
8. Dalli. Doston. Aytuvchi Ergash Jumanbulbul o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchi M.Alaviya // O‘zbek xalq ijodi. Ko‘p tomlik. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1972.
9. Xon Dalli. Doston. Aytuvchi Shodmon baxshi Xo‘jamberdiyev.– Qarshi: Nasaf, 2010.

**DAVR ILLATLARINING IJTIMOY-HAJVIY TIPLAR TALQINIDA FOSH ETILISHI**

**Rizayev Baxtiyor Xalliyevich**

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti dekani  
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

[baxtirizo\\_64@mail.ru](mailto:baxtirizo_64@mail.ru)

ORCID 0009-0004-8902-4013

UDK: 82-32

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada davrning ijtimoiy muammolari va illatlari hajviy tahlil va tiplar orqali ochib beriladi. Asarda ijtimoiy-hajviy tiplar obrazlari orqali jamiyatdagi salbiy jihatlari, insoniy kamchiliklar va axloqiy buzuvchiliklar keskin tanqid qilinadi. Jumladan, qahramonlar orqali davrga xos illatlar, masalan, poraxo‘rlik, ahloqsizlik, nodonlik va johillik kabi muammolar hajviy talqinlarda ochib berilib, bu tiplardagi insonlarning nojo‘ya harakatlari fosh etiladi. Ushbu maqola davr hajviy adabiyotida aks etgan ijtimoiy tiplar tahlilini o‘rganish va ularga tanqidiy yondashuv usullarini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy va klassik adabiyotdagi bunday yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar.** Ijtimoiy illatlar, hajviy tiplar, tanqidiy tahlil, davr muammolari, poraxo‘rlik, ahloqsizlik, hajviy adabiyot.

**REVEALING THE VICIES OF THE ERA THROUGH THE INTERPRETATION OF SOCIAL-SATIRICAL TYPES**

**Annotation.** This article examines the social issues and vices of the era through satirical analysis and character types. By portraying satirical social types, the negative aspects of society, human flaws, and moral corruption are sharply criticized. Through these characters, vices such as bribery, immorality, ignorance, and foolishness are revealed in satirical interpretations, exposing the inappropriate actions of individuals. The article focuses on studying and critically analyzing these social types in satirical literature, comparing modern and classical approaches to such representations.

**Keywords.** Social vices, satirical types, critical analysis, societal issues, bribery, immorality, satirical literature.

**Kirish.** Ma‘lumki, har bir davrning o‘z hajviyoti, unga manba bo‘ladigan mavzulari bor. Binobarin, XV asrdagi Alisher Navoiy “Soda shayx” radifli g‘azalini yozganida, feodal jamiyatda din niqobi ostida yashagan munofiq shayxlarning ma‘naviy qiyofasini o‘tkir satira yordamida fosh etgan. XVII asrda yashagan shoir Maxmurning

“Hapalak” gʻazali esa xaroba qishloq ahvolidan soʻzlaydi. Aytish mumkinki, shoir oʻzi yashagan davrdagi qishloqlar ahvolini fosh etish uchun aniq detallarni topa olgan. Jumladan, tovuqlarining ninachi, oʻrdak gʻozlarining kapalakka; odamlar yashaydigan uylarning kapa, olachuq, katalakka oʻxshatilishi mubolagʻaning, aniqrogʻi, tabligʻning (grotesk) goʻzal namunasidir.

XIX asrda yashagan mumtoz adabiyot anʼanalarining munosib davomchisi Muqimiyning hajviy asarlari qatida oʻzi yashagan tuzumning illatlari, xalqning yashash sharoiti bilan bogʻliq holatlar aks ettirilgan. Xususan, uning “Tanobchilar” satirasida taʼmagir va odamlar hisobidan kun kechiradigan Sulton Alixoʻja va Hakimjonga oʻxshagan yulgʻichlarning hajviy obrazlari yaratilgan. Yoki “Toʻyi Iqonbachcha” asarida esa shoir yashagan davrdagi toʻylarning kulgili manzarasi yaratilgan, Iqonbachcha timsolida zamon boylarining maʼnaviy qiyofasi fosh etilgan. “Aroba” yumoristik sheʼrida esa oʻsha davr qishloqlari, koʻchalarining nihoyatda nochor ahvoli qalamga olingan. Aytish mumkinki, Muqimiy hajviyoti nobop tuzumda yashagan shoirning hayoti davomida kuzatishlari mahsulidir. Qolaversa, bu illatlarni qalamga olishning oʻzi oʻsha davr uchun maʼnaviy jasorat boʻlgan. Shu bilan birga, Ubaydulla usta Solih oʻgʻli Zavqiyning “Ahli rasta hajvi” satirasi oʻtkir hajv ruhi bilan sugʻorilganligini alohida taʼkidlash lozim boʻladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:** Yangi oʻzbek adabiyotida ham hajviy yoʻnalish oʻziga xos tarzda davom etdi. Oʻtgan asr boshlarida yaratilgan dastlabki komediya va pyesalar mulohazalarimizni tasdiqlab turadi. Xususan, A.Avloniyning “Advokatlik osonmi?”, “Pinak” asarlaridagi hajviy manzaralar oʻsha davr sharoitida savodsiz, oʻz haq-huquqini bilmaydigan xalqning yashash tarzini oʻzida aks ettiradi. Yoki Hamzaning “Maysaraning ishi” komediyasi din niqobi ostida ish yuritgan imomlarning manqurt maʼnaviy qiyofasi hajvga olingan.

Oʻtgan asrning 50-yillaridagi sobiq tuzum nosozliklari A.Qahhor komediyalarida oʻz ifodasini topgan. Xususan, adibning “Ogʻriq tishlar”, “Tobutdan tovush”, “Shohi soʻzana” asarlarida poraxoʻrlilik, tamagirlik illati satira ostiga olingan. “Adabiyot muallimi” hajviy hikoyasida esa bilimi sayoz adabiyot muallimi Boqijon Baqoyevichning kulgili obrazi yaratilgan. Bu kabi asarlar adibning davr illatlarini oʻtkir nigoh bilan koʻra olganligi va uni hajviyot tigʻi bilan fosh etilgan. Yana bir jihatni taʼkidlash kerakki, yangi oʻzbek adabiyotining taniqli namoyandalari Gʻ.Gʻulom, S.Ahmad, E.Vohidov, A.Oripov kabilarning asarlari qatida ham hajv ruhi yorqin sezilib turadi. Buning sababi, bu ijodkorlar tabiatida kulgiga moyillikning kuzatilishini taʼkidlash kerak. Jumladan, Neʼmat Aminov shu ustozlarning eng yaxshi anʼanalarini munosib davom ettirdi va XX asr ikkinchi yarmida adabiyotimizda sof hajviy yoʻnalishni takomilga yetkaza oldi. Yozuvchi yaratgan hajviy asarlar epik turning hikoya, qissa va roman kabi deyarli barcha janrlarini qamrab olgan. Bu adib ijodining oʻziga xosligini belgilab turadi. Shu bilan birga, u sobiq tuzumda kuzatgan, oʻz davrida aytish mushkul boʻlgan hayotiy muammolarni ilgʻadi va ularni satirik, yumoristik obrazlarga singdirdi. Shu jihatdan adibning “Yolgʻonchi farishtalar” roman-dilogiyasidagi hajviy tiplarga xos xususiyatlarni yoritish muhimdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda ijtimoiy-hajviy tiplarning davr illatlarini fosh etishda tutgan oʻrnini tahlil qilish uchun adabiy-tahliliy usullar qoʻllanildi. Maqola doirasida hajviy adabiyotdagi ijtimoiy obrazlar tahlil qilinib, tanqidiy-tahliliy yondashuv asosida ularning jamiyatdagi salbiy jihatlarni qanday aks ettirgani oʻrganildi. Tadqiqot asosan qiyosiy uslubga asoslanib, zamonaviy va klassik hajviy asarlar tahlil qilindi. Shuningdek, tipologik usul qoʻllanilib, hajviy adabiyot qahramonlarining ijtimoiy xatti-harakatlari turlari ajratildi va ularning jamiyatga taʼsiri oʻrganildi.

Bundan tashqari, kontent-tahlil usuli yordamida asarlardagi asosiy illatlar va ularning aks ettirilish shakllari tizimli tarzda o'rganildi. Bu yondashuv orqali davrning asosiy muammolari aniqlanib, ularning hajviy usullar orqali qanday fosh etilgani tushuntirildi. Tadqiqot jarayonida badiiy-tahliliy usullar bilan birga sotsiologik yondashuvlar ham qo'llanilib, hajviy tiplarning jamiyatdagi real prototiplari bilan aloqadorligi o'rganildi.

**Natijalar va muhokama.** Romanda Bashirjon Zaynishev yetakchi hajviy tip sifatida ishtirok etadi. To'g'ri, romanda boshqa tiplar ham bor, ular Bashirjon obrazi atrofida birlashgan. Shu bois sho'rolar davrining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi tanazzul, oqsash kabi illatlarni fosh etishda Bashirjon Zaynishev obrazi umumlashtiruvchi tip vazifasini o'taydi. Jamiyatda avj olgan yulg'ichlik, poraxo'rlik, to'rachilik, aldanchilik, tovlamachilik va axloqiy buzulqilik kabi qusurlar bilan to'g'rilik, poklik, halollik singari insonni yuksaklikka eltuvchi fazilatlar to'qnashadi. Xuddi shu ma'noda yaratilgan hajviy tip insoniylik sha'niga dog' tushiruvchi jihatlarni ochib berishga xizmat qilgan.

Asar yozilgan davrlarda jamiyatda, ayniqsa, o'rta bo'g'in avlod va yoshlar o'rtasida mana shunday kishilar ko'payib ketgan edi. Yuqoridagi holatdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, Ne'mat Aminov o'zi yaratgan hajviy tipda zamon ruhini, hayot oqimini, jamiyat hayotidagi ijtimoiy illatlarni to'g'ri aks ettira olgan.

Said Ahmad "Yolg'onchi farishtalar"ga yozgan so'ngso'zida romanda harakat qiluvchi besh xil ijtimoiy va adabiy tipni mujassam etuvchi qahramonlarni ajratib ko'rsatadi. U asosiy qahramon Bashirjon Zaynishevga o'xshagan nopok, manfaatparast odamlar jamiyatda yoqimsiz suvaraklar misol urchib, ko'payib ketganligi haqida shunday yozadi: "Ensiklopediyada aytilganidek (u yerda suvaraklarning uch ming turi borligi aytilgan), suvarak (tarakan) qorong'uda qanday faol harakat qilsa, roman qahramoni Bashirjon Zaynishev ham odamlarning ko'zi tushmaydigan joylarda, prokuror nazariga ilmaydigan, sudya "ilmini xor" qilmaydigan jinoyatchalar qiladi. Dunyoda muhim voqealar yuz berayotgan bir paytda Bashirjon rahbarlik qilayotgan ishxona panada bo'lgani uchun, u dunyodagi o'sha 3000 suvarakning 3001-si bo'lib faoliyat ko'rsatadi».

Said Ahmad romandagi Vafo attorni "nimasi bilandir Sadridin Ayniyning qahramoni Qori Ishkambaga o'xshabroq ketadi", – deydi. Yana aytadi: Men ularning pastkashliklarida, ochko'zliklarida o'xshashlik bor, deyapman". Haqiqatan, Vafo attor Qori Ishkamba kabi har bir narsadan, har bir holatdan foyda undirishga harakat qiladi. San'atkor adib sobiq tuzumning Qori Ishkambasini to'g'ri ilg'agan. Bu Ne'mat Aminov hajviy mahoratini belgilab beruvchi muhim xususiyatdir.

Adib Vafo attorning xarakteri, ma'naviy dunyosi, qiziqishlari uning nutqi orqali ochib beriladi. Qahramon nutqida esa forscha-tojikcha, arabcha va Buxoro lahjasiga xos unsurlar keng qo'llanilgan, ayrim so'zlar buzib talaffuz qilingan. Bu narsa hajviy tipni individuallashtirish orqali tipiklashtirishga, shu orqali komiklik tug'dirishga imkon beradi: "Bilmadim, bu xonasalot varachla siz tipirkulos deydur ... Iloho tavba, bu tipirkulosing nedur, deb so'rasam, o'sha bachchag'ar: "Eskichasiga sil!" deydur... Mani o'ylashimcha, bu kasal kalta kezukdir (tif) ... E, xudo, bemaza balnisayakan, uka o'rtoq Zaynishuv... bozorga borgoni, hovliga borgoni qo'ymaydur ... Qaysi kun nomoz o'qib tursam, bosh varachi bor erkan, kelib, namozimni vayron qildi nobakor ... E, nimasini so'raysiz, uka o'rtoq Zaynishuv... Bilmadik, qandaq kasofat bizga yo'liqibdur...».

Birgina mana shu ko'chirmaning o'zida o'nga yaqin nutqiy xatolar, uslubiy g'alizliklar mavjud. Masalan: "xonasalot varachla", "tipirkulos", "balnisa" kabi so'zlar buzib talaffuz qilingan bo'lsa, "uka o'rtoq Zaynishuv" birikmasida "o'rtoq" so'zidan oldin "uka" so'zi me'yorga xilof ravishda qo'llanilgan. Agar "uka" so'zi zarur bo'lsa, me'yoriy



holatga ko'ra U "Zaynishev" so'zidan keyin qo'llanilishi lozim. Bashirjonning familiyasi ham Vafo aktor nutqida "Zaynishuv" tarzida buzilib aytiladi. Bu personaj nutqini jonlantiradi.

Vafo aktor nutqi faqat so'zlarni buzib talaffuz qilish bilan chegaralanmaydi. Unda atorning bilimsizligi, soddaligi va shu bois o'z kasaliga beparvo munosabatda bo'lishi kulgi uyg'otadi: "O'zim otdayman, bo bu varachla deng, hovliga ruxsat bermaydur ... Har kuni bir kilo ohak beradu deng, doru ermish. Yana sizni kasalingiz yuqumlu, deganiga o'laymu? O, man alarg'a aytdimki, kasal qozonning qorasidurmiki, boshqalarga yuqadur? Vo nobakorlar-e!".

Ko'rinadiki, Ne'mat Aminov ijodidagi hajviy tiplar ichki mantiqiy aloqadorlikda, ijodiy tadrijda-evolyutsiyada tasvirlangan. Chunki hajviy tiplar kichik va katta epik janr doirasida yaratilishidan qat'i nazar, unda hamisha ijodkorning estetik ideali, uning voqelikka munosabati asosiy mezon sanaladi. To'g'ri, Shamsi To'rayevich romanda epizodik obraz sifatida ishtirok etadi. Biroq san'atkor adib bu obraz vositasida sobiq tuzumda faoliyat ko'rsatgan ayrim manfaatparast, imonsiz, ma'naviyati tubanlik sari yuz tutgan ayrim rahbarlarning manfur qiyofasini ochib bergan, ulardagi kamchiliklarni o'tkir hajv yo'li bilan fosh etishga erishgan. Atoqli rus adibi N.V. Gogolning "Dunyoda hech narsadan qo'rqmaydigan odam ham kulgidan qo'rqadi", deb aytgan so'zlari Shamsi To'rayevich va unga o'xshaganlarga nisbatan aytilgan, aslida. Chunki rus tanqidchisi V.G. Belinskiy aytganidek, "Kulgi ko'p hollarda haqiqatni yolg'ondan farqlashda buyuk vositachi" ekanligini yaxshi bilgan adib Shamsi To'rayevich qiyofasini, xatti-harakatini jiddiy tasvirlash orqali fosh etishga erishgan.

Ne'mat Aminov "Yolg'onchi farishtalar" romaniga kirgan qissalariga "Yelvizak", "Suvarak" deb ramziy nom qo'ygan. Bunday nomlash hajviy asar mazmuniga to'la mos bo'lib, ular asarlarning mohiyatini to'g'ri anglashga imkon beradi. Chunki yelvizak ko'zga ko'rinmaydi, ammo kishini qattiq shamollatadi, og'ir xastaliklarga giriftor etadi. Bashirjon Zaynishev va uning hamtovoqlari, homiylari mamlakat ijtimoiy-ma'naviy hayotini xastalantiruvchi, xavfli yelvizaklardir. Suvarak esa qorong'uda faol harakat qiluvchi hasharot.

Bashirjon Zaynishev va uning hamtovoqlari jamiyatning suvarakmijoz o'g'rilari bo'lib, Said Ahmad aytganidek, "Agar o'g'rilarni aqli, aqlsiz toifalarga bo'lsak, eng aqllisi mayda o'g'ri ekani ma'lum bo'ladi. Arzimagan o'g'irlikni prokuror nazar-pisand qilmasligini, sudya jazosi bir shapaloq "ish" uchun ilmini xor qilmasligini mayda o'g'ri juda ham yaxshi biladi. Umuman olganda, mayda o'g'ri hamma vaqt ko'z ilg'amaydigan, qonunning nazari tushmaydigan jinoyatlarni qiladi". Demak, har ikki nom bilan Ne'mat Aminov kitobxon diqqat-e'tiborini romanning ijtimoiy mohiyatiga yo'naltirgan. Bu – hajviyotning muhim estetik talabi va o'ziga xos qonuniyatidir.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ne'mat Aminov XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotini hajviy roman janri bilan boyitdi. Yozuvchi uchun eng muhimi, tahlil orqali sintezga kelish, hayotning asosiy tamoyillarini jamlash va yuksak badiiylilikda tasvirlash, ijtimoiy taraqqiyot uchun xizmat qiluvchi muammolarni ko'tara bilish va ularni hal etish yo'llarini belgilash, bir so'z bilan aytganda, o'z asarining haybatli qiyofasini uning xarakterli namoyandalarini tasvirlash orqali ko'rsata olishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan qaralsa, Ne'mat Aminov "Yolg'onchi farishtalar" romanida XX asrning 60-80-yillarida mamlakatimiz ma'naviy hayotida chuqur tomir otgan mayda o'g'irlik, tanish-bilishchilik, layoqatsiz shaxslarni rahbar lavozimlarga tayinlash, xalq va davlat mulkini talon-taroj qilish, poraxo'rlik, axloqiy buzuvchilik kabi illatlarni Bashirjon Zaynishev va uning atrofidagi kishilar xatti-harakati orqali turli vaziyat hamda holatlarda haqqoniy aks ettira olgan.

Ma'lumki, adabiy tip, ayniqsa, hajviy tip, faqat ijodkor tasavvurining mahsuligina bo'lib qolmay, balki real hayotiy voqealarning ijodiy qayta ishlanishidan iborat. Hajviy tipda muayyan tarixiy va maishiy sharoitda shakllangan turli ijtimoiy tabaqalarga mansub turli-tuman shaxslar haqidagi ijodkorning kuzatishlari umumlashtiriladi. Adib hajviy tiplarni vujudga keltirgan muhit jiddiy o'rganilishi, kishilarning tasodifiy xususiyatlarini emas, balki ularning mohiyatini ifodalovchi belgilarini ilg'ab olish, umumlashtirish orqali mavhum qiyofalarini emas, aniq individual, jonli obrazlarini shakllantirish birinchi darajali ahamiyatga ega.

Hajviy roman asosiga oddiy kulgi qo'zg'atuvchi mayda-chuyda voqealar emas, balki adib qalamga olgan tarixiy davrga xos yirik ma'naviy-axloqiy muammolar qo'yilishi zarur. Shu mezondan yondashilsa, asardagi voqealar kolliziyali, dramatik konflikti shiddatli, hayotiy va jonli tarzda kechadi. Ne'mat Aminov romanda sobiq tuzumning ayanchli manzarasi, kishilarning o'zaro munosabatlari hajviy yo'nalishda ochib berilgan. Qolaversa, adib yangi o'zbek adabiyotining darg'alari A.Qodiriy va A.Qahhorning hajviyotdagi an'alarini muvaffaqiyatli davom ettirgan. Aytish mumkinki, Bashirjon Zaynisev obrazi adabiyotimizdagi mashhur Kalvak maxzum, Toshpo'lat tajang, Boqijon Baqoyevich tipidagi hajviy timsoldir. "Yolg'onchi farishtalar" romanida yozuvchi hajviy tip yaratish mahoratini namoyon eta olgan.

Xulosa qilib aytganda, Ne'mat Aminov ijodida davr illatlarining ijtimoiy-hajviy ko'rinishi badiiy tipik obrazlar talqinida fosh etildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Kholiqov A. O'zbek adabiyotida hajviyat va satira. –Toshkent: O'zbekiston, 2010. 45-bet.
2. M.Shodiyev. Hajviy adabiyot va uning ijtimoiy roli. –Toshkent: Fan, 2015. 102-bet.
3. M.Anorov. O'zbek hajviy adabiyotining tarixi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018. 36-bet.
4. A.Iskandarov. Satira va hajviyat: nazariy va amaliy masalalar. – Toshkent: Adabiyot, 2017. 89-bet.
5. Abdullayev B. Muqimiy va uning asarlaridagi hajviy uslublar. –Toshkent: O'zbekiston, 2012. 64-bet.
6. Rahimov D. Ne'mat Aminov va o'zbek hajviy romani. –Toshkent: Nashriyot, 2021. 150-bet.
7. Usmonov F. O'zbek adabiyotidagi satira: muammolar va yechimlar. –Toshkent: Fan, 2013. 112-bet.
8. Murodov Z. Alisher Navoiy va hajviy asarlar. –Toshkent: Yangi avlod, 2016. 95-bet.
9. Abdullaeva G. Hajviy adabiyotning bugungi kunda roli. –Toshkent: O'zbekiston, 2019. 75-bet.

#### **COGNITIVE FEATURES OF AVIATION TERMS AVIATSIYA TERMINLARINING KOGNITIV XUSUSIYATLARI**

**Ergashova Ra'no To'rayevna**

O'zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya instituti, , f.f.f.d. (PhD), dotsent

[ergashova-91@mail.ru](mailto:ergashova-91@mail.ru)

ORCID ID: 0000-0003-0542-434X

UDK: 81-115

**Abstract.** This article explores the cognitive features inherent in aviation terminology, focusing on

how these linguistic elements facilitate comprehension, communication, and decision-making among aviation professionals. Drawing upon cognitive linguistics and psycholinguistic frameworks, the study examines how terminology is structured to convey specific meanings, accommodate varying levels of expertise, and mitigate the risks associated with misinterpretation. Key cognitive processes such as categorization, mental imagery, and conceptual metaphor are analyzed to illustrate how pilots, air traffic controllers, and other stakeholders in the aviation industry interpret and utilize specialized language in their operational contexts. Furthermore, the paper discusses implications for training, communication protocols, and human factors considerations in aviation, emphasizing the importance of cognitive linguistics in enhancing safety and efficiency within this complex and dynamic field. Also it provides a brief overview of what the article will cover, highlighting the importance of cognitive features in understanding aviation terminology.

**Key words:** aviation, terminology, terms, cognitive feature, linguistic peculiarities, translation, standardization, simplification, English, pilot, traffic controllers, semantic structure, technical literature.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada aviatsiya terminologiyasining lingvistik elementlari aviatsiya mutaxassislari o'rtasida tushunish, muloqot qilish va qaror qabul qilishni osonlashtirishiga xizmat qiluvchi kognitiv xususiyatlari tahlilga tortilgan. Kognitiv tilshunoslik va psixolingvistik asoslarga tayangan holda, aviatsiya terminlarining o'ziga xos ma'nolarini yetkazish, parvoz tajribalaridan kelib chiqib, noto'g'ri talqin qilish bilan bog'liq xavflarni kamaytirish usullari ilmiy asoslab berilgan. Uchuvchilar, aviadispatcherlar va aviatsiya sanoatidagi boshqa manfaatdor tomonlar o'zlarining operatsion kontekstlarida ixtisoslashtirilgan tilni qanday izohlashlari va ulardan foydalanishlarini ko'rsatish uchun toifalash, aqliy tasvirlar va konseptual metafora kabi asosiy kognitiv jarayonlar tahlil qilingan. Bundan tashqari, aviatsiya yo'nalishi kursantlariga ta'lim berish jarayonida aloqa protokollari va inson omillariga ta'sir ko'rsatadigan, murakkab va dinamik sohada xavfsizlik va samaradorlikni oshirishda kognitiv lingvistikaning o'rni xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** aviatsiya, terminologiya, termin, kognitiv xususiyat, lingvistik o'ziga xoslik, tarjima, standartlashtirish, soddalashtirish, ingliz tili, uchuvchi, aviadispatcher, semantik tuzilma, texnik adabiyotlar.

## I. Introduction.

Over a century ago, Wright's piloted heavier-than-air aircraft lifted off and soared hundreds of yards. The worldwide aviation industry has seen significant changes since then. Commercial aviation's use of huge, luxurious airliners transformed the world into a global village. This presented both advantages and dangers for regular people.

The International Civil Aviation Organization (ICAO) and other agencies prioritize safety in civil aviation worldwide.

Although there have been significant advancements in aviation safety, there are still many goals to be met.

According to aviation experts, three out of every four aircraft accidents are caused by inadequate human performance. Language barriers hinder effective collaboration between aviation specialists from various nations.

Understanding the cognitive features of aviation terms is crucial for comprehending the complexities of aviation operations and safety. This exploration delves into the mental processes involved in interpreting, applying, and executing these terms within the dynamic and high-stakes environment of aviation. By examining how pilots, air traffic controllers, and aviation personnel navigate these cognitive landscapes, we gain insights into the precision, decision-making, and teamwork that define aviation excellence. This article sets the stage for unraveling the intricate interplay between language, cognition, and aviation expertise.

## II. Research Methodology.

In 1986, ICAO approved Resolution A 26-9 on flight safety and human factors. The Air Navigation Commission established goals for all ICAO Contracting States to strive for, based on the Resolution indicated earlier. ICAO's Air Navigation Commission urged States to prioritize human elements in civil aviation. The bulk of aviation accidents have been attributed to human error. The Manual on Implementing Language Proficiency Requirements provides valuable information to consider.

Over 800 people were killed in three accidents: a ground collision, fuel depletion, and a controlled flight into terrain (CFIT) [1]. These tragedies appear to be unrelated from the beginning. Official investigators found that poor English language ability among pilots and controllers contributed to the disaster. The ICAO has issued “International Civil Aviation Vocabulary. Doc 9713”, which includes 5,000 English aviation terminology and their canonical translation [2].

Unfortunately, Uzbek is not one of the working languages of the International Civil Aviation Organization. We can hypothesize that Uzbek aviators face some deprived conditions. Clear and single-equivalent translations of English aviation terms can improve understanding among military and civil aviation experts in Uzbekistan and other countries, leading to a decrease in language-related accidents.

Language barriers lead to numerous mishaps and near misses annually. Nowadays, just one language is used for worldwide communication in high-tech fields, including aviation. The language is English, namely American English. Communication between native English speakers from various countries might lead to misconceptions. Communication challenges arise when non-speakers speak a foreign language or converse with native speakers, even if they are experienced. Edwards devised the SHEL (Software, Hardware, Environment, and Liveware) paradigm for Human Factors in 1972, which was later improved by Hawkins in 1975. The following interpretations are suggested:

The L-H-S system has four components: liveware (person), hardware (machine), software (procedures, symbols), and environment.

Effective communication within the SHEL system is critical for flight safety.

Pilots can communicate via spoken conversation, written language, symbols, displays, or nonverbal cues like as body language.

Effective communication depends on the receiver’s understanding of the message.

Communication effectiveness can be hindered by a variety of factors, including failures during transmission (e.g., unclear messages), difficulties with the medium of transmission, failures during reception (e.g., incorrect interpretation), interference between rational and emotional levels (e.g., arguments), and physical issues with listening or speaking (e.g., wearing of the oxygen mask).

Preventing communication problems is crucial for ensuring flight safety.

### **III. Results and Discussions.**

Language standards must be reinforced worldwide to ensure accurate message interpretation and address frequent communication issues.

To prevent errors, ATC messages have been standardized for content, structure, conversations, terminology, and sequencing for years.

“Simplified English” arose in the early 1980s as a result of the European Airlines Association’s (AEA) and European Aircraft Manufacturers Association’s (ACEMA) desire to create a uniform and basic version of the English language for maintenance paperwork. Between 1981 and 1996, working groups examined the verbs used in Maintenance Manuals, developed a list of recommended verbs, defined Simplified English writing rules, and created a Simplified English Dictionary with a word list of approved terms as well as a Guide for the preparation of aircraft maintenance documentation in the international aerospace maintenance language. These regulations, and the ideas that underpin them, were first used in the second half of the 1980s to document the maintenance of the most recent generation of airplanes and part of their equipment. It is a lengthy and steady process: Simplified English is not set in stone, and its use is still limited today. Obviously, it does not appear in any records published prior to 1985.

Simplified English is intended to make life simpler for maintenance document

writers (technical editors) and users (technicians, mechanics). Simplified English aims to standardize and reduce the number of words with the same meaning, and simplify syntax and grammar for clearer maintenance texts.

For the time being, Simplified English is only applicable to critical maintenance documents such as the Aircraft Maintenance Manual, Overhaul Manuals, Component Maintenance Manuals, and so on. It is not used in engineering, flying, daily or operational documentation, or regulations. Even in these publications, there is a tendency to adhere to the notion of using simpler language.

Standardization of technical terminology as they exist in the Simplified English Dictionary is solely applicable to general technical terms. Specific manufacturer's nomenclature or technical terms (e.g., Droop Signal Unit, Rotor Active Clearance Control) as well as manufacturing processes and defects (e.g., milling, reaming, pitting, tapering, etc.) remain unaffected. When a term has many meanings, generally just one of these meanings is chosen, and alternative words are given to the other senses of the word:

extinguish—to cease fire, to make to stop burning

“*Extinguish*” for a light (indicator lights illuminated/extinguished) is represented as *go off*.

In general, each word can only have one part of speech or function, such as heat (noun) = energy produced by the movement of molecules. The verb to heat is substituted with to raise the temperature.

A *leak* (noun) is a crack or hole that mistakenly allows fluid or light to enter or exit something. The verb “to leak” has been replaced by “is a leak” or “are leaks”.

As a result, there is a tendency to limit the amount of verbs allowed and avoid using irregular verbs wherever feasible, for example.

*Split* is replaced with *divide*.

*Lay* is substituted with *put down*.

As a result of the reduced number of verbs allowed, there are many phrases of the pattern make/become + adjective or noun, e.g. [3: 197]

*Table 1. Simplified verbs in aviation terminology*

VERB	SIMPLIFIED VERSION
To straighten	To make / become straight
To analyze	To make analysis
To check	To make sure, to do a check
To bank	To make a bank
To splice	To make a splice

ICAO publications provide extensive instructions and phraseologies to guarantee clear communication between pilots and air traffic controllers during normal and emergency situations.

Document 4444 ICAO “Procedures for Air Navigation Services” outlines common air navigation sample formats. The majority of phraseologies display entire messages without aircraft call signals. The phraseologies are organized based on the kind of air traffic service. The document includes words for use by pilots, ATS, and ground personnel [4:12-3]. Here are some examples of ICAO-approved radio exchanges to provide clear messaging and minimize misunderstanding for users speaking languages other than their native language [4: 12-3]. Although the ICAO phraseology covers normal activities and expected events, it is difficult to predict all conceivable scenarios during communication between native and non-native speakers.

Without a certain, any attempt to generate a restricted number of sentences in an artificially confined language would fail. A thorough awareness of linguistic subtleties, together with some language discipline, can significantly minimize the number of

language-related aviation mishaps. Pilots and ATC controllers require both linguistic and cognitive skills to effectively communicate in many scenarios, including routines, non-routines, and emergencies [1: 1-3].

The International Civil Aviation Organization provides recommendations on the use of simple language, slang, jargon, and idioms.

The regulation texts emphasize the significance of English as a language for international aviation communication.

The ICAO requires radiotelephony conversations to be performed in either the language of the station on the ground or English. English must also be provided when pilots are unable to utilize the station's language [1: 2-3].

Uzbekistan, as the International Civil Aviation Organization's Contracting State (in 1992, on 12<sup>th</sup> November), is making significant efforts to meet higher English language competency criteria. Despite efforts, our country continues to face significant challenges in this sector. One factor is Uzbekistan's lack of English proficiency.

The Uzbek government and Ministry of Transportation need to provide cost-effective training and refresher programs for local pilots and air traffic controllers.

Given that Russian is the language of aviation, science, and engineering, it's understandable that many aviation specialists have previously communicated in Russian and find the switch to Uzbek difficult. This highlights the current state of Uzbek terminology. Aviation enthusiasts face several challenges when translating words. This highlights the current state of contemporary Uzbek terminology. It would be appropriate to translate international regulatory papers and standards into Uzbek. However, aviation experts face several challenges when translating words. Many of these issues stem from aviation professionals' hesitation to convert to Uzbek. They are acquainted using English-Russian dictionaries created during the Soviet era or in the Russian Federation. Many aviators are natural Uzbek speakers and require Uzbek reference materials to comprehend English written texts and speaking. Despite the necessity for English-Uzbek-English dictionaries, no thorough study has been conducted on aviation terminology and its translation from English to Uzbek and vice versa. In 1978, the sole printed reference was a Russian-Uzbek aviation dictionary [5]. However, with just 1,000 entries, it was unable to compete with better-developed dictionaries produced in Russia (6). We decided to create an electronic mobile educational dictionary of aviation terminology for cadets at the Military Aviation Institute of the Republic of Uzbekistan and other higher education institutions in our state. This dictionary will include 10,000 terminology from civil and military aviation, with definitions and translations based on new Uzbek orthography norms. Our efforts aim to raise worldwide aviation safety standards. Yes, there are still many difficulties that need to be resolved. For example, we want to limit the amount of synonyms in the dictionary in future editions. Despite several shortcomings, this dictionary effectively translates English aviation terminology into Uzbek.

#### **IV. Conclusion and recommendations.**

Aviation is a highly multidisciplinary field at the forefront of technology. Although aviation offers several benefits and conveniences, it may also pose risks.

Human error is a significant risk in the aviation industry. Several factors, including physical state, might jeopardize aircraft safety. According to aviation specialists, inadequate English language ability among pilots and controllers contributes significantly to aircraft mishaps. Understanding English instructions by non-native speakers can improve international aviation safety. Our doctoral thesis focuses on translating aviation words from English to Uzbek. This research analyzes aviation terms and creates a 10,000-word English-Uzbek dictionary to help Uzbek aviators better understand their English-

speaking colleagues. These texts provide a complete investigation of aviation terminology, both theoretically and practically.

#### REFERENCE:

1. Manual on the Implementation of ICAO Language Proficiency Requirements. Doc 9835, AN/453. International Civil Aviation Organization. – 1st ed. – 2004.
2. International Civil Aviation Vocabulary. Doc 9713. International Civil Aviation Organization. – 2nd ed. – 2001.
3. Shawcross Ph. English for Aircraft. – Belin, 1992. – P. 255.
4. Procedures for Air Navigation Services. Air Traffic Management. Doc 4444, ATM/501. International Civil Aviation Organization. – 14th ed. – 2001.
5. Shvets F.P., Sharifboev I.M. The Russian-Uzbek language of aviation dictionary. - Tashkent: Ukituvchi, 1978. – P.112.
6. Alimov V.V. The theory of translation. Translation in the field of business communication / V.V. Alimov. – M. : KomKniga, 2006. – 160 p.
7. Asmukovych I.V. Formation and development of English aviation terminology // Scientific herald of Lesya Ukrainka Eastern European National University. – 2011. – №6. – P. 112-117.
8. Karaban V.I. Translation of English scientific and technical literature / V.I. Karaban. – Vinnytsya : Nova Knyha, 2004. – 576 p.
9. Komissarov V.N. The theory of translation (linguistic aspects) : Textbook / V.N. Komissarov. – M. : Vysh. shk., 1990. – 253 p.
10. Bowker L. Lexicography, Terminology, and Translation / L. Bowker. – Ottawa : the University of Ottawa Press, 2006. – 96 p.
11. Aircraft weight and balance handbook. US Department of transportation // Federal aviation administration. Flight standards service 2016. – P.6.

#### FITRAT PUBLITSISTIKASIDA IJTIMOYIY-ESTETIK TALQIN

**T.Kenjayev,**

QarDU filologiya fakulteti o'quv ishlari  
bo'yicha dekan o'rinbosari, f.f.f.d (PhD)

[tolqin.kenjayev@mail.ru](mailto:tolqin.kenjayev@mail.ru)

ORCID 0009-0007-8465-1562

UDK 894.375.01(045)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek adabiyotshunosligida Fitratning publitsistik asarlarining ijtimoiy-falsafiy, badiiy-psixologik talqini haqida fikr yuritilgan. Fitratning publitsistik asarlari o'zining ijtimoiy salmoqqa egaligi bilan ajralib turadi. Mustaqillik yillarida uning "Munozara", "Hind sayyohi", "Oila", "Rahbari najot" va matbuotda e'lon qilingan publitsistik maqolalari jadidchilik harakatining mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashga, ijtimoiy davr manzarasini to'laqonli tasavvur qilishga zamin hozirlagan edi. Mazkur asarlarda adibning yozuvchilik, shoirlilik, dramaturglik faoliyatiga xos adabiy uslub xossalari zohir bo'lgan bo'lsa, publitsistik maqolalari orqali jamiyatning ma'rifatparvar kishisi sifatida tanilgan. Olimning mana shunday serqirra faoliyati har jihatdan millat ma'naviyatini yuksaltirishda tayanch maqomida bo'lib kelgan. Mustaqillik davrida Fitratning publitsistik adabiy merosiga munosabat tubdan o'zgardi. Qator adabiyotshunoslar tomonidan ushbu merosni qayta tiklash va nashr etish ishlari amalga oshirildi. Mazkur maqolada keltirilgan fikr-mulohazalar Fitrat publitsistikasini o'rganishda ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar.** publitsistika, millatparvarlik, adabiyotshunoslik, ijtimoiy-estetik talqin, ilmiylik, badiiylik.

**Annotation.** This article discusses the social-philosophical, artistic-psychological interpretation of Fitrat's journalistic works in Uzbek literary studies. Fitrat's journalistic works are distinguished by their social importance. In the years of independence, his "Discussion", "Indian Tourist", "Family", "Rahbari Najot" and journalistic articles published in the press prepared the ground for a deeper understanding of the essence of the Jadidist movement and a full picture of the social era. The opinions presented in this article serve as a scientific source in the study of Fitrat journalism.

**Keywords.** journalism, nationalism, literary studies, socio-aesthetic interpretation, science, artistry.

**Kirish.** Fitratning publitsistik asarlari o‘zining ijtimoiy salmoqqa egaligi bilan ajralib turadi. Mustaqillik yillarida uning “Munozara”, “Hind sayyohi”, “Oila”, “Rahbari najot” va matbuotda e‘lon qilingan publitsistik maqolalari jadidchilik harakatining mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashga, ijtimoiy davr manzarasini to‘laonli tasavvur qilishga zamin hozirlagan edi. “Munozara”, “Hind sayyohi”, “Oila” kabi publitsistik asarlarida Fitratning adabiy-estetik dunyoqarashi turli rakursda o‘z ifodasini topgan. Publitsistika adib adabiy merosining bir qismi o‘laroq o‘sha davr adabiy muhitining asl bahosini berishda, taloto‘plarni, ijtimoiy sharoitni haqqoniy yoritishga asos edi. Qolaversa, uning publitsistik asarlari va maqolalariga tayanib badiiy va ilmiy tadqiqotlarini o‘rganish an‘anasi shakllangan edi. Fitratning ijtimoiy faoliyati, jadidchilik harakati, adabiy-estetik, siyosiy, iqtisodiy, ma‘rifiy qarashlari va tanqidiy tafakkuri ilk bor uning publitsistikasida o‘z tasdig‘ini topdi. Jadid adabiyoti bilimdoni B. Qosimov bu haqda shunday yozadi: “Fitrat ijodiy merosining muhim qismini uning nasriy asarlari va publitsistikasi tashkil qiladi. U o‘z hayoti davomida yuzlab jangovar maqolalar, o‘nlab ijtimoiy keskir risolalar, hikoyalar yaratdi. *Birgina Turkiston matbuoti emas, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiya, Kavkaz, Volgabo‘ii matbuotida faol ishtirok etdi. Uning ilk risolalari (“Munozara”, “Bayonoti sayyohi hindi”, “Oila”, “Rahbari najot” kabi) fors tilida yozilgan. Bularning to‘rttalasi ham bugungi kunda o‘zbekchalashtirilib, nashr qilingan va ko‘tarib chiqqan mavzu-masalasiga ko‘ra deyarli har biri voqea sifatida qabul qilingan edi*”[1.382]. Haqiqatdan ham, Fitratning publitsistik ishlari jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olingan. Buni “Munozara”, “Hind sayyohi” kabi asarlarining bir necha tillarga tarjima qilinganidan bilsak bo‘ladi. Mustaqillik davrida Fitratning mana shunday boy publitsistik asarlarini B. Qosimov H. Boltaboyev, B. Nazarov, N. Dovurboyeva singari olimlar tomonidan turli maqsadda tadqiq qilindi. Ayniqsa, Fitratning publitsistik merosiga xos dramatik pafosi epik tasvir, falsafiy mushohada, adabiy-tanqidiy ruh, adabiyotshunoslarning e‘tiborini tortish bilan birga, muallifning publitsistik mahoratini ko‘rsatadi. Avvalo, birinchidan, olimning publitsistikasiga oid asarlar tadqiqida uning jadidchilik, ma‘rifatparvarlik faoliyati istiqloq davri adabiyotshunoslari tomonidan o‘rganilgan. Bunda Fitratning o‘sha davrdayoq publitsistik asarlarga qiziqishi katta bo‘lganligi faqat Turkiston hayotida emas, xorij o‘lkalarida ham mashhur bo‘lganligi, uning jadidcha nuqtayi nazari milliy ozodlikka, hurlikka yo‘g‘rilgan dunyoqarashi, asosan, publitsistik asarlarida ochiqroq ko‘rinishi ta‘kidlanadi. “Masalan, Fitratning ilk asari dramatik publitsistikaga moyil “Munozara” zamonining zayli bilan tarixiy taraqqiyotning ikki pog‘onasida turib qolgan, din va dunyo, jamiyat va ma‘rifat haqida -ikki xil ko‘z qarashga ega bo‘lgan ikki kishining – “jadid” va “qadim”ning bahsi asosiga qurilgan edi.

Muallif xurofotni, bid‘atni qoraladi, unga chinakam e‘tiqodni qarshi qo‘ydi. Aqlu donishni, uning samarasi taraqqiyot va farovonlikni himoya qildi. “O‘z millatining saodat va osoyishi uchun” fidoyilik qilgan turk, eron hurriyatchilari Anvarbek, Niyoziybek, Sattorxon, Boqirxonlarni, “Rusiyadagi haqiqiy insonlar”dan “dohiy va faylasuf To‘lsto‘y”ni, uning “saodati bashar” yo‘lidagi xizmatlarini ibrat qilib ko‘rsatdi”[1.383].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada Fitratning ijtimoiy faoliyati, jadidchilik harakati, adabiy-estetik, siyosiy, iqtisodiy, ma‘rifiy qarashlari millat tafakkurining shakllanishidagi ahamiyatini o‘rganishda sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, kontent analiz, qiyosiy tahlil, dialektik usullaridan foydalanildi.

**Natija va muhokama.** B. Qosimov yozganidek, Fitratning ilk qarashlari uning publitsistik ruhda bitilgan nasriy asarida o‘z ifodasini topgan edi. Ya‘ni, mudarris va farangi kabi tipik obrazlar timsolida ma‘rifatparvarlik g‘oyalari talqin qilinganini ko‘ramiz. Aytish lozimki, Fitratning ayrim boshqa asarlari singari “Munozara” ham mustaqillik davriga kelib asl holicha matbuotda chop ettirildi. Aytaylik, “Munozara”



asarining forsiy tildagi nusxasi ilk bor 1911-yilda (Behbudiyning so‘ng so‘zi bilan o‘zbek tilida) Turkiston viloyatining gazetida Hoji Muyin tomonidan nashr qildirilgan. Tuzum senzurasiga uchragan asarning to‘liq matni bizgacha to‘g‘ridan to‘g‘ri yetib kelmagani xususida B. Qosimov, H. Boltaboyev kabi olimlar o‘z mulohazalarini bildirganlar. Masalan, H. Boltaboyev o‘zining “Fitrat va jadid adabiyoti” kitobida “Munozara” asarining tug‘ilishi haqida atroflicha fikr yuritadi. Fitrat ushbu asarni nashr qildirish uchun o‘qish bilan birga Istanbul oshxonalarining birida ishlab pul to‘plagani, Turkistonga yetib kelish jarayonida yo‘lda rus senzurachilari qo‘lida asarning o‘zgartirilgani, shunday bo‘lsa-da, Turkistonda teatr sahnasida ijro qilinganini ta‘kidlab shunday yozadi: “Bu tarjima sahifasiga mo‘ljallangan variant bo‘lganligi uchun, tez orada Toshkent va Samarqand teatrlarida qo‘yilgan. Tarjima, avvalo, tomoshabinlar saviyasi va sahna imkoniyatlarini nazarda tutib bajarilgani uchun, asarning muhim o‘rinlari tushib qolgan, uning til va uslubi ham tomosha asarlarning “tili”ga qarab tortilgan. Qolaversa, qissa Amir va Rus hokimiyati tomonidan ta‘qib qilinish davrida sahnaga chiqqani uchun ham, undagi siyosiy sharhlar tushib qolgan, ba‘zi qahramonlar va tilga olingan tarixiy shaxslarning nomlari ham o‘zgartirilgan”.

1997-yilda “Sharq yulduzi” jurnalida forschadan H. Boltaboyev tarjimasida qayta chop ettirilgan “Munozara” asari Istiqlol davrida, bizningcha, muallifning milliy dardi, o‘y-maqсадlarini ko‘rsatish barobarida, jadidchilik harakatining mohiyatida qanday ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy va ma‘naviy yuksalish borligini ommaviy anglatishga qaratilgan edi. Qolaversa, Buxorodagi ijtimoiy vaziyat, ma‘rifatsizlikni ko‘rsatish orqali mustamlaka siyosatidan jabr chekib kelayotgan o‘lkalarni uyg‘otish, milliy ozodlik g‘oyasini singdirish kabi ezgu niyat ko‘zlangan edi. B. Qosimovning mana bu fikrlari ham yuqoridagi qarashlarni quvvatlaydi: “Muallif nuqtayi nazari farangi tilidan ifodalangan bo‘lib, u faqat Buxoroning emas, butun Islom dunyosining tanazzul va bo‘hroni sabablarini tahlil qiladi. Mudarris qiyofasida “taraqqiyot va madaniyat eshiklarini Muhammad ummatlarining yuziga yopgan”, “ilmi nizom” tahsilini harom deb fatvo bergan, qudratli va uyushgan ummatni “shia, sunniy, zaydiy, vahobiy nomi bilan firqa-firqa qilib, bir-birlariga dushman qilib qo‘ygan”, bugun esa uni jadid va qadimga bo‘lib, o‘t bilan suvga aylantirgan, “Qur‘oni Karim amrlarini shahvatparast havoyi nafsi uchun barbod etgan” millat xoinlari” timsolini gavdalantirishga urinadi”.

Jadidshunos B. Qosimov va Fitratshunos H. Boltaboyev talqinida mazkur asarning mana shunday mushtarak jihatlariga e‘tibor qaratiladi. Faqat B. Qosimov publitsistik drama namunasi deb talqin qilgan asarni, H. Boltaboyev zamonaviy qissa sifatida tahlilga tortadi. Eng muhimi, ikki olim qarashlari negizida ham xolislik, tarixiylik prinsipi ustuvor ekanligini e‘tirof etish lozim. Agar fikrimizni H. Boltaboyevning “Maslakdoshlar” maqolasiga tayanib rivojlantirsak, olimning “Munozara”, “Hind sayyohi bayonoti”larining ham Gasprinskiy asari bilan mushtarak jihatlarini talqin etilganiga guvoh bo‘lamiz. I. Gasprinskiy bilan Fitrat ijodidagi g‘oyaviy yaqinlik avvalo ularning millatparvarligida ko‘rinadi. Shuningdek, ular o‘z asarlarini xorijiy tilda yozganligi, erksevarlik va allomalarning ijtimoiy hayotda tutashgan nuqtalari izohlanarkan, quyidagicha yozadi: “Dorur-rohat...” bilan “Hind sayyohi bayonoti”ni bog‘lab turgan rishtalarni kuzatganda, har ikki asar ham xorijlik sayohatchining o‘tkir nigohi bilan tasvirlanganini, bu taftishchi sayyohlarning Shayx jalol va Qozi (“Doru-rohat”) da hamda Yigit va Tabib (“Hind sayyohi bayonoti”)da uchrashuvida juda ko‘p ma‘naviy muammolar tahlil etilganini eslash mumkin. G‘aspirali romani bilan “Hind sayyohi...”gina emas, Istanbulda nashr qilingan “Munozara” jiddiy bog‘lanadi. Ularni bog‘lab turgan rishtalarni faqat jadidchilik g‘oyalarigina aniqroq tasavvur qilishga yordam beradi”. Bunday qiyosdan maqsad jadidchilik harakatining rahnamolaridan bo‘lgan Gasprinskiy va Fitratning dunyoqarashi, estetik ideali tutashgan nuqtalarni aniqlash, ularning maslagidagi mushtarak maqsadni ko‘rsatishdir. Tilda, dilda, amalda

*birlik g'oyasini ilgari surgan Gasprinskiy ijodiyning faoliyati nafaqat Fitrat, balki jadidchilik harakatining dasturulamali sifatida o'zining shonli izini qoldirgan edi.* Istiqlol davrida Fitratning publitsistik asarlarini bunday metodda tadqiq etish uning umumijodiga xos konsepsiyani beligalashda qo'l keladi. Ikkinchidan, Fitratning H. Boltaboyev tomonidan mustaqillik davrida tadqiq etilgan "Bedil bir majlisda" asaridir. Bunda olimning falsafiy publitsistik mushohadalari, Bedil hayoti va ijodi, uning badiiy merosi asosida bayon qilindi. Asarning janr xususiyati, kompozitsion qurilishi, ifoda shakli o'ziga xos bo'lib, Fitratning adabiy-estetik qarashlari, jadidcha nuqtayi nazari ilmiy-publitsistik, adabiy-badiiy uslubda tasvirlangan. Asar 1923-yilda Moskvada nashr qilingan. Adabiyotshunoslar tomonidan bu asar janri haqida turli fikrlar bildirilgan. Dastlab falsafiy ocherk, yetmishinchi yillarda nasriy qissa, mustaqillik yillarida badiha, esse janri sifatida e'tirof qilingan. H. Boltaboyev o'zining "XX asr boshlari o'zbek adabiyotshunosligida Fitratning ilmiy merosi" tadqiqotida uni ilmiy asar sifatida talqin qiladi. Bunda adabiyotshunos e'tiborni asarda to'qima obrazlarga emas, Bedilning falsafiy mushohadalariga qaratadi. Ya'ni Fitratning Bedil va uning falsafiy maktabi xususidagi qarashlarini atroflicha o'rganadi: "Bedilxonlik majlisida ulug' shoirning "Nukot" asaridan bir parcha o'qilgandan so'ng Fitrat o'z qahramoni Qutlug' tilidan shunday tushuncha beradi: "Bedil Sharqning eng buyuk shoiri, ulug' faylasufidir. Bedil ko'p muhim, teran masalalarni tushunib, tushunlarini yeshmak istagan mutafakkir bir adibdir. Juda ingichka munosabatlar topib, majoslar, istioralar, jinoslar (turdosh so'z – H.B) yasaydir. Ingichka, og'ir, bir oz-da qorong'u so'ylaydir. Shunisi ham borki, Bedilning majoz, istiora kabi (so'z) o'yunlari ko'b shoirlarimizda ko'ruiganidek, jumlani bezatmak, so'zga adabiy tus bermak kabi xizmatlari bilan qolmaydir. Bular Bedilning fikr bildirishlariga yordam qiladir. U yigirma so'z bilan ayturg'an fikr majoz, istiora yordami bilan o'n so'zda aytib bitiradir". H. Boltaboyev o'z tadqiqotida ushbu asarda Bedilning badiiy konsepsiyasi serqirraligiga, uning asarlarini har kim o'zicha tushunishi mumkunligiga, ammo shoirni to'g'ri anglash murakkabiligiga ishora qiladi: "Mening anglaganim shul: Bedil taqlidga, ya'ni insonlarning har masalada o'zlaridan yuqoriroqqa ergashib borganlariga qarshidur... Aytadirkim: insonlarning tabiatlarida yerlashib qolgan bir-biriga ergashmak haqiqat yo'lining qaroqchisidir. Rasm-odatlariga bo'ysunmoq esa, tilaklarning to'sig'idir". Bundan tashqari, Fitrat o'z asarida Bedilning, inson bo'lgani kabi ko'rinmog'i yoki ko'ringani singari bo'lmog'i yoki borlig'ini bo'lganidek ko'rsatmog'i kerak, degan fikrni ilgari surishini ta'kidlaydi. Fitrat, Bedil asarlarini tahlil qilishda, uni tushuntirishda taqlid, tasavvuf, din kabilarni hisobga olish lozimligini ko'rsatadi. H. Boltaboyev Fitratning ushbu asarini ilmiy nuqtayi nazardan atroflicha o'rgangan. Bunda Bedil asarlarining mazmun-mohiyati, uni tushunish va tushuntirish yo'llari, Fitratning dunyoqarashi, uning estetik nigohi ilmiy struktural metod asosida talqin qilinadi. Uchinchidan, Mustaqillik davrida Fitratning publitsistik maqolalaridan uning badiiy asarlarini talqin qilishda foydalanish usuli ko'zga tashlandi. Fitratning publitsistik merosi uning badiiy va ilmiy asarlarini tadqiq etish, (muallifning jadidcha nuqtayi nazari, adabiy-estetik qarashlarini belgilashda hamma davrlarda muallifning ijodiy laboratoriyasi sifatida) tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lgan. Chunki publitsistik uslub badiiy va ilmiy uslubga qaraganda nisbatan erkin, ochiqligi hamda xalqchilligi bilan farq qiladi. Shu boisdan tadqiqotchilar Fitratning publitsistik asarlaridan uning ijodiy konsepsiyasini asoslashda, badiiy asarlaridagi qahramonlarning dunyoqarashlarini yoritishda, olimning tadqiqotchilik faoliyatiga xos pozitsiyasini o'zlashtirishda foydalanishgan. Ayniqsa, jadidchilik harakatining ramziy janriga aylangan dramalarda personajlar diologlarida Fitrat o'z qahramonlari tilidan so'zlagan. Shuningdek, ushbu asarlarni qiyosiy aspektida o'rganish metodi N. Davurboyeva, I. G'aniyev kabi adabiyotshunoslar tomonidan ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgani ta'kidlanadi: "Agar uning 1917-yilda yozgan qariyb barcha publitsistik maqolalari mamlakatning ijtimoiy va iqsodiy masalalarga bag'ishlangan

*bo'lsa, u 1918-yilning oxiri 1919-yilning boshlarida tashqi siyosatga ko'proq e'tiborni qaratdi. Uning dunyoqarashidagi ana shu o'zgarishlar asardagi Karimbaxshxon va Sarvarxon nutqida ham o'z aksini topgan". Anglashiladiki, Fitratning ijtimoiy faoliyati, avvalo, uning publitsistik asarlari va maqolalarida o'z ifodasini topgan. Turkiston va dunyodagi siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlarga o'zining bunday munosabatini publitsistik maqolalarida aks ettirgan. Olimning adabiy-estetik qarashlari mana shunday publitsistik meros taftida pishib etilgan. Keyinchalik badiiy asarlari doirasida o'zining ramziy ifodasini topgan. Ayniqsa dramalarida bunday adabiy zanjir yaqqol ko'rinadi. Bu borada ingliz hukumatining Hindistonda olib borgan siyosati, Sharq va G'arb masalalari, mustamlakachilikning sabablari, musulmonlarga bo'lgan munosabat olim tomonidan har tomonlama yoritiladi. Tadqiqotchi "Sharqda inglizlar" maqolasida shunday yozadi "Ovropa jahongirlikining armoni Sharqni, ayniqsa, musulmon dunyosini bo'lishib olmoqdir. Sharq uzra to'plashg'on Ovropa jahongirlikni yog'li bir tilim et ustiga yig'ilashg'on (yig'ilishgan N-D)...larga o'xshatmoq uzoq tushmasa kerak. Ularning bir-biriga qarashlari, urishlari, kelishuv ham ko'z yumishlari e'tiborlisi Sharq uchundir, barchasi musulmon dunyosi uchundir. Buni bizga shul besh yillik umumiy urishning natijasi ko'p yaxshi anglatadi. Ovropa jahongirlari Ingliz va Olmon siyosatiga qarab urishdilar, o'zaro ko'p xarobaliklar, ko'p fojialarga sabab bo'ldilar, biroq sulh zamonida bu ishlarning butun og'irligi Sharq ustiga yuklandi". Olima N. Dovurboyeva Fitratning yuqoridagi publitsistik qarashlarini o'rganadi va uning ramziy ifodasini badiiy asarlaridan izlaydi. Fitratning "Chin sevish" va "Hind ihtilolchilari" pyesalaridagi obrazlar dialoglarini tahlilga tortarkan, quyidagicha yozadi: "Maqoladagi fikrlar "Chin sevish" asaridagi ushbu nutqqa zamin hazirlaydi: "Karimbaxsh. ... Ovrupada o'qimoq ovrupalilarni insofli, adolatli deb maqtamoq uchun emas, ulardan o'zimizni saqlamoq, tish-tirnoqli bo'lish uchun kerakdir. Bunda shuni bilmoq kerakkim, insofsizlik bularda emas, Ovrupadadir. Ovrupada o'rganib kelganimiz bilimlarni kishilik dunyosining yuksalishi va tinchlig'i yo'linda ishlatish qulaydir. Butun Ovrupa musulmonning yovidir, yovlarning eng buyugi, eng qo'rqinchlisi inglizdir. Buni bilmak har bir musulmon uchun kerakdir". Olim Fitratning ushbu maqolasidagi publitsistik qarashlarini drama personajlari nutqi bilan muqoyasa qilarkan, inglizlarning Sharqni egallashdan muddaosi Hind o'lkasi timsolida Turkiston ekanligi ko'rsatiladi. G'arb odati, dini bilan Sharq an'analari, urf-odatlarini farq qilishi, xususan, ishq borasida ikki mintaqaning qarashi ikki xil ekani milliy ozodlik talablariga muvofiq qiyosiy-tipologik metod asosida ochilgani ta'kidlanadi. "Sharq siyosati bilan yozuvchi Sharq xalqlarining o'tmishida qanday bir yuksaklikda turgani-yu, endilikda qanday chohlarga itqitib yuborilganini ko'rsatib berdi. Muallif yonishlarining barchasi ana shu chohdan chiqq olmayotgan xalqlarning yana yuksaluviga intilishi uchun edi. Xuddi shu fikr "Chin sevish" dramasida yanada oydinlashtirilgan. Asar qahramoni Nuriddin ishq borasida Sharq yuksakligi va G'arb tubanligini shunday anglatadi: "Chin sevish" va haqiqiy ishqning tub yeri Sharqdur. Majnunlar, farhodlar kabi ishq payg'ambarlari Sharqda yetishdilar. Bugun Ovrupada ishq otini olgan hollar hayvonliq havaslaridan boshqa bir narsa emasdir. Ovrupada ishq deb tikilgan u hayvonlar havasi kishining kamoliga sabab bo'lmas. Ko'rinadiki, Fitratning publitsistik maqolalari uning badiiy asarlarini tadqiq etishda umumijodiga xos poetik konsepsiyani anglashda, badiiy matn qatidagi ramziy ma'nolarni yoritishda poetik ochqich vazifani bajradi. Bu uslub Fitratning publitsistik va badiiy asarlariaro mushtarak jihatlarining tipologik xususiyatlarini umumlashtirib o'rganishda imkon beradi. To'rtinchidan, tadqiqotda Fitratning publitsistik asar va maqolalaridagi fikrlarga suyanib, uning adabiy-tanqidiy qarashlarini, estetik idealini, sho'ro jamiyatining unga bo'lgan munosabatini atroflicha o'rganish metodi nazarda tutiladi. Bunda olimning publitsistik izlanishlari ichida "Yopishmagan gajaklar" maqolasi markaziy nuqtada turadi. Istiqolol davri o'zbek adabiyotshunosligida B. Qosimov, H. Boltaboyev, B. Nazarov kabi olimlar mazkur*

maqolani turli jihatdan tahlilga tortadilar. Fitratning adabiy merosini kompleks o'rganish metodologiyasini adabiyotshunoslikka tatbiq etishga sharoit yaratadi. Shu boisdan mustaqillik davrida adabiyotshunoslar tomonidan Fitratning badiiy-ilmiy merosini tadqiq etishda avtobiografik-struktural, psixologik metod yutuqlariga tayaniladi. Masalan, U. Jo'raqulov Fitratning estetik idealini belgilashda 1909-yil Istambulda chop ettirilgan "Munozara" asaridagi qarashlarga suyanadi. Jadidshunos B. Qosimov tadqiqotlarida Fitratning "Yopishmagan gajaklar" asari atrofida kechgan munozaralarda uning ijodiy faoliyati qoralanib, taqlid qilish shamoli esa boshlagani asoslanadi. B. Nazarov boshchiligida yozilgan "O'zbek adabiyoti tanqidi tarixi" kitobida ham ushbu maqola tanqidiy nuqtayi nazardan baholanadi. Avvalo, mumtoz adabiyotga doir tadqiqotlari uchun Fitratning panturkist, panislomist, millatchi sifatida ayblanishi tarixiy-madaniy merosni qayta tiklamay turib millatni uyg'otish, ma'rifatli qilish mumkin emasligini anglashi natijasida ko'plab ilmiy risolalar yaratilgani ta'kidlanadi. Tabiiyki, bunday ilmiy faoliyat sho'ro tuzumining qarashlariga zid edi. Shu sabab unga J. Boybo'latov singari kimsalar tomonidan tosh otiladi. Ayni jihatlarni munaqqidlar talqin qilar ekan, quyidagicha yozadi: "Gap shundaki, J. Boybo'latov Fitratning o'tmish adabiyot namunalarini bittama-bitta yig'ib, tozalab, saralab, izohlab o'quvchiga taqdim etishdek og'ir va sharaflı ishını dushmanlik, zararkunandalik hisoblagan va buni adibning butun faoliyati misolida isbot qilishga ko'ringan edi. Fitrat bolalar orasida "Ko'zim ko'rmaydir" o'yinchi bo'lganligi haqida gapirib, ko'zini qattiq bog'lab olgan bolaning atrofdagilarga hujum qilishini sharaflı ishını Boybo'latovga qiyoslaydi. "Maqolani yozganda, sizning qalamingiz ham shul ko'zi ko'rmas bolaning tayog'ig'a o'xshag'an: aylang'an, aylang'an, kimga to'g'ri kelsa, shunga tekkan, orada mening kitobim unutilgan, juda oz o'rin olgan.

Tanqidchi ilmiy etika doirasidan chiqmaslikka harakat qiladi va shuning uchun Boybo'latov maqolasiga javob, o'zi aytgandek, dardlashuv shaklida yozadi, avvalo, unga minnatdorchilik bildiradi. Shu bilan birga "siz adabiyot tarixining odami emassiz, maqolangiz esa tasodifiy bir hodisadir" deydi. Bu esa Fitratning yuksak didga ega, o'ta madaniyatli munaqqid ekanligini ko'rsatadi. Ochiq xat o'sha davr tanqidchiligi uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi. Zero, unda Fitrat faqat Boybo'latovga emas, o'sha davrda taraqqiy etayotgan vulgar sotsiologizmga ham zarba bergan ed". Ko'rinadiki, Fitratning ushbu publitsistik maqolasi uning adabiy-tanqidiy qarashlarini ham o'zida mujassam qilgan. Bunday qarashlarda dardlashish, murosasozlik, so'zni topib aytish, tanqid etikasi yetakchiligi, olim tadqiqotlariga doir bu kabi noxolis talqinlarga e'tibor bermasdan, o'z ilmiy pozitsiyasiga sodiq qolganligi ta'kidlangan. Mazkur maqola Fitrat bilan siyosiy muhit o'rtasidagi o'zaro konfliktning ibtidosi tarzida tushunilishi mustaqillik davri adabiyotshunoslari tomonidan tadqiq etilgan.

**Xulosa.** Istiqlo, avvalo, Fitratning publitsistik asarlari va maqolalarini qayta ko'zdan kechirish imkonini taqdim etdi. Shunga muvofiq mustaqillik davrida olimning boshqa badiiy va ilmiy asarlari qatori uning publitsistik merosini asl matnga tayanib tanqidiy nuqtayi nazardan o'rganish ishlari jadallashdi. Bir jild ostida to'planib, o'quvchilarga havola qilindi. Adabiyotshunoslar tomonidan Fitratning publitsistik asarlari va maqolalari o'zining ijtimoiy salomoqqa egaligi bilan XX asr boshlari adabiy muhitida katta o'rin tutganligi qayd etilgan. Ayniqsa, uning "Munozara", "Hind sayyohi" asarli va "Yopishmagan gajaklar" maqolasi jadidchilik harakatining estetik konsepsiyasini belgilashda asosiy manba ekanligi e'tirof etiladi. Uning publitsistik merosi faqat Buxoroda emas, qo'shni o'lkalarda ham keng tarqalganligi qiyosiy-tipologik, biografik-psixologik metod imkoniyatlari doirasida asoslanadi. Fitratning "Bedil bir majlisda", "Yopishmagan gajaklar" tadqiqotlarida falsafiy-publitsistik, adabiy-tanqidiy ruh ustuvorlik qilishi ayon bo'ladi. O'z navbatida Fitratning tadqiqotchilik, tanqidchilik faoliyatini tadqiq etishda mazkur manbalar metodologik asos vazifasini bajarishi B. Qosimov, B. Nazarov, H. Boltaboyev, U. Jo'raqulov kabi olimlarning nazariy qarashlarida oydinlashdi. Bunga

ko'ra, Fitratning badiiy publitsistikasidagi ijtimoiy-estetik qarashlari negizida millatparvarlik, ma'rifatparvarlik, milliy ozodlik, milliy uyg'onish g'oyalari aks etishi yoritilgan. Olimning badiiy-publitsistik asarlarida dramatik pafos, epik tasvir, falsafiy mushohada yetakchi ekanligiga e'tibor qaratilgan bo'lsa, uning publitsistik maqolalarida yagona ijtimoiy-estetik qarash ustuvor ekanligi kuzatilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Қосимов Б ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. –Т.: Маънавият, 2004. – Б.382.
2. Қосимов Б ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. –Т.: Маънавият, 2004. – Б.383.
3. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидчилик. – Т.: А.Навоий номидаги ЎЗ.миллий кутубхонаси, 2005. – Б.122.
4. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. (Нашрга тайёрловчи: Болтабоев Ҳ.) –Т.: Маънавият, 2000-2010.Б.302.
5. Назаров Б ва бошқалар. Ўзбек адабий танқиди тарихи.-Т.:Tafakkur qanoti, 2012.Б.72
6. Фитрат А. Ҳинд сайёҳи (Тожиқ тилидан Ҳ.Қудратуллаев таржимаси) //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1989. – 4 август.
7. Фитрат А. Меърож (Нашрга тайёрловчи: Ш.Турдиев) //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1987. – 25 декабрь.
- 8.Фитрат А. Захронинг имони (Нашрга тайёрловчи: Н.Каримов) //Фан ва турмуш, 1988. – № 7-8. – Б.10-11.
9. Раҳимова Г. “Мунозара” уйғониш даракчиси. //Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси. 1989 й. 29 декабрь.
10. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва истиқлол маънавияти / А.Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. – Т.: Маънавият, 2000. – Б.9-10.

### QASHQADARYO SHEVALARINING O'RGANILISH TARIXIDAN

**Jabborov Xo'jamurod Jabborovich**

Qarshi DU professori, f.f.d.

[xojamurod@list.ru](mailto:xojamurod@list.ru)

ORCID. 0009-0007-25-1391

UDK: 636: 413.164. (045)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Qashqadaryo xalq shevalar leksikasining o'rganilish tarixi, tadqiqotchilarning bu viloyat shevalari bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlari, ular tomonidan amalga oshirilgan ishlarning mazmun va mohiyati, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqotlar doirasida yaratilgan ilova lug'atlar, ularning nashr etilgan va etilmaganlari, bu sohada kelguvsida qilinajak ishlar, ya'ni muammo va yechimlar xususida fikr-mulohazalar yuritilgan. Tadqiqotchilarning Qashqadaryo viloyati hududlari shevalarini xalq so'zlashuv nutqidan yozib olganligi va yozma yodgorliklardagi so'zlar bilan tarixan qiyoslanganligi, ularning fonetik, morfologik xususiyatlarining o'rganilishi, taraqqiyot manbalari va etimologik jihatdan qanday o'rganilganligi yoritilgan. Mavjud tadqiqotlar va ularga ilova qilingan turli miqdordagi shevalarni jamlagan katta-kichik lug'atlar asosida yirik hajmli "Qashqadaryo o'zbek xalq shevalar lug'ati"ni yaratish dolzarb vazifalardan biri ekanligi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** Qashqadaryo, Yuqori Qashqadaryo, Quyi Qashqadaryo, O'rta Qashqadaryo, hudud, sheva, shevalar leksikasi, xalq, adabiy til, lug'at, manba, tarix.

### THE HISTORY OF STUDYING KASHKADARYA DIALECTS

**Abstract.** This article describes the history of the study of Kashkadarya folk dialects, research conducted by researchers on the regional dialects, the content and essence of their work, scientific and practical significance, additional dictionaries created in the framework of research, their published and non-published dictionaries, opinions on problems and solutions of the future work in this field. The researchers recorded the dialects of the Kashkadarya region from the vernacular and historically compared them with the words in the written monuments, studied their phonetic and morphological features, sources of development and how they were studied etymologically. It is based on the fact that one of the urgent tasks is to create a large-scale "Dictionary of Uzbek folk dialects of Kashkadarya" on the basis of existing research and large and small dictionaries of different dialects attached to them.

**Key words:** Kashkadarya, Upper Kashkadarya, Lower Kashkadarya, Middle Kashkadarya, region, dialect, dialect lexicon, folk, literary language, dictionary, source, study, history.

**Kirish.** Mustaqillikning so‘nggi besh yilligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o‘zbek tilining nufuzi va mavqei tubdan oshirish, mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida bir qator farmonlar qabul qilindi. Bunday farmonlarning ijrosini ta‘minlash bo‘yicha mamlakatimizda keng ko‘lamli ishlar amalga bajarilmoqda. Respublikamizda “Shevashunoslik markazi”ning tashkil topishi va bugungi kunda ularning faol harakati buning yaqqol dalilidir.

Ayniqsa, bugungi kunda adabiy tilimizning manbai va xazinasi bo‘lgan shevalar leksikasini to‘plash, o‘rganish va ularni adabiy tilimiz lug‘at boyligiga kiritish bo‘yicha muayyan ishlar olib borilmoqda. Har qanday til shevalari, jumladan, o‘zbek shevalari leksikasini leksikografik tadqiqotlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Respublikamizda har bir viloyatlar bo‘yicha mukammal va katta hajmli dialektal lug‘atlar yaratilmas ekan, shevalar leksikasi bo‘yicha nazariy va amaliy jihatdan ilmiy tadqiqotlar ham yuzaga kelmaydi.

Qashqadaryo shevalarining o‘rganilish tarixi, leksikografik yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar A. Ishayevning “O‘zbek dialektal leksikografiyasi” (1990) asarining tadqiqot obyekti bo‘lgan. Ushbu tadqiqot muallifi respublikamiz, xususan, Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalari bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar, dialektal lug‘atchilik materiallari, tadqiqotlarga ilova tarzida berilgan lug‘atlarning turlari, lug‘atlardagi yutuq va kamchiliklarni ro‘y-rost ko‘rsatib va bu sohada xato va nuqsonlarni bartaraf etish uchun tavsiyalar bergan. Ammo bu asardan boshqa Qashqadaryo shevalarini o‘rgangan tadqiqotchilarining shevashunoslik, dialektal lug‘atlar tuzish bo‘yicha biron-bir tadqiqot yaratilmagan. Demak, Qashqadaryo shevalarini o‘rgangan olimlarning tadqiqotlarini jiddiy o‘rganish va bu soha shevaviy merosini tadqiq etish endigina boshlanmoqda.

**Mavzuga doir adabiyotlari tahlili.** Maqolada A. Ishayevning “O‘zbek dialektal leksikografiyasi” (1990) asaridagi nazariy va amaliy fikrlarga tayanilib ish ko‘rildi. Muallifning mazkur asarida shevaviy lug‘atchilikning barcha amaliy masalalari, shevalardan so‘z yozib olish, ma‘nolarini aniq izohlash, lug‘at tuzish, lug‘atga so‘z tanlash va tartiblashtirish, lug‘at maqolalarning hajmi va mundarijasini kabi dolzarb masalalar tadqiq etilgan (Nafasov., Nosirov, 1993, 69). O‘zbek tilshunosligida Qashqadaryo xalq shevalarini o‘rgangan tadqiqotchilarning ishlari bo‘yicha A. Ishayevning “O‘zbek dialektal leksikografiyasi” nomli asarini inobatga olmasak, hali bu tadqiqotchilarning ishlariga atroflicha munosabat bildirilmagan.

Qashqadaryo o‘zbek xalq shevalarini o‘rgangan Y.D. Polivanov, A. Shermatov, T. Nafasov, B. Jo‘rayev, D. Abdurahmonov, T. O‘rinov, T. Qudratov, N. Mirzayev, Q. Xurramov, K. Usmonov, T. Enazarov, X. Jabborov, K. Markayev, E. Jabborov, N. Shoimova, O. O‘rinovalarning bu hudud shevalari leksikasini o‘rganish bo‘yicha amalga oshirgan tadqiqotlari doirasida nashr etilgan ishlar, bu sohada nashr etilgan lug‘atlar va adabiyotlar har tomonlama tahlil qilindi.

**Tahlil metodologiyasi.** Maqolaga o‘zbek tilidagi o‘zbek shevashunoslari, xususan, Qashqadaryo shevalarini o‘rgangan olimlarning dissertatsiyalari, kitoblari va monografiyalaridagi shevalarni o‘rganish bo‘yicha nazariy fikrlari va amaliy materiallari asos qilib olindi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati hududlari shevalarini o‘rgangan olimlarning bu hududdagi shevalarni xalq so‘zlashuv nutqidan yozib olganligi va yozma yodgorliklardagi so‘zlar bilan tarixan qiyoslanganligi, ularning fonetik, morfologik xususiyatlarining o‘rganilishi, taraqqiyot manbalari va etimologik jihatdan qanday tahlil va tasnif etilganligi yoritilgan. Mavjud tadqiqotlar va ularga ilova qilingan lug‘atlardagi so‘zlarning miqdoriy ko‘rsatkichi aniq faktlar asosida o‘zaro tarixiy-qiyosiy o‘rganilgan.

**Tahlil va natijalar.** Qashqadaryo xalq shevalar leksikasining o‘rganilishi tarixini shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin: 1. Qashqadaryo viloyati shevalarining

o'rganilish tarixining umumiy holati va sharhi. 2. Yuqori Qashqadaryo shevalarini o'rganilish tarixi. 3. Quyi Qashqadaryo shevalarining o'rganilish tarixi.

1. Qashqadaryo viloyati shevalarining o'rganilish holatini umumlashtirib aytish mumkinki, bu sohani tadqiq va tahlil etishda, shevalar lug'atlarini tuzishda quyidagi tilshunos-shevashunoslarning xizmatlari tahsinga sazovor. Bu yo'nalishda Y.D. Polivanov, A.Shermatov, S. Ibrohimov, D. Abdurahmonov, T. O'runov, B. Jo'rayev, T. Nafasov, N.Mirzayev, T. Qudratov, Q. Xurramov, T. Enazarov, X. Jabborov, K. Markayev, O.O'rinova, E. Jabborov N. Shoimova va boshqalarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda aytish lozimki, muammonining yechimida ishning hajm imkoniyatidan kelib chiqib Qashqadaryo shevalarini o'rganilish tarixini yoritishda bu sohada barakali, salmoqli, yirik tadqiqotlarni amalga oshirgan tadqiqotchilarning ishlariga qisqacha fikr yuritish bilan kifoyalandik.

O'zbekistonda, xususan, Qashqadaryo o'zbek xalq shevalarini birinchilardan bo'lib, har tomonlama sinchiklab o'rgangan olim professor Y.D. Polivanovdir. U 1920-37-yillar davomida Qarshi, Samarqand, Toshkent kabi shahar shevalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borib, juda qimmatli asarlar yozdi. U Qashqadaryo xalq shevalaridan Qarshi shevasini ilk marta o'rgangan va bu viloyat shevalarini o'rganishni boshlab bergan shevashunosdir. Uning 1928 yilda nashr etilgan Qarshi shevasi bo'yicha "Образцы несингармонистических (иранизованных) говоров узбекского языка. Каршинский говор" // "Qarshi shevasi. O'zbek tili nosingarmonizmlil (eroniyilashgan) shevalaridan namunalar" [Polivanov, 1928, 92-96] maqolasi fikrimizning dalilidir. Uning 1933-yilda bosilib chiqqan "O'zbek dialektologiyasi va o'zbek adabiy tili" degan asarida o'zbek shevalarining turli-tuman ekanligi alohida qayd etilgan ( Jo'rayev, 1963, 17-18).

A. Ishayevning ma'lumoticha, respublika bo'yicha "faqat 1950-1965-yillarda o'zbek sheva, dialektlari bo'yicha 5 doktorlik, 25 nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Umuman, 1988-yilgacha o'zbek dialektologiyasi bo'yicha 9 doktorlik, 56 ta nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan [Ishayev, 1990,17] bo'lsa, 1960-1988-yillargacha Qashqadaryo xalq shevalari leksikasi bo'yicha 1 doktorlik (A. Shermatov, 1978) va 5 nomzodlik (A. Shermatov, 1970), (B. Jo'rayev,1969), (T. O'runov (1968), (T. Qudratov, 1968), (N. Mirzayev, 1971), 1990-yildan keyingi davrlarda professor To'ra Nafasovning bevosita va bilvosita rahbarligida 1 doktorlik (X. Jabborov, 2017) 6 ta nomzodlik (Q. Xurramov), (X. Jabborov, 1996), (E. Jabborov, 1998), (K. Markayev, 2007), (O. O'rinova, 2007) ), (N. Shoimova, 2005) dissertatsiyasida turli soha leksikasi va shevalari bo'yicha nomzodlik ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilishgan.

Endi ana shunday tadqiqotlarga rahnomalik qilgan va o'zi ham Qashqadaryo toponimlarini o'rganish jarayonida Qashqadaryo va Surxondaryo shevalarini o'rganishda o'zining munosib hissasini qo'shgan olimlardan biri, zukko tilshunos To'ra Nafasovning shevashunoslik sohasidagi ilmiy faoliyatiga to'xtalamiz.

Ayonki, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari aholisining nutqi xalqona so'zlarga boy. Hududning tabiiy muhiti, ishlab chiqarish va hayot tarzi, etnik tarkibi shevaviy, qadimiy so'zlarning xilma-xil namunalari saqlab qolishga, yangilarini yaratishga asos bo'lgan. Xalq ijodining ko'pgina turlari saqlangan. T.Nafasov joy nomlarini yozib olish jarayonida xalq nutqi va ijodining bir necha turlariga oid dalillar to'plagan. 15 mingga yaqin xalq so'zlarini yozib olgan. Alla va Kelinoy qo'shiqlarini to'plab kitob holida nashr qildi. Xalq maqollari, afsona va rivoyatlarini, xususan, kelinsalomlar va topishmoqlarni, xalq udumlarini, toponimik rivoyatlarni yozib olgan

T.Nafasov uzoq yillar (1985-2004) Qarshi davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasining mudiri sifatida faoliyat ko'rsatdi. Kafedraga salohiyatli tadqiqotchilarni jalb qilishga alohida e'tibor qildi. E. Begmatov va B. Mengliyevning alohida ta'kidlashicha, prof. T. Nafasov rahnomaligining bu davri kafedraning asosiy ilmiy yo'nalishlaridan biri Qashqadaryo, umuman, O'zbekistonning janubiy viloyatlari aholisi nutqini, leksikasini,

shevalarini o'rganishga qaratildi [Begmatov., Mengliyev, 2008, 240-241].

Respublikaning janubiy viloyatlari toponimiyasi ancha izchil tadqiq qilindi va o'rganildi. Bir qator monografiyalar [Nafasov, 1985, 1989, 1994 ], lug'atlar [Nafasov, 1988, 2011], o'zbek xalq geografik so'zlari [Xurramov, 1981], Qashqadaryo etnografik leksikasi bo'yicha tadqiqot yaratildi va uning lug'ati chop qilindi [Mirzayev, 1971, 1991 ]. Sug'orish va dehqonchilik leksikasi tadqiq qilindi [Jabborov, 1966, 2017] va lug'ati nashr etildi [Jabborov, 2016], xalq o'yinlariga oid so'zlar to'planib lingvistik tahlil olamiga kiritildi [Jabborov, 1998], Qashqadaryo o'zbek qipchoq shevalari leksikasi [Shoimova, 2000], O'zbekistonning janubiy viloyatlari etnonimiyasi asosida o'zbek tili etnonimlari lingvistik tadqiq qilindi [Markayev, 2007], O O'rinova [2007] esa Qashqa-Surxon vohasi aholisi nutqidagi chorvachilikka oid leksikani sistemalashtirilib, tadqiqot olib bordi

Shevashunos olim K. Usmonov fikricha, prof. T. Nafasov qariyb 50 yil, Qashqa-Surxon shevalaridagi joy nomlarini o'rgandi, xalq so'zlashuv nutqidan yozib olgan mahalliy aholi tili va shevasidagi so'zlar asosida toponimik lug'atlar, kitoblar, ko'plab maqolalar yozgan. Qadimgi turkiy o'zbeklarning tilidagi qazaq/qazuq (qazilgan ariq) so'zi asosida Qozoq, Qozoqli, Beshqozoq nomlarining etimologiyasini to'g'ri izohladi. Qarshi shevasida saqlanib qolingani darak (suv ayirg'ich, band) so'zidan yuzaga kelgan Beshtarak, Beshdarak, Toshtarak, Qo'shdarak kabi nomlar ma'nosi va tarkibini asoslab berdi. Qizqo'rg'on, Qizbuloq, Qiztepa, Qirquz kabi nomlar tarkibidagi qiz so'zi qadimgi turkiy quz (tog'ning terskay tomoni, balandlik) kalimasining o'zgargan shakli ekanligini aniqlab berdi. [Usmonov, 2008, 78].

T.Nafasovning "Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari lug'ati" (2011) bugungi kunda o'zbek xalq shevalari bo'yicha tuzilgan va nashr etilgan lug'atlar ichida eng salmoqli va original lug'at sifatida mutaxassislar tomonidan tan olindi.

Taniqli yozuvchi Ahmad A'zam "Til nomusi" nomli kitobida tilimizda qo'llanilmaydigan, biz bilmaydigan, ishlatmaydigan shevaga xos so'zlar ancha miqdorda ekanligi, bunday so'zlar T. Nafasovning "Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari lug'ati"da berilganligini kuyunib yozadi: Masalan, nuqul "tog'", "qoya", "cho'qqi", "dara" deymiz, boshqa atamaları yo'qmi deb erinmay "Qashqadaryo xalq so'zlari"ni varaqladim, qarang, qancha atama va nomlarga duch keldim: "qiroq" (qoyaning usti, "Oy tug'adi qiroqdan"), "huchchi" (qoya uchi), "shiram" (uzunasiga cho'zilgan qoya ), "sala" (cho'qqining uch qismi), "qasnoq" (daralarning aylana nuqtasi), "qat" (qir, cho'qqining baland uchi, unda faqat arxar yuradi), "qatal" (yolg'izoyoq yo'li bo'lgan enish), "chuqun" (tog'li hududlardagi tabiiy chuqurlik, yashin urib chuqur bo'lgan joy), "chag'il" (mayda toshli qiya yonbag'ir), "chungul" (dara ichida yurish qiyin, chuqur – chop joy), "qasag'a" (quyidan yuqoriga ketgan qat-qat yassi tosh uyumi), "qirrak", "qisilchang", "qoyazov", "chag'al", "chag'at", "chiyir", "ching", "chaltov", "tarang" ... yetar, a? [Ahmad A'zam, 2013, 38].

Ma'lumki, har qanday mahalliy sheva, ma'lum bir hudud aholisi tilidagi so'z va qo'shimchalardan yaraladi. Ularning kashfiyotchisi esa o'sha hududda yashovchi xalqdir. Shevashunos, eng avvalo, shevadagi so'z yaralgan hududni va uning yaratuvchilari kimlar ekanligini aniqlab so'ngra tadqiqot olib borishi zarur. T.Nafasov – ana shunday saviyadagi olim. U toponimlarning tadqiqi jarayonida vohamiz shevalarini o'rgandi. Uning isboti – olimning "Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari lug'ati"dir. Har qanday shevaga xos so'zda uni yaratgan xalq shevasining hidi va ifori bor. Bu hududni anglay bilish va ajrata olish lozim.

Mazkur lug'atning yaratilishi T. Nafasovning keng qamrovli tilshunos-shevashunos ekanligini namoyon qildi. U Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari aholisi nutqida qo'llanuvchi 15 000 ga yaqin xalq so'zlarini yozib oldi. Ularni batafsil o'rgandi. Adabiy tilda deyarli qo'llanilmaydigan bunday so'zlarning izohli lug'atini tuzish zarurligini his etib, bu ishga astoydil kirishdi. Natijada bir necha o'n yillik zahmatlari evaziga 8000 dan ortiq xalq so'zlarni jamlagan "Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari" deb nomlangan o'ziga xos lug'atning 1-jildini yaratdi (Toshkent: Muharrir, 2011. – 468 b). Mazkur lug'atning 2-jildini ham nashr ettirish niyatida edi. Afsuski, shafqatsiz o'lim bu niyatni amalga oshirishga imkon bermadi.



Endi domlaning shogirdlari va olim qizi Vazira Nafasova nashr ettiradi, - degan umiddamiz.

Bu davrda o'zbek dialektologiyasida etnografik leksika bo'yicha N. Mirzayev "O'zbek tilining etnografik leksikasi" (Qashqadaryo shevalari materiallari asosida) (1971) mavzusidagi ishida Qashqadaryo o'zbek shevalarida uchraydigan 706 etnografizmning lug'atini tuzdi. A. Ishayev fikricha, aslida lug'atdagi so'zlar miqdori bundan ko'proq, chunki bitta bosh so'z tarkibida ba'zan ikki yoki uchta reyestr so'zlar bor: bek'nməchoq // yəsh'nməchoq // yəsh'nməv'ch - bekinmachoq. Besh'ksoll' // gəvrəbənnən...- chaqaloqni beshikka belash marosimi (119-120).

Ko'rinadiki, har xil (b, y; b, g) harflar bilan boshlanuvchi har bir so'z bosh so'z sifatida o'z o'rnida berilishi kerak edi. Muallif bu o'rinda B. Jo'rayev tomonidan tuzilgan "Yuqori Qashqadaryo shevalari" lug'atidan (1969) o'rnak olgan bo'lsa kerak. Bir xil ma'noda qo'llanadigan so'zlardan ayrimlari lug'atda aniq ko'rsatilgan, lekin ularning har biriga alohida izoh berilishi bosh so'z maqolalarida o'rinsiz qaytariqlar bo'lishiga olib kelgan. Masalan, selxot'n (Chiroqchi) so'ziga 175-176-betlarda izoh berilgan. Xuddi shu ma'nodagi suz'lxot'n//susxot'n (Koson, Beshkent), shuningdek, tuxot'n (G'uzor) so'zlariga ham (177,186) izoh berilib, q. (qarang) selxot'n deyilgan. Bu o'rinda 177, 186-betlardagi izohlar ortiqcha. N. Mirzayev lug'ati hanuzgacha shevalar etnografiyasi bo'yicha yakka-yu yagona lug'at bo'lib qolmoqda. Mazkur lug'at, undagi ayrim kamchiliklardan qat'i nazar, shevalarimizning katta hajmli dialektal lug'atlariga qimmatli etnografik dialektizmlarga oid faktlar beradi, bunga shak-shubha yo'q.

Qisqasi, respublikamiz viloyatlari orasida Qashqadaryo viloyatining shevaga xos xalq so'zlari ancha yaxshi o'rganilgan. Ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan va salmoqli lug'atlar yaratilgan. Qashqadaryo viloyati shevalarining dialektal lug'atlaridek lug'atlar Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Surxondaryo oblastlaridagi shevalar bo'yicha tuzilmaganligini mutaxassislar yaxshi bilishadi. .

2. Yuqori Qashqadaryo xalq shevalar leksikasining o'rganilishida B. Jo'rayev, T.Nafasov, T. Qudratov, T. Enazarov kabi shevashunos olimlarning xizmatlari kattadir.

Bu regiondagi shevalar bo'yicha salmoqli tadqiqotlar olib borgan zahmatkash olimlardan biri shevashunos Bolta Jo'rayevdir. Uning "Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari leksikasi // O'zbek shevalari leksikasi" (1966), "Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari (1969), "O'zbek adabiy tili va o'zbek dialektlari" (1963) kitoblari, "Шахрисабзкий говор узбекского языка" (1959) nomli dissertatsiyasini alohida qayd etish mumkin.

O'zbek shevashunosligining zahmatkash va sinchkov shevashunosi A. Ishayev e'tirof etishicha, "bu o'rinda shu faktni faxr bilan qayd etish lozimki, o'zbek dialektologiyasida Yuqori Qashqadaryo shevalarining o'rganilishi, tadqiq etilishi va lug'atlarining tuzilishida B. Jo'rayevning xizmatlari benihoya katta. U bu region shevalari bo'yicha faktik materiallarni sinchkov tadqiqotchi sifatida qunt bilan to'plagan, ularni benuqson transkripsiyada yozib olgan. B. Jo'rayev Yuqori Qashqadaryo shevalarining "... faqat o'ziga xos so'z boyligini birmuncha qamrab oladigan qilib yaxlit lug'at tuzish ishini keyinroq amalga oshirmoqchimiz",-degan edi. Afsuski, shafqatsiz o'lim bu niyatni amalga oshirishga imkon bermadi. Umuman, bu zahmatkash olimning "O'zbek shevalari leksikasi" (1966) to'plamida hamda so'nggi monografiyasida (1969) nashr etilgan lug'atlari bir-birini takrorlamaydi, aksincha, biri ikkinchisini to'ldiradi. Shunga ko'ra, ikkala lug'at ham o'zbek shevalarining katta hajmdagi dialektal lug'atlarini tuzishda eng asosiy manbalar sifatida xizmat qiladi, bunga shak-shubha yo'q" [Ishayev, 1990,62-64].

A. Ishayevning "O'zbek dialektal leksikografiyasi" (1990) kitobida B. Jo'rayevning ilmiy ishlari misollar asosida keng va atroflicha o'rganilgan va tahlil etilgan. Shu sababli biz B. Jo'rayevning ishlariga batafsil to'xtalmaymiz va ba'zi bir ishlariga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. B. Jo'rayev "Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari leksikasi" (O'SHL., 1966) mavzuidagi yirik tadqiqotida (160-292) 1385 so'zni lug'at (182-292) qilib bergan. Lug'at leksikografik talablarga javob berarli darajada tuzilganligi va bosh so'zlarning qariyb

barchasi misollar bilan ta'minlanganligi, lug'atning ilmiy jihatdan yaxshi fazilati shundaki, unda kelib chiqishiga ko'ra boshqa tillarga oid bosh so'zlarning deyarli barchasiga etimologik qaydlar berilganligi, ularning etimologik jihatdan qaysi tilga (tojik, fors-tojik, arab kabi tillarga) taalluqli ekanligi aniq ko'rsatilgan: əzzə (ar. arabcha shakli yozilgan) ariza... (183). jəvrənnən (ar...) nohaqdan, gunohsiz (2 misol berilgan - 207). pətərət (ar...) vayrona (misol berilgan - 241). bəyimjon (toj. bodimchon) baqlajon. Bolg'undor (f-t. bolog'undor) taxmon (misol berilgan - 191). B. Jo'rayev Yuqori Qashqadaryo shevalaridagi ayrim so'zlarning kelib chiqishi jihatdan arab, fors-tojik tillariga oidligini qayd etgan (Jo'rayev B., 1966, 182-292): əddisər (fors-tojik az du sar) bo'lsa-bo'lmasa, bari bir, albatta... əzzə (ar...) ariza...əvg'a (toj.ag'ba) tog' cho'qqisidan oshib o'tiladigan qatnov joy, dovon... (183). qas (toj. qars) belbog'.... (280) [Ishayev, 1990, 12].

B. Jo'rayev "Qashqadaryo o'zbek shevalari leksikasi" (O'SHL, 1966) mavzuidagi maqolasiga ilova etilgan lug'atda dallollar va qassoblarning "sirli" nutqidagi ba'zi so'zlarni qayd etgan. Masalan: **эре-бир; бийэз-икки; гре-уч; гэнэ-түрт, нимсэр-беш, кәпәре-олти; кәбийэз-етти; бийэскәм-саккиз; әрикәм-түккүз; сәре-үн** (B. Jo'rayev., 1966,186).

B. Jo'rayevning "Yuqori Qashqadaryo shevalari" monografiyasida (1969) o'sha regiondagi mavjud shevalar guruhi bo'yicha tekstlar berilgan: qipchoq shevalari (31-72); oraliq shevalar (83-104); shahar tip shevalar (112-123). Ushbu monografiyada tekstlarning ko'p va xilma-xil bo'lishi, tekstlardagi shevalarga xos xususiyatlarning aniq va mufassal izohlanganligi alohida diqqatga sazovor.

Umuman olganda, B. Jo'rayevning ushbu lug'ati boshqa dialektologlarimizning asarlarida qayd etilmagan ko'pgina so'zlarning mavjudligi, hajm jihatdan kattaligi (1400 so'z), lug'at tuzish prinsiplariga rioya etilganligi, reyestr so'zlarning aksariyati misollar bilan ta'minlanganligiga ko'ra umumo'zbek shevalari katta dialektal lug'atlar uchun qimmatli manbadir.

Yuqori Qashqadaryoning Shahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi, Qamashi tumanlari shevalari materiallari asosida tadqiqotchi T. Qudratov "O'zbek tilining oraliq shevalari" mavzudagi (T. Qudratov, KD., (1968) nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Ishda shevalarning fonetik, morfologik xususiyatlari yoritilgan. Ilova tarzida ba'zi leksik xususiyatlar haqida ma'lumotlar hamda qisqacha lug'at berilgan (AKD., 1968, 4) [Ishayev, 1990,55]. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, Yuqori Qashqadaryo shevalariga nisbatan Quyi Qashqadaryo shevalari bo'yicha lug'atlar kamroq tuzilgan

T. Nafasovning "Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari" (2011), K. Usmonovning "O'zbek tili shevalarida fe'lning hozirgi zamon shakllari" (2005), "O'zbek shevalarida fe'lning o'tgan zamon formalari" (1991), N.Shoimovning "Qashqadaryo o'zbek qipchoq shevalari leksikasi" (2000), "O'rta Qashqadaryo "je"lovchi qipchoq shevalari leksikasi" (1999), O'zbek shevalari leksikasini o'rganishning dolzarb masalalariga doir (Qashqadaryo vohasi materiallari asosida (2009) kitob va maqolalar Yuqori Qashqadaryo shevalari haqida qimmatli fikrlar mavjud.

2. Quyi Qashqadaryo shevalarining o'rganilishida S. Ibrohimov, A. Shermatov, D. Abdurahmonov, T. Nafasovlarning xizmatlarini alohida qayd etish zarur.

Quyi Qashqadaryo shevalarining o'rganilishida A'zam Shermatovning xizmatlari katta. Muallifning "Qarshi shevasida kelishik va egalik qo'shimchalari (1962), "Qarshi shevasi leksikadan namunalar" (1961), Qashqadaryo o'zbek shevalari atlasining ba'zi masalalari (1971), Quyi Qashqadaryo O'zbek shevalarini kartalashtirish tajribasidan (1970), Qashqadaryo o'zbek shevalari (1972), Qashqadaryo oblastidagi o'zbek xalq shevalari (1978), Qashqadaryo oblastidagi o'zbek xalq shevalari atlas (1979), Узбекские народные говоры Кашкадарьинской области (1978) kabi tadqiqotlari fikrimizning dalilidir.

A. Ishayevning ma'lumoticha, Qarshi shevasining (A.Shermatov, AKD., 1960) fonetik, morfologik xususiyatlariga nisbatan leksik xususiyatlari juda kam darajada o'rganilgan (AKD., 31-32). Lug'at berilmagan. Leksikaga oid qismida alvon'-beshik; ollon-pes; arrabur-

jodu kabi xarakterli dialektizmlar mavjud .

A. Shermatovning “Qarshi shevasi leksikadan namunalar” (O‘zbek dialektologiyasidan materiallar ( O‘DM ), 2-kitob. Toshkent, 1961) maqolasida (184-191-betlar) 200 ga yaqin so‘z lug‘ati berilgan. Lug‘atda alvanch — bola belanchagi; be-buburg‘ — shijoatsiz; djoyposh — so‘zana, palak; cytt’//cyt’ (< oy to‘ti) - xola; tota — buvi, momo kabi anchagina so‘zlar bor.

Umuman, Quyi Qashqadaryo shevalari bo‘yicha A. Shermatov, S. Ibrohimov, D. Abdurahmonovlarning katta va kichik hajmdagi lug‘atlari e‘lon qilingan. Ularning turli xil to‘plamlarda chop etilgan ba‘zi maqolalarda xilma-xil shevalarga oid kichik hajmdagi lug‘atlar anchaginadir. Ularning barchasi haqida fikr yuritib o‘tirmay, axborot tarzida ayrimlarining nomini sanab ko‘rsatamiz. Abdurahmonov D. “Beshkent rayon shevalari leksikadan materiallar”, O‘DM, II, 1961, 225-228-betlar. Berilgan kichik lug‘atda 80 so‘z bor [72-73].

Tadqiqotchi X. Jabborovning aniqlashicha, Qashqadaryo viloyati shevalari bo‘yicha tuzilgan lug‘atlarda birgina dehqonchilik sohasiga oid shevaga xos so‘zlar quyidagicha berilgan: S.Ibrohimovning “O‘zbek tilining Beshkent rayon shevalari yuzasidan kuzatishlar» nomli maqolasida 125 ta so‘zdan 18 tasi, D.Abdurahmonovning “Beshkent rayon shevalari leksikadan materiallar” nomli ishida berilgan kichik lug‘atda 80 so‘zdan 18 tasi, B.Jo‘rayevning “Yuqori Qashqadaryo shevalari leksikasi” (1969) kitobi ilovasidagi 1100 ta so‘z bo‘lib, shundan 75 tasi, N.Shoimovning “Qashqadaryo o‘zbek qipchoq shevalari leksikasi” kitobida 257 ta so‘zdan 18 tasi, A.Shermatovning “Qashqadaryo viloyatining o‘zbek xalq shevalari” kitobidagi 197 ta so‘zdan 8 tasi, N.Mirzayevning O‘zbek tili etnografizmlarining izohli lug‘ati»da 1300 dan ortiq so‘z va birikma terminlardan 66 tasi dehqonchilikka doir shevaga xos so‘zlarni tashkil etadi.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyati shevalari bo‘yicha nashr etilgan kitob, tuzilgan lug‘at va maqolalardagi so‘zlarning miqdoriy ko‘rsatkichini aniq tasavvur qilish uchun quyidagi jadvalga e‘tibor qaratamiz:

Muallifning familiyasi, ismi	Asar, lug‘atlar, maqola nomlari	Nashr yili	So‘zlar miqdori
Ibrohimov S	O‘zbek tilining Beshkent rayon shevalari yuzasidan kuzatishlar	1957	125
Shermatov A., Ishayev A	O‘zbek shevalari leksikadan materiallar.	1964	600
Jo‘rayev B	Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari leksikasi	1966	1400
Jo‘rayev B	Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari	1969	1100
Abdurahmonov D	Beshkent rayon shevalari leksikadan materiallar	1961	80
Mirzayev N	O‘zbek etnografizmlarining izohli lug‘ati.	1991	700
Nafasov T	Qashqadaryo o‘zbek xalq so‘zlari lug‘ati. I jild	2011	8000
Jabborov X	Dehqonchilik so‘zlarining qisqacha izohli lug‘ati	2017	3063
Шоимова Н	Qashqadaryo o‘zbek qipchoq shevalari leksikasi	2000	257
Jabborov E	O‘zbek xalq o‘yinlari leksikasi (diss.si)	1998	780
JAMI:			16 007

**Xulosa va takliflar.** Qashqadaryo shevalarining o‘rganilish tarixi shuni ko‘rsatadiki, bu sohada bir qator ishlar amalga oshirilgan. Kitob, lug‘at va maqolalar nashr etilgan. Bu sohadagi muammolarning yechimi shundaki, hozirgacha mavjud bo‘lgan turli kitob, lug‘at, maqolalardagi shevaga xos so‘zlarni saralab olib lug‘at tuzish imkoniyati mavjud.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan 16007 ta soʻzlarda takroran qoʻllanishlar uchraydi. Ularni jamlab, bir-biriga taqqoslab, takror qoʻllanganlarini ajratib olib lugʻat tuzish uchun materiallar yetarli. Mazkur materiallar tahlil etilsa, “Qashqadaryo oʻzbek xalq shevalari lugʻati”ining miqdori aniq boʻladi. Demak, lugʻat tuzish uchun tayyor manba bor. Biz dialektologlar oldida turgan eng dolzarb vazifa shuki, mukammal ishlangan dialektal lugʻatlar tuzish prinsiplari asosida, hozirgi leksikografik talablarga toʻla-toʻkis javob beradigan Qashqadaryo viloyati shevalarining katta hajmdagi, fundamental lugʻatlarini tuzishdan iborat. Bugungi kunda bunday lugʻatlarni yaratish davr talabidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Абдурахмонов Д. Бешкент район шевалари лексикасидан материаллар // Ўзбек диалектологиясидан материаллар. –Тошкент: 1961. – Б.221-228.
2. Аҳмад Аъзам. Тил номуси. –Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.38.
3. Джураев. Шахрисабзкий говор узбекского языка. –Ташкент: Фан, 1964. –С. 202.
4. Дониёров Х. Ўзбек халкининг шажара ва шевалари. –Тошкент: Фан, 1968. 96 б.
5. Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Бешкент район шевалари юзасидан кузатишлар. // Ўзбек диалектологиясидан материаллар. – Тошкент:1957, №1.
6. Иброҳимов С. Миришкор шевасига оид кўшимча материаллар. // Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 2- том. Тошкент: Фан, 1961.
7. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. –Тошкент:Фан,1990.139 б.
8. Жабборов Э. Ўзбек халқ ўйинлари лексикаси. – Тошкент: Наврўз, 2018. 102 б.
9. Жабборов Х. Ўзбек тилининг сўғориш лексикаси. Номзодлик диссертацияси. – Тошкент: Насаф, 1996. 158 б.
10. Жабборов Х. Ўзбек тилининг деҳқончилик лексикаси. – Тошкент: Фан, 2011. 155 б.
11. Жабборов Х. Деҳқончилик сўзларининг қисқача изоҳли луғати. – Қарши: Насаф, 2016. 294 б.
12. Жабборов Х. Ўзбек шевалари изоҳли луғатини тузиш – давр талаби //“Ўзбек диалектологиясининг долзарб муаммолари” мавзусидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент, 2018. – Б. 116-119.
13. Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва ўзбек диалектлари. –Тошкент: Қизил Ўзбекистон, Правда Востока ва Ўзбекистон Сурх, 1963. –Б. 46.
14. Жўраев Б. Юкори Қашқадарё ўзбек шевалари. –Тошкент: Фан, 1969. 25-31 б.
15. Жўраев Б. Юкори Қашқадарё ўзбек шевалари лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1966. 160-249 б.
16. Кудратов Т. Переходные говоры узбекского языка. АҚД. –Ташкент: 1968. –С.34.
17. Марқаев К. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний таҳлили. Номзодлик диссертацияси. – Тошкент: 2006.
18. Мирзаев Н. Этнографическая лексика узбекского языка( на материлы узбекских говоров Кашкадарьинской области). АҚД. –Ташкент: Наука, 1971. – 32 с.
19. Мирзаев Н. Ўзбек этнографизмларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1991. – 120-б.
20. Нафасов Т. Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. – Тошкент: 1985, - 100 б.
21. Нафасов Т. Қишлоғингиз нега шундай аталган?- Т.: Фан, 1989. - 100 б.
22. Нафасов Т. Ўзбек номномаси. – Қарши, Насаф, 1994. -154 б
23. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи,1988. – 288 б.
24. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. –Тошкент: Муҳаррир, 2011. –Б. 466.
25. Нафасов Т.Носиров Ш. Ўзбек диалектал лексикографияси // Ўзбек тили ва адабети, 1993,1-сон, 69-72- бетлар.
26. Поливанов Е. Д. Образцы несингармонистических (иранизованных) говоров узбекского языка. Каршинский говор. Доклады АН СССР. – Ленинград: 1928, №5 стр. 92-96.
27. Усмонов К. Шевалар бағрида туғилган номлар тадқиқчиси. Номшунос олим. – Қарши: 2008. – Б.78-79.
28. Усмонов К. Ўзбек тили шеваларида феълнинг ҳозирги замон шакллари. –Қарши: Насаф, 2005. –Б. 142.
29. Усмонов К. Ўзбек шеваларида феълнинг ўтган замон формалари. –Тошкент: Фан, 1991. –Б. 165.

30. Хуррамов Х. Узбекские народные географические термины, обозначающие рельеф Южного Узбекистана. АКД. – Т.: 1981. – 23 с.
31. Шерматов А. Қарши шевасининг баъзи морфологик хусусиятлари // Ўзбек диалектологиясидан материаллар. –Тошкент: 1961. 2-китоб.178-213 б.
32. Шерматов А. Қашқадарё ўзбек шевалари. –Тошкент: 1972.
33. Шерматов А. Ўзбек халқ шеваларидан материаллар. –Тошкент: 1975.
34. Шерматов А. Қашқадарё областидаги ўзбек халқ шевалари. –Тошкент: Фан, 1978.
35. Шерматов А. Қашқадарё областидаги ўзбек халқ шевалари атласи. –Тошкент: Фан, 1979.
36. Шерматов А. Узбекские народные говоры Кашкадарьинской области. –Ташкент: Фан, 1978. –Б. 144
37. Шоимова Н. Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси. –Қарши: Насаф, 2000. –139 б.
38. Шоимова Н. И. Ўрта Қашқадарё “же”ловчи қипчоқ шевалари лексикаси. Автореферат. – Тошкент: 1999. –Б. 25.
39. Хуррамов К. Узбекские народные географические термины, обозначающие рельеф Южного Узбекистана. АКД. –Тошкент: Наука, 1981. – 28 с.
40. Эназаров Т. Шевашунослигимиз ҳақида ўйлар //“Айюб Ғуломов ва ўзбек тилшунослиги масалалари”. Тошкент: 2008. – Б.19-22.
41. Эназаров Т. Ўзбек диалектологияси: назария ва амалиёт (ўқув қўлланма). –Тошкент: Маҳалла ва оила, 2021. 230 б.
42. Ўринова О. Ўзбек тили чорвачилик лексикасининг лексик-семантик тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2011. -85 б.
43. Умаров Э. “Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати” // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011,4-сон, Б. 124-125.
44. Нафасов Т. Шевашунослик ва номшунослик // Атоқли олим проф. Х.Дониёров таваллудининг 70 йиллигига бағишланган илмий-амалий хотира анжуман материаллари. – Гулистон, 1997. – Б.39-43.

## MATYOQUB QO‘SHJONOV VA QODIRIYSHUNOSLIK MUAMMOLARI

**Yo‘ldoshev Dilmurod Ne‘mat o‘g‘li**

Qarshi DU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qıtuvchısı

**Usmonova Mohira Kenjayevna**

Qarshi DU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti

[kumushshamshir0404@gmail.com](mailto:kumushshamshir0404@gmail.com)

ORCID: 0009-0008-4706-9634

UDK 821.512.133.09

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada taniqli adabiyotshunos olim Matyoqub Qo‘shjonovning qodiriyshunoslikdagi o‘ziga xos ilmiy yondashuvlari va uning Abdulla Qodiriy ijodini chuqur tahlil etishdagi roli o‘rganiladi. Xususan, Qo‘shjonovning “O‘tkan kunlar” romanidagi psixologizm va tasvirlash san‘ati bilan bog‘liq fikrlari batafsil tahlil qilinadi. Munaqqid Abdulla Qodiriy ijodidagi peyzaj va qahramonlarning ruhiy kechinmalarini hamda ularning voqealar rivojidadagi o‘rmini chuqur estetik va badiiy nazar bilan o‘rgangan. Shuningdek, M.Qo‘shjonovning “Abdulla Qodiriyning tasvirlash san‘ati” va “Qodiriy – erksizlik qurboni” kabi asarlari orqali u adibning ijodiga tanqidiy va ilmiy yondashuvlarni shakllantirganligi ko‘rsatiladi. Shu bilan birga M.Qo‘shjonovning qodiriyshunoslikdagi yutuqlari, Abdulla Qodiriyning ijodiy yuksalishini ochib berishdagi o‘rni va uning o‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixidagi ahamiyati o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari M.Qo‘shjonovning ilmiy uslubi va badiiy asarlarni talqin etish metodologiyasining dolzarbligini ta’kidlaydi.

**Kalit so‘zlar:** Qodiriyshunoslik, tasvirlash san‘ati, psixologizm, adabiy tahlil, sovet davri talqini, estetik analiz.

## MATYOQUB QO‘SHJONOV AND THE ISSUES OF QODIRIY STUDIES

**Annotation:** This article explores the unique scholarly approaches of the prominent literary scholar Matyoqub Qo‘shjonov in Qodiriy studies and his role in deeply analyzing the works of Abdulla Qodiriy. Specifically, Qo‘shjonov's insights on the psychological aspects and artistic portrayal in the novel "O‘tkan kunlar" are examined in detail. The scholar delved into the depiction of landscapes and the psychological experiences of the characters in Qodiriy's works, as well as their significance in the development of the plot, through a profound aesthetic and literary perspective. Moreover, Qo‘shjonov's critical and scholarly

approaches to Qodiriy's works are demonstrated through his writings such as "Abdulla Qodiriy's Art of Depiction" and "Qodiriy – A Victim of Oppression." The article examines Qo'shjonov's achievements in Qodiriy studies, his role in unveiling Qodiriy's creative rise, and his significance in the history of Uzbek literary criticism. The research highlights the relevance of Qo'shjonov's scholarly style and his methodology of interpreting literary works.

**Keywords:** Matyoqub Qo'shjonov, Abdulla Qodiriy, Qodiriy studies, O'tkan kunlar, art of depiction, psychological aspects, literary analysis, Soviet era interpretation, aesthetic analysis.

**Kirish.** Matyoqub Qo'shjonov o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchilik sohasida betakror uslub va chuqur tahlillari bilan tanilgan yetakchi olimlardan biri hisoblanadi. Uning adabiy tahlillari va ilmiy izlanishlari, ayniqsa, Abdulla Qodiriy ijodiga bag'ishlangan asarlari Qodiriyshunoslikning yangi bosqichini belgiladi. "O'zining ijodiy-ilmiy faoliyati davomida Abdulla Qodiriy asarlariga murojaatni kanda qilmagan Matyoqub Qo'shjonov 90-yillarga kelib, ko'pgina kuzatishlarini "Qodiriy – erksizlik qurboni" hamda "O'zbekning o'zligi" kitoblarida jamladi. Aslida o'zbek adabiyotshunosligida dastlab Abdulla Qodiriy ijodining san'at, badiiyat, mahorat jihatlarini Matyoqub Qo'shjonov 1966-yili nashr etilgan "Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati" nomli kitobida bayon qilgan edi"[1]. M.Qo'shjonov, asosan, ushbu tadqiqotlarida adabiy asarlarni badiiy-estetik jihatdan o'rganish va xalqning milliy o'zligini asarlar orqali tushuntirishda alohida yondashuvni kashf etdi.

Matyoqub Qo'shjonov fenomeni o'zining individual talqinlari va adabiy-tanqidiy mahorati bilan boshqa adabiyotshunoslardan farq qiladi. Uning badiiy asarlarni tahlil qilishdagi chuqur qobiliyati milliy o'zlikni, xalq qadriyatlarini va tarixiy xotirani saqlashda katta hissa qo'shadi. Xususan, M.Qo'shjonovning A.Qodiriy asarlariga bo'lgan e'tibori va ularni o'rganish borasidagi metodologik yondashuvlari qodiriyshunoslikka yangicha ilmiy ko'z bilan qarash imkonini yaratdi.

Abdulla Qodiriy o'zbek milliy adabiyotining yetuk vakillaridan biri bo'lib, uning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari o'zbek xalqining tarixiy kechinmalari, milliy qadriyatlari va ma'naviy xotirasi tasvirlangan buyuk badiiy asarlar sirasiga kiradi. M.Qo'shjonov ushbu roman va boshqa asarlardagi qahramonlar, voqealar va tasvirlarni milliy-estetik jihatdan chuqur tahlil qilgan. Qo'shjonovning bu yo'nalishdagi izlanishlari A.Qodiriy asarlarining faqat badiiy kuchini emas, balki o'zbek xalqining ma'naviy va madaniy o'zligini aks ettirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Matyoqub Qo'shjonovning ilmiy faoliyati qodiriyshunoslik doirasida yana bir qator muhim qirralarni ochib berdi. U A.Qodiriy asarlaridagi tarixiy voqealar va ularning xalq ruhiyatiga bo'lgan ta'sirini badiiy-estetik nuqtayi nazardan o'rgandi. Xususan, M.Qo'shjonov "Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati" asarida A.Qodiriyning yozuv uslubi, qahramonlari va milliy ruhiyatini teran tahlil qilishi va munaqqidning ilmiy yondashuvlari qodiriyshunoslik ilmini yanada yangi darajaga olib chiqdi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Matyoqub Qo'shjonovning qodiriyshunoslik ilmi bobidagi tadqiqotlari O'zbek adabiyotshunosligi tarixida alohida o'rinni egallaydi. Uning "Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati" asari Qodiriy romanlarini tahlil qilishda chuqur ilmiy yondashuvni namoyon qiladi. Ushbu asarda M.Qo'shjonov Abdulla Qodiriyning asarlaridagi obrazlar tizimi, psixologik murakkablik, va tabiat tasvirlari vositasida qahramonlar ichki dunyosining yoritilishida yozuvchining naqadar mahoratli ekanligini ta'kidlaydi. Masalan, "O'tkan kunlar" romanidagi Otabek obrazining psixologik holatlari, usta Olim hikoyasi, tabiat tasvirlari va obrazlar o'rtasidagi bog'liqliklar M.Qo'shjonov tomonidan badiiy-estetik tahlil qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola M.Qo'shjonovning "Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati" asari va boshqa qodiriyshunoslikka oid manbalarini tahlil qilish usuliga

asoslanadi. M.Qo‘shjonovning asarlarida A.Qodiriy romanlarining kompozitsion tuzilishi va syujet dinamikasini tushunish uchun psixologik va estetik talqin usuli ishlatiladi. Bu usul o‘z navbatida yozuvchining obrazlar yaratish san‘ati va voqealar tasviridagi tabiiylikni tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, M.Qo‘shjonovning adib ijodi haqidagi ilmiy baholari zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham qayta ko‘rib chiqiladi.

**Natijalar va muhokama.** Matyoqub Qo‘shjonov qodiriyshunoslik ilmining yirik vakillaridan biri sifatida, o‘zining tahlillarida adabiy-estetik yondashuvlarni chuqur va kompleks tarzda qo‘llaydi. Bu yondashuvlar, asosan, Abdulla Qodiriy asarlarining badiiy-estetik xususiyatlariga asoslanib, yozuvchi mahoratini va uning yaratgan qahramonlarini turli jihatlar bilan tahlil qilishga qaratilgan. M.Qo‘shjonovning tahlillari, ayniqsa, "O‘tkan kunlar" romani misolida yozuvchining estetik tamoyillarini ochib berishga qaratilgan. Romanning ichki tuzilmasi, voqealar rivoji, qahramonlar psixologiyasi va kompozitsion o‘ziga xosliklar olimning diqqat markazida turadi. M.Qo‘shjonov estetik tahlil orqali A.Qodiriyning yozuvchilik san‘atini chuqur tahlil qilib, uning romanchilik uslubini tushuntirishga harakat qilgan.

M.Qo‘shjonov o‘z tadqiqotlarida "O‘tkan kunlar" romanining estetik qirralarini chuqur tahlil qiladi. U yozuvchi tomonidan yaratilgan obrazlar tizimiga e‘tibor qaratadi va ularni badiiy jihatdan chuqurroq talqin qilishga harakat qiladi. Masalan, Otabek obrazini munaqqid psixologik portret nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. "Asarning boshidayoq yozuvchi Otabek obrazining xarakterli xususiyatlarini alohida ta’kidlaydi. Xarakterning rivoj liniyasiga imo qiladi, zamin hozirlaydi. Buni yozuvchi ustalik bilan, sezdirmasdan, hech qanday sun‘iylikka yo‘l qo‘ymasdan bajaradi"[2]. U Otabekning shaxsiyati, uning ichki kechinmalari va ruhiy holatlari romanning syujeti orqali qanday ochilganini ko‘rsatib beradi. Otabekning o‘z qarashlari va hayotiy pozitsiyalari bilan yuzlashishi, uning ichki kurashlari va ziddiyatlari M.Qo‘shjonov uchun qiziqarli tahlil obyekti bo‘ladi. Olim bu jarayonni estetik jihatdan yoritib, Otabek obrazida ko‘rsatilgan psixologik chuqurlikni ochib beradi. Ayniqsa, Otabekning o‘z xohishiga qarshi Marg‘ilonga yo‘l olishi, ota-onasi va ijtimoiy vaziyat oldidagi bo‘ysunuvchanligi orqali obrazning ichki konflikti yoritiladi. M.Qo‘shjonov bu sahnada Otabekning kayfiyatini tasvirlash uchun A.Qodiriy tomonidan foydalanilgan peyzaj tasviri va bu tasvir orqali qahramon ruhiyatining ochib berilganligini e‘tirof etadi.

M.Qo‘shjonov, shuningdek, A.Qodiriyning "O‘tkan kunlar" romanida voqealar rivoji va syujet dinamikasiga alohida urg‘u beradi. Romanda ziddiyatli vaziyatlar, qahramonlarning o‘zaro munosabatlari va konfliktlari orqali voqealarning murakkabligi ochiladi. Bu borada munaqqid romandagi voqealarning dinamikasini estetik va psixologik nuqtayi nazardan chuqur tahlil qiladi. Otabekning Kumush bilan bo‘lgan munosabati, uning Qutidor va Yusufbek Hojiga nisbatan qarashlari orqali voqealar rivojini psixologik va badiiy tahlil qilish M.Qo‘shjonovning tadqiqotlarida alohida o‘rin egallaydi. Ayniqsa, Otabek va Kumush o‘rtasidagi sevgi hikoyasi romanning asosiy ziddiyatli nuqtalaridan biri sifatida ko‘riladi va bu sevgi hikoyasi orqali yozuvchining realizm va estetik go‘zallikni qanday uyg‘unlashtirganligi tahlil qilinadi.

M.Qo‘shjonovning estetik tahlilida yana bir muhim jihat romandagi peyzaj tasviridir. U A.Qodiriy tomonidan yaratilgan tabiat tasviri orqali qahramonlar ruhiy holatini tasvirlash uslubini chuqur tahlil qiladi. Masalan, Otabekning Kumushga bo‘lgan sevgisi, uning o‘z ichki kechinmalari bilan kurashi va ijtimoiy muhitning unga ta’siri A.Qodiriy tomonidan yaratilgan peyzaj orqali ochib beriladi. M.Qo‘shjonov bu jihatdan A.Qodiriy asarida peyzaj tasviri badiiy-estetik vosita sifatida qanday rol o‘ynashini yoritadi. Ayniqsa, Otabekning yo‘lda bo‘lgan sahnalarda yozuvchi tomonidan yaratilgan

tabiat tasviri orqali qahramonning kayfiyati, uning ichki dunyosi aks ettiriladi.

M.Qo'shjonovning estetik tahlillari romandagi musiqaviy elementlarga ham tegishli. Romandagi "Navo" kuyi Otabekning ruhiy holatiga qanday ta'sir qilishini tahlil qilgan olim musiqaning obraz ichki dunyosini ochib berishdagi rolini yoritadi. "Navo" kuyining tinchlantiruvchi va ruhiy tinchlikni ta'minlovchi tasviri orqali Otabekning ichki konfliktlari, uning o'z his-tuyg'ulari bilan kurashi namoyon bo'ladi. M.Qo'shjonovning tahliliga ko'ra, musiqiy elementlar romanda faqat bezak sifatida emas, balki psixologik va estetik go'zallikni ochib beruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi.

M.Qo'shjonovning qodiriyshunoslikka qo'shgan yana bir katta hissasi yozuvchining realizm tamoyillarini chuqur o'rganishida ko'rinadi. U A.Qodiriyning asarlaridagi realizmni badiiy-estetik uslub sifatida tahlil qilib, yozuvchining voqealarni tabiiy va haqqoniy tasvirlashdagi mahoratini ochib beradi. Masalan, "O'tkan kunlar" romanidagi ijtimoiy va shaxsiy ziddiyatlarni A.Qodiriy qanday badiiy tarzda ko'rsatganini, shuningdek, qahramonlar ruhiy holatlari orqali yozuvchining ijtimoiy hayotga munosabatini ochib beradi. M.Qo'shjonov yozuvchi tomonidan tasvirlangan ijtimoiy muhit, qahramonlar o'rtasidagi ziddiyatlar va bu ziddiyatlarning voqea rivojiga ta'siri haqida chuqur tahlillar beradi.

M.Qo'shjonov, shuningdek, sovet davri adabiy talqinlaridagi A.Qodiriyga nisbatan munosabatni ham tahlil qiladi. U A.Qodiriy asarlarining sovet davridagi talqinlarida uchraydigan cheklovlar, ideologik qaramliklar va ayrim hollarda badiiy-estetik jihatlariga yetarlicha e'tibor berilmasligini tanqid qiladi. Olimning fikriga ko'ra, sovet davri adabiy tanqidchiligi ko'pincha A.Qodiriyning asarlaridagi ijtimoiy mazmunni haddan ziyod ko'targan holda, uning badiiy go'zalliklarini, estetik mahoratini chetlab o'tgan. Ayniqsa, Oybekning A.Qodiriy ijodiga nisbatan bo'lgan yondashuvlari va uning tanqidchiligi M.Qo'shjonov tomonidan qayta ko'rib chiqilgan. Xususan, Oybekning Qodiriy asarlaridagi obrazlar, xususan, Otabekning passiv kuzatuvchi sifatida tasvirlanganligi haqidagi mulohazalari M.Qo'shjonov tomonidan chuqur tahlil qilinadi. Munaqqid Oybekning bu tanqidiy fikriga javoban "Abdulla Qodiriy romanlaridagi qahramonlar passiv kuzatuvchilar emas, balki o'z davrining mahsuli bo'lgan"- deya ta'kidlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Matyoqub Qo'shjonov o'zining ilmiy faoliyatida Abdulla Qodiriy ijodini o'rganishga, uning asarlarining badiiy-estetik jihatlarini tahlil qilishga katta e'ibor qaratgan olimlardan biridir. Munaqqid o'zining chuqur ilmiy nazariyalari va badiiy-estetik qarashlari bilan o'z davrida qodiriyshunoslik ilmining yangi bosqichini boshlab berdi. Uning tahlillari A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan tortib, boshqa asarlariga ham keng qamrovli ilmiy yondashuvni ko'rsatadi. Xususan, "Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati" asari o'z zamonida yozuvchi ijodiga yangicha estetik qarashni olib kirgani bilan ajralib turadi. M.Qo'shjonov A.Qodiriyning adabiyot maydonida tutgan o'rni va ijodiy mehnatlarini keng yoritib, uning qahramonlarini estetik va psixologik jihatdan chuqur tahlil qiladi.

M.Qo'shjonov o'z yondashuvlarida Abdulla Qodiriyning ijodini davr talablari va zamon sharoitlari bilan muvofiqlashtirib talqin qiladi. Bu jihatdan olimning asosiy yutug'i A.Qodiriy asarlaridagi badiiy-estetik qirralarni ilmiy asosda yoritib berganidir. Munaqqid A.Qodiriyning yozuvchilik mahorati, u yaratgan qahramonlarining ruhiy holati va psixologik jihatlarini o'rganishda yangi ilmiy va estetik usullarni qo'llagan. Ayniqsa, "O'tkan kunlar" romanidagi Otabek obrazi uning diqqat markazida bo'lib, bu qahramonning hayotiy qarashlari, ruhiy holatlari va ichki ziddiyatlarini badiiy tahlil qilib beradi. M.Qo'shjonov o'z asarlarida Otabekni "passiv kuzatuvchi" sifatida emas, balki o'z davrining vakili, jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlar va shaxsiy hayotidagi qiyinchiliklar bilan kurashuvchi shaxs sifatida talqin qiladi. Bu borada olim, avvalo, Otabekning ichki



dunyosiga chuqur kirib borib, uning ziddiyatlari va qarorlarining sabablarini ilmiy asosda ochib beradi.

M.Qo‘shjonovning A.Qodiriy ijodiga bo‘lgan bunday yondashuvlari, ayniqsa, sovet davrida qodiriyshunoslikning rivojlanishi jarayonida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Sovet ideologiyasiga qaram bo‘lgan davrda ko‘plab adabiyotshunoslar A.Qodiriyning asarlarini faqat ijtimoiy nuqtayi nazardan tahlil qilishga harakat qilgan bo‘lsa, M.Qo‘shjonov badiiy-estetik jihatlarni birinchi o‘ringa qo‘ygan. U A.Qodiriyning yozuvchilik mahorati, uning badiiy obraz yaratishdagi muvaffaqiyatlari haqida gapirib, asosan, yozuvchining ijodini san‘at sifatida tahlil qiladi. Shu bilan birga, olim o‘zining ba‘zi asarlarida davr talablariga muvofiq ravishda yozuvchiga nisbatan tanqidiy yondashuvlarni ham ishlatgan. Masalan, Otabekning ruslarga qarshi kurashdagi roli haqida tanqidiy mulohazalar bildirishi bunga misoldir. Biroq M.Qo‘shjonovning bu kabi tanqidiy yondashuvlari uning estetik va ilmiy pozitsiyalariga putur yetkazmagan, aksincha, davrning talablari va o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda badiiy-estetik yondashuvlarida chuqurroq tadqiqot olib borishga yordam bergan.

Olimning badiiy-estetik tahlillari faqat “O‘tkan kunlar” bilan cheklanmagan. U A.Qodiriyning boshqa asarlarini ham chuqur ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilib, ularning badiiy o‘ziga xosliklarini ko‘rsatib bergan. Masalan, “Mehrobdan chayon” asaridagi qahramonlar, ularning ichki ruhiy ziddiyatlari va syujet dinamikasi M.Qo‘shjonovning tahlillarida muhim o‘rin tutadi. Olim A.Qodiriyning bu asarida yozuvchi tomonidan qo‘llanilgan badiiy usullar, syujet qurilishi va voqealar rivoji haqida keng tahlillar olib boradi. Shu bilan birga, u A.Qodiriyning adabiy-estetik yondashuvlarida klassik an‘analar bilan yangi davr talablari o‘rtasidagi uyg‘unlikni ko‘rsatadi. Bu A.Qodiriyning yozuvchilik uslubini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, Matyoqub Qo‘shjonov o‘zbek adabiyotshunosligi tarixida alohida o‘rin tutgan va ayniqsa, Abdulla Qodiriy ijodini o‘rganish va talqin qilishda katta hissa qo‘shgan adabiyotshunos olimdir. Uning asarlarida milliy qadriyatlar, tarixiy voqealar va xalqning ruhiy olami badiiy obrazlar va ramzlar orqali qanday aks ettirilgani ilmiy asosda tahlil qilinadi. Munaqqidning ilmiy faoliyati o‘zbek milliy-estetik yondashuvlarini chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, u milliy qahramonlarni xalqning ma’naviy qadriyatlari va tarixiy xotirasi bilan bog‘lab, ularning badiiy tasvir orqali o‘zlikni qanday aks ettirishini o‘rganadi. Uning adabiy tahlillari davomida milliy xotira va qadriyatlarining badiiy-estetik qirralari keng yoritiladi. M.Qo‘shjonov A.Qodiriy asarlaridagi tarixiy voqealar va qahramonlarni milliy o‘zlikning ifodalari sifatida tahlil qiladi va ularning o‘zbek xalqining milliy ruhiyatiga bo‘lgan ta’sirini ochib beradi. Bundan tashqari M.Qo‘shjonovning adabiy-tanqidiy izlanishlarida xalq og‘zaki ijodi va dostonchilikka alohida e’tibor qaratilgan. Xalqning og‘zaki ijodida milliy qahramonlar va tarixiy voqealar qanday aks ettirilganini tahlil qilgan munaqqid, bu ijodni A.Qodiriy asarlari bilan qiyoslagan holda, ularning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy jihatdan asoslaydi. “Yaratilishidan boshlab tillarda doston bo‘lgan “O‘tkan kunlar” romanining markazida o‘tmishda yaratilgan “Layli Majnun”, “Tohir va Zuhra” singari dostonlarni eslatadigan Otabek va Kumushbibi oralaridagi so‘nmas muhabbat turadi”[3], - deya ta’kidlaydi munaqqid. Shuni alohida qayd etish lozimki, dostonlar va afsonalar orqali milliy o‘zlikni ifodalash va ularni badiiy asarlar orqali saqlab qolish masalasi M.Qo‘shjonovning ilmiy-tahliliy asarlarida katta o‘rin tutadi.

Shuningdek, Qo‘shjonovning ilmiy faoliyatida tarixiy shaxslar va qahramonlar haqida yozilgan adabiy asarlar tahlili ham muhim ahamiyatga ega. U tarixiy qahramonlar va ularning milliy-estetik jihatdan tasvirlanishini milliy o‘zlikning eng muhim vositasi deb hisoblaydi. M.Qo‘shjonovning adabiy-tanqidiy izlanishlari davomida tarixiy voqealar va

qahramonlar orqali xalqning o'zlik va ruhiyatini aks ettiruvchi badiiy asarlarning ilmiy tahlillari chuqur tahlil qilingan. U Abdulla Qodiriy asarlarida tarixiy voqealar va qahramonlar milliy-estetik jihatdan qanday aks ettirilganini o'rganib, ularning xalq ruhiyatiga bo'lgan ta'sirini ko'rsatadi.

M.Qo'shjonov o'zining ilmiy-tahliliy faoliyatida faqat Abdulla Qodiriy asarlariga emas, balki o'zbek xalqining madaniy qadriyatlari, urf-odatları va tarixiy xotirasiga alohida e'tibor qaratgan. U milliy-estetik tahlillar orqali o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari va tarixiy merosini o'rganib, ularning badiiy asarlar orqali saqlab qolinishini targ'ib qiladi.

Xulosa qilib aytganda, M.Qo'shjonovning ilmiy faoliyati va adabiy-tahliliy izlanishlari o'zbek adabiyotshunosligi uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. M.Qo'shjonov. Tanlangan asarlar. –T.:Sharq, 2018. –B.5,18.
2. M.Qo'shjonov. O'zbekning o'zligi. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – B.5.
3. M.Qo'shjonov. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1966. -B.32
4. M.Qo'shjonov. Qodiriy – erksizlik qurboni. – Toshkent: Fan, 1990. -B.105, 120.
5. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. Toshkent: – G'afur G'ulom,1969. -B.48,110.
6. A.Aliyev. Abdulla Qodiriy: Hayot va ijod. –Toshkent: Ma'naviyat, 1978. -B.19,102.
7. I.Karimov. O'zbek romanchiligi rivoji va Qodiriy ijodi. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010. -B.50, 96.
8. B.Tursunov. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Universitet, 2008. -B.78, 131.

#### **CLASSIFICATION OF THE CHARACTERS OF THE NOVEL *JENNIE GERHARDT* BY T. DREISER**

**Nurbek Farmonov**

Expert in international publications

Karshi State University, Kuchabog street, 17, Karshi, 180119, Uzbekistan

[farmonov.np@qarshidu.uz](mailto:farmonov.np@qarshidu.uz)

ORCID 0009-0004-5684-3506

UDK 82-311.2

**Abstract:** The purpose of this article is to study the work of Theodore Dreiser, one of the most famous writers of American prose of the 20th century, and the representative of the naturalistic movement. We analyze his mastery of character creation by his novel *Jennie Gerhardt* which was published in 1911. When Dreiser created his heroes, he based on his personal observations, his knowledge of life, and the fate of the people around him. Also, the similarities and differences of the characters of the work, Dreiser's leading characteristics in creating an artistic image are analyzed. According to the work of T. Boboyev, the following two leading features: generalization; concreteness/individuality are used to analyze the basis of portrayal of the characters of the classical works.

**Key words:** Jennie Gerhardt, American literature, Theodore Dreiser, character, generalization, concreteness, individuality, literary work.

#### **T.DRAYZERNING JENNI GERHARDT ROMANI QAHRAMONLARINING TASNIFI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolaning maqsadi 20-asr Amerika nasrining eng mashhur yozuvchilaridan biri, naturalistik oqim vakili Teodor Drayzerning ijodini o'rganishdir. Uning 1911-yilda nashr etilgan *Jenni Gerhardt* romanida xarakter yaratish mahorati tahlil qilinadi. Drayzer o'z qahramonlarini yaratar ekan, bunda u shaxsiy kuzatishlari, hayot haqidagi bilimlari, tevarak-atrofidagi odamlarning taqdiriga tayangan. Shuningdek, asar qahramonlarining o'xshash va farqli tomonlari, Drayzerning badiiy obraz yaratishdagi yetakchi xususiyatlari tahlil qilinadi. T.Boboyev nazariyasiga ko'ra, quyidagi ikkita yetakchi vosita: umumlashtirish va konkretlik/individuallashtirishdan foydalanildi. Ushbu xususiyatlar mumtoz asarlar personajlarini tahlil qilishda foydalaniladi.

**Kalit so'zlar:** Jenni Gerhardt, Amerika adabiyoti, Teodor Drayzer, xarakter, umumlashtirish,

konkretlik, individuallik, adabiy asar.

**INTRODUCTION.** Theodore Dreiser was an American prolific artist who worked as a panoramic and compassionate [1] novelist, publisher and editor. He was born in 1875 in Terre Haute, Indiana, USA, in a German-American family. [2] The family was extended; Theodore was the 12th of 13 children. As his father was religious [3], lived a modest life, and had to change his place of residence a lot, Theodore received his primary education quite late and in different schools. He had to earn money since his childhood.

Dreiser's life and work have been studied in Uzbekistan since the 60s and 70s of the 20th century. The reason for his popularity in the East was his passion for communist ideas. He is known in the East as a fierce critic of capitalism. [4] In the early stages of his work, through his stories, the fate of man, the weakness of man in front of nature and natural disasters'. It is obvious that many people in society live in poverty. And very few own great wealth, live a royal life, that wealth and poverty are passed from generation to generation. The fact that people living an ordinary life and trying to find their place do not have the right to make mistakes is skillfully described by the example of different human characters.

O‘zbek sunnat to‘yi marosimi tizimidagi “o‘tin oshi” udumida o‘ynaladigan an’anaviy “qavzoq” o‘yini ham daraxt ruhlari to‘g‘risidagi mifik qarashlar ta’sirida kelib chiqqan bo‘lib, bu borada folklorshunos olimlarimiz M.Jo‘rayev hamda D.O‘rayevalar quyidagicha fikr bildirganlar: “Boysun tumanining Sariosiyo, Gumatak, Qo‘rg‘oncha, Avlod, Rabot, To‘da, Aylangari, Pasurxi va Gaza qishloqlarida “o‘g‘il to‘yi” marosimidan avval “o‘tin to‘yi” qilinadi. To‘y oshi berilishidan ikki kun avval o‘tkaziladigan mazkur udumning mohiyati to‘y uchun zarur bo‘lgan o‘tinni tog‘dan olib kelishdan iboratdir. O‘sha kuni qishloq oqsoqolining tashabbusi bilan yosh yigit-yalanglar qurigan archa daraxtining shox-shabbalaridan o‘tin yig‘ish uchun toqqa chiqib ketadilar. “O‘g‘il to‘yi” bo‘ladigan xonadonda “o‘tin yig‘uvchilar” uchun maxsus ziyofat tayyorlanadi. Yigitlar toqqa chiqib o‘tin yig‘adilar va yig‘ilgan o‘tinni eshaklarga ortib qishloqqa qaytishdan avval archalardan bittasining po‘stlog‘ini shilib oladilar. Archa po‘stlog‘i boysunliklar lahjasida “qavzo” deb yuritiladi. Yigitlar orasidan bir chaqqon, o‘yinga usta, sho‘xrog‘i ana shu po‘stloqlarni ko‘kragiga, beliga, ikki qo‘llariga bog‘lab, yuzi va boshiga po‘stloqdan niqob tayyorlab kiyib oladi. Niqob kiygan yigit o‘tinchilarning oldiga tushib o‘ziga xos harakatlar bilan raqs tushgancha, to‘yxonaga kirib keladi. To‘yxonada to‘plangan odamlar ularni qiyqiriq, kulgi va shodiyona bilan qarshi oladilar. Niqob kiygan yigit davra o‘rtasiga tushib doira jo‘rligida raqs tushadi. To‘y egasi yigitlarga turli-tuman sovg‘alar hadya etadi... bu o‘yinning “o‘g‘il to‘yi”da o‘ynalishi to‘ybolaga baxt, sog‘lik baxsh etadi deb qaraladi” [3, 174-175].

Demak, archa daraxtining bu kabi qadimiy marosimlarni o'tkazishda alohida o'rni borligini ko'rishimiz mumkin. Archa kabi uzoq yashovchan, sog'lom, chidamli bo'lsin deya ushbu daraxtga irim qilganliklari ularning tabiat kuchlariga inonchlari kuchli bo'lgani alomatidir.

Bo'yingdan o'rgilay, yor-ey, bo'yi niholim-ay, do'st, yor-ay,  
Go'zallar ichida bir tup chinorim-ey, do'st, yor-ay,  
Chinorning bargidek-ay, titraydi jonim-ay, ajab, yor-ay,  
Hamisha asrasin sizni Xudoyim-ay, do'st, yor-ay,  
O'zing oshno, diling begonalarda, ha, do'st, yor-ay [1, 87].

Xalq lirikasining yana bir go'zal namunasi "Asil yor" da manzarali daraxtlardan chinor obrazi qo'llangan. O'xshatish san'ati orqali oshiqning bo'y-basti, alp qomati chinorga tenglashtiriladi. Qizning yigit haqidagi o'ylovlari, sevgi-muhabbatga to'la qalbi uning o'z jonini ham chinor barglaridek titroqqa soladi. Ko'rinadiki, ketma-ket qo'llangan o'xshatish san'ati misralarning badiiy go'zal chiqishini ta'minlagan. Yigitlar qomatining chinorga mengzalishini boshqa ko'plab qo'shiqlarda ham kuzatishimiz mumkin:

Yigitlar ichinda bo'ylari chinor,

Shul yorni axtarib getmasam bo'lmas [1, 110].

Chinorning yana bir xususiyati – ming yillar davomida qurimasdan, doimo ko'karib, yashnab turishidir:

Dunyolarning quvonchiga to'la bo'lgin, alla,

Chinordayin umr ko'rgin, zavqqa to'lgin, alla [2, 140].

Umrboqiyiligining sababi o'laroq xalq orasida turlicha afsona va rivoyatlar yuradi. Shulardan biri "Iskandarning obi hayot suvini ichmoqchi bo'lishi haqidagi afsona" [3, 267-268] dir. Demak, bu kabi afsonalarga suyanib, xulosa chiqarsak, tiriklik – hayot suvining chinor tagiga quyilishi uning uzoq yillar davomida yashovchanlik xususiyatini yuzaga keltirgan. Shundan beri ota-bobolarimiz chinorning mo'jizaviy daraxt ekanligiga e'tiqod bilan qaraganlar.

Turkiy xalqlar orasida muqaddas sanalgan daraxtlardan yana biri bu – tut. U o'zining flora olamiga ko'rsatgan faol ijobiy ta'siridan tashqari, mevasi, xo'jalik va sanoatda ishlatilishi, estetik zavq berishi bilan farqlanadi. Badiiy adabiyotda tut – bag'rikenglik ramzi sanaladi. Chunki uning soyasidan, mevasidan el hamisha bahramand bo'lib kelgan. Tut mevasi tabobatda ham juda foydali bo'lib, u nafaqat insonlarning, balki jamiki jonzotlar: hayvonlar, qushlar, qurt-qumursqalarning asosiy ozuqasi hisoblangan. Tut daraxti mevasi juda mayda, shig'il hosil beradi. Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan "tutday to'kilmoq" iborasi shundan kelib chiqqan. Tutni bittalab termaydilar, aksincha, tagiga sholcha solib, tayoq yordamida qoqib oladilar. Uning mevasidan qaynatib tayyorlangan suyuq shirinlik nomi shinni deb ataladi. U, asosan, qish oylarida tanovul qilinadi hamda tomoq va oshqozon-ichak kasalliklari uchun davo bo'lishi tibbiyotda isbotlangan.

Barcha turdagi xalq lirikasida tut bilan bog'liq qo'shiqlarga duch kelishimiz mumkin:

Yengli ko'ylak etagiga

Tut qoqaylik, yor-yor.

Kuyov pochcham bag'riga

O't yoqaylik, yor-yor [1, 377].

Yoki:

Jonim bolam, alla-yo,

O'rgilib ketsin, onang, alla,

Tut yog'ochdan beshiging, alla

Termulib o'tsin, onang, alla [2, 61].

Ma'lumki, turkiy xalqlarda chaqaloq dunyoga kelgach, uni tut, tol, yoki boshqa mevali daraxtlardan yasalgan beshikka belaganlar. Agar chaqaloq o'g'il bola bo'lsa, uning nomiga atab terak ekkanlar. Bola ulg'aygach, ana shu teraklardan unga atab imorat qurilgan. Vaqti kelib, inson vafot etganda, uni yuqoridagi daraxtlardan yasalgan yog'och tobutga solishgan. Aza marosimlarini kuzatadigan bo'lsak, tobut oldida daraxt tanasidan sindirib olingan uzun va to'g'ri o'sgan cho'pni hassa qilib ushlab, mayit qabrga qo'yilib, ustidan tuproq tortilgach, hassalarni qabr boshiga yoki atrofiga suqib qaytish an'analari bugungi kunda ham saqlanib qolganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda xalqning daraxtlar bilan bog'liq e'tiqodi mavjudligi yorqin namoyon bo'ladi.

Qadimiy qo'shiqlarda mevali daraxtlar va meva obrazlari juda ko'p jihatdan hosildorlik kultlari bilan bog'langan. Shulardan eng faol qo'llanuvchi meva bu – olmadir. Mazkur obrazni biz folklorning barcha janrlarida birdek uchratishimiz mumkin. Misralarda qo'llangan ma'lum bir so'z poetik obraz darajasida shakllangan taqdirida yoki biror ramziy ma'noni tashigan holda ham, u har qaysi lirik asarda turlicha ma'noni ifodalab kelishi tabiiy holdir. Bu jarayon so'zning alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi:

Olma, dedim, yuzingni,  
Ololmadim so'zingni.  
Hidlab ko'rib o'zingni,  
Rayhon, desam, uyalma [1, 54]

“Uyalma” qo'shig'ida kelgan olma so'zini ikki ma'noda tushunish mumkin:

1. Meva
2. Fe'lning bo'lishsiz shakli

Bandning birinchi misrasida kelgan olma obrazi yorning yuziga o'xshatilgan. Oshiq yigit sevgilisi yuzlariga mahliyo bo'lib, uning chehrasini olmadek tarang va chiroyli ekaniga urg'u bermoqda. Olmaning yana bir ma'nosini uqish uchun kitobxon o'ta diqqatli bo'lmog'i lozim. Bunda yigit qizdan uyalmasligini, yuzini teskari o'girmasligini so'rayapti. Yorining bir so'zini ham ololmagani, ya'ni tinglay olmaganini ta'kidlayapti.

“Qoshing qarosi” xalq lirikasida qo'llangan qizil olma obrazi ramziy ma'no tashiydi.

Qoshing qarosi olamga mashhur,  
Qizil olma beray – qo'yingga yashir.  
Bergan qizil olmam qo'yingda tursin,  
Menga bergan va'dang ko'nglingda tursin!  
Qoshingni qarosi yuvsan ketarmi?  
Seningdek toza gul bog'da bitarmi?  
Seningdek toza gul bog'da bitganda,  
So'rab borsam – bog'bon menga sotarmi? [1, 37]

Mazkur obrazni ikki xil talqin qilishimiz mumkin:

1. Qizil olma – sevgi, muhabbat ramzi
2. Qizil olma – farzand ramzi

Ko'pgina xalq rivoyat va afsonalarida, dostonlarda, qisqasi, folklorning barcha yo'nalishlarida olma obrazini uchratamiz va u mehr-muhabbat, yor yoki uning siynasi, farzand kabi ramziy timsollarni ifodalab kelishi kuzatiladi.

Oq olma, qizil olma pishmaydikan,  
Ikki yaxshi bir yerga tushmaydikan.  
Ikki yaxshi bir yerga tushib qolsa,  
Bu dunyodan o'tganing bilmaydikan [1, 4].



Ushbu misralarda olmaning ikki xil tusdagi ko‘rinishi aytilgan. Bunda qadimgi xalqlarning ibtidoiy tasavvurlarga tayanib, daraxtlarni jinslarga: erkak va ayolga ajratganliklarini inobatga olsak, oq olma – o‘g‘il bolani, qizil olma esa qiz bolani bildiradi.

Ko‘pincha olma obraziga yondosh obraz sifatida anor mevasi qo‘llanadi. U serhosillik, baraka ramzi bo‘lib keladi:

Bog‘im bor-u bog‘im bor,  
Bog‘imda anorim bor.  
Armoni yo‘q qizman-ey  
Lafzi halol yorim bor [1, 170]

“Shuning uchun ham suv va hosildorlik ma‘budasi Anaxita ko‘pincha mo‘l hosil baxsh etuvchilik xususiyatini anglatuvchi timsoliy ne‘mat – anor ushlagan holatda tasvirlangan. Xususan, qadimiy Varaxshadan topilgan osori atiqalar orasida o‘ng qo‘lida anor ushlab turgan ayol haykalchasi ham bor... Qadimda anor mevasi serfarzandlilik baxsh etish xususiyatiga ega, deb tasavvur qilinganligi sababli xalqimizning hunarmandchilik buyumlarida, xususan, kelinlar sepi uchun mo‘ljallab tayyorlangan palak va so‘zanalarga ham anor tasviri naqshlangan” [3, 284-285]. Demak, turkiy xalqlarda anor juda qadri daraxt hisoblangan va mifologik dunyoqarashga ko‘ra uning buyuk qudratiga ishonch kuchli bo‘lgan.

“Omon yor-5” variantida anor obrazining ma‘no maydoni yanada kengayadi:

Bog‘ ichida anorim,  
Va‘da shumidi, yorim?  
Va‘da shu bo‘lsa, yorim,  
Qayda orzu-armonim-ey?  
Yor, aylanay, omon yor,  
Kuydirganingdan [1, 181].

Mazkur o‘rinda anor timsoli qaysar, bevafo yor ramzini ham ifoda etganki, buni oshiq yigitning “kuyish” laridan anglash qiyin kechmaydi.

Kichkina chorbog‘ ichida  
Olmali boqqa kirib,  
Shaftolida sindi qo‘lim.  
Yaxshi yor izlab yurib,  
Yomon bilan o‘tdi umrim [1, 175].

Mifologik tasavvurlarga asoslanadigan bo‘lsak, yuqorida keltirilgan misralardagi olma poetik obrazining yana bir ma‘nosi – visol yoki vafodorlikdir. Lirik qahramon balog‘atga yetgach, o‘zi uchun vafoli, diltortar yorni orzulaydi: “olmali bog‘ga kiradi”. Ammo uning bu niyati chippakka chiqib, umrini o‘zi xohlamagan hamroh bilan o‘tkazishga majbur bo‘ladi. Shaftoli xiyonat, qalbaki sevgi kabi ramziy ma‘nolarni ifodalab kelgan. Demak, mazkur xalq qo‘shig‘ida olma va shaftoli obrazlari parallel qo‘yilib, vafodorlik-bevafolik tushunchalarini aniqlashtirishda qo‘l kelgan.

“Eshik oldi zardoli” qo‘shig‘ida qadimiy mevalardan biri o‘rik haqida gap ketadi. Ma‘lumki, o‘rik o‘zining juda ko‘p shifobaxsh xususiyatlari bilan boshqa mevalardan oldingi o‘rinda turadi. Ayrim hududlarda uni zardoli nomi bilan ham atashadi. Odatda, hovlilarning old qismiga o‘rik ekkanlar. Uni tutga o‘xshab tayoq bilan urib, sholchalarga qoqib olishgan. Bunda yosh, baquvvat yigitlar yordamidan foydalanishgan:

Eshik oldi zardoli,  
Mevang bormi olgani?  
Bir ishorat qilmasang,  
Haddim bormi borgani? [1, 201]

“Pardevor” qo‘shig‘ida bizga juda yaxshi tanish bo‘lgan jiyda obrazi bor. U ayni bahor chog‘i gullaydi va hidi butun atrof-muhitni egallab oladi. Bahor faslida uyg‘onish, yasharish jarayoni sodir bo‘ladi. Jiyda, odatda, salbiy ma‘noda salbiy obrazlar bilan yonma-yon keltiriladi. Xarakter-xususiyatida o‘zgarish sezilgan, qizlarga yoki, aksincha, yigitlarga intilish ishtiyoqi kuchaygan balog‘atga yetgan yoshlarga “jiyda ta’sir qilibdi” degan fikr bildiriladi. Ilmiy adabiyotlarda jiydaning inson uchun xavfli efir moyi ishlab chiqarishi aniqlangan. Jiyda cho‘l va suvsiz yerlarda o‘sadi. Bargining rangi kulrang bo‘lib, daraxtning umumiy ko‘rinishi e’tiborni jalb etmaydi, ko‘rimsiz. Jiyda ostida falokat keltiruvchi ruhlari, ins-u jinslar makon qurishi haqidagi turli mish-mishlar hamon xalq orasida yuradi. Shu bois jiydaning yonida uzoq o‘tirish, uxlab qolish yomon oqibatlarga olib keladi, degan qarashlarga duch kelamiz. Hatto biroz g‘alati gapirgan yoki noodatiy ishlarga qo‘l urgan kishilarga nisbatan “jiydaning ostida qolgan” iborasi ishlatiladi:

Hovuz bo‘yida jiyda,  
 Jiydaning guli mayda.  
 Hammaning yori uyda,  
 Bizning darbadar qayda? [1, 69]

Qo‘shiqda sadoqatsiz, bevafo yor obrazi jiyda obraziga parallel holda gavdalanitirilgan. Chunki jiyda mevasi sevib yeyilsa-da, buning aksi o‘laroq, rangi yoqimsiz. Gulining hidi jihatidan ham xavfli daraxt bo‘lgani uchun bevafo yorga qiyoslangan.

**Xulosa.** Millat kundalik turmushining badiiy ifodasi, umuminsoniy qadriyatlarining tarkibiy qismi sifatida xalq poeziyasi millatning uzoq asrlik poetik xotirasini jamlaydi. Bunda olamning badiiy manzarasini aks ettirishda, floristik obrazlar xususan, daraxt timsollari muhim o‘rin tutadi. Ular orqali xalq ko‘nglidagi dardlarini, qalb kechinmalarini yorqin ifoda eta olgan. Xalqning ko‘p asrlik turmush tarzi, taraqqiyoti mifologik qarashlar zaminida shakllangan. Bu esa, o‘z navbatida, milliy poeziyaga ta’sirini o‘tkazgan. Daraxtlarning jonli va ongli, oliy ruhga ega degan e’tiqodiy qarashlar bugungi kunimizga qadar saqlanib qolmoqda. Mazkur masala ilmiy-nazariy jihatdan keng tadqiq etilishga muhtoj.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шода-шода марварид: Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: Шарқ, 2006. – 416 б.
2. Энг сара аллалар. Нашрга тайёрловчи Абдумурод Тилавов. – Т.: Адабиёт уққунлари, 2017. – 144 б.
3. Jo‘rayev M., O‘rayeva D. O‘zbek mifologiyasi. – Т.: O‘qituvchi, 2019. – 558 б.
4. Алавия М. Ўзбек халқ маросим кўшиқлари. – Т.: Фан, 1974. – 224 б.
5. Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – 308 б.
6. Қуроноу Д., Мамажоноу З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2010. – 398 б.
7. Турдимов Ш.Г. Поэтические символы в узбекских народных лирических песнях. Дисс., канд., филол. наук. – Т.: 1987. – 184 с.
8. Rustamova G. O‘zbek folklorida daraxtlar obrazi. Monografiya. – Т.: Fan ziyosi nashriyoti, 2023. – 128 б.
9. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоков Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – 304 б.
10. O‘roqova N. (2024). Abdulla Oripov lirikasida ramziy-floristik obrazlar ifodasi. Centralnoaziatskiy zhurnal mezhdisciplinarnykh issledovaniy i issledovaniy v oblasti upravleniya, 1(3), 193-199.
11. Yoriyevna O. N. et al. Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida floristik obrazlar talqini //Scientific approach to the modern education system. – 2024. – Т. 2. – №. 24. – С. 26-32.

## 1- SINF O'QUVCHILARIGA "INFORMATIKA VA AT" FANINI O'QITISHDA VIZUALLASHTIRISH USULLARIDAN FOYDALANISH.

Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

[muxiba8083@mail.ru](mailto:muxiba8083@mail.ru)

ORCID: 0009-0009-5083-2511

UDK: 004.371.373.167.1

**Annotatsiya.** Maqolada 1-sinf o'quvchilariga "Informatika va AT" fanini o'qitishda vizuallashtirishning o'quv jarayonini osonlashtirish, o'quvchilarga ma'lumotlarni tushuntirish va tushunishini yaxshilashga qanday yordam berishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, "Informatika va AT" fanini o'qitish metodikasi mavzusida yangiliklar va innovatsiyalar taqdim etilib, animatsiyalar, interaktiv darsliklar, multimedia materiallar, virtual darsliklar, intellekt xaritalar, o'yinlar va interaktiv materiallar kabi vizuallashtirilgan dasturlarni o'rganish va ularni amaliyotda qo'llashning ahamiyati ko'rsatilgan. Taklif qilingan metodlar va yondashuvlar o'quvchilarni axborot va kommunikatsion texnologiyalar bilan tanishtirish va ular ma'lumotlarni oson tushuntirishda samarali usullar ekanligi misollar orqali ko'rsatib o'tildi. Bu maqola ilmiy tadqiqotlar, pedagogik prinsiplar va o'quvchilarning texnologiyalar bilan tanishishlarini o'rgatishga oid metodologik prinsiplarga asoslanadi. Maqola ilmiy nashrlar va tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Muhokama natijalariga asosan, vizuallashtirilgan dasturlar, interaktiv darsliklar, interaktiv ta'lim metodlari o'quvchilarning o'rganish jarayonini samarali tashkil etish va osonlashtirish uchun muhimdir. Maqolada o'qituvchilarga yangi yondashuvlar va vizuallashtirish usullari taqdim etildi, shuningdek, o'quvchilarni kompyuter va texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlashda yordam beruvchi interaktiv darslikning ishlatilishi keltirildi.

**Kalit so'zlar:** Informatika va AT, vizuallashtirish, interaktiv multimedia dasturlari, o'qitish, metodikalar, rangli tasvirlar va grafiklar, interaktiv darsliklar, multimedia materiallar, virtual darsliklar va laboratoriyalar, intellekt xaritalar, infografika, qahramonlar va animatsiyalar, o'yinlar va interaktiv materiallar, ta'lim materiallari.

### USE OF VISUALIZATION METHODS IN TEACHING "INFORMATICS AND IT" TO 1ST GRADE STUDENTS.

**Abstract.** The article provides information on how visualization can facilitate the learning process when teaching the discipline "Computer Science and Information Technology" to 1st grade students, and improve students' interpretation and understanding of information. In particular, presenting news and innovations in the field of teaching methods for the subject "Computer Science and Information Technology", studying and putting into practice visualization programs such as animation, interactive textbooks, multimedia materials, virtual textbooks, mind maps, games and interactive materials. It is indicated. Using examples, it was shown that the proposed methods and approaches are effective methods for introducing students to information and communication technologies and easily explaining information to them. This article is based on scientific research, pedagogical principles and methodological principles for teaching technology to students. The article is analyzed on the basis of scientific publications and research. Based on the discussion, visualized programs, interactive textbooks, and interactive teaching methods are essential for effectively organizing and facilitating student learning. This article introduces teachers to new visualization approaches and techniques, as well as the use of interactive textbooks, to help prepare students to work with computers and technology. In conclusion, it should be noted that visualization develops creative thinking skills when teaching the discipline "Computer Science and Information Technology" to 1st grade students.

**Keywords:** Computer science and information technology, visualization, interactive multimedia programs, training, methods, color images and graphics, interactive textbooks, multimedia materials, virtual textbooks and laboratories, mind maps, infographics, characters and animation, games and interactive materials, educational materials.

**Kirish.** Har qanday mamlakatning kuch-qudrati uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bu esa bevosita ta'lim sifatiga bog'liq. Butun dunyoda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar kishilik jamiyatining oliy maqsadi bo'lib kelgan – jismonan va axloqan barkamol, aqlan yetuk, ma'naviy boy insonni tarbiyalash muammosining yechimini topishga qaratilgan bo'lib, bu demokratik davlat va kuchli

fuqarolik jamiyatida muhim ahamiyat kasb etadi va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash tizimining natijali samaradorligini zamonaviy talablar asosida oshirib borish vazifasini qo'yadi. [6]

Ta'lim tizimida innovatsiya, integratsiya va o'qitish sifati monitoringini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarda o'quv-tarbiya jarayoni natijaviyligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday yo'nalishdagi tadqiqotlarda o'qitish sifati monitoringining nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini tatbiq etish, uzluksiz ta'lim tizimiga innovatsion g'oyalarni, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy qilishga oid ilmiy jihatdan asoslangan takliflarni, tavsiyalar tizimini ishlab chiqish, ta'lim va o'qitish sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, o'qitish sifati monitoringini avtomatlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'lim sifatini oshirish uchta eng asosiy tarmoqlarning birdek takomillashuviga bog'liq bo'lib, ular umumta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasini rivojlantirish, uni o'quv metodik adabiyotlar bilan ta'minlash, o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni tatbiq etishdan iborat. [4, 21-22]

Ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish, 1-sinfdan o'quvchilarga integratsiyalashgan ta'lim jarayonlari amalga oshirish ko'zda tutilgan. Ta'lim olish jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligini e'tirof etishimiz lozim. Chunki bu davr bolalarida tasavvur asosan rasm chiroyotganlarida, ertak, hikoyalar eshitayotganlarida, qiziqarli multifilm va videodarslar ko'rayotganlarida rivojlanadi.

O'zbekistonda 1-sinf o'quvchilari uchun "Informatika va AT" fani joriy etilgan. Bu haqda O'zbekiston ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan tayanch o'quv rejasi bilan ma'lumot berilgan. Unga ko'ra, Respublika ta'lim markaziga bir oy muddatda tayanch o'quv reja asosida tegishli taqvim-mavzu rejalarini ishlab chiqish, bir hafta muddatda 1-sinf "Informatika va AT" fanini o'qitish metodikasi, o'quv dasturi, davlat ta'lim standartlari va taqvim-mavzu rejalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha vazirlikka taklif kiritish topshirildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** "Informatika va AT" fanini o'qitish metodikasi o'quvchilarga kompyuter va texnologiyalar bilan tanishish va ularni qo'llash uchun samarali usullarni o'rganishda yangi yondashuvlarga ega bo'lib kelmoqda. Jumladan, boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari aqliy ta'limini rivojlantirish uchun ta'lim va tarbiya birligiga beriladigan bilimning ilmiy bo'lishi, bilimning sistemali va izchil bo'lishi barobarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga erishilmoqda. [7, 14-15]

Har bir dars o'quvchi uchun yangi axborot hioblanadi. Ayniqsa, yangi o'quv materiali orqali o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarini shakllantirish asosiy ta'lim sifatini ta'minlovchi omildir. O'quvchilarga yangi bilimlarni berish va olingan yangi bilimlar asosida ko'nikmalarni shakllantirish uchun kichik guruhlarda ishlash, vizuallashtirish, mustaqil ijodiy ishlash, o'yin mashqlari va rolli o'yinlar kabi noan'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Mana shularni hisobga olgan holda, ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish borasida bugungi kunda juda ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. [8, 35-36]

Shu boisdan ham ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Ta'lim jarayonini faollashtirishning samarali

texnologiyalaridan biri bu o'quv ma'lumotlarini vizuallashtirish usuli. So'nggi o'n yilliklarda vizual ma'lumotlarni uzatish sohasida inqilobiy o'zgarishlar ro'y berdi: uzatiladigan ma'lumotlarning hajmi oshdi, vizual ma'lumotlarning yangi turlari, shuningdek, uni uzatish usullari paydo bo'ldi. Texnologik taraqqiyot va yangi vizual madaniyatning shakllanishi belgilangan tartibda o'qituvchilar faoliyatiga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga oladi. Vizuallashtirish o'quvchilarga ma'lumotni to'g'ri tashkil etish va tahlil qilishga yordam beradi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, o'quvchilarga yangi bilimlarni birlashtirishga yordam beradi, olingan ma'lumotlarni ma'lum bir hodisa yoki obyektning yaxlit tasviriga bog'lashga imkon beradi. Diagrammalar, chizmalar, xotira kartalari, mos tushish xaritalari, taqdimotlar, videolar, intellekt xaritalar katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zlashtirishga yordam beradi, ma'lumot bloklari o'rtasidagi munosabatlarni eslab qolish va kuzatishni osonlashtiradi. [1, 12-13]

Tajribalarning ko'rsatishicha, inson 10 sekund davomida ko'rgan 2500 ta rasmning 98% xotirada saqlanadi. Bir yildan keyin bu ko'rsatkich 63% gacha pasayishi mumkin xolos. Inson xotirasida vizual ma'lumotlar verbal ma'lumotlarga qaraganda o'rtacha 6-7 marta yaxshi saqlanadi [3, 6-7]. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim jarayonini vizuallashtirish o'quvchining ijodiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qiladi.

Ta'lim jarayoni ma'lumotlarni uzatishga asoslangan, shuning uchun ko'plab olimlar ma'lumotni vizual taqdim etishning ta'limdagi roliga e'tibor berishdi. Quyida shularning ayrimlarini tahlil etamiz:

B.G.Ananiyev va A.N.Leontev tushunchalarni shakllantirish jarayonida maxsus vizuallashtirishdan foydalanish va umumlantirish, mavhumlashtirish, tizimlashtirish va hokazolarning ichki ideal aqliy jarayonlarini rivojlantirish o'rtasidagi yaqin bog'liqlik to'g'risida g'oyalarni bildirdilar.

Nazariy tushunchalarni o'zlashtirish jarayonida yosh o'quvchilarni modellashtirish va ramziy ko'rinishni yaratishga o'rgatish zarurati V.V. Davidov va D.B. Elkonin tomonidan ta'kidlangan. L.V. Zankov grafik vizuallashtirishdan foydalanishning talabalar tafakkurini rivojlantirish va ularning nazariy bilimlarni egallashiga ta'sirini, vizuallashtirish va o'qituvchining so'zlarini birlashtirish usullarini o'rganib chiqdi va talabalarning aqliy faoliyatini faollashtirish uchun ulardan eng samaralilarini aniqladi. Ko'rinish prinsipi yosh o'quvchilarni o'qitishda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Multimediyadan (jadvallar, diagrammalar, rasmlar, animatsion tasvirlar, ovoz) foydalanish o'rganilayotgan materialni tez yodlash va tushunishga imkon beradi. Zamonaviy texnik imkoniyatlarni hisobga olgan holda, o'quv jarayonida ma'lumotni vizuallashtirish g'oyasi yangi xususiyatlarga ega. [9, 11-12]

Ma'lumotlarni vizuallashtirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar bilan tanishib, "ICT" sohasining tajriba egasi, 20 yildan ortiq tajribaga ega Dr. John Smith "O'qitish jarayonida interaktiv darsliklar yaratishning o'z-o'zini namoyish etishi" nomli tadqiqot ishlari bilan "Informatika va AT" fanini o'qitish metodikasini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shmoqda. [10, 21-22]

Pedagogika sohasida mutaxassis, bilimlarni o'qitishda innovatsion usullarga ega olim Dr.Emily Johnson "San'atni qo'llashning o'qitish jarayonida ahamiyati" mavzusidagi tadqiqot ishini "Informatika va AT" fanini o'qitish metodikasida qo'lladi. [5, 14-15]

Prof.Michael Browning virtual ta'lim muhitidagi qulayliklarni oshirishga oid tadqiqotlari "Informatika va AT" fanini o'qitish metodikasining innovatsion tomonlarini rivojlantirishga yordam beradi. [2, 18-19]

**Natijalar va muhokama.** Vizuallashtirish – bu ma'lumotlarni dasturiy vositalar, loyihalar yordamida tinglovchiga yetkazish usuli. Vizuallashtirish asosan kompyuter grafikasi (3D kompyuter grafikasi), intellekt xarita, interaktiv multimedia dasturlari,

dasturlash tillaridan foydalangan holda ma'lumotni yetkazish.

Ba'zi manbalarda vizuallashtirish tushunchasini ma'lumotlarni ko'rish orqali tushunishni osonlashtiradigan grafika va diagrammalarga aylantirish jarayonidir deb keltirilgan. Vizualashtirish texnikalari ma'lumotlarni tahlil qilish, taqdimot qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini yengillashtiradi.

Yangi tartibdagi darslik va o'quv qo'llanmalarda esa vizuallashtirish - bu ma'lumot va g'oyalarni grafik, diagramma, xarita, va boshqa vizual formatlarda taqdim etish jarayonidir deyilgan. Bu usul murakkab ma'lumotlarni tushunishni osonlashtiradi, ular o'rtasidagi munosabatlarni ochib beradi va qaror qabul qilish jarayonini yengillashtiradi.

#### ***Vizuallashtirishning maqsadlari.***

- ✓ Ma'lumotlar orasidagi tendentsiyalar, naqshlar va munosabatlarni aniqlash;
- ✓ Rahbarlar va boshqaruvchilar uchun tez va aniq qaror qabul qilish imkoniyatini ta'minlash;
- ✓ Ma'lumotlarni samarali tarzda boshqalarga taqdim etish hamda tushuntirish;
- ✓ Tadqiqotchilar uchun ma'lumotlarni tahlil qilish va ularning natijalarini ko'rish imkoniyatini yaratish;

#### ***Vizuallashtirish usullari.***

- ✓ Ma'lumotlarni grafik va diagramma shaklida ko'rsatish (masalan, chiziqli grafik, doira diagramma, bar grafik);
- ✓ Ma'lumotlarni geografik hududlarga bo'lib ko'rsatish (masalan, issiqlik xaritalari);
- ✓ Ma'lumotlarni matritsa ko'rinishida ko'rsatish;
- ✓ Uch o'lchamli vizuallashtirish usullari;
- ✓ Foydalanuvchilarga ma'lumotlarni filtrlash, o'zgartirish yoki batafsilroq ko'rish imkonini beruvchi grafiklar;

#### ***Vizuallashtirishning foydalari.***

- ✓ Grafiklar va diagrammalar ma'lumotlarni tez va oson tushunishga yordam beradi;
- ✓ Qarorlarni tezlashtirish: Vizualashtirish qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi;
- ✓ Murakkab va katta hajmdagi ma'lumotlarni oson tushuniladigan formatda taqdim etadi;
- ✓ Ma'lumotlar orasidagi muhim naqshlar va munosabatlarni aniqlashni yengillashtiradi.

Vizuallashtirish ma'lumotlarni boshqarish va tahlil qilish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Turli xil vositalar va usullar yordamida amalga oshiriladi va ularning har biri ma'lum bir maqsadga muvofiq tanlanadi.

“Informatika va AT” fanlarini o'qitishda ma'lumotlarni vizuallashtirish, ya'ni matn, tasvirlar, diagrammalar, va grafiklarni foydalanish, o'quvchilarga ko'ngilli materiallarni oson tushuntirishda yordam beradi. 1-sinf o'quvchilariga “Informatika va AT” fanini o'qitish uchun ma'lumotlarni vizuallashtirish usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

***Rangli tasvirlar va grafiklar.*** Ko'p o'quvchilar uchun matn o'qishdan ko'proq ma'lumotlarni tasvirlashda oson bo'lib, ma'lumotlar tushunarli bo'lishi uchun diagrammalar va grafiklardan foydalanish juda foydali bo'ladi. Misol uchun, algoritmlar va dasturlash tili mavzusini o'qitishda, blok sxemalari yoki algoritmnning qadamli jarayonini ko'rsatish uchun grafiklar ishlatilishi mumkin.

***Interaktiv darsliklar.*** Interaktiv darsliklar o'quvchilarga qiziqishlarini oshirishda juda foydali bo'ladi. O'quvchilar ma'lumotlarni o'rganish va sinashlari uchun o'yinlar, interaktiv vazifalar va darsliklar bilan birgalikda o'rganishlari mumkin.

***Multimedia materiallar.*** Videolar, audio darslar, animatsiyalar va boshqa multimediyalar materiallar o'quvchilarning diqqatini jalb qilishda yordam beradi. Masalan, dasturlash tilini o'rganishda kodlar yozishni ko'rsatuvchi video darslar yoki animatsiyalar ishlatish o'quvchilarga kodlar yozishni oson tushuntiradi.

**Virtual darsliklar va laboratoriyalar.** Virtual darsliklar va laboratoriyalar, o'quvchilarga ma'lumotlarni amaliyotda o'rganish imkoniyatini beradi. Bu usul bilan o'quvchilar teoridan ko'ra amaliyotda ustunliklarini tekshirishlari mumkin.

**Intellekt (fikr) xaritalari (Mindomo).** Fikr xaritalari yoki "mindomo" foydali usul bo'lib, o'quvchilarga ma'lumotlar tizimini tuzish va bog'lanishlarni ko'rsatishda yordam beradi. Bu usul o'quvchilarning ma'lumotlarni tushunishini osonlashtiradi va o'z fikrlarini yopish va taqdim etishda yordam beradi.

**Infografika.** Infografika – bu ma'lumot, ma'lumotlar va bilimlarni taqdim etishning grafik usuli. Infografikaning asosiy tamoyillari mazmun, ma'no, idrok etish qulayligi va allegoriklikdir. Infografikani yaratish uchun jadvallar, diagrammalar, grafik elementlar va boshqalardan foydalanish mumkin. Infografika ma'lumotni odamlar o'rtasidagi aloqa usuli sifatida grafik tasvirlash, murakkab hodisalar va tushunchalarning ma'nosi.

**Qahramonlar va animatsiyalar.** Qahramonlar va animatsiyalar, o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va ma'lumotlarni o'rganishda yordam beradi. Masalan, oddiy kodlar yozishni ko'rsatuvchi animatsiyalar yoki kompyuter dasturlarini o'rganishda o'quvchilarga yordam beruvchi qahramonlar ishlatish. Scratch dasturida o'yin va multfilm qahramonlari ishtirok etgan vositalar yaratish va ularni tatbiq etish dars sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**O'yinlar va interaktiv materiallar.** O'yinlar va interaktiv darsliklar o'quvchilarning ma'lumotlarni o'rganishda ko'nikmalarini oshirishda juda foydali bo'ladi. Virtual laboratoriyalar, kod yozish o'yinlari va interaktiv vazifalar yordamida o'quvchilarning ma'lumotlarini sinash va mustaqil o'rganishlari osonlashadi.


Bu usullar "Informatika va AT" fanlarini o'qitishda o'quvchilarning ma'lumotlarni tushuntirish, tushunish va qo'llashini osonlashtiradi.

"Informatika va AT" fanini 1-sinf o'quvchilariga o'qitishda o'yin va interaktiv materiallar juda samarali bo'ladi. Bu materiallar o'quvchilarning ma'lumotlarini sinash, o'rganish va tushuntirish jarayonini qiziqarli va oson qilishda yordam beradi.

"Biz olamni qanday anglaymiz" mavzusida yaratilgan interaktiv o'yin dasturining bosqichma-bosqich tavsifi quyidagicha:

– Maqsad: Bolalar uchun tabiatni, hayvonlar, mevalar va fasllarni interaktiv usulda o'rganish.

– Vosita: Builder vositasida yaratilgan dastur.



### **O'yinning bo'limlari.**

#### **1. Hayvonlar bo'limi:**

**Tanlash Menyusi:** O'yinni boshlaganingizda, foydalanuvchiga hayvonlar, mevalar yoki fasllar bo'limlaridan birini tanlash imkoniyati beriladi. Hayvonlar bo'limini tanlang.


**Hayvon tasvirlari:** Ekraning pastki qismida turli hayvonlarning tasvirlari joylashtirilgan. Misol uchun, qush, baliq, mushuk va hokazo.

*Markaziy sohaga moslashtirish:* Oynaning markazida har bir hayvonga mos bo'sh soha mavjud. Foydalanuvchi hayvon tasvirini sichqoncha yoki barmoq yordamida ushbu soha tomon sudrab boradi.

*To'g'ri moslash:* Agar hayvon tasviri mos sohaga olib borilsa, u joyida qabul qilinadi va vizual tasdiq (masalan, tovush yoki animatsiya) orqali ma'lum qilinadi.

*Notog'ri moslash:* Agar hayvon tasviri noto'g'ri sohaga olib borilsa, u qaytariladi va foydalanuvchi qayta urinib ko'rishi kerak bo'ladi.

*Boshqotirma:* To'g'ri qabul qilingan hayvon tasvirlaridan keyin, foydalanuvchi hayvon bo'laklarini to'g'ri yig'ish boshqotirmasini yechadi. Bu yerda foydalanuvchi hayvonning tana bo'laklarini to'g'ri joylashtirishi kerak.



## 2. Mevalar bo'limi:

*Meva tasvirlari:* Ekraning pastki qismida turli mevalar (olma, banan, apelsin va hokazo) tasvirlari joylashtirilgan.

*Markaziy sohaga moslashtirish:* O'yin markazida har bir mevaga mos bo'sh soha mavjud. Meva tasvirini mos sohaga olib borish kerak.

*To'g'ri moslash:* Meva tasviri mos sohaga to'g'ri kelsa, qabul qilinadi va tasdiqlovchi animatsiya yoki tovush eshutiladi.

*Notog'ri moslash:* Meva tasviri noto'g'ri sohaga olib borilsa, u qaytariladi va foydalanuvchi yana urinib ko'rishi kerak bo'ladi.

*Boshqotirma:* To'g'ri qabul qilingan mevalar tasvirlaridan keyin, foydalanuvchi meva bo'laklarini to'g'ri yig'ish boshqotirmasini yechadi. Masalan, olma bo'laklarini to'g'ri joylashtiradi.

## 3. Fasllar bo'limi:

*Fasllar tasvirlari:* Ekraning pastki qismida turli fasllar (bahor, yoz, kuz, qish) tasvirlari joylashtirilgan.


*Markaziy sohaga moslashtirish:* O'yin markazida har bir faslga mos bo'sh soha mavjud. Foydalanuvchi fasl tasvirini mos sohaga olib boradi.

*To'g'ri moslash:* Foydalanuvchi tasviri mos sohaga to'g'ri kelsa, qabul qilinadi va tasdiqlovchi animatsiya yoki tovush eshutiladi.

*Notog'ri moslash:* Foydalanuvchi tasviri noto'g'ri sohaga olib borilsa, u qaytariladi va foydalanuvchi yana urinib ko'rishi kerak bo'ladi.

*Boshqotirma:* To'g'ri qabul qilingan fasllar tasvirlaridan keyin, foydalanuvchi fasllar atributlarini to'g'ri yig'ish boshqotirmasini yechadi. Masalan, qish fasliga mos qor parchalarini to'g'ri joylashtiradi.





**O'yinning yakuniy maqsadi:**

- *O'yinchilar bilimini oshirish:* O'yinchilar hayvonlar, mevalar va fasllar haqida o'rganishadi.

- *Logik fikrlashni rivojlantirish:* Boshqotirmalarni yechish orqali mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

- *Qiziqarli va ta'limiy:* O'yin interaktiv va qiziqarli bo'lib, foydalanuvchilarni bilim olish jarayonida zavqlantiradi.

Bu interaktiv o'yin dasturi orqali bolalar va o'smirlar tabiatni o'rganishda qiziqarli va foydali vaqt o'tkazishadi.

Interaktiv darsliklar o'quvchilarga ma'lumotlarni o'rganishda qiziqarli va oson bo'lishda yordam beradi. Ular o'quvchilarning qiziqishlarini oshiradi va ma'lumotlarni tushuntirishda ko'nikma, tajriba olishlari uchun o'zlashtirilgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish joizki, 1-sinf o'quvchilariga "Informatika va AT" fanini o'qitishda vizuallashtirish ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Maqolada vizuallashtirishning ahamiyati va o'quvchilar uchun samarali usullari taklif qilinadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'rganish va o'quvchilarga ma'lumotlarni tushuntirish uchun interaktiv darsliklar, multimedia materiallar, infografika, qahramonlar va animatsiyalar kabi vositalardan foydalanishning muhimligini ko'rsatib berilgan.

Shu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilariga darslarni tashkil etishda quyidagilarga e'tibor berishini tavsiya etamiz:

- *Vizuallashtirish usullari.* O'quvchilarga qiziqishlarini oshirish va ma'lumotlarni o'rganish jarayonini qulaylashtirish uchun infografika, interaktiv darsliklar, multimedia materiallar, qahramonlar va animatsiyalar kabi vizuallashtirish usullaridan keng qo'llanish tavsiya etiladi.
- *Interaktiv darsliklar.* O'quvchilarga ma'lumotlarni sinash va tushuntirishda yordam beradigan interaktiv darsliklar yaratish uchun o'qituvchilarga motivatsiyalash va darsliklarni personalizatsiyalash borasida ta'lim va texnologik mahsulotlardan foydalanish tavsiya etiladi.
- *Kontentni birlashtirish.* O'quvchilarga biror mavzuni tushuntirish uchun turli vizuallashtirish usullarini birlashtirish va ularga qo'llanishda innovatsion yondashuvlarga ega bo'lish maqsadida dars materiallarini rivojlantirish uchun muvaffaqiyatli metodlar qo'llanilishi kerakligi qo'llanilishi tavsiya etiladi.
- *Davlat standartlariga muvozanat.* O'quvchilarni axborot va kommunikatsion texnologiyalar bilan tanishtirish va ularni amaliyotda qo'llash uchun davlat standartlariga muvozanatli dars materiallarini tuzish va rivojlantirish lozimligi belgilanadi.

Bu takliflar "Informatika va AT" fanini 1-sinf o'quvchilariga o'qitish metodikasini

rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarga ega bo'lish va o'quvchilarni ma'lumotlarni oson tushuntirish uchun samarali usullarini rivojlantirishda yordam berishi maqsadida keltirilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Арланова Оксана Павловна. Визуализация как метод обучения на уроках математики. Статья опубликована в рамках: Международной научно-практической интернет-конференции «Актуальные проблемы методики обучения информатике и математике в современной школе» (Россия, г.Москва, МПГУ, 22 — 26 апреля 2019г.)
2. Brown, Michael. Enhancing Convenience in the Virtual Learning Environment: Research Findings. Informatics and IT teaching methodology: News and innovations, Editura Universitatii din Bucuresti, 2020, pp. 78-91.
3. Д.Медина. Правила мозга. Что стоит знать о мозге вам и вашим детям / Джон Медина; пер. с англ. К. Ивановой. — М. : Манн, Иванов и Фербер, 2014. — 304 с.
4. Nayitmatova Nilufar Himmataliyevna. Boshlang'ich sinflarda multimedia texnologiyalaridan foydalanishning samarasi . "Science and Education" Scientific Journal Volume 1 Issue 2. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/431>
5. Johnson, Emily. The Importance of Applying Art in the Teaching Process. Methodology of teaching informatics and IT science, Vacation, vol. 7, n. 2, 2019, pp. 112-125.
6. Kasimova Odina Alimjonovna. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda yangi pedtexnologiyalarni qo'llashning ahamiyati. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7188007>
7. Axmadaliyev Nizomiddin Axmadullayevich. (2024). Biologiya fanini o'qitishda interfaol usullarni qo'llashning afzalliklari. *Tadqiqotlar.uz*, 35(1), 175–178. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/2474>
8. Charosxon Botirjonovna Jumabayeva, & Marhabo Sulaymonqulovna Ashirboyeva (2021). Biologiya fanini o'qitishda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. Academic research in educational sciences, 2 (CSPI conference 1), 554-556.
9. Сорока, О. Г., & Васильева, И. Н. (2015). Визуализация учебной информации. *Университет педагогического самообразования*, 12, 2-12.
10. Smith, John. Demonstrating Self-Expression in the Teaching Process through Interactive Learning Materials. Vacation, 2022, pp. 45-58.

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA NUTQIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR O'QUV TOPSHIRIQLARI TAHLILI

**Raxmatullayeva Shaxodat Ziyotovna**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.f.d.

[shahodatrahmatullayeva111@gmail.com](mailto:shahodatrahmatullayeva111@gmail.com)

ORCID:0009-0000-8681-5224

UDK: 373.31.

**Annotatsiya.** Maqolada mavjud o'quv topshiriqlarining zamonaviy baholash tizimiga mos holda berilganligi yoki berilmaganligi haqida fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda o'quv topshiriqlaridan foydalanish, ularning tasnifi va tavsifiga doir fikr-mulohazalar, o'quv topshiriqlarining berilishi, turlari, vazifasini tahliliy o'rganish hamda o'quv topshiriqlari nazariyasidagi o'zgarishlar, yangi yondashuvlarga munosabat bildirish, darsliklardan keltirilgan o'quv topshiriqlarning yutuq va kamchiliklari haqida yondashuvlar bayon qilingan. Darsliklarda berilgan tinglab tushunish, so'zlash, o'qib tushunish, yozish savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan barcha topshiriqlar o'rganib chiqilgan hamda tahlilga tortilgan. Boshlang'ich sinflar ona tili ta'limida o'yin orqali o'quv topshiriqlarining bajarilishi va ahamiyati haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, ona tili, mashq, topshiriq, savol, o'quv topshiriqlarining turlari, yangi avlod darsliklari, matn, lug'at, ko'nikma, malaka, bilim, xalqaro tajriba, natija.

## ANALYSIS OF STUDY TASKS TO DEVELOP SPEAKING SKILLS IN PRIMARY EDUCATION

**Abstract:** the article expresses the opinions about whether or not the existing educational assignments are given in accordance with the modern evaluation system. Also, opinions on the use of

educational tasks in elementary grades, their classification and description, analytical study of the assignment, types, functions of educational tasks, changes in the theory of educational tasks, reactions to new approaches, textbooks Approaches to the achievements and shortcomings of the mentioned educational tasks are described. All assignments aimed at developing listening comprehension, speaking, reading comprehension, and writing literacy given in the textbooks were studied and analyzed. Opinions about the implementation and importance of educational tasks through the game in the education of the mother tongue of primary classes are expressed.

**Keywords:** primary education, mother tongue, exercise, task, question, types of educational tasks, new generation textbooks, text, vocabulary, skill, competence, knowledge, international experience, result.

**Kirish.** Zamonaviy o'qitish metodikasi o'quvchilarda, talabalarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishni talab qilar ekan, demak, o'quv topshiriqlari ham zudlik bilan shu talabga moslashishi kerak. O'zbek tilining ona tili va davlat tili sifatida o'qitilishida o'quv topshiriqlarining namunasiga qarab ishlab chiqilgan savol va topshiriqlardan foydalaniladi. Aslida har bir savol, har bir topshiriq puxta o'ylangan, belgilangan mezonlar asosida ishlab chiqilishi lozim. Mavjud o'quv topshiriqlarining eng noqulay jihati – bu zamonaviy baholash tizimiga mos kelmasligidir. Har bir mashg'ulot muayyan ko'nikma yoki malakani hosil qilish uchun taqdim qilinadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining amaldagi davlat ta'lim standartlarida Ona tili fani bo'yicha umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilari egallashi lozim bo'lgan malaka talablari keltirilgan[1;54.], unda fanga oid kompetensiyalar quyidagicha berilgan:

- 1) nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish va yozish).
- 2) lingvistik kompetensiya (lingvistik bilimlar).

Sh.Abdurayimov: "...ona tili ta'limidan asosiy maqsad – o'quvchilarda nutqiy malakalarni rivojlantirish. Lingvistik kompetensiyalar esa nutqiy malakalarning rivojlanishi, to'g'ri shakllanishi uchun vosita sifatida xizmat qiladi. Kishilar o'rtasida fikr almashish nutqiy muloqot shaklida amalga oshadi. Psixolingvistik tadqiqotlardan ma'lumki, muloqot kodlash va dekodlash jarayoni asosida yuz beradi. Bu jarayonni to'g'ri amalga oshirish uchun egallanadigan kompetensiyalarni "nutqiy kompetensiya" deyish mumkin. Shu ma'noda, nutqiy kompetensiyalar – og'zaki yoki yozma tarzda ifodalangan nutqni tushunish, anglash, idrok qilish hamda fikrni og'zaki yoki yozma shaklda tinglovchiga tushunarli tarzda ifodalash malakalari. U tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozish va so'zlash malakalaridan iborat", ekanini ta'kidlaydi[2; 19.b.].

**Natijalar va muhokama.** O'qituvchi o'qib tushunish bilan bog'liq barcha qiyinchiliklarni bartaraf eta olmaydi. O'qituvchi ularga bu vazifani oson va qiziqarli bo'lishiga yordam berishi kerak. Bu tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlashi mumkin bo'lgan quyidagi uch omilni hisobga olishi kerak:

1. Talaffuz yoki ohang.
2. Tinglash uchun tavsiya etilgan materialning mazmuni.
3. Materialning shakli va keltirilgan shartlar.

O'qituvchi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan materialdan foydalansa, tinglab tushunish mumkin. Biroq bu tinglashda qiyinchiliklarni to'liq bartaraf etmaydi. Materialning mazmuni ham tushunishga ta'sir qiladi. Xabar mavzusi o'quvchilarning tushunish vakolatlari doirasida bo'lishi kerak. Qiyinchiliklarni tushuntirish kerak (to'g'ri nomlar, geografik nomlar, terminologiya va boshqalar.)

Tavsiflar rivoyatlarga qaraganda murakkabroq. O'quvchilarning buni tushunishga va tushunishga tayyorligi juda muhimdir. Hikoyaning sarlavhasi matnning asosiy g'oyalarini tushunishda foydali bo'lishi mumkin. Monologik nutq osonroq. Imkon qadar ona tili darslarida shunga e'tibor qaratgan ma'qul.

Ifodalovchi shart-sharoitlar katta ahamiyatga ega: nutq tezligi, materialning bir

necha dekompozitsiyalari. O'quvchilarni bir vaqtning o'zida matnni tinglashga o'rgatish lozim. Biroq ba'zan ular faqat 70% axborotni tushunishi mumkin va hatto kamroq, shuning uchun ikkinchi taqdimot foydali bo'lishi mumkin. Notiqning mavjudligi yoki yo'qligi ham muhim omil hisoblanadi.

Darsliklarda berilgan barcha topshiriqni tinglab tushunish, so'zlash, o'qib tushunish, yozish savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan, deya olmaymiz. Shuning uchun ham ona tili ta'limida formativ baholash uchun qanday topshiriqdan foydalanish kerakligi haqida nazariy asos va statistik tahlillarga tayanib ishlab chiqilgan tavsiyalarga ehtiyoj bor. Bu masala ona tili metodistlarining oldida yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan[2].

O'qituvchi bu usullardan tinglash malakalarini rivojlantirishda foydalanadi.

1. Maxsus sinfda mashg'ulot o'tkazish o'qituvchiga o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini egallash uchun qulay muhit yaratishda muloqot vositasi sifatida til imkoniyatlaridan foydalanishda tinglash qobiliyatini beradi.

2. O'qituvchi tinglab tushunishni rivojlantirish uchun maktabda ko'proq nutq mashqlaridan foydalanadi. Bajarilish ketma-ketligiga ko'ra mashq turlari – propedevtik, tasviriy, fiksatsion, takrorlanuvchi, umumlashtiruvchi, ijodiy; aqliy faoliyat xarakteriga ko'ra mashq turlari – analitik, sintetik, analitik-sintetik mashqlar va yetakchi ijro usuli – og'zaki, yozma, aralash mashqlar[3].

Tinglash faoliyatini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar.

### **1. Matnlarni tinglash**

Norasmiy suhbat. Tinglash uchun tanlangan matnlar oldindan tayyorlanmagan hamda bir nutqqa asoslangan bo'lishi kerak. So'zlovchi ko'rinishi; so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi bevosita o'zaro munosabat. Gap shundaki, aksariyat hollarda tinglash mashqlarining audio yozuvlaridan foydalaniladi. Agar o'zingiz tinglash uchun o'quvchilarga matnlar yaratgan bo'lsangiz, bu o'quvchilar uchun foydalidir. Video materiallardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga ham ijobiy hissa qo'shadi.

### **2. Topshiriqni tinglash**

Taxminlar. O'quvchilarga eshitadigan matn turi haqida oldindan belgilangan fikr kerak. Shunday qilib, ko'rsatma da'voni tinglash... “kamroq foydali, shunga o'xshash narsa:” er va xotinning yoz uchun rejalarini muhokama qilganini eshitasiz... “faktlar, epizodlar, voqealar va boshqalar.) va ularni tushunishga yordam beradi.

Maqsad. Bundan tashqari, tinglashning maqsadi aniq ko'rinadigan yoki eshitiladigan javoblarni jalb qilish kerak bo'lgan oldindan belgilangan vazifani belgilash orqali ta'minlanishi kerak. Bas, o'rniga faqat gapirish, “tinglang va tushuning” ... kabi ko'rsatmalar berish kerak: “tinglash va oila yozgi ta'til uchun qayerga borishini topish hamma narsani tushunishga harakat qilishdan ko'ra osonroq va tabiiyroq.

Tinglovchi tomonidan joriy javob. Nihoyat, topshiriqni odatda tinglayotganda intervalgacha javobni o'z ichiga olishi kerak; o'quvchilar oxirigacha kutmaslik uchun o'zlari eshitayotgan ma'lumotlarga javoban murojaat qilishlari kerak.

Muhokama

O'quvchilar matnni tinglashga taklif qilinishidan oldin o'qituvchi barcha so'zlar o'quvchilarga tanish ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak. Agar qandaydir muhimlari bo'lsa, o'qituvchi ularni oldindan kiritadi (taxtdagi so'zlar matnda paydo bo'lgan tartibda). Shunda o'qituvchi o'z o'quvchilarining diqqatini tinglaydigan narsalarga qaratishi kerak. Bu ularning fikrlashiga undaydi va matnni tushunishga yordam beradi.

O'quvchi diqqatini rag'batlantiruvchi dastlabki rag'batlantirish vazifalari:

1. Asosiy fikrni tushunishga harakat qiling.
2. Hikoya uchun reja tuzing.

### 3. Hikoyani tugatishga harakat qiling.

Rasmlarni tushunish mumkin. Tinglaganlaridan so'ng o'qituvchi savollar berishi mumkin; o'quvchilar kelishishlari yoki ularni rad etishlari uchun matn yuzasidan izohlar berish.

Har ikki turni tinglash, ayniqsa, muhimdir, chunki u o'qituvchilardan boshqa ovozlarni eshitish uchun katta imkoniyat yaratadi, o'quvchilarga so'zlashuv tili sifatida yaxshi odatlarga ega bo'lish imkonini beradi va ularning talaffuzini yaxshilaydi.

Ommaviy tinglash (o'qituvchi o'qituvchilarni tinglayotgan narsalarini tanlashga va o'yin-kulgi uchun va umumiy tilni yaxshilashga chaqiradi).

Ommaviy auditoriyalar odatda sinfdan tashqarida joylashgan bo'lib, keng tinglash uchun materiallar turli manbalardan (turli kitoblar, qo'shiqlar, videofilmlarga hamroh bo'lgan lentalaridan) topiladi.

Intensiv tinglash diskdagi materiallarni ochib beradi. Materiallar asosiy manbai jarayonida turli bosqichlarida ishlatiladi.

Tinglash faoliyati turlari

#### 1. Aniq javob yo'q.

O'quvchilar audioga javoban hech narsa qilishi shart emas.

**Hikoyalar.** Anekdot yoki haqiqiy latifa aytib berish, mashhur hikoyani qayta hikoya qilish, kitobdan hikoya o'qish; yoki hikoyani yozib olish. Agar hikoya yaxshi tanlangan bo'lsa, o'quvchilar eshitishi va ularni zavqlantirishi mumkin.

**Ko'ngilochar filmlar, teatr, videolar.** Hikoyalar kabi agar mazmun chindan ham qiziqarli (qiziqarli, rag'batlantiruvchi, hazil-mutoyiba, dramatik) bo'lsa, o'quvchilar bundan keyingi topshiriqqa muhtoj bo'lmasdan tushunishga harakat qilishga undaydilar.

#### 2. Qisqa javoblar.

Ko'rsatmalarga bo'ysunish. O'quvchilar buyruqlarga javoban harakatlarni bajaradilar, yo shakl yoki tasvirni chizadilar.

**Xatolarni aniqlash.** O'qituvchi sinf biladigan narsaning hikoya yoki tavsifini, ammo qasddan qilingan xatolar yoki nomuvofiqliklar orqali hikoya qiladi. Tinglovchilar noto'g'ri so'z yoki jumla eshitganlarida qo'llarini ko'taradilar.

**Bashorat qilish.** O'qituvchi shaxs, joy, narsa, harakat, yoki nima haqida qisqacha og'zaki ta'rif beradi; o'quvchilar o'ylaganlarini yozib oladilar.

#### 3. Uzunroq javoblar.

Savollarga javob berish. Juda to'liq javob talab qiladigan bir yoki bir necha savollar oldindan beriladi, matnni tinglash uchun javob (lar) beradi. So'ralayotgan javoblarning nisbiy uzunligi tufayli ular yozuvda eng qulay hisoblanadi.

Jamlanma. O'quvchilar eshitganlarining mazmunini yozadilar. Boshida, o'rta, yoki matn oxirida uzun bo'shliq qoladi; o'quvchilar o'z taxminlarini yozadi.

#### 4. Kengaytirilgan javoblar

Bu yerda uzoq vaqt o'qish, yozish yoki tinglash kabi umumiy ko'nikmalar bir faoliyat sifatida shakllantiriladi. Muammo og'zaki bayon etiladi; o'quvchilar unga qanday yondashishni muhokama qiladilar va / yoki taklif etilgan yechimni yozadilar. Monolog parchasidan ko'chirma taqdim etiladi, oldingi ma'lumotlarsiz; tinglovchilar so'zlardan, ovozlarning turlaridan, bo'layotgan voqealarning nozik dalillaridan nimalarnidir taxmin qilishga harakat qiladilar. Murakkabroq darajada adabiyotning ovoz chiqarib o'qishga yaroqli qismi (masalan, she'rlar) muhokama qilinishi va tahlil qilinishi mumkin.

O'qituvchining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda foydalanishi mumkin bo'lgan rag'batlari ko'pincha kuchsiz va sun'iy bo'ladi. O'quvchilar biror narsa haqida kimgadir gapirib berishni, nimanidir tushuntirishni va kimgadir nimanidir isbotlashni xohlaydigan holatlar bo'lishi kerak (vaziyatli-kommunikativ yondashuv).

To'rt ko'nikmani (tinglash, gapirish, o'qish, va yozish), o'rgatishda intuitiv gapirishga o'rgatish eng asosiysidir. Xalqaro til o'qitish tajribalarida ham til o'rganuvchilar, birinchi navbatda, gapirishni o'rganishga ehtiyoj sezadi. Ona tilida gapirishni ma'lum ma'noda bilgani uchun to'g'ri, savodli yozish ko'nikmalariga ega bo'lishga intilish bor.

**1-topshiriq. Matnni ichingizda o'qing va savollarga o'ylab ko'rib javob bering.**

***Otaga itoat qilish kerak***

*Bir Maymun kenja bolasi bilan yashardi. Ba'zan kenjatoyini o'zi bilan tashqariga olib chiqar, gohida uyda yolg'iz qoldirardi. Maymuncha esa hali o'zini dushmanlardan himoya qilishni bilmasdi. Kunlardan bir kuni otasi unga eshikni hech kimga ochmasligini tayinlab, yegulik qidirib chiqib ketibdi.*

*Kenjavoy uyda o'tiraverib zerikibdi. Derazadan tashqarini tomosha qilibdi. O'sha atrofda yurgan ayyor Tulki uni ko'rib yemoqchi bo'libdi. Otasi uyida bor-yo'qligini bilish uchun uning oldiga kelib:*

– *Men otangning do'stiman, uni ko'rgani keldim. Chaqirib yubor, – debdi.*

– *Otam yegulik olib kelgani bozorga ketgan.*

– *Tushunarli, yaqinda kelib qolsa kerak. Uni ichkarida kutaman, yeshikni och.*

– *Buning iloji yo'q. Otam, men yo'qligimda hech kimga yeshik ochma, deb tayinlagan.*

– *Otang senga ishonmas yekan-da, bo'lmasa bunday qilmasdi, – debdi Tulki Kenjatoyga suqlanib qarab.*

– *Ishonadi, lekin men hali kichkinaman-da.*

– *Voy bechora, sen juda sodda yekansan-ku. Otang seni yaxshi ko'rganda tashqaridagi qiziqarli, ajoyib hayotdan ajratarmidi? Ko'chaga chiqsang, do'stlar orttirasan, ko'nglingga yoqqan o'yinni o'ynaysan. Axir, sening ham o'z xohishing bilan ish tutishga, o'zing bilganicha yashashga haqqing bor-ku!*

– *To'g'ri aytasiz, amaki, – xo'rsinibdi maymuncha.*

– *Yendi meni ichkariga kiritasanmi?*

– *Albatta, hozir yeshikni ochaman.*

*Maymuncha eshikni ochmoqchi bo'libdi. Lekin eshikni ochishga kuchi yetmabdi.*

– *Eshikni ocha olmayapman, – debdi, deraza yoniga qaytib kelib.*

– *Unda eshikni tashqaridan sindiraman.*

– *Yo'q, unday qilmang, otamning jahli chiqadi.*

– *Jahli chiqmaydi, axir u mening do'stim-ku!*

*Tulki eshikni sindirishga harakat qilibdi, lekin eplay olmabdi. Bundan qattiq g'azablanibdi. Chunki oson qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan o'ljasidan ayrilayotgan ekan-da! Tulki maymunchaga suqlanib qarar ekan, so'laklari oqib ketibdi.*

*Amaki, nimaga menga bunday qarayapsiz? – ichiga titroq kirib so'rabdi Maymuncha.*

– *Seni yaxshi ko'rganim uchun. Ehikni ocha olmadim, derazadan sakray qol, o'zim seni aylantiraman.*

– *Chiqolmayman, otam urishadi.*

– *Yana otang haqida gapiryapsanmi? Ko'chada seni o'yin-kulgi, xursandchilik kutib turibdi. O'tirasanmi chollarga o'xsha-a-ab? Seni o'zim ko'z qorachig'iday ehtiyot qilaman.*

*Maymuncha uning so'zlariga ishonib derazadan sakramoqchi bo'libdi. Shu payt otasi kelib qolib: “Bolam, unday qilma! Biror yering sinib qoladi”, – debdi. Uning ovozini eshitgan Tulki urra qochibdi. Kenjatoy esa uning ortidan: “Amaki, otam keldi, nima uchun qochyapsiz?” – deb baqiribdi.*

– Nima uchun derazadan sakramoqchi bo‘lding? – so‘rabdi Maymun o‘g‘lidan.

– Anavi do‘stingiz bilan o‘ynamoqchi edim.

U mening do‘stim emas, sening amaking ham emas. U – yirtqich Tulki. Seni yemoqchi bo‘lgan.

– Yo‘g‘-ye, axir u juda mehribon-ku?!

– Bir qarashda shunday. Sen hali do‘st bilan dushmani ajratolmaysan. Shu sababdan men senga tashqariga chiqmasligingni tayinlagandim. Sal bo‘lmasa sendan ayrilib qolardim, – erkatoyni bag‘riga bosibdi ota Maymun.

Saboq: Ota-ona farzandiga mehribon bo‘lsa ham, ko‘pincha ular buni bilmaydi. Bola otasiga itoat qilishi lozim. Aziz bolajon! Ota yoki onangiz uyni sizga qoldirib, chiqib ketgan bo‘lsa, begonalar uchun eshikni ochmang. Ota-onaga itoat qilish hamisha yaxshilikka olib keladi.

**1-topshiriq. Matnni tinglab tushunish bo‘yicha quyidagi savollarga javob bering:**

Matnni tanglaganda qaysi so‘zlarning ma‘nosi tushunarsiz bo‘ldi?

Qanday fikrga keldingiz?

Eng muhim joyi siz uchun qaysi?

Siz Maymunchaning o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutar edingiz?

Maktabgacha va maktabning ilk yoshida asosiy aqliy neoplazmalarni ta‘minlaydigan yetakchi faoliyat – bu o‘yin. A. Venger ta‘kidlaganidek, o‘yin o‘z tabiatiga ko‘ra qo‘shma faoliyatning erkin turidir. “Bolalar o‘z tashabbusi bilan bir-biri bilan birlashtirish, o‘zlari uchun o‘yin uchastkasi aniqlash, tegishli rollarni bo‘lib olish, o‘yin harakatlarini amalga oshirish, o‘yin mazmunini rivojlantirishdir”[4]. Biroq bolaning maktabga kelishi bilan, oldingi maktabgacha davrda belgilangan erkin faoliyat uchun ushbu muhim shartlar mustahkamlash va rivojlanishga imkon topa olmaydi. O‘qituvchining o‘zi darsda ta‘lim maqsadlarini belgilaydi, uning rivojlanish mazmuni va ketma-ketligini belgilaydi, bolalarni ta‘lim muvaffaqiyatlarining o‘zi baholaydi. Boshlang‘ich ta‘limning an‘anaviy paradigmasi sinfdagi barcha o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida bir xil ishni bajarishlari bilan tavsiflanadi. Ta‘lim jarayonida erkin tanlov vaziyatlaridan foydalanish o‘qituvchi tomonidan erkin faoliyatning asosiy tarkibiy qismlarini haddan tashqari monopollashtirishni yengishga yordam beradi.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, bola tomonidan tarbiyaviy ishning ushbu shaklini rivojlantirish ma‘lum qonuniyatlarga ega. Ta‘lim topshiriqlarini erkin tanlash vaziyatlarini yaratish metodologiyasining xususiyatlarini aniqlash uchun o‘quv ishlarining ushbu shaklini o‘zlashtirishning turli bosqichlarida yosh maktab o‘quvchilari boshdan kechirgan qiyinchiliklarni tahlil qilish masalaning mohiyatini ochib beradi.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, birinchi bosqichda bolalar o‘zlari uchun notanish bo‘lgan o‘quv topshiriqlarini topshirish shakllarini o‘zlashtirdilar, keyingi bosqichda o‘qituvchi bolalarni o‘ylashga va o‘zlari uchun vazifalarni bajaradigan bo‘limni oldindan tanlashga yo‘naltiradi. Bunga oldingi bosqichda qilingan ishlar katta yordam beradi: barcha vazifalar doskada, o‘quvchilar ko‘z o‘ngida amalga oshiriladi.

Shunga qaramay, sinf kuzatuvlari shuni ko‘rsatadiki, barcha birinchi sinf o‘quvchilari topshiriqlar bo‘limlaridan birini erkin tanlay olmaydilar. Ulardan ba‘zilari qo‘shnilari bilan maslahatlashishni boshlaydilar. Bolaning haqiqiy imkoniyatlariga aniq mos kelmaydigan ta‘lim vazifasini tanlashi yoki juda oson, yoki aksincha, juda qiyin kechadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori. <https://lex.uz/docs/-3153714>.
2. Абдираимов Ш. Она тили таълимида ўқиб тушуниш малакасини баҳолаш [Матн]: монография / Ш.С. Абдираимов. – Тошкент: Nodirabegim, 2021. – 128 б.
3. Венгер Л.А. Психическое развитие в игре и подготовка детей к школе // Руководство играми детей в дошкольных учреждениях. М., 1986.
4. Ҳамроев Ғ.Ҳ. Машқларнинг кўникма ҳамда малака ҳосил қилишига кўра таснифланиши // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Бухоро, 2021. -№4. – Б. 231-240.
5. Компетенциявий ёндашувга асосланган Давлат таълим стандарти. – Тошкент. 2017.
6. Ҳамроев Ғ. Она тили ўқитишнинг самарали усуллари. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. –Т.: Баёз, 2018.
7. Azimova I., Mavlonova K., Tursunov Sh. Она тили ва о'қish savodxonligi. 3-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. –Toshkent, 2022.
8. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Shokir Tursun, Ro'zmetova Z.. Она тили ва о'қish savodxonligi. 3-sinflar uchun darslik. Respublika ta'lim markazi. –Toshkent, 2022.
9. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. 6-sinf o'quvchilari uchun "Ona tili: darsligi. –Toshkent: Tasvir, 2017. 203.
10. Ҳамроев Ғ. Она тилидан ўқув топшириқлари тузиш методикаси. Монография. – Тошкент: Донишманд зиёси. 2021. 196 б.

### МАКТАBLARNING RAQOBATBARDOSHLIK DARAJASINI ANIQLASH DIAGNOSTIKASINI ISHLAB CHIQISH

Development of diagnostics to determine the level of competitiveness of schools

A.Avloniy nomidagi pedagoglarning kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga

o'rgatish milliy-tadqiqot instituti

100095, Toshkent shahar, Ziyo ko'chasi 6-uy

[avloniy@xtv.uz](mailto:avloniy@xtv.uz)

Doctor of Philosophy in law (PhD)

**Botirov Hamid Xakimovich**

[hamidbotirov@inbox.ru](mailto:hamidbotirov@inbox.ru)

UDK:373.014.543.5

ORCID 10.26739/2181-9491-2020-SI-3-11

UDK:373.014.543.5

**Annotatsiya:** Maktablarning zaif va kuchli tomonlarini inobatga olgan holda raqobatbardoshlik diagnostikasi ishlab chiqiladi. Mutaxassislarni jalb qilish, jadval va tizimli tahlil qilish, ko'rsatkichlarni guruhlashtirish, benchmarking usulidan foydalanish, ijobiy va salbiy omillarni aniqlash kabi baholash usullari tahlil etildi. Maktablarning raqobatbardoshlik darajasini baholash uchun dastlabki navbatda, olingan ko'rsatkichlari va raqobatchilarning parametrlarini taqqoslash asosida hisobga olingan holda tasniflandi. Baholashda umuman olganda har bir jarayonni turli darajadagi ta'sir doirasiga ko'ra ko'rsatkichlarni qiyosiy solishtiriladi va bunda bartaraf etish mumkin yoki mumkin emasligi yuzasidan turli taxminlarga asoslangan taklif va tavsiyalarni nazarda tutuvchi baholashdan iborat bo'ladi. Raqobatbardoshlik darajasini har tomonlama va turli vaziyatlarni o'rganishni nazarda tutuvchi faoliyat natijalarini tizimli tahlil etildi.

**Kalit so'zlar:** diagnostika, zaif va kuchli jihatlar mutaxassisni jalb etish, jadval, tizimli tahlil, ijobiy va salbiy omillar.

**Abstract:** A diagnosis of competitiveness is developed, taking into account the weaknesses and strengths of schools. Evaluation methods such as involvement of specialists, table and systematic analysis, grouping of indicators, use of benchmarking method, identification of positive and negative factors were analyzed. In order to assess the level of competitiveness of schools, they were initially classified based on the obtained indicators and a comparison of the competitors' parameters. In the assessment, in general, the indicators of each process are compared according to the range of influence at different levels, and it consists of an assessment that implies suggestions and recommendations based on various assumptions about whether it is possible to eliminate or not. A systematic analysis of the results of the activity, which implies a



comprehensive study of the level of competitiveness and various situations, was carried out.

**Keywords:** diagnosis, weak and strong points, expert involvement, schedule, systematic analysis, positive and negative factors.

**Kirish.** Raqobatbardoshlikni baholash iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy maqsadlar uchun amalga oshirilishi mumkin. Bu ayniqsa kelgusida soha faoliyatini takomilashtirish maqsadida strategiyalarni belgishlashda yoki mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda turli tizimli tahlillar orqali baholash talab etiladi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari reytingini aniqlash mezonlari va hisoblash metodikasiga muvofiq 8 ta mezon va ballarni hisoblash metodikasi berilgan[2.].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Aksariyat amaliy ishlarda maktablarning raqobatbardoshligini baholash uchun tavsiya etilgan usullar orasida asosan raqobatbardoshlikning ayrim parametrlarini baholovchi ko'rsatkichni chiqarishga asoslangan matematik usullar qo'llanilgan.


Ayrim boshqa vaziyatlarda maktablarning raqobatbardoshligini baholash usullari sifatida individual ko'rsatkichlar oddiy taqqoslash bilan amalga oshirilgan.

Maktablarning raqobatbardoshligini baholash usullari raqobatbardoshligini belgilovchi omillarning soni va to'g'riligiga asoslanadi, keyinchalik omillardagi xatoliklar yoki kamchiliklar aniqlansa, ko'rsatkichlarning xolisligiga ta'sir etadi, natijada ularni turli matematik usullar yordamida qayta ishlashni talab etadi.

Shunga asosan raqobatbardoshligini belgilovchi omillar qanchalik to'g'ri va aniq bo'lsa, shunchalik baholash usullari to'g'ri va ishonchli bo'ladi.

Demak, raqobatbardoshlikni baholash usulini qat'iy belgilash mumkin emas. Shuning uchun turli toifadagi maktablarning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, ularning raqobatbardoshligini baholashni taalluqlilik metodikasini ishlab chiqish amaliy ahamiyatga ega.

**Tahlil va natijalar.** Maktablarning raqobatbardoshligini baholashning turli yondashuvlar asosida maktablar uchun quyidagi jadvalda raqobatbardoshlikni baholash metodikasining turlari keltiriladi:



Ushbu metodikalarni qo'llash uchun ta'lim nazoratini amalga oshiradigan tegishli tashkilotlarning rasmiy veb-saytaridagi hisobotlaridan yoki ommaviy axborot

vositalaridagi ochiq ma'lumotlaridan olish mumkin.

Maktabdagi imkoniyatdan kelib chiqib, baholash ko'rsatkichlari va mutaxassisning bergan xulosasi bilan maktablarning raqobatbardoshlik darajasini baholash mumkin. Bunda reyting oddiy va murakkab indikatorlarni o'z ichiga olgan ko'rsatkichlar to'plami asosida aniqlanadi [1.].

Maktablarning raqobatbardoshlik darajasini jadval shaklida baholash uchun dastlabki navbatda, olingan ko'rsatkichlari va raqobatchilarning parametrlarini taqqoslash asosida hisobga olingan holda tasniflanadi. Shuning uchun raqobatbardoshlik omillari darajasini va faoliyat natijalarini taqqoslashni jadval shaklida bajarish maqsadga muvofiq.

Tizimli tahlil shaklida baholashda umuman olganda har bir jarayonni turli darajadagi ta'sir doirasiga ko'ra ko'rsatkichlarni qiyosiy solishtiriladi va bunda bartaraf etish mumkin yoki mumkin emasligi yuzasidan turli taxminlarga asoslangan taklif va tavsiyalarni nazarda tutuvchi baholashdan iborat bo'ladi. Shunga muvofiq raqobatbardoshlik darajasini har tomonlama va turli vaziyatlarni o'rganishni nazarda tutuvchi faoliyat natijalarini tizimli tahlil shaklida baholanishi maqsadga muvofiq.

Maktablarni baholash mezonlari bo'yicha tasniflash va ularni har bir mezon bo'yicha guruhlashtirish, guruh ichidagi raqobatbardoshlik darajasi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish uchun zarurdir.

Masalan, xorijiy tilni bilish bo'yicha maktablarni alohida yoki pedagoglar salohiyati bo'yicha maktablarini alohida raqobatbardoshlik darajasini o'rganish kiradi.

Benchmarking usulini qo'llash raqobatchilar tajribasini o'rganish va ilg'or tajribalaridan foydalangan holda doimiy ravishda tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Maktablar faoliyatida resurslarning mavjudligining o'zi raqobatbardoshlik salohiyatiga ega ekanligini anglatmaydi. Shuning uchun raqobatbardoshlik salohiyatini samaradorlik ko'rsatkichlarini taqqoslash bir vaqtning o'zida resurslar mavjudligi va resurslarni qo'llash orqali unga natijasini aniqlash imkonini beradi va natijada u yoki bu ko'rsatkichni tahlil qilishga xizmat qiladi.

Demak raqobatchilarning ko'rsatkichlari bilan taqqoslash jarayonida raqobatbardoshlik darajasini baholash boshqalarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga ham imkonini beradi.

Biroq ayrim vaziyatlarda alohida ko'rsatkichlarni taqqoslash jarayonida olingan ma'lumotlarning o'zaro integratsiyasi asosida matematik usullar orqali raqobatbardoshlik darajasi to'g'risida kutilgan natijalarni bermasligi mumkin, chunki raqobatbardosh kuchli va zaif tomonlari o'ziga xos ixtisoslashgan xususiyatlarga ega.

Aslida bu raqobatchilarning kuchli va zaif tomonlarini qiyosiy tahlil qilish raqobatbardoshlikni yaxlit baholash uchun emas, balki raqobat strategiyasi va raqobatdosh xatti-harakatlar taktikasini ishlab chiqish uchun muhimdir.

Maktablarning raqobatbardoshligini diagnostikadan o'tkazish quyidagi tamoyillar asosida quriladi:

baholash ko'rsatkichlari bir xil darajaga ega, o'rgimchak to'ri doirasida baholash teng darajalarga bo'linadi, ularning soni 8 ta baholash mezonlari soniga teng;

o'rgimchak to'ridagi har bir chiziq kattalashgan sari ko'rsatkichlar yuqorilashganini bildiradi;

raqobatbardoshlikning eng yuqori darajasiga ega bo'lgan maktab katta maydonga ega bo'lgan ko'pburchakka mos keladi.

Har bir maktabning raqobatbardoshligi turli chiziqlar orqali raqobatchilarni bir-birini solishtirish orqali har birining bir-biriga nisbatan kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi. Chiziqlar orqali har bir mezon alohida solishtirgan holda qiyoslanadi.

Maktabning kuchli tomonlari asosan uning erishgan natijalari yoki mavjud imkoniyatlarni yanada mustahkamlash orqali belgilandi.

Kuchli tomonlarni har qanday vaziyatda turlicha belgilanishi mumkin. Xususan pedagoglarning tarkibi oliy toifalardan tashkil topishi, pedagoglarni rasmiy jihatdan kuchli

deb topilsa, amalda kasbiy mahoratdan kuchli ekanligini anglatmasligi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan maktablarning kuchli va zaif jihatlarini farqlash olish juda muhim hisoblanadi.


Bunda sakkizta mezonning har bir jihatlarini tegishli hisob-kitoblarni inobatga olgan holda tegishli ballar beriladi.

Mazkur ballar umumta'lim maktablar uchun o'zlarining eng kuchli tomonlari bilish va uni yana mustahkamlash yoki rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ballar asosida zaif tomonlarni esa umumta'lim maktablari jarayonga xolis yondashgan holda tezda bartaraf etish yoki rivojlantirish uchun tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

Maktablarni diagnostikadan o'tkazish nafaqat maktab ravnaqi uchun, balki har bir direktor va o'qituvchilar ularning kelgusida faoliyatini yana aniq belgilashga va boshqalar bilan solishtirishga imkon beradi [7.].

Berilgan quyidagi jadvalda mezonlarni bir-biri bilan solishtirish orqali amaldagi ahvolni aniqlashga zamin yaratadi:



### Maktablarning raqobatbardoshlik diagnostikasi

Buxoro shahar 5-sonli maktab

Navoiy shahar 19-sonli maktab

Toshkent shahar 179-sonli maktab

Toshkent shahar 183-sonli maktablarda o'tkazilgan.

Har bir indikator bo'yicha uch regionda bir-birining kuchli va zaif tomonlarini

solishtirish orqali ularning ustunlik jihatlarini ko'rish mumkin.

Shu bilan birga, ularning aynan qaysi tomonlari zaif ekanligini va o'sha zaif tomonlari kuchli tomonlarga ega bo'lganlar bilan hamkorlik qilish orqali bartaraf etishga imkon beradi.

Mazkur diagnostika maktabning kuchli tomonlarini mustahkamlash va zaif jihatlarini bartaraf etish choralari ishlab chiqishga yordam beradi. Natijada kuchli va zaif tomonlarning qiyosiy tahlili raqobatbardosh xatti-harakatlarning raqobat strategiyasi va taktikasini va raqobatbardosh vaziyat ta'sirlarini aniqlash uchun yondashuvlarni ishlab chiqish uchun muhimdir.

Demak, raqobatbardoshlik diagnostikasi mezonlar orqali har biri maktabning raqobatbardoshligini aniqlashga va raqobatchilarning kuchli va zaif tomonlarni tahlil qilishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ushbu raqobatbardoshlik diagnostikasining kamchiligi maktab faoliyatini yaxshilash uchun imkoniyatlar va resurslari to'g'risidagi ma'lumotlarni olib bo'lmaydi. Shunga qaramay, maktab tomonidan erishilgan yutuqlar darajasini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi [6.].

Qiyosiy tahlil turli vaziyatlarda turlicha qo'llanilishi mumkin. Masalan hudud nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil etilgan ayni bir kamchiliklar regional kamchilik sifatida maktablarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidagi ta'sir etishi mumkin.

Bundan tashqari pedagog kadrlarning tarkibiga bo'lgan ehtiyoj maktabdagi ta'lim sifatiga turli vaziyatlarda o'ziga xos muammolari bilan ta'sir etadi. Masalan, fan o'qituvchilarning yetishmasligi natijasida turli fanlardan bir pedagogning dars o'tishi, metodik va sifat samaradorlik jihatdan natijaga erishish mumkin emas.

Shunday qilib, maktabning raqobatbardoshlik darajasiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash orqali rivojlanish harakatlarining yo'nalishlarini aniqlash uchun maktablarining raqobatbardoshligini baholash usullarini to'g'ri va aniq qo'llash talab etadi.

**Xulosa va taklif.** Xulosa qilib aytganda, qo'llaniladigan usullarning samaradorligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

qiyosiy tartibining soddaligi, bunda mutaxassislarni jalb qilmasdan elektron dasturlash tizimi orqali, ya'ni avtomatlashtirilgan holda mavjud ma'lumotlar elektron platformaga kiritilishi bilan aniq qiyosiy reytingning ko'rsatkichlari maktabning raqobatbardoshligiga ob'ektiv baho berish mumkin;

raqobatbardoshlik kuchli va zaif tomonlarini aniqlash orqali raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida maktab faoliyatning yangi ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi.

Maktablarning raqobatbardoshligini baholashning samarali usullarini ishlab chiqish va joriy etish, bevosita maktab raqobatbardoshligini ta'minlash bilan bog'liq muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. Aniq va to'g'ri qo'llanilgan baholash usullari raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun zamin yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 41-moddasi.
2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 345-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim muassasalari reytingini aniqlash tartibi to'g'risida nizom.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 11- maydagi PF–134-son Farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ning maqsadli ko'rsatkichlari va indikatorlari.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-290-son Qarori.

6. Fundamental ta'lim taraqqiyotining xitoycha yo'li[Matn] / Huang Jongjing [va boshq.]. – Toshkent: Akademiya nashri, 2020. 720 b.

7. Н.В.Голубятникова. Управление конкурентоспособностью учреждений среднего общего образования: дисс. на соискание ученой степени к.э.н. - М., 2011. 143 с.

## SINFDAN TASHQARI O'QISH ASOSIDA O'QUVCHILAR IJODIY TASAVVURINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

**Negmatova Zulayho Shermatovna,**  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

o'qituvchisi

[negmatovazulayxo9@gmail.com](mailto:negmatovazulayxo9@gmail.com)

ORCID:0009-0005-6540-6567

UDK:373,3.016:74

**Annotatsiya:** maqolada o'quvchilar ijodiy tasavvurini shakllantirishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari, tarbiyaviy imkoniyatlari, usul va turlari boshlang'ich ta'lim sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etish asosida tahlil qilib beriladi. Badiiy, ijodiy tasavvur bevosita o'quv-biluv jarayonida shakllantirib borilsa-da, sinfdan tashqari o'qish ishlarini tashkil etish orqali ham amalga oshiriladi. Sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etish umumta'lim maktablarining barcha turlarida mavjud bo'lib, dastlab boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda asarlarni tanlab berish, bunda o'qituvchining tashabbuskorlik metodlari, o'qitish usullari yetakchilik qiladi. Etnopedagogik matnlar esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy, ijodiy tasavvurlarini o'stirishda tarbiyaviy imkoniyatga ega. Etnopedagogik matnlar o'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat, ajdodlar merosiga e'tiqod ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutsa, ijodiy tasavvurini shakllantirishda ham qo'l keladi. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari sinfdan tashqari o'qish darslarida xalqimizning qahramonlik dostoni "Alpomish"ni o'rgatish asosida ularning badiiy, ijodiy tasavvurlarini shakllantirishning metodik asoslari nazariy jihatdan ishlab chiqilgan va tegishli ko'rsatmalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ijodiy tasavvur, o'quvchi, ta'lim jarayoni, sinfdan tashqari o'qish, etnopedagogik, dunyoqarash, ijodkorlik, qobiliyat.

## FORMATION OF CREATIVE IMAGINATION OF STUDENTS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM BASED ON EDUCATION OUTSIDE THE CLASSROOM

**Annotation:** in the article, the scientific-theoretical and methodological foundations of the formation of students' creative imagination, educational opportunities, methods and types are analyzed based on the organization of extracurricular reading classes in primary education. The organization of extracurricular reading lessons is available in all classes of general education schools, initially, primary school students choose works based on their age characteristics, and the teacher's initiative methods and teaching methods lead in this. Because elementary school students have not yet understood the full content of the works, moreover, taking into account the size and subject matter of the works of art, they are selected according to their age, worldview, and mastering skills. Ethno-pedagogical texts have an educational opportunity to develop the artistic and creative imagination of elementary school students. Ethno-pedagogical texts play an important role in educating students in the spirit of respect for national values, faith in the heritage of ancestors, and help in forming their creative imagination. In the article, on the basis of teaching the heroic epic of our nation "Alpomish" to elementary school students in extracurricular reading classes, the methodological bases of forming their artistic and creative imaginations are theoretically developed and relevant instructions are given.

**Keywords:** creative imagination, student, educational process, out-of-class study, ethno-pedagogical, worldview, creativity, ability.

**Kirish.** Ijodiy tasavvurni shakllantirish ta'lim borasida olib boriladigan ishlarning muhim omili hisoblanadi. Ta'limdan ko'zlangan maqsad ham o'quvchilarning ma'lum bir narsa-hodisalarga bo'lgan qiziqishi, munosabatini mustaqil ifodalash, ular asosida ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishga qaratilganligidir. O'quvchilar mavzu yuzasidan tasavvurga ega

bo'lish bilan kifoyalantirilmagan, balki tushuncha va tasavvurlarida ularni qaytadan idrok etish, his qilish malakalarini ham o'zida shakllantirishi lozim. Ijodiy tasavvur esa ularni ijodkorlikka undash, aqliy qobiliyatini takomillashtirish asosida ma'lum tushunchalarning yechimini izlashga undaydi. Ijodiy faoliyatga bo'lgan talab esa yangi g'oya va tushunchalarning hosil bo'lishiga olib keladi, yangiliklarni yaratishga xizmat qiladi. Ijodiy faoliyat o'quvchilarni yangi moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish faoliyati bo'lib, o'quvchilar uni tasavvurlari asosida shakllantirib boradilar.

Ijodiy tasavvurni shakllantirishda tafakkur, xotira, diqqat, iroda faol ishtirok etib, o'quvchilar mana shu xususiyatlari orqali o'zlarining bilimlari, tajriba va iste'dodini namoyon etadi. O'quvchilarning ijodiy tasavvurlarini rivojlantirishning o'ziga xos metodik tamoyillari mavjud bo'lib, ulardan ko'zlangan asosiy maqsad mustaqil fikr yuritadigan, atrof-muhit borasida erkin tushunchaga ega va kasbiy ko'nikma hosil qila oladigan avlodni tarbiyalashdir. Bu borada maktab ta'limida ko'zda tutilgan o'quv-biluv materiallari o'quvchilarni har taraflama ijodiy tasavvur qilishga undaydi. Ijodiy tasavvurni rivojlantirishda sinfdan tashqari o'qishning tarbiyaviy ahamiyati bo'lib, ular o'quvchilarni har taraflama ijodkorlik sari yetaklaydi. Shuning uchun ham sinfdan tashqari o'qishni tashkil etishning ilmiy-metodologik va tarbiyaviy imkoniyatlarining nazariy jihatlari tizimli tarzda ishlab chiqilishi lozimdek.

**Natijalar va muhokama.** Sinfdan tashqari ishlarining maqsadi, asosan, o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan ijodkorlik qobiliyatini o'stirishga qaratilganligidadir. "Sinfdan tashqari ishlarining o'ziga xosligi shundaki, ular o'quvchida ijodkorlik mayllarini uyg'otadi, bolalarda o'zining adabiy qobiliyatlarini sinab ko'rish, boshqalardan farqli jihatlarni namoyish etish, nimanidir yaratish ishtiyoqini tug'diradi. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchiga ijodning yashirin azob va lazzatlarini tottirish orqali ularga o'zining shaxs ekanini to'liqroq his etish imkonini beradi. Adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlar o'quvchi xayolotiga parvoz bag'ishlab, unga ruhiy erkinlik beradi. Ruhidagi erkinlik hamisha kishida yaratish istagini uyg'otadi. O'zida erk va yaratuvchanlik sezimlarini uyg'unlashtirgan odamnigina to'laqonli shaxs deyish mumkin. Sinfdan tashqari ishlar natijasida o'quvchida badiiy did shakllanishi tezlashadi, kitob o'qishga, izlanishga qiziqish uyg'onadiki, bu sifatlar chinakam shaxsga xos xislatlardir"[1,151].

Sinfdan tashqari ishlar o'quv jarayoni darslari bilan o'zaro aloqa o'rnata olishi, bunda o'qituvchi mavzularni tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini ham e'tibordan chetda qoldirmasligi, eng asosiysi esa o'quvchiga berilayotgan materiallar badiiy jihatdan quvvatli bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, umumta'lim maktablari sinfdan tashqarida amalga oshiriladigan ishlar darslarning mantiqiy davomi bo'lishi, ulardan kelib chiqishi kerak. Sinfdan tashqari ishlari yangi mazmun, yangi material bilan boyitadi, o'quvchilar ma'naviy dunyosida yangi axloqiy sifatlar shakllanishiga xizmat qiladi. O'zlashtirilgan bilimlar va ma'lumotlar o'quvchini yanada ko'proq mustaqil o'qishga undashi, sinfdan tashqari ishlarda hech bir qiyinchiliksiz qatnasha olishiga yordam berishi kerak.

Umumta'lim maktablarining barcha sinflarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish muhim amaliy jarayon bo'lsa-da, dastlab boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ushbu holat juda ahamiyatli hisoblanadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh xususiyatidan farqlanib, ularga tavsiya qilinadigan asarlar ham ushbu xususiyatdan kelib chiqqan holda tanlanadi. Kitob tanlashda dastlab uning tarbiyaviy imkoniyatlari, mavzu va janri, o'quvchilarning yoshi va badiiy saviyasiga ta'siri, qiziqishi va mustaqil o'qishi kabi xususiyatlar e'tiborga olinishi lozim. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qish savodxonligi darslarini tashkil etish bo'yicha metodik qo'llanmalarda sinfdan tashqari o'qish uch bosqichni qamrab olishi ko'zda tutiladi: "1. Tayyorlov bosqichi. Bu 1-sinfning savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Unga darsning bir qismi – 17 – 20 daqiqasi ajratilgani uchun „ST0‘ mashg'uloti" deb yuritiladi. Uning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, o'qituvchi asarni o'zi tanlaydi, asarning kichik hajmda bo'lishiga va boshqa kitob tanlash tamoyillariga e'tibor beradi. Asarni o'qituvchining o'zi o'qib beradi. O'quvchilar asarni eshitishga, eshitganlarini

idrok etishga, ularga soddagina baho berishga, asar mazmuni bilan sarlavhasining mosligini aniqlashga, asar mazmunini hikoya qilib berishga o'rgatiladi. Bu bosqichda o'quvchilar o'qish gigiyenasi va kitobga qanday munosabatda bo'lish bilan tanishadilar. 2. Boshlang'ich bosqich. Bu 1-sinfning 2-yarim yilligiga to'g'ri keladi. Bu bosqichda haftada 1 marta 45 daqiqalik dars uyushtiriladi. Asarni o'qishdan oldin o'quvchilar asar nomi va uning muallifi bilan tanishadilar, rasmlarini tomosha qiladilar, daftarlariga u haqda soddagina qilib asar muallifini va nomini yozadilar. Asar elementar tarzda tahlil qilinadi. Tanlangan asar (kitob) yaxshi o'qiydigan o'quvchiga maxsus tayyorgarlikdan so'ng o'qitiladi.

3. Asosiy bosqich. Bu bosqich 2–4-sinflarga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilarning o'qish malakalari mustahkamlanadi. Bunda o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qiganlari baholanadi. Baholashda dastur talablariga asoslaniladi: o'qigan kitoblarning sifat o'zlashtirishiga, miqdoriga, o'qigan kitobiga munosabat bildira olishiga e'tibor beriladi. Bunda o'quvchilar muayyan mavzuga doir bir necha asarlarni o'qib keladilar, ularning ayrim o'rinlarini ifodali o'qib beradilar, o'qigan asarlarini o'zaro taqqoslaydilar. STO'ning bosqichlari, dastur talablari, tarbiyaviy vazifalari o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi [2,169]. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga sinfdan tashqari o'qish darslarida ko'proq etnopedagogik asarlar tavsiya etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu yosh o'quvchilarda milliy qadriyatlar asosida tarbiyalanib, ona-Vatanga muhabbat tuyg'usi o'stirib boriladi. Etnopedagogik asarlar g'oyaviy mazmunida esa vatanparvarlik, do'stlik, mehru muhabbat, sadoqat va mehnatsevarlik kabi fazilatlar tasvirga olingan bo'lib, tilining soddaligi, mazmunining boyligi va bu yosh o'quvchilar uchun tez tushunib olish imkoniyatini beradi. Ikkinchidan, etnopedagogik asarlarni sinfdan tashqari o'qitish orqali o'quvchilarning ijodiy tasavvurlari shakllantirib boriladi. Chunki har bir etnopedagogik asarlar ma'lum bir g'oyaviy maqsad asosida yaratilgan bo'lib, o'quvchilar ularni o'qish asosida turlicha ijodkorona munosabatga kiritiladi. Ijodiy tasavvurni shakllantirishning o'ziga xos usullari mavjud bo'lib, dastlab o'quvchining mustaqil mavzu, tushuncha haqidagi tasavvurlari kengaytirib boriladi. Bunda o'qituvchilar faqatgina asar doirasida emas, balki ularni ma'lum mavzu yuzasidan muammoli usulda fikr yuritish, tushunchani izohlatish asosida mustaqil izlanishlar olib boradilar. 1-4-sinf "O'qish savodxonligi" darslarida etnopedagogik asarlardan maqol, topishmoq, tez aytish, afsona, rivoyat va xalq qo'shiqlaridan namunalari o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kiritilgan. Mana shu matnlarning o'ziyiq boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy, badiiy tasavvurlarini oshirishga xizmat qilsa-da, ammo keyingi vaqtlarda dostonlarga urg'u berilmayapdi. Vaholangki, xalq dostonlarida xalqning qadimiy e'tiqodlari, tasvur va tushunchalari xotira orqali yetib kelgan bo'lib, o'tmishimizning jonli tarixi badiiy solnoma sifatida ko'zga tashlanadi. Ikkinchidan, doston qahramonlaridagi mardlik, jasurlik, vatanparvarlik tuyg'ulari yosh avlodni har tomonlama ma'naviy kamolotga yetaklaydi. Biz boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda 3-4-sinf o'quvchilariga xalq dostonlaridan namunalari o'qishni tavsiya qilamiz.

Ma'lumki, "Alpomish" dostonining turli baxshilardan turli ko'rinishda yozib olingan variantlari mavjud bo'lib, ularning badiiy jihatdan mukammali Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti ekanligi olimlar tomonidan ta'kidlab o'tiladi [3]. Dostonning hajmi katta ekanligini e'tiborga olib, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga tegishli matnlar tavsiya etib boriladi. Asarning hajmidan kelib chiqqan holda bir necha darsga mo'ljallanishi mumkin. Chunki sinfdan tashqari o'qishni tashkil etish ham ma'lum bir taqvim asosida mavzular kesimida shakllantirilib, o'qituvchi bevosita darsni nazorat qilib, tegishli ko'rsatmalar berib boradi. Bunda o'quvchilar o'zlari o'qigan doston matnidani ovoz chiqarga holda o'qib berishi, yod olishi, rollarga bo'lib o'qishdan ham foydalanish mumkin. Zero, qachonki o'quvchi o'zlashtirayotgan matnning mazmunini tushunib, unga mustaqil baho bersagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Sinfdan tashqari o'qish qiziqarli va o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, o'quvchilarning bilimi va dunyoqarashini kengaytiradi.

O'quvchilar doston yuzasidan suhbat metodi asosida turlicha savol-javobga olib

kiriladi. Dastlab darsning kirish qismida o'qituvchining xalq dostonlari, doston tushunchasi, janri, obrazlari va uning ijro etuvchilari haqidagi umumiy fikrlari aytib boriladi. O'quvchilar esa o'qigan matnlari asosida umumiy xulosaga kelib, doston mohiyatini o'zlashtira boradilar. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, dastlab doston haqida fikr yuritishdan avval dostonning nashr shakli, Alpomish obrazi va boshqa qiziqarli ko'rgazmalardan foydalanib, keyin o'quvchilarning dostonidan o'qigan parchalari ustida ishlashni tashkil etish mumkin. "...Hakimbek yetti yoshiga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birichdan bo'lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda Hakimbek shul o'n to'rt botmon yoyni qo'liga ushlab, yetti yashar bola ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi. Yoyning o'qi yashinday bo'lib ketdi. Asqar tog'ining katta cho'qqilarini yulib o'tdi, ovozasini olamga ketdi. Buni eshitgan dushmanlar: "Bu bola zo'r bo'пти, nazar topibdi, bularga hech kim barobar bo'lolmaydi, yetti yashar bola shunday ishni qilami?!" deb xafa bo'lib yotdi"[4,70] Dastlab matn asosida Hakimbekning yoshlik shijoati, kuch-qudrati, alplik maqomiga ega bo'lishi, bundan xabar topgan dushmanlarning hokimiyat egasiga nisbatan dushmanlik alomatlarining ortib borishi o'quvchi va o'quvchilar og'zaki suhbatini asosida tahlil qildirib boriladi. Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish lozimki, matnda keltirilgan ba'zi so'zlarning izohi albatta, o'qituvchi tomonidan izohlanib, keyin o'quvchilarning lug'at daftarlariga yozdirib boriladi. Shu bilan bir qatorda dostonning asosiy mazmuni haqida o'quvchilar tushunchalari kengaytirilishi uchun mustaqil topshiriqlar yordamida davomiyligi va izchilligi saqlanadi. Misol uchun doston yuzasidan ajratilgan soatning miqdoridan kelib chiqib, o'quvchilar dostonni umumiy tarzda muhokama qiladilar, ijodiy qayta hikoyalaydilar, rasmlar chizish, ifodali o'qish va boshqa mana shu kabi ijodkorlik qobiliyatlari o'stirib boriladi.

Xalq dostonlarini sinfdan tashqari o'qish darslarida o'rgatish asosida o'quvchilarning nazariy tushunchalari kengaytirib boriladi. Ikkinchidan, o'quvchilar doston qahramonlari ruhida tarbiyalanib, ularning milliy qadriyatlar, ajdodlar merosiga muhabbati orttiriladi. Uchinchidan, o'qish va o'qitish mobaynida o'quvchilar doston mazmuni bilan tanishadi, mustaqil fikr yuritadi, dunyoqarashi kengayadi va o'qituvchi topshirig'iga muvofiq dostondagi ba'zi epizodlar, tasvir vositalari, qahramonlar xatti-harakati borasida mustaqil ijodiy tasavvur hosil qiladi. Bu esa sinfdan tashqari o'qish darslarining imkoniyatlari va tarbiyaviy ahamiyatining oshishi uchun zarurat yaratadi.

**Xulosa va takliflar.** Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilar ijodiy tasavvurining shakllantirishda pedagogik muammo sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu borada boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga etnopedagogik asarlardan foydalanishning ilmiy-metodologik, ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari, ularning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish muhim omillardandir. Chunki bu yosh o'quvchilar mustaqil ijodiy ko'nikmalarini shakllantirishda etnopedagogik manbalar, ularning tarbiyaviy imkoniyatlari yetakchi vosita hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev Q., Yo'ldosheva M. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. –Toshkent, 2022. –B. 151.
2. Qosimova Q va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. –Toshkent, 2009. –B. 169.
3. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. –Ташкент, 2008.
4. Alpomish. Doston. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. Nashrga tayyorlovchi T.Mirzayev. – Toshkent: Fan, 1999. –B. 70.
5. Husanboyeva Q va boshq. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya – Ziyo, 2020.
6. Negmatova Z. Theoretical principles of forming students' artistic-creative imagination // Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ). Vol.12, Issue 2024
7. Matchonov S va boshq. O'qish kitobi. Umumta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. –Toshkent, 2020. –B. 245.
8. Ibragimov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. – Toshkent, 2002.
9. Иванюк Т. Творчество и личность. – М.: Top, 2006. –318 с.



## ADABIY TA'LIMDA NAZARIY MA'LUMOTLARNI TANLASH VA ULARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Raxmatullayeva Shaxodat Ziyotovna**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, dotsent  
[shahodatrahmatullayeva111@gmail.com](mailto:shahodatrahmatullayeva111@gmail.com)

**Oromova Nafosat Jo'rayevna**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, o'qituvchi  
[oromovanafosat@gmail.com](mailto:oromovanafosat@gmail.com)

ORCID:0009-0000-8681-5224

UDK: 372.3.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada badiiy asarning o'quv tahlili adabiyotshunoslik tahlilidan farqli jihatlari ko'rsatib berildi. Asarni tahlil qilish, obrazlarning xususiyatlarini o'rganish va yozuvchining maqsadini anglashda bir qancha vositalar tahlili keltirildi. Asarning uzviy qismlarini, bu qismlarning asarni bir butun holga keltirishdagi xizmatini o'rganishda o'quvchilar personajning shu bo'lim voqealari rivojidadagi o'rni, asar voqeasi davomida personajda hosil bo'layotgan yangi belgilarni aniqlab borish yo'llari ishlab chiqildi. Badiiy asar tahlili oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda tarixiylik, shakl va mazmun birligi tamoyillariga asoslanishi tahlil qilingan. Shuningdek, badiiy matnning o'qish jarayonida izoh shaklida ham, asarni detallashtirib ko'zdan kechirish shaklida ham, qahramonlarni tavsiflash yoki tasviriy ifoda vositalarini aniqlash shaklida ham bo'lishi misollar bilan dalillandi. Tahlilning hamisha ma'lum maqsadga qaratilishi uning shakli va mazmunini belgilashi asoslab berildi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, DTS, tahlil, badiiy asar, nazariy ma'lumot, peyzaj, portret, kompozitsiya, konsepsiya.

### SPECIFIC ASPECTS OF SELECTING AND USING THEORETICAL INFORMATION IN LITERARY EDUCATION

**Abstract.** This article shows the differences between the educational analysis of the literary work and the literary analysis. Analysis of a number of tools for analyzing the work, studying the characteristics of images, and understanding the writer's purpose have been presented. When studying the integral parts of the work, the service of these parts in making the work a whole, students were developed ways to determine the place of the character in the development of the events of this section, new characters that are formed in the character during the event of the work. The basis of the principles of historicity, unity of form and content in the implementation of the goals and tasks set before the analysis of the work of art was analyzed. It was also proved with examples that in the process of reading the artistic text, it is in the form of an explanation, in the form of a detailed review of the work, in the form of describing the characters or identifying the means of visual expression. It was analyzed that the analysis is always focused on a certain goal, which determines its form and content.


**Keywords:** education, DTS, analysis, artwork, theoretical information, landscape, portrait, composition, concept.

**Kirish.** Ma'lumki, adabiyot namunalari bilan bir qatorda nazariy ma'lumotlarni o'rganish masalasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Adabiy ta'lim konsepsiyasi", adabiyotdan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarida ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar asosida Q.Yo'ldoshev [1], Q.Husanboyeva, N. Karimovlar [2] tomonidan yaratilgan "O'qituvchi kitobi"da o'z aksini topgan bo'lib, sohadagi islohotlar bunday mazmundagi qo'llanmalarga ma'lum darajada yangilanishlar kiritishni taqozo qilmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Badiiy asarning o'quv tahlili adabiyotshunoslik tahlilidan farqlanadi. Agar ilmiy tahlilda adabiyotshunos fan ma'lumotlariga tayansa, o'quv tahlilida o'qituvchi DTS va dastur talablaridan kelib chiqib o'quvchilarning yosh xususiyatlari va bilish darajasini hisobga olib ish ko'radi. "Ammo asarning syujet qurilishi, kompozitsion tuzilishi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, obrazlar tizimi, tili o'quv tahlilining muhim sharti bo'lib qolaveradi va u, avvalo, o'qituvchi va o'quvchining asar g'oyaviy yo'nalishi, mavzusi, qahramonlar xarakterini ochib berish, tasviriy vositalarni mazmun bilan birgalikda o'zlashtirish bo'yicha hamkorlikdagi ishi hisoblanadi"[3]. Biz bu jarayonni sinflar kesimida quyidagicha tahlil qildik.

**Natijalar va muhokama.** Avval asar mazmuninigina o'rgangan 5-sinf o'quvchilari keyingi sinflarda asar qahramonining xarakterini ochishga xizmat qiladigan tasvir turlari bilan tanisha boradilar hamda peyzaj, portret va qahramonning sharoit tasvirini o'rganish orqali adabiyot haqidagi tushunchalarini boyitadilar.

Umuman, o'quvchilar peyzaj haqida nazariy ma'lumot olgandan so'ng ularda boshqa soha va yo'nalishda uchraydigan peyzaj haqida tayanch ma'lumot bo'ladi:



Asarni tahlil qilish, obrazlarning xususiyatlarini o'rganish va yozuvchining maqsadini anglashda bir qancha vositalar kabi, matndagi tabiat manzaralari tasviri – peyzajni o'rganish ham alohida o'rin tutadi. Yozuvchining dunyoqarashi, asarda tasvirlanayotgan voqea va personajlarga munosabati tabiat tasvirida ham yaqqol ko'rinadi. Chunki “Badiiy asarlardagi tabiat manzaralarida faqat tabiat hodisalarigina tasvirlanib qolmay, balki shu hodisa munosabati bilan yozuvchida tug'ilgan fikr va sezgilar ham ifodalanadi... Tabiat manzarasi tasviri yozuvchining hayotga munosabatini, go'zallikni qay darajada sezishini, uning umumiy dunyoqarashini bildiradi”. Shuning uchun badiiy asarlarni o'rganishda, sinfda o'qiladigan matnni tahlil qilish mashg'ulotlarida peyzajni o'rganish, uning qanday vazifani bajarayotganligini kuzatish va g'oyaviy tomonini, estetik ta'sir kuchini sharhlash zarur.

Badiiy asar tahlili oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda tarixiylik, shakl va mazmun birligi tamoyillariga tayaniladi. Bu tamoyillar adabiy tahlilning quyidagi qator komponentlari yordamida amalga oshiriladi:

1. Asarda qo'yilgan tarixiy va ijtimoiy muammo.
2. Matnda yozuvchi nuqtayi nazarining ifodalanishi.
3. Asar mavzusi va syujeti qurilishi.
4. Adabiy qahramonlarga xos yetakchi xususiyatlar.
5. Asarning kompozitsion tuzilishi.
6. Badiiy til xususiyatlari va uslubi.
7. Asarning janriy o'ziga xosligi.
8. Yozuvchi ijodining o'z davri uchun ahamiyati, zamon bilan aloqasi va h.k.

Tabiiyki, har bir asar tahliliga yuqoridagi barcha komponentlarni jalb qilib bo'lmaydi. O'qituvchi asarni anglash jarayonini tashkil etar ekan, o'quvchilarga tahlil ko'nikmalarini singdirishi kerak. Tahlil o'quvchilarning badiiy matnni chuqur anglashiga yordam beribgina qolmasdan, ularda ezgu hislarni tarbiyalaydi, o'z hayoti haqida fikr yuritishga undaydi. Tahlil usullarini tanlash oson ish emas. U ko'proq adabiy turga bog'liq. Lirik epik asarga, drama eposga qaraganda turlicha tahlil usullarini taqozo etadi. Tahlil “...badiiy matnni o'qish jarayonida o'qituvchining izohi shaklida ham, asarni detallashtirib ko'zdan kechirish shaklida ham, qahramonlarni tavsiflash yoki tasviriy ifoda vositalarini aniqlash shaklida ham bo'lishi mumkin... Chuqur ma'nodorlik adabiy tahlilning eng birinchi va asosiy shartidir. Tahlilning hamisha ma'lum maqsadga qaratilishi uning shakli va mazmunini belgilaydi”[4].

San'at asarlarida peyzaj turli vazifalarni bajaradi. Ba'zi asarlarda peyzaj – yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrlarning asosini tashkil qiladi. Ba'zi bir asarlarda esa peyzaj tasvirlanayotgan voqea va hodisalarni yorqinlashtirishga, personajlar xarakterini ochishga xizmat qiladi, kitobxonda estetik zavq uyg'otadi. Bundan tashqari, peyzajning eng muhim xizmati – o'quvchilarni ona Vatan tabiati, uning manzarasi bilan tanishtirish va shu orqali

ularning Vatanga muhabbatlarini oshirishdadir.

Har bir asarni o'rganishda ahamiyat beriladigan birinchi masala – asarda nima haqida gapirilayotganliginigina emas, balki shu bilan nima deyilmoqchi ekanligini ham aniqlash masalasidir. Chunki tasvirlanayotgan masala asarning mavzusini tashkil etsa, shu orqali nima demoqchi ekanligi – obyektiv xulosa – asarning g'oyasini tashkil etadi.

Lirik asarlar, ayniqsa peyzaj lirikasi – muallif niyatini manzaralar tasviri, shu tasvirdan tug'iladigan lirik kechinmalar shaklida bayon qiluvchi asardir. Peyzaj lirikasini o'rganishda tabiatning u yoki bu lavhasi orqali nima deyilmoqchi ekanligiga o'quvchilar e'tiborini jalb etish zarur.

Hamid Olimjonning "O'rik gullaganda" peyzaj lirikasida shoirning maqsadi:

Mana senga olam-olam gul,  
Etagingga sig'ganicha ol.  
Bunda tole har narsadan mo'l,  
To o'lguncha shu o'lkada qol...  
misralarida bayon qilinadi.

"Lirik va dramatik asarlardan farqli, – deb yozadi professor M.Mirqosimova – epik turga taalluqli asarlarga qamrab olingan hayotiy hodisalar makoni kengroq, ularda voqealar va qahramonlarning nasriy yo'sindagi tasviri yoki talqini yetakchilik qiladi; ziddiyatlar, holatlar tasviri janr miqyosiga mos salmoqdor ma'nolarni ifoda etadi; qahramonlar qiyofasidan anglashiladigan mazmun esa ularning xatti-harakatlari bilan kurashlariga tuyg'ulari va maslaklariga bog'lanib, yaxlit holda asar g'oyasini yuzaga keltirishi haqida o'quvchilar to'la tasavvurga ega bo'lishlari shart"[5].

Ma'lumki, badiiy asarlarda tasvirlangan voqealar biridan ikkinchisiga, undan esa keyingilariga o'tish orqali rivojlanib boradi. Shu bir voqeada tasvirlangan masalaning sabablari yangidan yangi voqealarda yoritiladi, shu tariqa asar qahramonining turli-tuman xususiyat belgilari voqealar rivojida takomillashib boradi.

Yozuvchi tanlagan mavzusini yoritishda voqealarni o'zi belgilagan reja va mo'ljalda o'stirib boradi. Asardagi katta-kichik va turli-tuman voqealar yozuvchi tanlagan reja asosida muntazam bir zanjirni tashkil etadi. Yozuvchining tanlagan badiiy shaklini aniqlamay va asarning badiiy qiymatini belgilamay turib uni baholab bo'lmaydi. Shu sabablarga ko'ra badiiy asarlar faqat mazmun jihatidagina emas, balki tuzilishi jihatidan ham o'rganiladi.

Badiiy asar qiymatini belgilashda obrazlar, uning poetik tili kabi muhim masalalar qatorida asarning kompozitsiyasiga ham ahamiyat beriladi. Chunki kompozitsiya yozuvchining badiiy mahorati, tasvirlagan voqeasi uchun tanlagan shakli va uslubini o'rganishga imkon beradi.

Kompozitsiya so'zi ba'zan syujetning rivojlanishi ma'nosida ham ishlatiladi. Shu tufayli ba'zi o'qituvchilar asar kompozitsiyasini tahlil qilish degan ibora syujetning rivojlanishidagi ekspozitsiya, tugun, voqeaning to'xtab qolishi, rivoji, kulminatsiya (avj nuqta) va yechimni tushuntirish deb biladi. Aslida esa kompozitsiya juda ko'p narsalarni o'z ichiga oladi. Uning ma'nosi juda keng.

Kompozitsiya real hodisalarni o'zida aks ettirishni maqsad qilib qo'yilgan adabiy asarning ayrim elementlari, bo'laklari, boblari o'rtasidagi bog'lanish va shu bo'laklarning butun asarga bo'lgan nisbati demakdir. Asar kompozitsiyasining turlicha bo'lishi asar bo'limlari yoki elementlari o'rtasidagi nisbat va bog'lanishning turlicha bo'lishidan kelib chiqadi.

Lekin, shunga qaramay, asar kompozitsiyasini o'rganish hanuzgacha adabiyotshunoslikda to'la ishlanib yetmagan murakkab masalalarning biri bo'lib kelmoqda. Shu sababli, maktabda badiiy asarlarni kompozitsiya jihatidan tahlil qilish masalasi ham o'zining munosib o'rnini egallaganicha yo'q. Ko'p yillik kuzatishlardan shu narsa ma'lumki, asar kompozitsiyasini syujet yo'nalishiga qarab o'rganish maqsadga to'la erishilgan dars hisoblanadi.

O'quvchilar bu dars mashg'ulotida asar syujetining rivojlanish protsessini o'rganadilar. Asar kompozitsiyasini syujet qurilishini kuzatish yo'li bilan o'rganish asar kompozitsiyasini o'rganishning bir turi sifatida yaxshi bo'lsa-da, lekin bu xildagi mashg'ulot asar kompozitsiyasini to'raligicha o'rganish hisoblanmaydi. Chunki asar kompozitsiyasini o'rganishda faqat undagi konflikt rivojining bosqichlarini belgilash bilan cheklanmay, balki personajlarning xarakterini ochishda syujet yo'nalishining ahamiyatini, o'rganilayotgan asarning umumiy g'oyaviy yo'nalishini ham baholash lozim. Agar faqat syujet rivojini kuzatish bilan chegaralanib qolinsa, bu mashg'ulot shaklli xarakterga ega bo'lib qoladi.

Bundan tashqari, syujetli asarlar bilan bir qatorda syujetsiz asarlar ham mavjuddir. Agar asar kompozitsiyasini faqat syujet yo'nalishini kuzatish orqali o'rganishga odatlanib qolinsa, syujetsiz asarlar kompozitsiyasini o'quvchilar nima qilishni bilmay qoladilar. Shuning uchun asar kompozitsiyasini o'rganishda garchi syujet rivojiga e'tibor berilsa ham, aslida obrazlarning bir-biriga bog'lanish prinsiplarini o'rganishga alohida ahamiyat berish zarur. Yozuvchining asar qahramonlari obrazini tip darajasiga ko'tarishi, qahramonlar obrazining tuzilishi masalalari asar kompozitsiyasini o'rganishning muhim masalalaridir 5-9-sinflarda asar kompozitsiyasini o'rganishda syujet yo'nalishidan tashqari, obrazlarning bir-biriga bog'lanish sabablari, asar yaratishda yozuvchining tanlagan rejasi va yo'li, asarning mavzu va g'oyaviy mazmuni masalalarini nazarga olish bilan chegaralanish mumkin.

Asarning uzviy qismlarini, bu qismlarning asarni bir butun holga keltirishdagi xizmati va shu kabilarni o'rganishda o'quvchilar personajning shu bo'lim voqealari rivojidadagi o'rnini, asar voqeasi davomida personajda hosil bo'layotgan yangi belgilarni aniqlab boradilar. Natijada asardagi voqealar tizmasi ham, shu voqealar ishtirok etayotgan personajning xarakterli xususiyatlari ham tushunila boradi.

Asar kompozitsiyasini o'rganish yuzasidan maxsus darslar o'tkaziladi. Bu darslar obrazlarning xarakterli xususiyatlarini aniqlash bilan bog'liq holda olib boriladi. Odatda matnni har tomonlama o'rganib, tahlil qilib chiqilgandan keyin shunday mashg'ulotlar o'tkaziladi. Asar kompozitsiyasini o'rganishga bag'ishlangan darslar o'quvchilarning badiiy didini oshiradi, yozuvchining ijodiy mahorati bilan yaqindan tanishtiradi.

5-sinfda o'quvchilar asar, uning syujeti, obrazlar va badiiylik masalalarini shu asar voqeasining rivojini kuzatish yo'li bilan o'rganib borsalar ham, 6-sinfga kelib asarning umumiy tuzilishini o'rganishga kirishadilar. Asar kompozitsiyasini o'rganish asosan ikki yo'l bilan, ya'ni alohida-alohida voqealarni o'rganish va asar voqeasining umumiy dinamik o'sib borishini o'rganish yo'li bilan olib boriladi.

5-sinfda badiiy asarning kompozitsion tuzilishi haqida ma'lumot berilmaydi. Lekin, shunga qaramay, asar kompozitsiyasini o'rganishga taalluqli dastlabki mashg'ulotlar 5-sinfdan boshlanadi. 5-sinfda o'quvchilar kitobdagi matnlar oxirida berilgan topshiriqlar yoki o'qituvchi tavsiya qilgan reja asosida matnning bo'lim yoki qismlarini aniqlaydilar, bir voqeadan ikkinchi voqeaga o'tish o'rnini ajratadilar. Shu topshiriq va rejalar asosida badiiy matnning qismlarini aniqlash asar kompozitsiyasini o'rganishning dastlabki oddiy usuli hisoblanadi.

Adabiyot darsligidagi "Uch og'a-ini botirlar" ertagini o'rganish uchun: "Yo'lda qanday voqealar ro'y berdi? Har bir voqeani o'z so'zingiz bilan gapirib bering", degan savol va topshiriq berilgan.

Yuqoridagi kabi ertakni qismlarga ajratish asar kompozitsiyasini syujet yo'nalishini kuzatish orqali o'rganish namunasidir. Shu voqealar tizmasi yaxlit voqeani maydonga keltiradi. Belgilab qo'yilgan bu voqealar umuman asar voqeasining takomilini ko'rsatuvchi bo'limlardir. O'quvchilar voqealarni alohida-alohida aytib beradilar. Ular dastlab shu voqealar tizmasi umumiy birlikni – yaxlit voqeani tashkil qilishini anglashda qiynalsalar ham, kichik-kichik voqealarni ajratib olishni o'rgatib borish ma'qul. O'quvchilar asardagi ayrim voqealarni aniqlay olishga odatlanib borib, keyinchalik shu mayda voqealardan, mayda qismlardan yaxlit asar maydonga kelishini tushunadilar. Bu yaxlit masalalar keyingi sinflarda

aniqlab boriladi.

5-sinfda asar bo‘limlarini aniqlash va mazmunini aytib berishning eng yaxshi namunasi Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” she‘ridir. Bu she‘r o‘n banddan iborat bo‘ib, har bir band Vatanimizning shonli va qonli tarixini, mehnatkash xalqning chekkan zahmatlarini aks ettirib bergan. She‘rning birinchi bandi kirish: “Yurtim, senga she‘r bitdim bu kun, qiyosingni topmadim aslo...”, o‘quvchilar har bir bandni alohida syujet ajratib turishini anglash bilan birga, she‘rning kompozitsion yaxlitligini ham tushunadilar. Chunki she‘rni o‘qib borgan sari ohang ko‘tarilib boradi (kulminatsiya) va she‘r xuddi yechim bilan tugagandek shoirning tilaklari bilan yakun topadi.

5-sinf adabiy matndagi syujet yo‘nalishi, uning bo‘limlarigina emas, balki shu matnda tasvirlangan ayrim buyum, manzara tasviri yoki personaj portretini ko‘zdan kechirish ham asar kompozitsiyasini o‘rganishning bir turi hisoblanadi. Chunki shu komponentlar asarning umumiy kompozitsiyasini tashkil etishda qatnashadi. Misol uchun Hamid Olimjonning “Oyguil bilan Baxtiyor” ertagini olib ko‘raylik. O‘quvchilar bu ertakning butun kompozitsiyasini emas, balki uning bir komponentini – Oyguilning sandiqqa solib oqizilishi epizodini o‘rganishlari ham mumkin. Shu epizodni o‘rganishning o‘zi ham, hatto Oyguilning portretiga doir suhbat ham ertak kompozitsiyasini o‘rganishning 5-sinfga mos keladigan xili hisoblanadi. Darslikdagi Jayxun baliqni yorganda ichidan Oyguilning chiqib kelishi va otabolaning hayrati tasvirlangan rasmlarni kuzatish va mazmunini aniqlash ham ertak kompozitsiyasini o‘rganishdir. 5-sinfda asar kompozitsiyasini o‘rganish yuqorida ko‘rganimizdek, asosan komponentlarni aniqlovchi amaliy mashg‘ulot xarakteriga ega bo‘ladi. Asar kompozitsiyasini o‘rganishga doir nazariy ma‘lumotlar yuqori sinflarda o‘rgatiladi.

Agar 5-sinf o‘quvchilari asardagi ayrim komponentlarni o‘rgansalar, keyingi sinflarda bu mashg‘ulotning mazmuni anchagina boyitiladi. Bu sinfda asar kompozitsiyasini o‘rganishning bir turi, ya‘ni asar voqeasida ishtirok etuvchi personajlarning o‘zaro munosabatlarini kuzatish turidan foydalaniladi. Bu ishning muvaffaqiyatli chiqishi uchun ko‘rsatma ijro rollardan foydalaniladi. Personajlarning guruhlanishi va munosabatini grafika – chizishlar orqali ko‘rsatish ham ko‘rsatmalilikning bir turidir. Personajlar munosabatini grafika vositasida ko‘rsatish orqali asar syujetini o‘quvchilar ko‘zi o‘ngida turlicha gavdalantirish mumkin.

O‘quvchilar 6-sinfda asar kompozitsiyasini ayrim personajlar va ular o‘rtasidagi munosabatlarni kuzatish yo‘li bilan o‘rgansalar, 7-9-sinflarga kelib asar syujetining dinamik o‘sib, rivojlanib borishini kuzatish yo‘li bilan ham o‘rganadilar. Syujet, syujet yo‘nalishi va voqealar rivojini kuzatish yo‘li bilan asarni tahlil qilish – dinamik kompozitsiya deyiladi.

Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi kichik hajmli asar bo‘lsa ham, unda katta hajmli asarlarning kompozitsion tuzilishiga xos belgilar mavjud. Bu masalalarni aniqlash maqsadida o‘quvchilarga asar kompozitsiyasi haqida – muqaddima, ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim va xotima to‘g‘risida qisqacha nazariy ma‘lumot berishga to‘g‘ri keladi. Bu ma‘lumotdan so‘ng yoki Unsin kechmishini o‘rganish davomida syujet yo‘nalishining bosqichlari aniqlab boriladi.

Ona tili va adabiyot darslarida matnning, asarning mazmunini anglash, muallifning nima demoqchi ekanini tushunishi uchun, avvalo, u o‘quvchi yoshiga mos bo‘lishi lozim.

Biz bugun bola asar o‘qimaydi, deb noliymiz, ammo taqdim qilayotgan asarimiz qay darajada o‘qish uchun qulay?!

Uni o‘quvchi tushuna oladimi? Oltmish yoshli yozuvchi uni necha yoshdagi bola uchun yozgan? Masalan, Chingiz Aytmatovning asarlari bola idroki bilan yozilgan. Hatto “Jamila” qissasi ham.

O‘zbek adabiyotida Qodiriyning “Uloqda” hikoyasi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham chorak asrdan beri o‘qitib kelinayotgan edi, ammo aksariyat o‘qituvchilar bu hikoyaning mazmunini tushuna olmay, o‘quvchilarga uloq milliy qadriyat sifatida ulug‘langan

deb uqtirib kelishgan, aslida hikoyada katta hayotiy saboq haqiqati bayon qilinadi.

Endi Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasini oladigan bo‘lsak, bu asar 7-sinf o‘quvchilari tushuna olmaydigan mavzu, nazarimizda. Unsin, uning ovsinlari payg‘ambar yoshidan oshgan qari eri o‘rtasidagi muloqotni qanday his qiladi. Bu asarning badiiy qimmat, estetik ta‘siri katta. Uni yuqori 10-11-sinflarda, o‘quvchini hayotga tayyorlash maqsadida o‘qitish mumkin. 7-sinf o‘quvchilari tabiat va qabriston manzaralaridagi dahshatni tasavvur qilishi mumkin, ammo haqiqiy “dahshat”ni, Unsinning dahshatli qismatini tushuna olishmaydi.

**Xulosa.** Avvalo, o‘qituvchilarning o‘qish savodxonligini oshirish kerak, ularga matn mazmunini anglashga olib boruvchi savol va topshiriqlar tuzishning sir-asrorlari o‘rgatilishi zarur.

Umuman, badiiy asar tahliliga yangicha yondashish vaqti kelgan. “O‘g‘ri” hikoyasida o‘g‘rining kimligini topish haqida savol bermay, korrupsiyaning insonga, jamiyatga salbiy ta‘sirini tushuntiruvchi topshiriqlar berish foydaliroq.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev Q, Q.Husanboyeva Q. O‘qituvchi kitobi: metodik qo‘llanma. 6-sinf “Adabiyot” darslik majmuasi uchun. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 160-b.
2. Karimov N. va boshq. Adabiyot: 5-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 2003. – 192-b
3. Kambarova S.I. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 6-7-b.
4. Матжон С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 21-б.
5. Мирқосимова М.М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 147-б.
6. Husanboyeva Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi va muammoli ta‘lim. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 42-b.
7. Йўлдошев Қ.Б. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 77-б.
8. Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. – Тошкент: ФАН, 2007. – 29-б.
9. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1996 –117-б.

## RAQAMLI TEXNOLOGIYA MUHITIDA O‘QUVCHILARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH

**Nurmamatov Ramazon Abdirashid o‘g‘li**

Qarshi davlat universiteti,

Texnologik ta‘lim kafedrasida tadqiqotchisi

[romazannurmamatov@gmail.com](mailto:romazannurmamatov@gmail.com)

ORCID 0009-0009-5772-2040

UDK 371.3

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar muhitida o‘quvchilarni kompetensiyaviy yondashuv asosida kasb-hunarga yo‘naltirish masalalari keng tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar ta‘lim jarayonini yanada innovatsion va samarali qilishga yordam beradi, o‘quvchilarga yangi ko‘nikmalarni egallash, mustaqil o‘rganish va kreativ fikrlash imkoniyatlarini taqdim etadi. Kompetensiyaviy yondashuv har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning qiziqishlari, qobiliyatlari va kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Maqolada shuningdek, raqamli texnologiyalarni ta‘limda qo‘llashning o‘quvchilarni kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatlariga qanday ta‘sir ko‘rsatishi, zamonaviy pedagogik metodlarning ahamiyati va ularning ta‘lim sifatini oshirishga qo‘shgan hissasi haqida ham to‘xtalib o‘tiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarga o‘z-o‘zini rivojlantirish va mehnat bozorida muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi. Natijada, raqamli texnologiyalar ta‘lim jarayonini nafaqat yangilab, balki o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni kasb-hunarga yo‘naltirishda muhim rol

o'ynaydi. Maqola ushbu jarayonlarning muhimligini ta'kidlaydi va kelajakda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun zarur qadamlarni belgilaydi.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiya, audio – visual axborot texnologiyalari, didaktik vositalar, axborot-kommunikatsion texnologiya, kompetensiyaviy bilim.

## **ORIENTATION OF STUDENTS TO A PROFESSION BASED ON A COMPETENCY-BASED APPROACH IN THE ENVIRONMENT OF DIGITAL TECHNOLOGY**

**Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of guiding students toward vocational careers through a competency-based approach in a digital technology environment. Digital technologies enhance the educational process by offering innovative and effective means for students to acquire new skills, learn independently, and engage in creative thinking. The competency-based approach focuses on the individual characteristics of each student, taking into account their interests, abilities, and professional skills development. Additionally, the article highlights how the application of digital technologies in education impacts students' future career success, as well as the significance of modern pedagogical methods and their contribution to improving educational quality. This approach supports students in self-development and helps them succeed in the labor market. Ultimately, digital technologies play a crucial role not only in modernizing the educational process but also in developing students' competencies and guiding them toward vocational careers. The article emphasizes the importance of these processes and outlines necessary steps for further improving the education system in the future.

**Keywords:** digital technology, audio-visual information technologies, didactic tools, information and communication technology, competency-based knowledge.

**Kirish.** Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Raqamli texnologiyalar o'quv jarayonini innovatsion yondashuvlar bilan boyitib, o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ta'limda axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarga bilim va ko'nikmalarni egallashda yangicha imkoniyatlar yaratadi.

Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish va zamon talablariga mos mutaxassislar tayyorlash maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. Ushbu maqola raqamli texnologiya muhitida o'quvchilarni kompetensiyaviy yondashuv asosida kasb-hunarga yo'naltirish jarayonini tahlil qiladi va bu jarayonda didaktik vositalarning o'rnini belgilaydi. O'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda, ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning samarali qo'llanilishi, ularning kelajakdagi kasb tanlashiga qanday ta'sir qilishi muhim ahamiyatga ega.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Raqamli texnologiyalar va ularning ta'limdagi roli haqidagi tadqiqotlar so'nggi yillarda keng tarqaldi. Ko'plab mutaxassislar raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga ta'sirini tahlil qilib, ularning o'quvchilarning ta'lim sifatiga va professional kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan muhim ahamiyatini ta'kidlaydilar.

Masalan, Smith va Jones (2020) o'z tadqiqotlarida raqamli vositalarni o'quv jarayonida qo'llash o'quvchilarning motivatsiyasini va ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirishda samarali ekanligini ko'rsatganlar. Ular, shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilar uchun interaktiv va qiziqarli ta'lim muhitini yaratish mumkinligini ta'kidlaydilar. Bundan tashqari, Brown (2019) ta'lim jarayonida audio-visual axborot texnologiyalarining qo'llanilishini o'rganib, bunday texnologiyalar o'quvchilarning ma'lumotni anglash va yodda saqlash qobiliyatlarini sezilarli darajada oshirishi mumkinligini aniqladi. Shuningdek, pedagogik innovatsiyalar, masalan, kompetensiyaviy yondashuv, o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi (Kovalev, 2021). Shunday qilib, mavjud adabiyotlar raqamli texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini rivojlantirishning dolzarbligini ko'rsatadi, bu esa o'quvchilarning kasb-hunarga yo'naltirilishida muhim rol o'ynaydi. Ularning ta'siri,

o'quvchilarni zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishda o'z ifodasini topadi.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Ushbu maqolada quyidagi tadqiqot metodologiyalaridan foydalanildi:

1. **Tahliliy tadqiqot:** Mavjud adabiyotlar, ilmiy maqolalar va tadqiqotlar tahlil qilinadi, bu esa raqamli texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuv haqida mavjud bilimlarni o'rganishga yordam beradi.

2. **Eksperimental tadqiqot:** O'quvchilarga raqamli texnologiyalar yordamida kasb-hunarga yo'naltiruvchi darslar o'tkazilib, natijalar o'rganiladi. Bu metod o'quvchilarning rivojlanishidagi o'zgarishlarni aniq ko'rsatishga imkon beradi..

3. **Statistik tahlil:** Olingan ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilinadi, bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshiradi.

**Natija va muhokama:** Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida faol, qo'llanilmoqda, sanoat, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sektori, shuningdek ta'lim jarayonini ham tez sur'atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatimiz prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyat beradi. Albatta raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etilishini yaxshi bilamiz. Biroq qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, ertaga kech bo'ladi." [1].

Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali axborot makonida taklif etiladigan ko'plab muammolarni jiddiy tahlil qilish va o'rganish uchun, ya'ni: fanlarning metodik ta'minotini takomillashtirish, o'quvchilarning fanlarga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, mashg'ulotlarda animatsion, audio – visual vositalarni, axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish imkoniyati yaratiladi [2]. Ushbu tadqiqotlarda fanlarni o'qitishda raqamli texnologiyalarni, eng so'nggi pedagogik qonuniyatlari asosida ishlab chiqib, o'quvchilarda o'ziga ishonch, fanga qiziqish, mehnatsevarlik, o'zchalar mehnatini qadrlash, zamonaviy bilim olish, xunar egallashga bo'lgan qiziqish, mustaqil kasb tanlash, kreativlik xizmatlarini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. Bu esa texnologiya fanini o'qitishda raqamli ta'lim muhitidan foydalanish bo'yicha metodik tizimni yaratishni, hamda bo'lajak o'qituvchilarda texnologik kompetensiyalarini rivojlantirishni taqozo etadi.

Bizga ma'lumki, o'rta umumta'lim maktablari zimmasiga o'quvchi yoshlarni barkamol avlod – aqlan yetuk, ma'naviy boy, jismonan baquvvat va xalq xo'jaligining biror sohasida faol xizmat qila oladigan shaxs qilib tayyorlash vazifasi yuklatilgan. Bu vazifani amalga oshirishda texnologiya fanining o'рни muhim. O'quvchi yoshlarni texnologik faoliyatga tayyorlashda texnologik tayanch kompetensiyalarni shakllantirish zarur. Bu kompetensiyalar texnologiya o'quv dasturida belgilangan "Texnologiya va dizayn", "Servis xizmati", Qishloq xo'jaligi asoslari" yo'nalishlari, shuningdek "xalq xunarmandchiligini texnologiyasi" hamda "Ishlab chiqarish asoslari. Kasb-hunarga yo'naltirish" modullarini o'rganish jarayonida amalga oshiriladi.

8-9 sinflarda texnologiya bo'yicha "Ishlab chiqarish asoslari. Kasb-hunarga yo'naltirish" moduli o'rganiladi. Eng muhimi shundaki, umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv rejasidagi barcha fanlarda, xususan texnologiya fanida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish elementlari mavjud bo'lib, ta'limning uzliksizligi va uzviyligi, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi [3].

"Ishlab chiqarish asoslari. Kasb-hunarga yo'naltirish" modulini o'qitish jarayonida



kssb-hunarga oid tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarga katta imkoniyatlarni ochib beradi.

Umimiy o'rta ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llashning maqsadi o'quvchilarga ongli ravishda o'zlari qiziqqan kasb-hunarni tanlashga va keying mehnat faoliyati davomida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirib borishga qaratilgan sifatlarni tarkib topishiga e'tibor qaratiladi.

Kasbga yo'naltirish muammosini shaxsning faqat qiziqishlarini yoki tipologik xususiyatlarini hisobga olib hal etish yo'lidagi urinishlarni ham noto'g'ri urinishlar, deb hisoblash kerak. Masalan, qiziqishlar shaxsning maqsadini ifodalasa ham, lekin uning kasbiy jihatdan muhim xususiyatlari va xislatlarini to'liq aks ettirmaydi. Bundan tashqari, qiziqishlar tez-tez o'zgarib turadi va hamma vaqt ham yetarli darajada asoslangan bo'lmaydi. Shu narsani ham yoddan chiqarmaslik kerakki, yoshlarning kasbiy qiziqishlari jamiyatning talab-ehtiyojlariga mos bo'lib tushmasligi mumkin.

Yuqorida aytilganlarning hammasini kasbga yo'naltirish ishida odamning shaxsiy xususiyatlarini o'rganishning rolini kamsitishdir, deb talqin kilish yaramaydi. Aksincha, odamning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olmay turib, shaxsning sobitqadam shakllanishiga erishib bo'lmaydi. O'quvchilarning shaxs xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, harakterini, jismoniy kamolotini bilish o'quvchilarni faoliyatning qaysi bir turiga tayyorlash maqsadga muvofiq ekanini belgilash uchun zarur. Bunda odam o'zining tabiiy xususiyatlari bilan belgilangan ezgu kasbni qidirish vazifasi o'rta qo'yilayotgani yo'q, balki tarkib topgan psixologik xususiyatlar va jismoniy belgilar bo'yicha shu odam uchun birmuncha maqsadga muvofiq bo'lgan kasbiy faoliyatning umumiy harakteri yoki kasblar tipigina aniqlanadi. Shaxsni o'rganish haddan tashqari bir tomonlama tusga ega bo'lmasligi lozim, chunki bu hol uning kasbga yaroqliligiga baho berishda va uning kamol topishi yo'nalishini belgilashda noto'g'ri xulosalar chiqarishga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, maktabdagi butun ta'lim va tarbiya tizimi o'quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashni ta'minlaydi. O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash umumiy politexnik va texnologik ta'lim jarayonida, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ish jarayonida olib boriladi.

Shunday qilib, kasbga yo'naltirish ishining mazmuni:

- politexnik ta'lim, maktabdan tashqari va sinfdan tashqari ish jarayonida o'quvchilarni iqtisodiyotning turli tarmoqlari (sanoat, transport, aloqa, kurilish, uy-joy kommunal xo'jaligi, qishloq va o'rmon xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va san'at, ijtimoiy-iqtisodiy soha, savdo umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish sohalari), eng ommalashgan kasblar bilan tanishtirishni;

- ishlab chiqarish sharoitlarida turli ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni o'quvchilarga singdirishni, texnologik ta'lim jarayonida ularda ishchi kasblariga qiziqishni tarbiyalashni;

- bolalarning texnik ijodkorligi, tajribachilik va ta'lim-tarbiya ishining boshqa shakllari jarayonida o'quvchilarda kasb-korlik qobiliyatlarini, mayllarini va qiziqishlarini rivojlantirishni;

- o'quvchilarda ishchi kasblariga qiziqish va hurmat bilan qarashni tarbiyalashni, o'quvchilarni ana shu kasblarni tanlashga tayyorlash hamda maktab, oila va ishlab chiqarishning birgalikda ish olib borish tizimida mehnat va kasbiy an'analarni qo'llab-quvvatlashni;

- pedagogik maslahatlar berish yo'li bilan kasbni to'g'ri tanlashda o'quvchilarga yordam berishni o'z ichiga oladi.

Kasbga yo'naltirish tizimining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

-kasblar to'g'risida axborot;

- dastlabki kasbiy tashhis;
- kasb tanlashga oid konsultatsiya;
- kasbga saralab olish;
- ijtimoiy-kasbiy moslanish;
- kasbiy tarbiya.

Kasblar to'g'risida axborot berish - o'quvchilarni turli xil mehnat turlari bilan, kasblar shajarasi, kasblarning o'ziga xos xususiyatlari, iqtisodiyotning kasblarga bo'lgan ehtiyojlari bilan tanishtirishdir. Tanishish jarayonida o'quvchilar kasblar olamida to'g'ri yo'l topishga xizmat qiluvchi bilimlarni egalaydilar va obektlarga o'zlari baho berish asosida qat'iy bir qarorga keladilar. Kasblar haqida tartibsiz malumot bermaslik uchun (dunyoda 40 mingdan ortiq kasblar mavjud) o'quvchilar oladigan bilimlarni ma'lum bir tizimga solish lozim. Buning uchun mehnat predmeti bo'yicha E. A. Klimovning kasblar tasnifidan foydalanish maqsadga muvofiq. Kasblar haqida axborot berish o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilishi lozim.

Dastlabki kasbiy ishlarning mazmuni quyidagi komponentarni o'rganishni o'z ichiga oladi:

- qiziqish, niyati, layoqati, qobiliyati;
- shaxsiy ruhiy xususiyatlari;
- asab tizimining shaxsiy xususiyatlari;
- mavjud bilim, ko'nikma va malakalar.

Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish jarayonida ularda kasbga bo'lgan qiziqishlar va ideallarning axloqiy asoslarini, kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vaj-sabablarini shakllantiradi.

Kasbga yo'naltirish ishi - butun pedagoglar jamoasining ishidir. Bu ish ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi bo'lib qolishi lozim. Shu bilan birga bu ishni muvaffaqiyatli olib borish uchun umumiy o'rta ta'lim maktabi imkoniyatlari doirasidan kelib chiqadigan maxsus ish shakllarini joriy etish zarur. Bunday ish shakllariga, avvalo, aniq kasblarga oid mehnat mazmuni va shu kasblarning odamga qo'yadigan o'ziga xos talablari to'g'risidagi axborot, ish va kasbga o'rgatish sharoitlari haqidagi, korxonalarda va o'quv yurtlarida kadrlarga bo'lgan talablar to'g'risidagi axborot, kasblar haqida maslahatlar berish kiradi. Shuning uchun ham maktab o'quvchilari bilan kasbga yo'naltirish ishini o'tkazishga korxonalarni, jamoatchilikni, ommaviy axborot vositalarini jalb qilish, kasbga oid maxsus maslahat punktlarini tuzish kerak bo'ladi, bunday punktlarda o'quvchilar va ularning ota-onalari kasb tanlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olishlari mumkin. Bularning hammasini kasbga yo'naltirish xizmati deb atash mumkin. Bunday xizmatning vazifasi - o'quvchilarni aniq kasbga yo'naltirish masalasini to'g'ri xal qilishda maktabga yordam berishdan iboratdir.

Kasbga yo'naltirish ishiga tarbiyaviy yondashuv g'oyasi yangi g'oya emas, albatta. Bu borada vujudga kelgan nazariya va amaliyot ikki yo'nalish bo'yicha: bir tomondan, kasbiy qobiliyatlarni diagnozlash yo'nalishi, ikkinchi tomondan, qobiliyatlarni rivojlantirish, kasbga bo'lgan qiziqishni tarbiyalash yo'nalishi bo'yicha rivojlanmoqda. Chunonchi, diagnostik yo'nalish odamning qobiliyatlari tug'ma va uning tabiiy asosini na ta'lim berib, na tarbiyalab, na faoliyat jarayonida o'zgartirib bo'ladi, degan fikrga asoslanadi. Shu boisdan odamning kelajakdagi kasbi oldindan belgilab qo'yilgan, uni imkoni boricha barvaqt payqash kerak. Shu munosabat bilan odamning kasbga yaroqliligini aniqlash va xodimlarni o'tkazilgan tashxis natijalariga qarab ish o'rinlariga joylashtirish kasbga yo'naltirishning asosiy vazifasidir. Bu natijalar inson uchun ma'lumot darajasini va ixtisosini ham oldindan belgilab berishi lozim.

Pedagogikaning zamonaviy talablariga ko'ra, o'quvchi shaxsi pedagogik

jarayonning ob'yektigina bo'lib qolmasdan, balki uning subyektiga ham aylanib bormoqda. Bunday hollarda o'quvchi mustaqil ravishda kasblar olami bilan tanishish, internet, ilmiy hamda o'quv axborotlaridan foydalana olish, elektron-ta'lim resurslari ustida ishlash, zamonaviy ta'lim vositalari (ekranli vositalar, kompyuter, o'quv-mashqlantiruvchi trenajorlar, virtual, imitatsion trenajorlar, 3D printerlar va h.z.) orqali yangi zamonaviy kasblar to'g'risida axborot-ma'lumot olish va bu kasblarning professiogrammalari bilan tanishish imkoniyati yaratiladi[4].

**Xulosa va takliflar.** Raqamli texnologiya asosida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda tizimli yondashuv muhim ahamiyat kasb etad. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kompetensiyaviy yondashuv asosida kasb-hunarga yo'naltirishni quyidagi: kasblar bo'yicha axborot-ma'lumot berish; kasbiy maslaxat; dastlabki kasbiy tanlov; kasbiy tashxis; kasbiy tarbiya; kasbiy moslashuv (adabtatsiya) kabi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Shu o'rinda umumiy o'rta ta'lim maktablarida raqamli texnologiyalarni qo'llashning maqsadi o'quvchilarga dastlab (1-4 sinflarda) kasblar olami bilan tanishtirish, o'quvchilarga qiziqqan kasblari bo'yicha axborot-ma'lumot berish; (5-7 sinflar) va layoqatini aniqlash (tashxis) (8-9 sinflarda); va kompetensiyaviy yondashuv orqali o'quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashlariga erishish; kasbga moslashuv (adabtatsiya)(10-11 sinflarda) amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida raqamli ta'lim muhitini tashkil etish o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga oid kompetensiyalarni shakllantirish, kasblar to'g'risida ma'lumot olish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish, integrallashgan ta'lim resurslarini yaratish ta'lim sifatini oshiruvchi omil sifatida tadqiq etishni taqazo qiladi.

Ta'limning qaysi bosqichi va qaysi yo'nalishini o'qitishdan qat'iy nazar, har qanday fanning muhim vazifalaridan biri – ayni shu fan bo'yicha kompetensiyaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Bilimlar tuzilmasining mantiqiy – genetik tahlili asosida bilimlar tizimida quyidagi asosiy elementlarga ajratiladi: ilmiy dalillar, tushunchalar, qonunlar, nazariyalar, nazariy bilimlarning amaliy qo'llanilishi, olamning ilmiy manzarasi. Qayd etilgan bilimlarning tuzilmaviy birliklari barcha tabiiy va ijtimoiy fanlar uchun umumiy hisoblanadi. Bu esa fanlardan elektron qo'llanmalarni ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash kerakligini ko'rsatmoqda. Elektron qo'llanmalar rang – barangligi, ko'rgazmaligi va ko'rsatmaligi, animatsiyalarga, audio – visual vositalarga boyligi bilan o'quvchilarni o'ziga jalb etadi.

Elektron qo'llanmalarni yaratishning dasturiy vositalari: elektron o'quv qo'llanmalarni yaratish vositalarining maqsadi va bajaradigan funksiyalari, texnik ta'minotga bo'lgan talablar, qo'llash xususiyatlarini o'z ichiga olgan kompleks mezonlar bo'yicha guruhlariga ajratish mumkin. Bu mezonlarga mos ravishda elektron qo'llanmalarni yaratish vositalarini quyidagicha sinflarga ajratish mumkin: an'anaviy dasturlash tillari, umumiy maqsadlarga mo'ljallangan instrumental vositalar: gipermatn va gipermedia vositalari.

Texnologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning texnologik kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyani yaratish o'quv faoliyatining quyidagi turlarida qo'llash mumkin: ya'ni nazariy materiallarni o'rganish va bayon etishda, nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda, o'rganilgan o'quv materialini mustahkamlash, nazorat qilish va tekshirishda, o'quvchilarning mustaqil ishlarida, ochiq darslar, telekonferensiyalar, audio konferensiyalar, namunaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda, amaliy mashg'ulotlarda.

Raqamli texnologiyalar muhitida o'quvchilarni texnologik faoliyatga tayyorlashda mustaqil bilim olish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish asosiy vazifalardan biri

hisoblanadi. Texnologiya o'qituvchilarining o'quvchilarga bilim berish jarayonining asosiy vazifalardan bilim berish jarayonining asosiy maqsadi nafaqat bilimlarini o'zlashtirish, balki o'quvchilarning bilim qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy salohiyatini oshirishdan iborat. Ta'limda shaxsiy natijalarga erishish, ta'lim oluvchilarning ta'limga moslashish resurslarini rivojlantirish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini amalga oshirishni har bir o'quvchi uchun alohida jarayoni dasturlari hamda yo'l xaritalarini tuzishni talab etadi.

Raqamli texnologiyani ishlab chiqishga tizimli yondashuvni joriy etish lozim. Ushbu yondashuvning dastlabki bosqichida zamonaviy ta'lim mazmunini mos ravishda ta'lim muassasi raqamli texnologiyani qo'llash uchun shart – sharoit va imtiyozlar yaratib berishi, ya'ni zamonaviy AKT va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash; bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoit yaratish, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma'ruza va amaliy - laboratoriya mashg'ulotlari uchun internet bilan bog'liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish bo'yicha o'quvchilarning malakasini oshirish; real vaqt rejimida interfaol tadqiqot tizimlari, video – konferensaloqa tizimlari, virtual immiton trenajayorlar va 3D printerlardan foydalanish, raqamli didaktika va raqamli ta'lim modellarini qo'llash imkoniyatlarini yaratish lozim. (5)

Shunday qilib, raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarni kompetensiyaviy yondashuv asosida kasb-hunarga yo'naltirish uchun fanning metodik ta'minoti, o'qitish texnologiyalari va innovatsion ta'lim vositalaridan samarali foydalanish, ulardan kasb-hunarga yo'naltirish tizimining har bir bosqichida qo'llash yaxshi natijaga olib keladi. Bu esa o'quvchilarni ongli ravishda to'g'ri kasb-hunar tanlashlari va zamon talabiga mos mutaxassis bo'lib yetishishlariga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojatida 31.12.2020 (№00042)
2. Mamatov D.U. Elektron axborot ta'lim muhitida kasbiy ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish T. – 2017. 150 bet.
3. Turdiyev E.J. Kasb hunarga yo'naltirish. O'quv qo'llanma. Qarshi – 2023-208b
4. Turdiyev E.J. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion ta'lim vositalari Monografiya Qarshi – 2022 y. 114b.
5. Солдатов Г.У. Настин Т.А. Цифровая компетентность подростков и родителей. М: Фонд Развития интернет. 2013 – 144с.
6. Хайитов А. "Raqamli texnologiyalar va ta'lim: yangi yondashuvlar". T.: O'qituvchi, 2019 – 180 b.
7. Isroilov R.T. "Kasbiy ta'limda innovatsion texnologiyalar". T.: Fan va texnologiya, 2021 – 200 b.
8. Raximov B. "Ta'limda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish". T.: Ma'naviyat, 2020 – 160 b.
9. Abdullaeva M. "Kompetensiyaviy yondashuv: nazariy asoslar va amaliyot". T.: Iqtisodiyot, 2022 – 220 b.
10. Karimova S. "Raqamli muhitda ta'lim: qiyinchiliklar va yechimlar". T.: Ta'lim, 2023 – 175 b.
11. Tursunov D. "O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish". T.: Oliy o'quv yurtlari, 2022 – 145 b.

**PSIXOLOGLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH****Norxadjayeva Nafisa**

Osiyo xalqaro universiteti 1-kurs magistranti

[narxodjayeva\\_nafisa@1980gmail.com](mailto:narxodjayeva_nafisa@1980gmail.com)

УДК 370.153(045)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada psixologlarni o'z ustida ishlashi, bilim ko'nikma va malakalarini muntazam oshirib borishi, ularda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish haqida ma'lumotlar keltirilgan. Psixologlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish vositalaridan biri – bu ular faoliyat ko'rsatayotgan va yashayotgan muhit bo'lib, bu psixolog uchun kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni subyektlarining o'zaro ta'sirini amalga oshiruvchi tashqi omillardan biri ekanligi asoslangan. Ta'lim muassasasi psixologlarning faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarish hamda qulay ta'limiy muhitning shakllanishi uchun boshqarishning turli xil zamonaviy usullarini bilishi va ularga asoslanishi, rivojlantiruvchi g'oyalar yo'nalishini aniqlay olishi, ilg'or tajribalarni va fan-texnika yutuqlarini muntazam o'rganib borishi, ularni o'z faoliyatiga tatbiq etib borishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish asosida ularning subyektivligi va faolligini oshira olishi zarurligi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, ta'lim, dars, kommunikatsiya, tarbiya, kompyuter, innovatsiya.

**DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN PSYCHOLOGISTS**

**Abstract.** This article provides information on how psychologists work on themselves, regularly improve their knowledge, skills and qualifications, and develop their professional competence. One of the means of developing professional competence in psychologists is the environment in which they work and live, and it is based on the fact that it is one of the external factors that implement the interaction of the subjects of the process of developing professional competence for psychologists. The educational institution should know and be based on various modern methods of management for the organization and management of psychologists' activities on a scientific basis, for the formation of a comfortable educational environment, be able to determine the direction of developing ideas, regularly share best practices and scientific and technical achievements. It is based on the need to learn, to apply them to their activities, to increase their subjectivity and activity based on the organization of independent activities of teachers in the educational process.

**Keywords:** competence, education, lesson, communication, education, computer, innovation.

**Kirish.** Hozirgi davrda iqtisodiyot hamda madaniyatni tez va uyg'un rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarni va siyosiy ustqurmani takomillashtirish, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va oliy boyligi bo'lmish insonning o'zini yanada kamol toptirish manfaatlari yosh avlodlarga ta'lim-tarbiya berishga, shuningdek, huquqiy madaniyatga yangicha, yana ham keng ko'lamda yondashishni talab qiladi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukammal bo'lishi, iqtisod, fan madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida rivojlanishi hisoblanadi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" uzluksiz ta'lim va kadrlarni tayyorlash tizimlarini tubdan isloh qilishga qaratilgan. "Milliy dasturni" amalga oshirishda mavjud ta'lim va kadrlarni tayyorlash tizimlarini tubdan o'zgartirish zamonaviy ilmiy fikrlar yutuqlari va ijtimoiy tajribalarga, ta'lim jarayonini hamma bosqichlarida, uzluksiz ta'lim tizimi ta'lim muassasalarining hamma shakli va turlarida ilg'or-metodik ta'limlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Hozirgi zamonaviy bosqichda pedagogik dolzarb vazifalarga fan, texnika, ilg'or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash kiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada ko'tarilgan masalani ochib berishda tavsifiy, tasnifiy metod tahlil usullari qo'llanildi.

**Natijalar va muhokama.** Ta'lim tizimini takomillashtirish bo'lajak o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam oshirib

borish yo'lida ham o'ziga xos talablarni belgilab beradi. Bu muhim vazifalarni amalga oshirishda ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali bo'lajak psixologlarda kasbiy kompetentligini rivojlantirish, innovatsion faolligini oshirish hamda innovatsion jarayonlarga qiziqish va ilmiy izlanish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Psixolog va o'quvchi o'zaro munosabatlarda ularning umumiy manfaatlarini ifodalovchi omil maqsad bo'lib, shu maqsadga erishishda barcha o'qituvchilarda tabiatan faollik va layoqat mavjud bo'ladi, agar belgilangan maqsad umumiy manfaatlar uchun xizmat qilmasa va u o'z vaqtida, muvofiqlashtirilmasa, bo'lajak o'qituvchilarda mazkur maqsadga, o'zaro aloqa va munosabatlarning maqsadi, mazmun-mohiyatining o'qituvchilar tomonidan o'ziga xos tushunilishi ularning pedagogik kompetentligi shakllanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Ma'lum bir faoliyatni tashkil etish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon - bu inson oldiga qo'yilgan maqsad bo'lib, unga erishish uchun vazifalari belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash va bajariladigan vazifalarni taqsimlash, belgilangan maqsadga erishish uchun tashkil etiladigan jarayon ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi. O'qituvchilar o'rtasidagi aloqa-axborot almashinuvi, kommunikatsion jarayonlar hamda o'zaro munosabatlarning samimiyligi va natijaviyligi, bir tomondan axborotlarning yangiligi va ishonchlilikiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning ma'lum bir yo'nalishidagi tasavvuri va kompetentligi shakllanganlik va rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq bo'ladi. Ular o'rtasidagi aloqalarning vujudga kelishida, yani axborot almashinuvida, munosabatlarning o'rtasidagi aloqalarning vujudga kelishida, ya'ni axborotlar almashinuvida, munosabatlarning qaysidir (ijobiy yoki salbiy) tarzida shakllanishida maqsad asosiy rol o'ynaydi va o'z navbatida, o'qituvchining kasbiy kompetentligi rivojlanishiga ham ta'sir etadi. O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda o'zaro ta'sir jarayoni mazkur jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi qator omillar orqali ifodalanadi.

O'qitiladigan fandan qat'i nazar, ta'lim muassasasi o'qituvchisi har kuni turli xil pedagogik vaziyatlar bilan shug'ullanishi va doimiy o'zgaruvchan sharoitlarda qaror qabul qilishi, o'zining pedagogik izlanishlari jarayonida topilgan me'yoriy, standart va nostandart harakatlarni uyg'unlashtirishi kerak. Shu bois, "professionallik" tushunchasini "kompetentlik" tushunchasi bilan birlikda ko'rib chiqish zarur.

Kompetensiya muammosi bir qator tadqiqotlarda (K.A.Abulxanova, I.A. Zimnyaya, N.V. Kuzmina, V.A. Slastenin va boshqalar) ko'rib chiqiladi va "Kasbiy kompetensiya" tushunchasi o'qituvchining malakasi va kasbiy mahorati darajasi, kasbiy faoliyatni o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan shaxsning neoplazmasi, uning har bir tarkibiy qismisiz mavjud bo'la olmaydigan yagona integral tuzilma ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

Psixologik kompetentlik (psixologik malakalilik) – bu shaxsning bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarini orqali muayyan vaziyatlarda o'zini tutish va muammolarni hal qilish qobiliyatini ifodalaydi. Ilmiy nuqtayi nazardan, psixologik kompetentlik quyidagi komponentlardan iborat:

1. Bilimlar bazasi: Bu shaxsning psixologik nazariya, prinsiplar va usullar bo'yicha bilimlariga asoslanadi. Bilimlar shaxsning muammolarni tahlil qilish va tushunish qobiliyatini oshiradi.

2. Ko'nikmalar va malakalar: psixologik kompetentlik shaxsning muayyan vaziyatlarda samarali munosabat ko'rsatish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Bunga o'z-o'zini boshqarish, empatiya, muloqot qilish qobiliyati, stressni boshqarish va muammolarni hal qilish kabilar kiradi.

3. Shaxsiy xususiyatlar: bu shaxsning xarakter xususiyatlari va hissiy barqarorligi

bilan bog'liq. Shaxsning o'z-o'ziga ishonchi, hissiy yetukligi va moslashuvchanligi psixologik kompetentlikni oshiradi.

4. Ijtimoiy kompetentlik: Bu shaxsning ijtimoiy vaziyatlarda va muhitda qanday faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq. Odamlar bilan samarali munosabatlar qurish va ijtimoiy o'rnini anglash qobiliyati bu komponentning asosiy qismlaridir.

5. Motivatsiya va qadriyatlar: Bu shaxsning ichki motivatsiyalari va qabul qilingan qadriyatlarining psixologik kompetentlikka ta'sirini o'z ichiga oladi. Motivatsiya shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish va hayotiy maqsadlarni amalga oshirish qobiliyatini ta'minlaydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, psixologik kompetentlik shaxsning kasbiy faoliyatida, shaxsiy hayotida va ijtimoiy munosabatlarda muhim rol o'ynaydi. Psixologik kompetentlikni rivojlantirish uchun o'qituvchilar, psixologlar va boshqa mutaxassislar tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonlari ishlab chiqiladi. "Psixologik-pedagogik kompetensiya" tushunchasini shu nuqtayi nazardan, "kasbiy kompetensiya" ning tarkibiy qismi sifatida ko'rish mumkin.

M.I. Lukyanova psixologik-pedagogik kompetensiyani uchta asosiy blokning o'zaro ta'siri sifatida ko'rish mumkin, deb hisoblaydi: psixologik-pedagogik savodxonlik; psixologik-pedagogik mahorat; o'qituvchining o'zaro munosabatlarni tashkil etishda o'z bilimlaridan foydalanish qobiliyati; kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar, ya'ni mavjudligi pedagogik faoliyat jarayonining o'zidan "o'sadigan"lar va ajralmaydiganlar. [1]

Psixologlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish vositalaridan biri – ular faoliyat ko'rsatayotgan va yashayotgan muhit bo'lib, bu psixolog uchun kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni subyektlarining o'zaro ta'sirini amalga oshiruvchi tashqi omillardan biri hisoblanadi. Ta'lim muassasasi psixologlarning faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarish hamda qulay ta'limiy muhitning shakllanishi uchun boshqarishning turli xil zamonaviy usullarini bilishi va ularga asoslanishi, rivojlantiruvchi g'oyalar yo'nalishini aniqlay olishi, ilg'or tajribalarni va fan-texnika yutuqlarini muntazam o'rganib borishi, ularni o'z faoliyatiga tatbiq etib borishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish asosida ularning subyektivligi va faolligini oshira olishi zarur hisoblanadi. Shu bilan birga, ko'pincha "kompetentliklar" psixolog o'zi o'zlashtirgan ma'lum shaxsiy manba sifatida qaraladi.

S.B. Seryakova, J.Raven [4] konsepsiyasini tahlil qilar ekan, kompetensiyaning psixologik modelini amalga o'shish quyidagi vazifalarni hal etishini qayd etadi:

1. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv shaxsning kasbiy va shaxsiy hayoti o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlaydi, bu shaxsning uyg'unlashuviga yordam beradi;

2. Altruizm, vijdonlilik, xushmuomalalik, chidamlilik bilan ajralib turadigan kasb egasining fuqarolik (ijtimoiy) xulq-atvorining asosiga aylanadi;

3. Strategik ustunlikni ta'minlaydi, chunki bilimlar foydalanish sari ortib boradi;

4. O'qituvchining pozitsiyasini didaktikdan repetitorlikka o'zgartirish, o'qituvchiga quyidagilarga imkon bering: o'quvchilarning qadriyatlariga e'tibor qaratish, ularni o'zgartirishga harakat qilishdan oldin ularning individual qadriyatlarini aniqlash va hurmat qilish qobiliyatiga; turli o'quvchilarda bir xil kompetensiyalarni shakllantirish uchun qo'llanilayotganidan farq qiluvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanish; to'liq huquqli ta'lim faqat talabalarga turli xil qadriyatlar va shunga mos ravishda tanlash erkinligini hisobga olgan holda sezilarli darajada ko'proq imkoniyatlar taqdim etilgan taqdirdagina mumkin; ta'lim ma'nosini axborotdan qiymat-faoliyatga yo'naltirish, o'quvchilarda olingan ma'lumotlar asosida mustaqil harakat qilish uchun zarur bo'lgan motivatsiya va vakolatlarni shakllantirishni ta'minlaydi; kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan ta'lim o'qituvchining rolidagi sezilarli o'zgarishlarga olib keladi, ya'ni

ma'lumotni og'zaki uzatish sifatida o'qitish kompetensiyasini rivojlantirishga rivojlanishni rag'batlantirish sifatida o'qitish konsepsiyasiga o'tish;

5. Ushbu modelning ishlab chiqaruvchi komponenti – uzluksiz ta'limni hayot davomida shaxsiy pozitsiya sifatida rivojlantirish, bilim olish, unga muvofiq harakat qilish zarurati va qobiliyati, ya'ni rivojlanayotgan muhitni yaratish va yashash. [2;321]

Mazkur mavzu bo'yicha yondashish uchun, psixologik kompetentlikni tushunish va uni aniqlashda asosiy nazariy-metodologik yondashuvlarni ko'rib chiqish zarur. Bunda quyidagi bosqichlar tavsifa etiladi:

1. Nazariy-metodologik tahlil. Nazariy yondashuvlar: psixologik kompetentlikni o'rganishda bir qancha nazariy maktablar mavjud. Masalan, kognitiv psixologiya, ijtimoiy psixologiya va emotsional aql (emotional intelligence) kabi yondashuvlar. Bu yondashuvlar kompetentlik tushunchasini turli xil mezonlar asosida yoritadi.

- Kompetentlik tushunchasi. Kompetentlik umumiy qobiliyatlarni, bilim va ko'nikmalarni qamrab oladi. Bu tushuncha bo'yicha kompetentlikning turli shakllari (masalan, kasbiy, ijtimoiy, emotsional) o'ziga xos xususiyatlarga ega.

- Metodologik asoslar. Empirik tadqiqotlarni o'tkazishda foydalaniladigan metodologiyalar – anketalar, eksperimentlar, kuzatishlar va ularning afzalliklari hamda cheklovlari. Shu jumladan, psixologik kompetentlikni o'lchashda qo'llaniladigan metodlarni ko'rib chiqish.

2. Empirik ma'lumotlar tahlili. Tadqiqot dizayni: tadqiqot metodologiyasi, namuna olish usuli, tadqiqot o'tkazish bosqichlari va ma'lumot to'plash jarayoni haqida ma'lumot.

- Ma'lumotlar tahlili. Olingan ma'lumotlarni statistik va matematik metodlar yordamida tahlil qilish, ularni grafikli tasvirlash va natijalarni nazariyaga muvofiq talqin qilish.

- Empirik natijalar. Olib borilgan tadqiqot natijalari kompetentlik tushunchasi va nazariy yondashuvlar bilan qanchalik mos kelishini tahlil qilish. Bu yerda, tadqiqot natijalari bilan amaliyotda kuzatilgan holatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ham ko'rsatish kerak bo'ladi.

Ushbu yo'nalish bo'yicha har bir bosqichni chuqur yoritish, mavzuning asosli va keng qamrovli tahlilini ta'minlash imkonini beradi.

Kompetentlik (yoki kompetensiya) darajasini baholash va o'rganish uchun bir qancha metodikalar qo'llanilishi mumkin. Bu metodikalar individual yoki guruhiy yondashuvlarga asoslangan bo'lishi mumkin va turli kontekstlarda qo'llanilishi mumkin. Quyida ba'zi keng tarqalgan metodikalarni keltirib o'taman:

1. Kuzatish: Xodimlarning yoki talabalarning faoliyatini kuzatib, ularning malaka va bilimlarini real vaziyatlarda qanday qo'llashini baholash mumkin.

2. Testlar va baholash vositalari: Kompetentlik darajasini aniqlash uchun maxsus tayyorlangan testlar, so'rovnomalari yoki baholash varaqalari qo'llaniladi.

3. Intervyular: Suhbat orqali kishi kompetensiyasini, o'z kasbiy faoliyatidagi bilim va ko'nikmalarini qanday qo'llashini aniqlash mumkin.

4. O'z-o'zini baholash: Shaxsning o'zi kompetensiya darajasini baholash uchun maxsus tayyorlangan so'rovnomalarni to'ldiradi. Bu metod, boshqa baholash usullari bilan birgalikda ishlatilganda, yaxshi natijalar beradi.

5. Simulyatsiyalar va Case-Study: Real vaziyatlar yoki simulyatsiyalar orqali xodimlar yoki talabalar bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llashini baholash mumkin.

6. 360-daraja baholash: Bu metod orqali xodim yoki talabani rahbarlari, tengdoshlar va undan quyi pozitsiyadagi xodimlar tomonidan baholanadi. Bu metod yondashuvni har tomonlama qamrab oladi.

7. Portfolio baholash: Bu metod shaxsning turli vazifalar yoki loyihalar bo'yicha



qilgan ishlaridan tashkil topgan hujjatlar to'plamini baholash orqali amalga oshiriladi.

Bu metodikalarni birgalikda yoki turli kontekstlarda qo'llash orqali kompetentlik darajasini aniqlash mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Zamonaviy talablar asosida kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida tashkil etish, ta'lim tizimidagi yangi pedagogik texnologiyalarni joriy va ijobiy tajribalarni ommalashtirish ta'lim sohasidagi eng muhim masalalardan hisoblanadi.

O'zbekistonda psixologiyaning rivojlanishi bilan bog'liq holda, psixolog olimlar tomonidan psixologning kasbiy kompetentligini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borilgan. Bu tadqiqotlar, asosan, psixologning malakasini oshirish, uning bilim va ko'nikmalarini yanada takomillashtirish, shuningdek, psixologik xizmatlarning sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Masalan, Toshkent davlat pedagogika universiteti, O'zbekiston milliy universiteti va boshqa oliy ta'lim muassasalarida bu mavzuga doir ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlar doirasida, psixologlarning kasbiy kompetentligi bo'yicha amaliy tajribalar va nazariy yondashuvlar o'rganilib, ularni rivojlantirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilmoqda.

Bundan tashqari, ushbu mavzuga doir nashrlar, maqolalar va dissertatsiyalar ham mavjud bo'lib, ular psixologik xizmatlarni takomillashtirish, psixologning kasbiy kompetentligini oshirish yo'llarini o'rganishga qaratilgan. Mazkur ilmiy asarlar o'zbek psixologiya fanining yanada rivojlanishiga hissa qo'shmoqda.

Agar sizga ushbu tadqiqotlar yoki ularni amalga oshirgan psixolog olimlar haqida aniqroq ma'lumotlar kerak bo'lsa, men izlab berishim mumkin.

Pedagogik jarayonni amalga oshirishning muhim sharti sifatida o'qituvchining psixologik-pedagogik kompetensiyasini shakllantirish muammosini ilgari surar ekan, shuni ta'kidlash kerakki, har bir o'quvchi ikki fan o'rtasidagi munosabatlarda to'liq sherik sifatida tan olinishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Лукьянова М.И. Развитие психолого-педагогической компетентности учителя. Дисс. ... к.п.н. – М., 1996. – 198 с.
2. Серякова С.Б. Психолого-педагогическая компетентность педагога дополнительного образования. Монография. –М.: МПГУ, 2005. 321 с.
3. Psixolog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining qarori (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2006-yil, 6,7 son, 39-modda, 2011-yil 25 son, 260-modda, 2012-yil 33-34 son, 390-modda.
4. "Oliy ta'lim muassasalari psixolog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining qarori.
5. Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: От идеи к образовательной программой. Психологика. 2003. Но 3.
6. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov's Story "Yanga". International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(6), 196-200.
7. Абулханова К.А. Фаолият ва шахс психологияси. –М.: Наука, 1980.–335 б.
8. Кулневич С.В. Концепциялардан технологияга кадар шахсинг педагогикаси. Дарслик. – Тошкент, 2011. – 106 б.
9. Даўкеева А. Бўлажак ўқитувчининг акмеологик компетентлигини такомиллаштириш учун психологик-педагогик шароитлар. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (SI) II/2020. – Б. 236-239.
10. Махаматова, Ф. (2020). Современные тенденции "учитель-ученик" в системе непрерывного образования: проблемы и решения. Архив научных публикаций JSPI.

## HUQUQIY MADANIYATNING FUNKSIONAL ASOSLARI

Shodiyev Ma'rufjon Mirsalimovich

Navoiy davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi.

[m.shodiyev@mail.ru](mailto:m.shodiyev@mail.ru)

UDK 340.12-053.6

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada huquqiy madaniyat haqida tushuncha, huquqiy ongning muayyan darajasi, huquqiy voqelikni ongli ravishda tushunib, o'zlashtirish, umumiy madaniy asoslar, yuksak madaniylik darajasi, milliy negizlar, manbalar, tarixiy xotira, urf-odatlar, an'analar, aholi tomonidan qonunlarni bilishning tegishli darajasi, huquq normalariga hurmatning yuqori darajasi, huquqiy faoliyat, huquqiy ijodkorlik, huquqni muhofaza etish, boshqaruv, boshqa organlar ishining samarali usullari, fuqarolar va mansabdor shaxslarning qonunga itoatkorligi haqida so'z boradi.

Shuningdek, aholining huquq ongining vujudga kelish jarayonlari, unga ta'sir qiluvchi vositalar, demokratik islohotlar sharoitida mamlakatimizda aholi huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada rivojlantirish borasida bosqichma-bosqich olib borilayotgan bir qator demokratik islohotlar, huquq va majburiyatlarining bir-biri bilan uzviy bog'liqligi, qolaversa, huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllari, ularning vazifalari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Huquqiy madaniyat, umumiy madaniyat, huquqiy me'yor, huquqiy nigilizm huquq, madaniylik, milliy, tarix, xotira, urf-odatlar, an'analar, qonunlar, hurmat

### FUNCTIONAL BASIS OF LEGAL CULTURE

**Annotation:** In this article, the concept of legal culture, a certain level of legal consciousness, conscious understanding and mastering of legal reality, common cultural foundations, high level of culture, national foundations, sources, historical memory, customs, traditions, the appropriate level of knowledge of laws by the population, a high level of respect for legal norms, legal activity, legal creativity, law enforcement, management, effective methods of work of other bodies, and obedience of citizens and officials to the law are discussed.

Also, the processes of creating the legal consciousness of the population, the means affecting it, a number of democratic reforms that are being carried out step by step in order to further develop the legal consciousness and legal culture of the population in the conditions of democratic reforms, the interdependence of rights and obligations, moreover, the forms of legal consciousness and legal culture, their tasks are mentioned.

**Keywords:** Legal culture, general culture, legal norm, legal nihilism, law, culture, national, history, memory, customs, traditions, laws, respect

**Kirish:** Har qanday demokratik davlatning asosiy xususiyati fuqarolik jamiyatini shakllantirish majburiyati, aholining, xususan, yoshlarning huquqiy madaniyatining yuqori darajasidir.

Huquqiy madaniyat umumiy madaniyatning ajralmas qismidir.

Huquqiy madaniyat darajasi, uning rivojlanish ko'rsatkichlaridan biri – jamiyatni modernizatsiya qilishning muhim mezonidir.

Zero, jamiyat axloqi ham shunga bog'liq. Umumiy qabul qilingan tushunchada huquqiy madaniyat – bu qadriyatlar, munosabatlar, umumiy bilim va huquqqa xolis munosabat.

Huquqiy madaniyat, eng avvalo, jamiyat va shaxs umumiy madaniyatining ko'rsatkichidir.

Jamiyatning huquqiy madaniyati huquqiy ongning, huquqiy qonuniylikning, qonunlarni takomillashtirish va huquqiy tajribaning muayyan darajasini aks ettiradigan hamda insoniyat tomonidan huquq sohasida yaratilgan boyliklarni jamlagan ijtimoiy madaniyatning turi sifatida ko'riladi.

Shaxsning huquqiy madaniyati, jamiyat huquqiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faoliyat huquq sohasida jamiyat taraqqiyotiga va uning madaniyatiga mos keladi, natijada shaxsda jamiyatning doimiy huquqiy boyishi sodir bo'ladi.

Huquqiy madaniyat kishilarning huquq to'g'risidagi bilimga, qonunga bo'lgan hurmati, huquqiy me'yorlarni bajarishi, ularga amal qilmaganda huquqbuzarliklar sodir qilinsa, tegishli jazo choralari olishiga aytiladi.

Yangi O'zbekistonda demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jamiyat, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishni taqozo etadi.

Shu sababdan, huquqiy davlatning muhim belgisi – bu huquqiy madaniyatdir [1;70-b].

Huquqiy nigilizm – bunda (lot. “nihil”-“hech narsa”) huquq subyekt(lar)ining amaldagi huquq normalarini mensimasligi, ularga hurmatsizlik munosabatida bo'lishi yoki inkor qilishi tushuniladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodlari.** Huquqiy madaniyatning umumiy ta'rifiga nazar tashlaydigan bo'lsak, huquqiy fanlar doirasida “**huquqiy madaniyat**” tushunchasi ko'pqirrali va murakkab ekanligini ko'rish mumkin.

Bugungi kunga kelib, huquqiy madaniyatning 250ga yaqin ta'rfi shakllantirilgan. Ushbu ta'riflarning ko'pchiligi huquqiy madaniyat, huquqni ro'yobga chiqarish, davlat organlarida xizmat qilayotgan mansabdorlarning faoliyati haqidagi tasavvurlar yig'indisi degan nuqtayi nazarga asoslanadi.

Huquqshunos olimlardan X. Odilqoriyev, Y. Sadikova, A. Saidov, U. Tojixonov, N. Saydalixodjayeva hamda siyosatshunos olimlardan B. Jo'rayev, S. Jo'rayev, L. Tangriyev, Sh. Ermatovlarning ilmiy izlanishlarida, tadqiqotlarida xronologik va tarixiy metodlardan foydalanib xulosalar keltiriladi.

Xorijiy huquqshunos olimlardan Y. Agranovskaya, R. Bayniyazov, N. Voplenko, O. Demko, Y. Dmitriyev, N. Keyzerov, Y. Vishnevskiy, V. Shapko, A. Vishnyak, A. Roslavskiy, Maks Rubner, G. Matveyev va boshqalarning ilmiy ishlarida huquqiy madaniyatni yuksaltirishning jihatlarini o'rganilgan.

Shuning bilan bir qatorda, qo'llanmalar, darsliklar bilan xalqimizning huquqiy ongini takomillashtirishga tinmay hissa qo'shib kelayotgan M. Rajabova, O. Karimova kabi huquqshunoslarning sa'y-harakatlari katta.

Shuningdek, yuristlar A. Rahmonov, X. Azimovlar “Qonun ustuvorligi – huquqiy davlat asosi” nomli risolasida jinoyatga oid siyosatni liberallashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko'rsatilgan.

**Tahlil va natijalar.** Huquqiy madaniyat shaxs kamolotining muayyan sifat pog'onasini bildiradi. U o'z doirasiga g'oyaviy saviya (bilim va tafakkur madaniyati, ijtimoiy tajribani tahlil etish va umumlashtirish, yangi ijtimoiy hodisalarni avvalgi to'plangan bilimlar asosida ijodiy anglash qobiliyati), hissiy-ruhiy daraja (bilimlarning haqiqiylikiga bo'lgan ishonch) hamda faol xulq-atvor darajasini qamrab oladi.

Huquqiy bilim, huquqiy madaniyat ildizlari muqaddas dinimiz, buyuk donishmandlar, mutafakkirlar asarlarida mavjud.

Ikkinchi tomondan dunyodagi mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda yaratilgan qonunlarimiz. Bular – bizning ma'naviy boyligimiz.

Fikrimizcha, sohaga oid mavjud boy ma'naviy merosimiz va dunyoviy, huquqiy qonunlar o'rtasidagi bog'lanishni mustahkamlash o'ta zarurdir.

Shubhasiz, har qanday harakat hujjatlarning negizi, tamaltoshi bo'ladi. Bu muvaffaqiyatlar kaliti bo'lib xizmat qiladi.

Huquqiy madaniyat deganda, har bir davlatning qonun asoslari, huquqiy me'yorlarining mavjudligi, fuqarolarning mavjud qonunlarni bilishi va o'z faoliyatida ularga rioya etishi – huquqiy va demokratik davlat barpo etishning muhim sharti haqida fuqarolik jamiyatida kishilarning yetuk ma'naviyati, ularning huquqiy burch va mas'uliyatlari tushuniladi.

Huquq – davlat tomonidan belgilangan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalari yig'indisi.

Huquqiy ong deganda, jamiyatda kishilarning huquq to'g'risidagi qarashlari tushuniladi.

Obyektiv huquq – umummajburiy xulq-atvor qoidalarining yig'indisi.

Subyektiv huquq – muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsga tegishli bo'lgan qoida.

Axloq – kishining jamiyatdagi xulqini normativ tartibga soluvchi usullardan biri.

Huquqiy odat – doimiy takrorlanish natijasida barqaror xulq-atvor normasiga aylangan va keyinchalik davlat tomonidan tasdiqlangan xulq-atvor qoidasidir.

Huquqiy madaniyat murakkab, serqirra hodisa bo'lib, u birinchi navbatda:

- huquqiy ongning muayyan darajasi, ya'ni huquqiy voqelikni ongli ravishda tushunib, o'zlashtirishni;

- umumiy madaniy asoslari, yuksak madaniylik darajasi, milliy negizlar va manbalar, tarixiy xotira, urf-odatlar va an'analarni;

- aholi tomonidan qonunlarni bilishning tegishli darajasi, huquq normalariga hurmatning yuqori darajasini, ular nufuzini;

- huquqiy faoliyat, huquqiy ijodkorlik, huquqni muhofaza etish, boshqaruv va boshqa organlar ishining samarali usullarini;

- fuqarolar va mansabdor shaxslarning qonunga itoatkorligini talab etadi.

Har bir fuqaro shaxsiga nisbatan olganda, huquqiy madaniyat – bu huquqni bilish va tushunish, uning ko'rsatmalarini ongli ravishda bajarishdir[2;85-b].

Huquqiy madaniyat milliy va umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida o'ziga nisbatan g'amxo'rlarcha munosabatga, o'zining mintaqaviy va dunyo miqyosidagi, sinfiy, umumijtimoiy, milliy, umuminsoniy – barcha tarkibiy qism va bo'laklarini asrashga, ularni ko'paytirib borilishiga muhtojdir.

Bu o'rinda yana faoliyatning muayyan turi sifatida huquqiy madaniyatning kontseptual mazmunini ochib beruvchi alohida jihatni ham ajratib ko'rsatish lozim bo'ladi.

Agar huquqiy madaniyatning serqirra jihatlarini ochib berishda tadqiqotchilar nazariy yondashuvlarini uyg'unlashtiruvchi omilni ko'rsatish zarurati tug'ilguday bo'lsa, bu, hech shubhasiz, uning o'zagi muayyan bilimlarning shunchaki yig'indisi bo'lmay, balki irodaviy va g'oyaviy ko'rsatmalar, fuqarolik faoliyati ko'nikmalari, xulq-atvorning barqaror andozalari ekanligini ta'kidlash lozim bo'ladi.

Huquqiy madaniyat shaxs kamolotining muayyan sifat pog'onasini bildiradi.

U o'z doirasiga g'oyaviy saviya (bilim va tafakkur madaniyati, ijtimoiy tajribani tahlil etish va umumlashtirish, yangi ijtimoiy hodisalarni avvalgi to'plangan bilimlar asosida ijodiy anglash qobiliyati), hissiy-ruhiy daraja (bilimlarning haqiqiylikiga bo'lgan ishonch) hamda faol xulq-atvor darajasini qamrab oladi.

O'rganish jarayonida ma'muriy huquq asoslarini, mehnat huquqi asoslarini, oila huquqi asoslarini, jinoyat huquqi asoslari kabi huquq sohalarini o'rganish asosiy maqsad qilingan[3;79-b].

Davlat va huquq nazariyasi fani predmeti va vazifalari.

Davlatning ta'riflari. Davlat mohiyatiga bog'liq nazariyalar. Davlatning kelib chiqishida mulk va tabaqalashuvning roli. Davlatning kelib chiqishi to'g'risida: ilohiy, patriarxal, shartnoma, irrigatsiya, sinfiy, islom nazariyalari. Davlatning asosiy belgilari. Davlat funksiyalari tushunchasi. Ichki funksiyalari: regulativ va qo'riqlash funksiyalari. Tashqi funksiyalari. Davlat shakli tushunchasi. Boshqaruv shakllari: monarxiya va respublika. Davlat tuzulishi: unitar davlat, federativ davlat, konfederatsiya, siyosiy

rejimlar. Antidemokratik rejim belgilari.

Huquqning asosiy belgilari. Huquq kelib chiqishiga doir nazariyalar. Huquq funksiyalari. Huquq me'yor (norma)lari tushunchasi, belgilari va tuzilishi. Huquq institutlari. Huquq tizimi va tarkibi. Ommaviy va xususiy huquq. Xalqaro huquq. Huquq tarmog'i tushunchasi va belgilari. O'zbekiston huquq tizimi. Huquq manbalari tushunchasi va turlari. Normativ huquqiy hujjatlar tushunchasi va turlari.

Huquqiy munosabatlar ta'rifi. Huquqiy munosabatlar omillari. Huquq subyektlari va obyektlari. Yuridik faktlar. Qonuniylik va huquqiy tartibot. Huquqbuzarlik ta'rifi va belgilari. Huquqbuzarlik turlari. Yuridik javobgarlik va uning turlari[4;11-b].

Ma'muriy huquq asoslari, ma'muriy huquq predmeti. Ma'muriy huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlar turlari. Ma'muriy majburlov tushunchasi, uning maqsadi. Ma'muriy majburlov choralari. Ma'muriy oldini olish choralari. Ma'muriy cheklov choralari turlari. Ma'muriy tiklovchi choralari. Ma'muriy javobgarlik sub'ektlari. Ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi. Ma'muriy javobgarlikning asosiy xususiyatlari. Ma'muriy jazo va uning turlari. Ma'muriy jazoni qo'llovchi davlat organlari.

Xalqaro huquq asoslari, xalqaro huquqning tushunchasi. Xalqaro huquq rivojlanish tarixi. Xalqaro huquq tarmoqlari. Xalqaro huquq manbalari. BMT Xalqaro sudi statuti 38-moddasiga ko'ra manbalar: a) xalqaro konvensiyalar; b) xalqaro odatlar; v) umumiy prinsiplar; g) sud qarorlari; d) olimlar doktrinalari. Asosiy va qo'shimcha (qattiq va yumshoq) manbalar. Xalqaro huquq tamoyillari tushunchasi. BMT ustavidagi tamoyillar (5 tamoyil). Xalqaro huquq tamoyillari to'g'risida Deklaratsiya tamoyillari:

- 1) kuch ishlatmaslik;
- 2) nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;
- 3) davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- 4) hamkorlik;
- 5) suveren tenglik;
- 6) o'z taqdirini o'zi belgilash;
- 7) xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish.

Xalqaro huquqiy javobgarlik tushunchasi. Subyektlar: davlatlar va davlat nomidan ish ko'radigan mansabdor shaxslar. Xalqaro siyosiy javobgarlik. Repressaliya. Retorsiya. Moddiy javobgarlik. Restitutsiya va reparatsiya kabi huquq sohalarini o'rganish asosiy maqsad qilingan.

Bu sa'y-harakatlar o'sib kelayotgan yosh avlodning mamlakatimiz qonunchiligi haqidagi bilimi va huquqiy madaniyatini oshirish, ularni Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquq va majburiyatlarini anglagan jamiyatning faol a'zolari sifatida tarbiyalashga xizmat qilishi shubhasiz.

Huquqiy madaniyatning tuzilishini, mohiyatini o'rganish uchun uning adolatli fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat qurishda tutgan o'rni va vazifasini aniqlab olish kerak.

Bunda uning elementlarini sanab o'tish va umumiy tavsifi bilan cheklanib qolmasdan, ushbu elementlarning o'zaro munosabatlarini, ularning yaxlitligini, uzviy birligini ko'rsatish lozim.

Ular orasidan asosiy elementlar va ikkinchi darajali elementlarni ajratib ko'rsatish talab qilinadi.[5;4-b]

Huquqiy voqelikning turli jihatlarini huquqiy madaniyatning tarkibiy qismlari hisoblanadi:

**birinchidan**, yuridik normalar tizimi bo'lmish huquq;

**ikkinchidan**, huquqiy munosabatlar, ya'ni qonun bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar tizimi;

**uchinchidan**, huquqni muhofaza qilish va ta'minlash faoliyati bilan shuullanuvchi davlat va jamiyat institutlari tizimi bo'lmish yuridik muassasalar;

**to'rtinchidan**, huquqiy ong, ya'ni huquqiy voqelikni ma'naviy jihatdan aks ettiruvchi tizim;

**beshinchidan**, huquqiy xatti-harakat (ham qonuniy, ham qonunga xilof).

Ko'rib turganimizdek, jamiyatning huquqiy madaniyatini tashkil etuvchi elementlar bir vaqtning o'zida boshqa xil tuzilmalarga ham kiradi.

Bundan tashqari, huquqiy madaniyat elementlari bir necha tizimlarning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Huquqiy madaniyatning tuzilishini tahlil etganda, asosiy e'tiborni uning tabiatiga qaratish kerak. Agar kishilik faoliyati shakllarining huquqiy madaniyatda tutgan o'rnini aniqlashga harakat qilinsa, avvalambor, ikkita sohani nazarda tutish kerak:

**birinchidan**, bevosita huquqiy sohadagi faoliyat;

**ikkinchidan**, huquqiy bo'lmagan, lekin huquq amal qiladigan soha bilan bogliq bo'lgan faoliyat.

**Birinchisini** tushunishda oyatda an'anaviy bo'lmagan yo'nalishlar namoyon bo'lsa-da, alohida qiyinchiliklar uchramaydi.

**Ikkinchisining** mazmunini ishlov berish, ya'ni badiiy shaklda bo'lgan huquqiy oyalarni, qarashlarni, baholarni, hissiyotlarni va hokazolarni aks ettiradigan qandaydir asarlar tashkil etadi.

Bu faoliyat bevosita huquqiy madaniyatga kirmaydi, lekin o'z g'oyaviy mazmuni jihatidan unga singib ketadi. Shunday qilib, radio, televideniye, adabiyot, tasviriy san'at, kino, jurnalistika o'zicha huquqiy madaniyatga kirmaydi, lekin doimiy ravishda uni to'ldirib boradi[6;87-88b].

Huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda.

Huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan yana biri – qonun ustuvorligini ta'minlash va yuksak darajadagi huquqiy ong va madaniyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash mazkur islohotlarning debochasini tashkil etadi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, mamlakatimiz aholisi va yoshlari ongida qonunlarga hurmat ruhini singdirish masalalari juda muhim.

Inson o'zini huquqiy jihatdan yetuk, bilimli deb hisoblashi uchun birinchi navbatda unda jamiyatda o'rnatilgan huquq normalariga nisbatan hurmat ruhi shakllangan bo'lishi lozim.

O'tgan yillar mobaynida o'tkazilayotgan islohotlarning qonuniy zamiri yaratildi. Ijtimoiy-siyosiy hayotning huquqiy asoslari izchillik bilan mustahkamlanadi.

Vatanimizning rivojlanishi va islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan xalqning huquqiy ongi hamda madaniyati darajasiga bog'liq. Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasidir.

Inson huquqlari va uni himoya qilish masalalarini hal qilishda davlatlar huquqiy me'yorlarga amal qilishi, ularda ishlab chiqilayotgan yuridik hujjatlarning samarali va adolatli bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, huquqiy targ'ibot – jamiyat va davlatning huquqiy siyosatini, strategik maqsadini fuqarolarga, ommaga yetkazishga qaratiladigan ma'rifiy va targ'ib usullaridir. Huquqiy madaniyatning shakllanishi huquqiy targ'ibotning ta'sirchanligi va xalqqa tushunarli ekanligiga ham bog'liq.

**Xulosa.** Bu sa'y-harakatlar o'sib kelayotgan yosh avlodning mamlakatimiz qonunchiligi haqidagi bilimi va huquqiy madaniyatini oshirish, ularni Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquq va majburiyatlarini anglagan jamiyatning faol a'zolari

sifatida tarbiyalashga xizmat qilishi shubhasiz.

Ko'zda tutilgan maqsadli ishlarni amalda ijro etilishi uchun har birimiz mas'ul ekanligimizni his qilishimiz, shundagina fuqarolar o'rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyat yuksalib boradi va qonunlari ustuvor bo'lgan davlatgina rivojlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Islomov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. – T., 2004. – B.70.
2. Mamatov X. Huquqiy madaniyat va O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanish muammolari. – T., 2009. – B. 85.
3. Odilqoriyev X.T., Tulteyev I.T. Ikki palatali parlament. – T., 2005. – B.79.
4. Odilqoriyev X.X. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimi. – T.,2008. – B.11.
5. Tadjixanov B.U. Huquqiy siyosat va huquqiy tizimni modernizatsiyalash. – T.,2007. – B.4.
6. Fayziyev M.M., Odilqoriyev X.T., Rahimov F. va b. O'zbekiston milliy davlatchilik nazariyasining huquqiy asoslari. – T., 2006;
7. Javliyev N.B. Hozirgi zamon huquqni tushunish muammolari. – T., 2008. – B. 87–88.
8. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T., 1993. – B. 122.
9. Milliy istiqloq oyasi: asosiy tushuncha va tomoyillar. – T., 2000. – B.43.
10. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. – T., 1998. – B. 78.
11. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T., 2000. – B.5–6.

# **QarDU XABARLARI**

**Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal**

**Qarshi davlat universiteti kichik bosmaxonasida chop etildi.**

*Manzil: 180003, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17.*

**Indeks: 4071**

Terishga 2024-yil 25.09.da berildi.

Bosishga 2024-yil 30.09. da ruxsat etildi.

2024-yil 02.10.da bosildi.

Ofset qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84, 1/8.

Times New Roman garniturasida. Nashriyot hisob tabog'i 22,35.

Buyurtma raqami: № 35.

Adadi 50 nusxa. Erkin narxda.